

33 (593) 2732

R-30

ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Y. RAXMANOVA, R.ABDRIMOV

**O`ZBEKISTON
TARIXI**
(MA'RUZA MATNLARI)

Urganch - 2007

63.3(598) 273-2
R-80.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Y. RAXMANOVA, R.ABDRIMOV

O'ZBEKISTON TARIXI

(MA'RUZA MATNLARI)



Urganch - 2007

Ushbu ma'ruzalar matni O'zbekiston tarixi fanidan bakalavr yo'nalishi uchun 2004-yil tasdiqlangan namunaviy dastur asosida (2000 yilda nashr qilingan O'zbekiston tarixidan ma'ruzalar matni asosida to'ldirilgan holatda) tuzildi.

Taqrizchilar: tarix fanlari doktori, professor M.Mahmudov
Tarix fanlari nomzodi A.Abdurasulov.
Tarix fanlari nomzodi G.Masharipova

Ma'ruzalar matni Urganch davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2004-yil, 30 - dekabr 1-sonli bayonnomasi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T., «O'zbekiston», 1997.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., «O'zbekiston», 1998.
3. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. «Turkiston» gazetasi muxbiri savollariga javoblari, «Turkiston», 22- yanvar, 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda, Toshkent, «O'zbekiston», 1999.
5. Karimov I.A. O'tmishsiz kelajak, hamkorleksiz taraqqiyot bo'lmaydi. YUNESKO ijroiya kengashida so'zlagan nutqi, «Xalq so'zi» gazetasi, 1996- yil 25-aprel.
6. Karimov I.A. BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruza, 1993- yil, 28-sentabr, Asarlar, 2-jild. T., «O'zbekiston», 47-48-betlar.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
8. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir, Toshkent, «O'zbekiston», 1996.
9. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari, Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
10. Karimov I.A. Savdo uyidan Ipak yo'lini tiklash sari. Asarlar, 2-jild. Toshkent, «O'zbekiston», 1996, 366-368-betlar.
11. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar, 4-jild, Toshkent, O'zbekiston, 1996.
12. Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z. Toshkent, O'zbekiston, 1996.
13. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, O'zbekiston, 1994.
14. Karimov I. A. Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali maraamlardagi tabrik so'zi. «Xalq so'zi», 1997. 11-oktabr.
15. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisodiy siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston», 1996.
16. Karimov I.A. «Turkiston» gazetasi muxbiri uchun savollariga javobi, «Turkiston», 1 fevral, 1999.
17. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va

taraqqiyot kafolatlari, T., «O'zbekiston», 1997.
18. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi, Toshkent, «O'zbekiston», 1999.
19. Karimov I.A. Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar, Asarlar, 1- jild, 3-30- betlar, yangi tarixi, 1-kitob, Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, Toshkent, «Sharq», 2000.
20. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy O'zibolining asosiy tamoyillari, Toshkent, «O'zbekiston», 1995.

21. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman, «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblari, «Fidokor», 8- iyun, 2000.

22. Karimov I.A. Oliy Majlis II chaqiriq I sessiyasi 2- yig'ilishida so'zlagan nutqi, «O'zbekiston ovozi», 12-fevral, 2000.

23. Karimov I.A. Sog'lom avlod tarbiyasi-barchamizning muqaddas insoniy burchimiz, «Tafakkur», 2-son, 2000.

24. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir, Toshkent, «O'zbekiston», 2005.

25. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi, T., «O'zbekiston», 2005.

26. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida, T., «O'zbekiston», 2005

27. O'zbekiston tarixi. Sagdullayev A., Eshov B.tahriri ostida, Toshkent, Universitet, 1997, 2-nashri, 1999.

28. Usmonov Q, Sodiqov M, Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi, 1-qism. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 2002.

29. Murtazayeva P. O'zbekiston tarixi, Yangi asr avlodi, Toshkent, 2003.

30. Hidoyatov, G.A. Mening jonajon tarixim, Toshkent, «O'qituvchi», 1992.

31. Jo'rayev N., Fayzullayev T., Mustaqil O'zbekiston tarixi. 3-kitob, T., "Sharq", 2000.

32. O'zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida), Toshkent, «O'qituvchi», 1994.

33. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob, Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, Toshkent, «Sharq», 2000.

34. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob, O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida, Toshkent. «Sharq», 2000.

35. Jo'rayev N, Fayzullaev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi, 3-kitob, T., "Sharq", 2000.

36. Rajabova E. va b. O'zbekiston tarixi (1917-1993), y.,
77, «O'qituvchi», 1994.
37. Jo'rayev N. va boshqalar... O'zbekiston tarixi, T.,
1998.
38. Arxeologlar hikoya qiladi. To'plam, Toshkent, 1974.
39. Abulg'oziy. Shajarai turk, Toshkent, «Cho'lpon», 1992.
40. Ahmedov B. Amir Temurni rivoyat o'ya haqiqat,
Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1996.
41. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib, Toshkent,
«O'zbekiston», 1996.
42. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at,
Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti, 1996.
43. A'zamxo jayev S. Turkiston Muxtoriyati
(Mustaqilligimiz tarixidan sahifalar), T., «Fan», 1996.
44. Ahmedov E., Saydaminova B. O'zbekiston
Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma, Toshkent, «O'zbekiston»,
1995.
45. Avtorxonov A. Krenil saltanati, T., «Yozuvchi»,
1993.
46. Bobobekov X.N. Qo'qon tarixi, Toshkent, «Fan», 1996.
47. Baqtriya-Toxariston qadimda va o'rta asrlarda.
To'plam, Samarqand, 1993.
48. Buyuk siymolar, allomalar (1-2 kitob), Toshkent,
«Meros», 1995, 1996.
49. Vatan tuyg'usi. Toshkent, «O'zbekiston», 1996.
50. Jabborov I. O'zbek xalqining etnografiyasi. Toshkent,
«O'zbekiston», 1994.
51. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va
taraqqiyot uchun kurash. To'plam, Toshkent, «Universitet»,
1999.
52. Jo'rayev N., Fayzulliyev T., Usmonov Q. O'zbekiston
tarixi, Toshkent, «Sharq», 1993.
53. Jo'rayev N. Prezident Vatan va millat timsofi,
«Muloqot», 1-son, 2000- yil.
54. Ziyoyev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va
hukmronligiga qarshi kurashi, Toshkent, «Sharq», 1998.
55. Ibrohimov A. Biz kim o'zbeklar... Toshkent, «Sharq»,
1999.
56. Ipak yo'li afsonalari. Toshkent, «Fan», 1993.
57. Ibn Arab kot. Amir Temur tarixi I-II j. Toshkent,
«Mehnat», 1992.
58. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda, Ching'izxon va Amir

- Temur, Toshkent, 1994.
59. Ibrat I. Farg'ona tarixi. Toshkent, «Kamalak», 1991.
 60. Ibodinov A. Qo'rboshi Madaminbek (T). «Yozuvchi», 1993- y.
 61. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi, Toshkent, 1990.
 62. Karimov Sh. Qafasdagi qush orzusi. Toshkent, 1992.
 63. Mahmudov M. Qatag'on qurbonlari, Toshkent, «O'zbekiston», 1992.
 64. Mustaqillik to'g'risida deklaratsiya. «Sovet O'zbekistoni», 23-iyun, 1990.
 65. Mustafo Cho'qay o'g'li. Istiqlol jallodlari, Toshkent, 1992.
 66. Muhammad Aziz Marg'iloniy. Tarixi Aziziy, Toshkent, «Manaviyat», 1999.
 67. Majidiy X. Turkiston bosqini, Toshkent, «Nur», 1992.
 68. Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it hukmdorlari tarixi, M., 1962.
 69. Mulla Olim Mahdumxo'ja. Tarixi Turkiston. Toshkent, 1995.
 70. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rnini va roli, Toshkent, «Fan», 1993.
 71. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro, Toshkent, 1991.
 72. Nizomulmulki Siyosatnoma. Toshkent, «Adolat», 1997.
 73. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma, Toshkent. «O'zbekiston» 1996.
 74. Norjigitova N. Bosmachilik harakati va uning sovet tuzumi davridagi tarixiy adabiyotlarda yoritilishi, T., 1996.
 75. Pidayev Sh. R. Sirli kushonlar saltanati, Toshkent, 1990.
 76. Sodiqov M. Erksevar, hurriyatparvar el vorislarimiz, Toshkent, «Kamalak», 1992, 20-30-b.
 77. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda, Toshkent, 1996.
 78. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab, Toshkent, 1964.
 79. Temur tuzuklari. Toshkent, G'afur G'ulom nomli nashriyot, 1991.
 80. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan, Toshkent, «Fan», 1996.
 81. Usmon Turonli. Turkiy xalqlar mafkurasi, Toshkent, «Cho'lpon», 1995.
 82. Fozilbek Otabek o'g'li. Dukkhi eshon fojiasi, O'zbekiston, 23-iyun, 1990.
 65. Mustafo Cho'qay o'g'li. Istiqlol jallodlari, Toshkent, 1992.

Toshkent, «Cho'lpon», 1992.

83. Fayzulla Xo'jayev. Buxoro inqilobi tarixiga materiallar, T., «Fan», 1997-y.

84. Xo'jamberdiyev Y.O'zbeklar isli, T., «Yozuvchi», 1990

85. Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi, Toshkent, 1990.

86. Chet el investitsiyalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni, «Xalq so'zi». 20-may, 1998.

87. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma, Toshkent, «Kamalak», 1994.

88. Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy, Toshkent, «Kamalak», 1991.

89. O'zbekim.«Vatan» seriyasi, Toshkent, 1992. 142-180-b.

90. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent, «O'zbekiston», 1992.

91. O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya, T., «O'zbekiston», 1997.

92. Qosimov B. Ismoilbek Gasprali, Toshkent, 1992.

93. Gulomov Y. G. Xorazmning sug'orilish tarixi, Toshkent, 1959.

94. Gulomov H., Tatiboyev A. O'rta Osiyo va jahon tarixi, T., «Universitet», 1994.

95. Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi, Toshkent, «Cho'lpon», 1994.

1- mavzu. O'ZBEKISTON TARIXI FANI PREDMETI, NAZARIY –USLUBIY ASOSLARI VA UNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

REJA

- 1.O'zbekiston tarixi fani predmeti va obykti. Manbalar.
- 2.O'zbekiston tarixini yoritishning nazariy metodologik asoslari.
- 3.Komil insonni tarbiyalashda tarixning roli.

Adabiyotlar

6,28,32,33,93

1.1. O'zbekiston tarixi fani predmeti va obykti. Manbalar.

Tarix «istoriya» degan grekcha soʻzning arabcha aytilishi boʻlib, oʻzbek tiliga ham shunday qabul qilingan. U «tekshirish» va «voqealar haqida hikoya qilish» degan maʼnolarni bildiradi. Tarixni oʻrganishdan asosiy maqsad turli xalqlar qanday yashaganligini, ular hayotida qanday voqealar sodir boʻlganligini, odamlar hayoti qanday va nima uchun oʻzgarib, hozirgiday boʻlib qolganini bilishdir. Jadid taraqqiyparvarlaridan Abdurauf Fitrat shunday yozgan edi: "Tarix millatlarning oʻtmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini oʻrganadurgʻon ilmdir". Tarix fani kishilik jamiyati bosib oʻtgan tarixiy yoʻlni qonuniyatli bir jarayon tarzida atroflicha oʻrganuvchi fan sifatida ijtimoiy fanlar (adabiyot, huquqshunoslik, falsafa, iqtisodiyot va boshqalar) tizimida muhim oʻrin tutadi.

Oʻzbekiston tarixi fani uning oʻtmishdagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan hozirgacha kechgan voqeliklar, insoniyat hayoti, tabiat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi fan. Uning oʻrganish predmetiga esa mana shu makondagi jamiki xilma-xil voqea va hodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik yaxlit birlik hamda qonuniyatlar va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi.

Oʻzbekiston tarixi fanining oʻrganish makoni- obykti Oʻzbekistonning tarixidir.

Oʻzbekiston tarixi fani uchun tarixiy manbalarning oʻrni va ahamiyati katta. Shu sababli, ular milliy va xalqning maʼnaviy – madaniy merosi, bebaho boyligi hisoblanib, maxsus hujjatxona (arxiv)larda, kutubxona va muzeylarda hamda oilaviy arxivlarda

saqlanadi.

Manbalar o'z holatiga ko'ra yozma va moddiy ko'rinishlarga ega bo'ladi. Yozma manbalar eng qadimgi yozuvlar, bitiklar va kitoblardan iboratdir.

Vatanimiz tarixi haqida ma'lumot beruvchi eng qadimiy qimmatli manba «Avesto»dir. Bu nodir asar miloddan oldingi VII – VIII asrlardagi hayotni o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Tariximizga oid bo'lgan ma'lumotlar yunon va rim manbalarida, chunonchi, Gerodotning «Tarix» (M., 1972), Arrianning «Iskandarning harbiy yurishlari» (M-L., 1962), Strabonning «Geografiya» (M., 1964), Kursiy Rufning «Buyuk Aleksandr tarixi» (M., 1963) va boshqalarning asarlarida ham uchraydi.

Xitoy yozma manbalaridan «Tarixiy guvohliklar» (miloddan avvalgi I asr), «Ulug' Xan xonadoni tarixi» (milodiy I asr), «Vey xonadoni tarixi» (milodiy VI asr), «Shimoliy podshohliklar» (Beyshi) tarixi (milodiy VII asr) va boshqalarda Turkiston tarixi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, arman, vizantiyalik mualliflarning asarlarida ham vatanimiz tarixi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Vatanimizning tarixini o'rganishda turkiy, fors, arab manbalarining ham ahamiyati katta.

O'zbek xalqining o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotini o'rganishda Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shabari» (T., 1993), Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» (T., 1968), Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (T., 1960), Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk», (uch jildlik, T., 1960-1963), Narshaxiyning «Buxoro tarixi» (T. 1991), Nizomulmulukning «Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk» (T., 1997), Amir Temurning «Temur tuzuklari» (T., 1991), Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» (T. 1994) va boshqa nodir kitoblar muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tariximizning eng qadimgi, ya'ni yozuvsiz zamonlarga oid davrini o'rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalar yordamga keladi. Bu manbalar turli-tuman bo'lib, ularga qadimgi manzilgohlar va shaharlar xarobalari, mozor-qo'rg'onlarning qoldiqlari, turmushda va xo'jalikda ishlatiladigan buyumlar mehnat va jang qurollari, turli – tuman ashyolar kiradi. Moddiy va yozma manba ma'lumotlarini solishtirib, qiyoslab, tarixiy talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2 O'zbekiston tarixini yoritishning nazariy metodologik ahamiyati.

Tarix voqealarini o'rganishda nazariy metodologik asoslarni bilish katta ahamiyatga ega. Ilmiylik, xolislik, tarixiylik metodlari tarixni yoritishning asosiy kaliti hisoblanadi.

Xolislik metodi orqali tahlil qilinayotgan har bir tarixiy voqea-hodisalar xolis, haqqoniy ravishda o'rganiladi yoki tarixnavisning xohish-irodasidan tashqari voqea-hodisalar qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundayligicha yoritish ko'zda tutiladi.

O'zbekiston tarixini o'rganishda tarixiylik uslubi muhim o'rin tutadi. Bu uslub tarix jarayonida sodir bo'ladigan voqea-hodisalarni o'rganishda ketma-ketlikni talab qiladi. Tarixiylik voqea-hodisalarning qay tarzda sodir bo'lganligini, jamiyat rivojlanishida ayrim shaxslar va ularning roli to'g'risida haqqoniy fikr yuritishga o'rgatadi. Tarixiylik uslubi xalqning o'tmishini yagona tabiiy-tarixiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamoni tayyorlaydi, hozirgi zamon esa kelajakni yaratadi, deb qaraydi.

Tarixiy voqea va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, qayerda qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqea bo'lganligi va bo'lib o'tgan voqealarning aniq sabab va oqibatlarini aniqlash O'zbekiston tarixi fanining muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston tarixini o'rganishning uslubiy asoslaridan yana biri – bu voqea va hodisalarni dialektik tarzda o'rganishdir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi.

Dialektik metodologiya har qanday mamlakat tarixini, shu jumladan, O'zbekiston tarixini, o'zbek xalqi tarixini jahon xalqlari bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Chunki har bir xalq o'z tarixida milliylik, o'ziga xos xususiyatlar bilan birga, jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiy bog'lanishdadir.

Insoniyat ana shunday umumiy yo'ldan borayotgan ekan, istiqbolda porloq hayot, farovon turmush qurmoqchi bo'lgan avlod tarix fani orqali o'tmishini yaxshi bilmog'i lozim. Xerman Vamberi ta'biri bilan aytganda, «O'tmishini bilmagan xalqning kelajagi zulmat pardasi ostidadir».

O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamoni shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz.

Tarixni o'rganishda yuqorida qayd etilgan metodologik

tamoyillar bilan bir qatorda, faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, falsafiy tafakkur, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham foydalanish zarur.

Mamlakatimiz tarixini o'rganishda, uni to'g'ri davrlashtirishning ahamiyati kattadir. Bugungi kunda olimlarimiz tomonidan O'zbekiston tarixining taraqqiyot bosqichlari yirik davrlarga bo'lingan:

1. Ibtidoiy jamiyat. Qadimgi davr.
2. O'rta asrlar davri.
3. Chor Rossiyasi mustamlakachilik davri.
4. Sovetlar istibdodi davri.
5. Milliy istiqlol davri.

I.3. Kamil insonni tarbiyalashda tarixning roli

O'zbekiston tarixi umunjahon insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi va keng xalq ommasini, ayniqsa, yosh avlodni o'z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, ulug' ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzini va e'tiqodini o'rganishda bu fanning roli benihoya katta. Boshqacha qilib aytganda, biz birinchi navbatda, kimligimizni, xalqimizning «o'q tomiri» qayerdaligini, uning shakllanish jarayoni qanday kechganligini bilishimiz zarur. Lekin, tariximizni yaxshi bilmay turib, bunga erishib bo'lmaydi.

Ma'lumki, sho'rolar tuzumi hukmron bo'lgan yillarda tarix kitoblari bir tomonlama, millatimiz hamda ruhimizga yot bo'lgan marksizm-leninizm deb ataluvchi g'oya ta'sirida yozildi. Yuz bergan voqea va hodisalar bir yoqlama yoritildi. Buyuk olimlarimiz, ma'rifatparvar bobolalarimizning peshonasiga «dinparast», «bid'atchi» degan tang'alar bosildi; qadriyatlarimiz, boy va bemiyl ma'naviyatimiz yerga urildi; bebaho kitoblarimiz diniy yoki xonlar, podsholar saroyida yozilgan kitoblar deb qoralandi; ulug' o'tmishimiz haqida ozmi-ko'pmi fikr yuritmoqchi bo'lganlar e'tiborda bo'lmadi, ular bilan hech kim hisoblashmadi.

Istiqlol sharofati bilan haqiqiy tariximizni o'rganish va yozish imkoniyatiga ega bo'ldik. Quvonchlisi shu bo'ldiki, hukumatimiz mamlakatimizning xolis va mukammal tarixini yaratish yo'lida tarixchi olimlarga qancha zarur shart-sharoitlarni yaratib berayotir. Prezidentimiz O'zbekistonning yangi tarixini

yaratish haqida maxsus farmon e'lon qildilar (1997-yil).

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», degan edi I.Karimov. Darhaqiqat, tarix xotirasi inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy istiqbol mafkurasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ulug' allomalar aytganidek, tarix insonni istiqbolga dav'at etadi. Ulkan yaratuvchilikni rag'batlantiradi. Zotan, uning murabbiylik, tarbiyachilik, yo'naltiruvchilik kuchi xuddi ana shunda.

O'zbekiston tarixi yoshlarga faqat tarixiy voqealar haqida hikoya qilib qolmasdan, yoshlarni vatanparvar, ma'naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantiradi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, yurtimiz tarixi «Har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko'z qorachig'iday avaylab-asrashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga o'rgatadi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi».

Vatan tarixi talaba-o'quvchilarda xalqning o'tmishi, hozirgi zamoni va kelajagi yagona tarixiy jarayon, degan tushunchani shakllantiradi. Bu, o'z navbatida, yoshlarni tarixiy jarayonlarning oddiy kuzatuvchisi bo'lib qolishdan saqlaydi, ularni olg'a intilishga, taraqqiyotga ko'maklashishga undaydi.

O'tmish shunday boy tarixiy tajriba manbaidirki, undan odamlar o'rganadilar, tajribaga ega bo'ladilar va undan ilhom oladilar.

Yurtboshimiz aytganiday, «Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Ahloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda».

Tayanch tushunchalar

Tarix, ilmiylik, xolislik, tarixiylik, xalqning o'tmishi, tarixiy jarayon.

Takrorlash uchun savollar

1. Tarix fani ijtimoiy fanlar tizimida qanday o'rin tutadi?
2. O'zbekiston tarixi fanining o'rganish predmetiga nimalar kiradi?
3. Manbalar o'z holatiga ko'ra qanday ko'rinishlarga ega bo'ladi?
4. Vatanimiz tarixi haqida ma'lumot beruvchi eng qadimiy yozma manbani bilasizmi?

5. Yunon va rim tarixchilarining qaysi asarlarida o'lkamiz tarixiga oid bo'lgan ma'lumotlar uchraydi?

6. O'zbek halqining o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotini o'rganishda biz uchun muhim hisoblangan tarixiy manbalarni sanab bering.

7. Tariximizning yozuvsiz zamonlarga oid davrini o'rganishda qanday manbalar yordam beradi?

8. O'zbekiston tarixi fanini yoritishda qanday nazariy-uslubiy metodlarga murojaat qilinadi?

9. O'zbekiston tarixining taraqqiyot davri qanday yirik davrlarga bo'lingan?

10. Nima uchun tarix biz, insonlar uchun murabbiy, tarbiyachi, yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi?

2-MAVZU. O'RTA OSIYO INSONIYAT SIVILIZATSIYASINING O'CHOQLARIDAN BIRI

REJA

1. Jahon taraqqiyoti tarixida O'rta Osiyo sivilizatsiyasining o'rni.

2. O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi. Antropogenez jarayonlari.

3. Ibtidoiy tasviriy san'at.

4. Bronza davri yutuqlari.

Adabiyotlar

26,28,37,60,70.

2.1. Jahon taraqqiyoti tarixida O'rta Osiyo sivilizatsiyasining o'rni

O'zbekiston hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri ekanligiga ilmiy jihatdan hech qanday shubha yo'q. O'zbekiston va O'rta Osiyo hududlarida olib borilayotgan keng miqyosdagi tadqiqot ishlarining natijalari ham Vatanimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni tasdiqlaydi.

Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning turli davrlarda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishgan yutuqlari hamda taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishini sivilizatsiya tushunchasi o'zida aks ettiradi. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi, jamiyatning

rivojlanish darajasi, moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan izohlanadi.

O'rta Osiyo sivilizatsiyasi turli hududlarda turli davrlarda paydo bo'ldi va rivojlandi. Misol uchun, janubiy hududlarda yashagan qadimgi qabilalar miloddan avvalgi VI ming yillikdayoq dehqonchilikka o'tib, unumdor xo'jalikni rivojlantirgan bo'lsalar, bu davrda shimoliy hududlardagi qabilalar, asosan, ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug'ullanganlar. Bu notekislik jarayonini tabiiy geografik sharoitlar va o'zaro munosabatlar bilan izohlash mumkin. Bu o'rinda O'rta Osiyoning cho'l va dasht hududlari hamda tog'oldi va daryo vohalari hududlarining rivojlanish darajasidagi madaniy notekislikni taqqoslab ko'rish (Kopetdog', Hisor, Zarafshon tog'oldi hududlari hamda Qizilqum, Qoraqum, Qashqadaryo va Zarafshon vohasining dasht hududlari) muhimdir. Undan tashqari, O'rta Osiyoda turli-tuman madaniyat yaratgan qadimgi aholining neolit davridayoq, ya'ni miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklardagi o'zaro munosabatlari va bu aholining Sharqdagi, dastavval, Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o'choqlari bilan uzviy aloqada bo'lishi ham mahalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

2.2. O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi. Antropogenez jarayonlari

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati taraqqiyotidagi eng uzoq davom etgan va eng qadimgi davridir. Bu davrni yozma manbalar asosida o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu davrni chuqur o'rganishda arxeologiya, etnografiya, antropologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Qadimgi odamlar o'z faoliyati davrida atrof-muhitga ta'sir ko'rsatib, kundalik hayotda o'ziga zarur bo'ladigan mehnat qurollari yasagan, yashash uchun makonlar tanlagan, keyinchalik esa boshpanalar qurganlar. O'z navbatida, bu jarayonlar inson faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan.

Hozirgi paytda O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamiyat rivojlanishining alohida bosqichlari quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Paleolit ("palayos"-qadimgi, «litos»-tosh) davri; bundan taxminan 800 ming yil ilgari boshlanib, 15—12 ming yil ilgari tugaydi; o'z navbatida, bu davr uchga bo'linadi:

- a) ilk paleolit-Ashel davri, 800-100 ming yilni o'z ichiga oladi;

b) oʻrta paleolit-ivustie davri, miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar;

v) soʻnggi paleolit-miloddan avvalgi 40-12 ming yillik.

2. Mezolit («mezos»-oʻrta, «litos»-tosh) miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklar.

3. Neolit («neos»-yangi tosh)-miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklar.

4. Eneolit (mis-tosh davri)-miloddan avvalgi 4 ming yillikning oxiri-3 ming yillikning boshi.

5. Bronza davri-miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklar.

6. Temir davri-miloddan avvalgi 1 ming yillikning boshlaridan.

Oʻzbekiston hududlaridagi eng qadimgi odamlarning manzilgozlari Fargʻona vodiysidagi Selungʻur, Toshkent viloyatidagi Koʻlbuloq, Buxorodagi Uchtut makonlaridan topilgan. Bu davr odamlari toshlardan qoʻpol qurollar (chopperlar) yasab, termachilik va jamoa boʻlib ov qilish bilan shugʻullanishgan. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi odamlardan farq qilishgan. Ular tabiat oldida ojiz boʻlib, unda tayyor boʻlgan mahsulotlarni oʻzlashtirganlar. Ular na diniy tushunchani, na dehqonchilikni va na chorvachilikni bilganlar.

Oʻrta paleolit davri makonlari Toshkent vohasidagi Obirahmat, Xoʻjakent, Samarqanddagi Omonqoʻton, Boysun togʻlaridagi Teshiktosh kabi koʻpgina makonlardan aniqlangan boʻlib, ulardan shu davrga oid turli-tuman toshdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Obirahmat makoni yoysimon shaklda boʻlib, bu yerda 10 m qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Topilmalar orasida nukleuslar, parrakchalar, oʻtkir uchli sixchalar, qirgʻichlar uchraydi, shuningdek, turli hayvonlar suyaklari ham koʻpchilikni tashkil etadi. Yana bir mashhur yodgorlik Teshiktosh gʻor makoni boʻlib, bu yerdan turli-tuman qurollar va hayvon suyaklaridan tashqari, 9-10 yashar bolaning qabri qazib ochildi. Qabrdagi murdaning yoniga turli tosh qurollar va arxar shoxi qadab qoʻyilgan.

Oʻrta paleolit davriga kelib ibtidoiy jamiyat odamlarining mehnat qurollari takomillashib, turmushida yangi unsurlar paydo boʻla boshlaydi. Eng muhimi, ibtidoiy toʻdadan urugʻchilik jamoasiga oʻtish boshlanadi. Shimoldan ulkan muzlik siljib kelishi natijasida olov kashf etiladi. Odamlar oʻchoqlar atroflarida toʻplanib, ibtidoiy turar joylarga asos soldilar. Jamoa boʻlib ov qilish paydo boʻldi.

Soʻnggi paleolit qadimgi tosh asining soʻnggi bosqichidir.

Bu davrga oid makonlar Ohangarondagi Ko'lbuloq, Toshkentning g'arbidagi Bo'zsuv I hamda Samarqand shahridan topilgan. Ulardan topilgan topilmalar orasida qirg'ichlar, keskichlar, sixchalar, pichoqlar, boltalar kabi qurollar bor. Bu davrga kelib odamlar iaqat to'g'li hududlarga emas, tekisliklarga ham tarqala boshlaydilar. Bu davrning eng katta yutug'i urug'chilik tuzumiga (matriarxat) o'tilishidir.

Paleolit davriga xulosa yasab, shuni aytish mumkinki, bu davrda ibtidoiy odamlar ho'jalik yuritishning eng oddiy yo'llaridan (terib-termachlab) murakkabroq ko'rinishlari - ovchilik, baliqchilikka o'tdilar. Olov kashf etildi. Ibtidoiy turar joylar o'zlashtirildi. Insoniyat ibtidoiy poda davridan urug'chilik tuzumiga o'tdi. Mehnat qurollari takomillashib, turlari ko'paya bordi. Shuningdek, bu davr ibtidoiy odamlari orasida dastlabki diniy qarashlar paydo bo'ldi.

Mezolit davri yodgorliklari Surxondaryodagi Machay g'or makonidan, Markaziy Farg'onaning ko'pgina yodgorliklaridan topib o'rganilgan. Bu davrga kelib, muzlik yana shimolga qaytadi. Hayvonot va o'simlik dunyosida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Insoniyat o'z tarixidagi dastlabki murakkab moslama o'q -yoyni kashf etadi.

Mezolit davri qurollari paleolitga nisbatan ixchamligi va sifatligi bilan farq qiladi. Mezolit davri qabilalari, asosan, ovchilik va termachilik xo'jaligi yuritganlar. Bu davrning oxirlariga kelib, dastlabki uy chorvachiligi yoki hayvonlarni xonakilashtirish boshlanadi.

Neolit davriga kelib, qadimgi qabilalar hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davr odamlari aksariyat hollarda darvo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko'llar bo'ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqib, baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik hamda qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Eng katta yutuqlardan biri kulotchilikning paydo bo'lishidir. Shuningdek, bu davrga kelib, to'qimachilik va qayiqsozlik ham paydo bo'ladi. Neolit davri qabilalari xo'jalik shakllariga qarab, quyidagi madaniyatlarga bo'linadi: Joytun madaniyati. Kaltaminor madaniyati, Hisor madaniyati.

Joytun madaniyati. Janubiy Turkmaniston hududidagi mil. avv. VI-V ming yilliklarga oid madaniyat. Bu yerdan O'rta Osiyodagi birinchi paxsa uylar qoldiqlari, sopol idishlar namunalari aniqlangan. Aholisi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va qisman ovchilik bilan shug'ullangan.

Kaltaminor madaniyati. Qadimgi Xorazm hududidan

topilgan bo'lib, mil.avv. V-IV ming yilliklarga o'g'dir. Topilmalar Kaltaminor qabilalarining baliqchilik, ovchilik va qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi.

Hisor madaniyati. Asosan, Hisor-Pomir tog'laridan topilgan. Miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarga oid. Hisorliklar sopol idishlar yasab, asosan, chorvachilik, ovchilik, qisman termachilik bilan shug'ullanganlar.

Eneolit davri makonlari Xitoydan Dunaygacha bo'lgan katta hududda tarqalgan bo'lib, hamma joyda ijtimoiy taraqqiyotning bir xil bosqichi kuzatiladi. O'rta Osiyoda quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog'liq:

1) xo'jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qilishi;

2) roshdan ishlangan qurollar ko'p bo'lgan holda mis qurollarning paydo bo'lishi;

3) katta-katta ibtidoiy jamoalarning paxsadan va xom g'ishtdan tiklangan katta-katta uylari;

4) kulolchilikda muhim texnika yutug'i-xumdonlarning ishlatilishi.

5) turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'i (matriarxat) ga xos haykalchalari;

6) rangdor, turli tasvirlar bilan bezatilgan sopol buyumlar mavjudligi.

Eneolit-mis-tosh davrida odamlar dastlabki metall bilan tanishdilar. Bu davrga kelib, mis qurollar ancha takomillashgan bo'lsa-da, undan o'tkir mehnat qurollari yasashning imkoni yo'q edi. Misdan, asosan, uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar va harbiy qurollar yasalgan. Eneolit davri yodgorliklari Buxoro viloyatining Lavlakon, Beshbuloq, Uchtut (mis koni) mavzellaridan, Panjikent atroflaridan (Sarazin madaniyati) topib tekshirilgan. Bu davrga kelib, dehqonchilik O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlariga ham yoyiladi. Hozirgi kunda ibtidoiy jamoa tuzumining turli bahslarga sabab bo'layotgan muammolaridan biri antropogenez-odamning paydo bo'lishi va rivojlanishidir. Turli hududlarda qadim zamonlarda yashagan ilg'or mutafakkirlar odamning paydo bo'lishi haqida ilmiy ta'rifga yaqin fikrlarni bayon etganlar. Ular asosan, insoniyat hayvonot olamidun ajralib chiqqan, degan fikrni bildiradilar. Insonning paydo bo'lishi millionlab yillar davom etgan rivojlanish jarayonining natijasidir. Eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari Sharqiy Afrikadan (Olduvay, zinjantrop), Indoneziyadan (Pitua, pitekanthrop), Xitoydan (Siungpan), Germaniyadan (Geyfelberg) topib tekshirilgan. Keyingi topilmalar,

ya'ni zamonaviy odamga ancha yaqin bo'lgan odam qoldiqlari dastlab Neandertal (Germaniya) vodiysidan topilgan (O'zbekistondagi Teshiktosh).

O'rta tosh davrida, birinchi navbatda, mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofadagi odamlarga aylana boshladilar. Ular jismoniy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni tugadi (kromanon ko'rinishidagi odamlar). Bu jarayonning tugashi insoniyat tarixidagi muhim voqea bo'lib, inson, dastlab, toshdan oddiy to'qmoq yasagan bo'lsa, uzluksiz mehnat, intilish hamda ongning rivojlanishi natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi.

Janubiy Qozog'istonning tog' va tog'oldi tumanlaridan, Qirg'izistonning tog' vodiylaridan, Janubiy Turkmanistondan, Qizilqum va Qoraqum ichkarisidagi qadimgi ko'llar atrofidan, O'zbekistondagi Ohangaron, Chirchiq daryolari vodiylaridan, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo vohalari, Farg'ona vodiysi va uning tog'li hududlaridan ibtidoiy jamoa tuzumining barcha davrlariga oid yodgorliklar topilgan. Bu topilmalar O'rta Osiyoni antropogenez jarayoni sodir bo'lgan hududlar sirasiga qo'shish imkonini beradi.

Hozirgi davrda olimlarning katta guruhi odamzodning dastlabki vatani Afrika degan fikrni ilgari sursa, yana bir guruh olimlar Yevropa deyдилar. Boshqa bir guruh olimlar esa odam ilk marta Osiyoning janubida paydo bo'lgan, degan g'oyani ilgari suradilar. Umuman olganda, odamzodning dastlabki vatani haqida olimlar orasida yagona fikr hozircha yo'q.

2.3. Ibtidoiy tasviriy san'at

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan, g'orlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so'nggi paleolit davriga oiddir (Ispaniya, Altamir g'ori). O'rta Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo'ladi. Neolit davriga kelib esa rivojlangan bosqichga ko'tariladi. Kaltaminor, Hisor, ayniqsa, Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning turli namunalari topilgan. O'rta Osiyoning tog'lik hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xil. Bir xillari bo'yoq (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa urib-o'yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan (petroglif) rasmlardir.

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarnishsoy, Bironsoy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular ibtidoiy buqalar, yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayron kabilardir. Rasmlar orasida o'q-yoy, uzun qilich, xanjar, dubulg'a, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Eng qadimgi rasmlar Zarautsoy (Surxondaryo) bo'lib, bu rasmlar mezolit-neolit, ya'ni mil avv. VIII-IV ming yilliklarga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi ajdodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash joizki, ibtidoiy san'atning eng rivojlangan bosqichi neolit davriga oiddir. Bu davr Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlariga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning juda ko'plab namunalari topilgan. Neolit davri odamlari idishlarga har xil rangdagi bo'yoq bilan turli naqshlar, odam va hayvon tasvirlarini ifoda etganlar. Shu bilan birga, loydan yasaliib, pishirilgan ayol haykalchalari neolit davri san'atining nodir namunalari hisoblanadi.

2.4. Bronza davri yutuqlari

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo'lgan. O'rta Osiyoda bronza davri mil.avv. III ming yillikdan I ming yillikning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'zbekiston hududlarida bronza davri yodgorliklari ko'plab uchraydi. Bu davrga mansub madaniyat izlari, dastlab, Xorazm, keyinroq esa Zarafshon va Qashqadaryo hamda Farg'ona vodiylaridan topilgan.

Ulardan eng viriklari Sopollitepa, Jarqo'ton, Tozabog'yob, Zamonbobo, Chust, Amirobod yodgorliklaridir. Bu yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bronza davrida kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholi xo'jalik yuritishning muayyan ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda, ko'llar, daryolar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka, dastlab va tog'oldi hududlarida chorvachilikka (mehnatning dastlabki virik taqsimoti) o'tib oldi.

Bu davrga kelib O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham

o'zgarish jarayonlari bo'lib o'tdi. Urug'chilik tuzumi bronza davridayam davom etgan bo'lsa-da, ona urug'ining mavqei yo'qolib bordi. Metall eritish va xo'jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnat va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib bordi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bronza davri jamiyat taraqqiyotida dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilikning rivojlanishida erkaklar yetakchilik qilganlar. Ayollar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste'mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo'ladilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qo'lga o'tadi va ona urug'i tuzumi o'rnini ota urug'i (patriarxat) tuzumi egallaydi.

Bronza davriga kelib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, mehnat unumdorligining oshishi natijasida kishilik jamiyati tarixiy-madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu jarayonlarda bronzaning ahamiyati katta bo'ldi. Aholi xo'jalik yuritishning ma'lum ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda, ko'llar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka dasht va tog'oldi hududlarida esa chorvachilikka o'tib oldi. Bu davrda jamiyat hayotidagi sodir bo'lgan turli taraqqiyot jarayonlari kishilik tarixida muhim bosqich bo'lgan davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun ulkan ahamiyat kasb etdi.

Tayanch tushunchalar

Xolislik, ilmiylik, tarixiylik, dialektik uslub, moddiy va yozma manbalar

Takrorlash uchun savollar

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi davri qanday manbalar asosida o'rganiladi?
2. O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamiyat rivojining alohida bosqichlari qanday davrlashtirilgan?
3. O'zbekiston hududidagi eng qadimgi odamlarning manzilgohlari qayerlardan topilgan?
4. Dastlabki diniy qarashlar qaysi davrda paydo bo'ldi?
5. Eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari yer yuzining qayerlaridan topilgan?
6. Eneolit davrida insoniyat o'z hayotiga qanday o'zgarishlar kiritdi?
7. Odamzodning dastlabki vatani qayer?

3. O'zbekistonda qoyatosh rasmlarining sug nodir namunatlari qayerlardan topilgan?

9. Urug'chilik tuzumi bronza davrida ham davom qilganmi?

10. O'zbekiston hududida joylashgan bronza davriga oid yodgorliklarni sanang.

11. Bronza davrida odamzod qanday yutuqlarni qo'lga kiritdi?

3-mavzu. O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI

REJA

1. O'rta Osiyoning qadimgi aholisi.

2. VI-VIII asrlardagi etnik madaniy jarayonlar xususida.

3. O'zbek xalqi etnogenezining keyingi davrlari. «O'zbek» atamasi xususida.

Adabiyotlar

6,28,38,54,49,80,94

3.1. O'rta Osiyoning qadimgi aholisi

Har bir xalqning o'z kelib chiqishi va rivojlanish tarixi bor. O'zbek xalqining ham uzoq va voqealarga boy tarixi mavjud bo'lib, u xalq bo'lib shakllanunga qadar uzoq va murakkab etnik jarayonlarni boshidan kechirdi. Umuman olganda, hozirgi kunda xalqlarning kelib chiqishi-etnogeneziga e'tibor, ayniqsa, kuchayganki, bu holat millatlar o'z-o'zini anglash jarayonining o'sganligi, o'z tarixi, o'tmishiga qiziqishning oshganligi, yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lishi bilan o'z ifodasini topadi.

Mustaqillik sharofati ila o'tmishimiz, tariximizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Tariximizni, boy o'tmishimizni ilmiy, xolisona tarzda bayon qilish an'anon talabiga aylandi. Prezidentimiz I-lom Karimovning 1998-yil iyun oyida bir guruh olimlar bilan o'tkazgan uchrashuvida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi» qarorida (1998-yil, 27-iyul)va Prezidentimizning

tarixiy o'tmishimizni o'rganish muammolariga bag'ishlangan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida hamda so'nggi paytlardagi ko'pgina chiqishlarida o'zbek xalqining tarixini ilmiy, haqqoniy tarzda bayon qilish, tarixiy tadqiqotlarga keng ko'lamda yo'l ochib berish, madaniy merosimizni asrab-avaylash, milliy mafkura g'oyalarini rivojlantirib, targ'ib etish va boshqa ko'plab muammolarni hal etish masalalari ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz, jumladan, shunday degan edi: «Tarixiy xotirasi bor inson irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har-xil aqidalar ta'siriga tortish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi». Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyotida tarixning o'rnini va roli nihoyatda katta bo'lib, bu jarayonning hozirgi kunda davlatimiz ma'naviy hayotida tutgan o'rnini beqiyosdir.

O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi hozirgi kunda tariximizda kam yoritilgan va ilmiy asosda tamomila yangitdan ko'rib chiqishga mansub bo'lgan masalalardan biridir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz». Darhaqiqat, uch ming yillikdan ziyod davlatchilik tarixiga ega bo'lgan xalqimizning ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi.

Ma'lumki, O'zbekiston qadimgi tarixining juda katta davri yozma manbalarsiz, arxeologiya va antropologiyaga oid manbalarga tayangan holda o'rganiladi. Qadimgi Sharq yozma manbalaridan (Hind, Ossuriya va Eron) ma'lumki, mil. avv. II ming yillikning o'rtalari va oxirlari (bronza davri)-O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron tarixi hind-eron qabilalari yoyilishi bilan bog'liq bo'lgan. Hind-eron qabilalari, dastlab, juda keng hududlarda — Volga, Ural va Janubiy Sibir oralig'idagi yerlarda yashaganlar.

Tadqiqotchi T.Xodjayov fikriga ko'ra, bronza davriga kelib, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida baland bo'yi, boshi cho'zinchoq, yuzi tor irqning vakillari tarqalgan. Shimoliy dasht va cho'l hududlarida esa janub aholisidan farq qilgan boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho'ziq bo'lmagan qabilalar yashagan. Fanda janubiy qiyofali odamlar O'rta Yer dengizi irqining vakillari deb ataladi. Ular Old Osiyo, Mesopotamiya, Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Hindiston kabi katta geografik hududga yoyilganlar. Shimoliy qiyofali odamlar Janubiy Sibir

hududidan to Qozog'iston, O'rtasiyoning shimoli-sharqiy qismidan Ural, Volga bo'yi yerlarigacha tarqalgan.

A. Sagdullayev tadqiqotlariga ko'ra, bronza davriga kelib, O'rtasiyo hududida qadimgi janubiy va shimoliy qiyofadagi odamlar vakillarining qo'shilish jarayoni boshlanadi hamda aynan mana shu davrga kelib, o'lkamizda yashab o'tgan bronza davri qabilalari O'rtasiyoning qadimgi xalqlariga asos solganlar. Tadqiqotlar natijalariga qaraganda mil. avv. II ming yillikning oxiri I ming yillikning boshlari O'rtasiyo hududlarida murakkab etnik-madaniy jarayonlar bo'lib o'tadi. Xususan, janubiy hududlardagi hosildor vohalar o'troq dehqonchilik aholisi tomonidan o'zlashtirila boshlangan bo'lsa, shimoliy viloyatlarda ko'chmanchi chorvador qabilalar tarqala boshlaydi. Ko'chmanchi chorvadorlar va o'troq aholining uzviy munosabatlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar avj oldi.

Etnogenez jarayoni turli xalqlarning ajdodlari tarixidan boshlanadi. O'zbek xalqi ajdodlarining tarixi juda katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lida ajdodlarimiz murakkab etnogenez jarayonlarini boshdan kechirganlar. Bu jarayonlar antropologik qiyofalar va boshqa qabilalarning aralashib ketishi, madaniy an'analarning qo'shilib, yangi asosda rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

O'zbekiston O'rtasiyoning qadimdan o'troq dehqonchilik madaniyati o'choqlari tarkib topgan hududda joylashgan. Diyorimiz shu bois arxeologik va me'morchilik yodgorliklariga boy. Farg'ona vodiysining Selung'ur g'oridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalar va Teshiktoshdan topilgan o'rtasiyo paleolit davriga oid odamzod qoldiqlari, bizning yurtimiz Afrika va Old Osiyo bilan bir qatorda insoniyat paydo bo'lgan hududlar tarkibiga kirganligi hozirgi kunda uzil-kesil isbotlandi. Shuningdek, mezolit davriga (o'rtasiyo tosh davri) oid Machay g'oridan topilgan yodgorliklar, neolit (yangi tosh) davriga oid ovchilik va baliqchilik madaniyatini o'zida jam qilgan Kalamiyor, janubdagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid bo'lgan Joytun, Hisor tog' madaniyati, bronza davriga oid bo'lgan xilma-xil Zamonbobo, Sopollitepa, Sarazm, Dalvarzintepa, Chust madaniyatlari o'lkamizda qadimgi ajdodlarimiz xo'jaligining jadallik bilan rivojlanganligini isbotlaydi.

O'lkamiz qadimgi aholisi tosh va bronza davrlarida qanday nom bilan atalganliklari bizga noma'lum, ilk bora O'rtasiyo aholisi xususidagi ma'lumotlar Sharq va antik davr yunon-rim

manbalarida tilga olinadi. Yunon tarixchilarining ma'lumotlariga qaraganda, Yevrosiyoning katta hududlarida yashovchi qabilalar umumiy «skiflar» nomi bilan ataladi. Yunon tarixchisi Gerodot. «bu xalqlar qadimiylikda misrliklardan qolishmaydi», deb yuqori baho bergan edi. Pliniy O'rtasiy hududlarida 20 ga yaqin qabilalar borligi xususida o'z asarida eslab o'tadi. Yozma manbalarda skiflarning ikkita yirik qabilasi: saklar va massagetlar xususida ko'proq gap boradi. Ahmoniy mixxat yozuvlarida saklar uchta qismga bo'lib ko'rsatiladi (xaumavarka, tigraxauda, tiay-tara-darayya). Massagetlar xususida ham turlicha fikrlar mavjud bo'lib, ular ko'chmanchi chorvador-harbiy qabilalar bo'lganligi ta'kidlanadi.

Ilk temir davridan boshlab (mil. avv. IX-VII asrlar) qadimgi dehqonchilik vohalarida yashovchi o'troq aholi o'zlari joylashgan hudud nomlari bilan atala boshlaganlar. Bular So'g'diyonadagi-so'g'diylar, qadimgi Xorazmdagi-xorazmiylar, qadimgi Baqtriyadagi-baqtriylar, qadimgi Chochdagi-chochliklar. Farg'onadagi-parkanalıklar shular jumlasidandir. Bu tarixiy nomlarning ko'plarini biz ilk yozma manbalarda, xususan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da, Ahmoniy hukmdorlarning mixxat asarlarida uchratamiz.

Shuningdek, Qozog'iston hududlarida yashagan chorvador qabilalar bronza davridayoq («Andronovo madaniyati») turkiy tilda so'zlashganlar, degan asosli fikrlar ham mavjuddir. 1969-yili Olmaota yaqinidagi Issiqqo'rg'on makonidan topilgan yozuv-mil. avv.IV-III asrlarga oid bo'lib, hozirgi kunda ilk turkiy til yozuvi degan fikrlar ham bor. Bundan xulosa chiqaradigan bo'lsak, mil. avv. IV-III asrlardayoq O'rtasiyoning shimoli-sharqida turkiy tilli aholi qabilalari mavjud bo'lib, ularning xorazm, so'g'd, baqtriya kabi yozuvlari o'sha joy aholisi ichida ishlatilgan. Yettisuvdagi saklarning bir qismi ham turkiy tilda so'zlashgan.

Tadqiqotchilar fikrlariga tayanib, shuni aytish mumkinki, O'rtasiyoda qadimdanoq 2 xil: turkiy va sharqiy eroniy tilda so'zlashuvchi aholi mavjud bo'lgan. O'zbek xalqining qadimgi aholisini xuddi shu ikki bo'lak tashkil etgan. Mil. avv. II-I asrlarda va eramizning boshlarida esa uzoq davom etgan etnik jarayon natijasida hozirgi zamon o'zbek xalqiga xos bo'lgan «ikki daryo oralig'i tipi»(Amudaryo, Sirdaryo)dagi irq kishilari O'rtasiyoning katta hududlarida yashardilar.

Milodning IV asrlariga kelib, bu tip kishilari hozirgi O'zbekiston hududining katta qismida uchray boshladilar. Eron

ahmoniylarining O'rta Osiyoni bosib olishlari, so'ngra makedoniyalik Iskandarning harbiy yurishlari mahalliy aholi etnogeneziga sezilarli ta'sir etmadi. Mil. avv. I asr va eramizning IV asriga qadar O'rta Osiyoga ko'chmanchi yuechijilar, xioniyalar, eftalit qabilalarining kirib kelishi davri bo'ldi. Xuddi shu davr yangi yer egaligi munosabatlarining ham shakllanish davri bo'ldi. Yuqoridagi qabilalar turkiy tildagi qabilalar bo'lib, ularning kirib kelishi turkiylashuv jarayonini yanada kuchaytirdi.

3.2.VI-VIII asrlardagi etnik - madaniy jarayonlar xususida

Eramizning 551-yilida Oltoyda yangi davlat - Turk xoqonligi yuzaga keldi. Turk xoqonligi hukmdori Muqanxoqon (554-576-yy.) va uning amakisi Istami Yabg'ularning O'rta Osiyoga yurishlari VI asrning 50-yillari oxiri va 60-yillarida, ayniqsa, kuchaydi. 568-yili O'rta Osiyo batamom ular qo'lga o'tdi. Ular avval ko'proq o'zlashtirilmagan yerlarga, so'ngra asta-sekin mahalliy aholi yashaydigan qishloqlarga yaqinlashib, yerli xalq madaniy-xo'jalik yutuqlari ta'sirida yarim o'troq va ko'p hollarda o'troq turmush kechirishga, ular bilan iqtisodiy va madaniy aloqani kuchaytirishga moyassar bo'ldilar. Natijada Xorazm, Farg'ona, So'g'dning katta qismida yashovchi turkiy qabilalar ular bilan aralashib ketdi.

VI asrning 60-70-yillarida xoqonlik qabilalari Buxoro vodiysi va hatto Shimoliy Afg'oniston hududlariga ham borib, o'nasha boshladilar. Buning natijasida mahalliy aholi bilan o'zaro yaqinlashuv va qon-qarindoshchilik aloqalarining rivojlanish jarayoni sodir bo'la boshladi. 603-yilga kelib, Turk xoqonligi uzil-kesil 2 qismga: Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'linib ketadi. O'rta Osiyodagi bir necha kichik yarim mustaqil davlatlar G'arbiy Turk xoqonligi tarkibida edi.

Yangi yer egaligi munosabatlari rivojlanayotgan G'arb xoqonligining ijtimoiy tarkibi ham, siyosiy boshqaruvi ham ancha-muncha murakkab edi. Yarim asrlik hukmronlik jarayonida turklarning bir qismini o'troqlashadi, qolganlari yerli chorvadorlar bilan aralashib ketadi. O'troq hayotning an'anaviy-mamuriy udumlari ta'sirida boshqaruv tarkiblari asta-sekin o'zgarib, xoqonlik qabilalarining ijtimoiy-siyosiy mavqei mustahkamlanib boradi. Turklar etnik-siyosiy hayotda faollashib, O'rta Osiyo jamiyatining barcha jabhalarida teng qatnasha boshlaydilar. Xoqon Sheguy vafotidan keyin (618-y.) hokimiyatga

kelgan To'n Yabg'u (To'n bahodir) davrida G'arbiy xoqonlik yanada kuchayadi.

Bu jarayonni to'xtatish uchun hech bir siyosiy kuch maydonga chiqmadi. Aksincha, mahalliy aslzodalar, ayniqsa, so'g'd zodagonlari turk xoqonlari himoyasida o'z savdo-sotiq ishlarini rivojlantirib, bu ishlardan juda katta daromad olar edilar. Turkiy aholi son jihatdan ko'payib, ularning mahalliy aholi o'rtasidagi etnik qatlami tobora qalinkashib bordi. Ayniqsa, turkiy qatlam VII-VIII asrlarda Shosh va Farg'onada ustun darajaga ega edi. Garchi G'arbiy Turk xoqonligi 659-yilga kelib, parchalanib ketsa-da, uning etnik ta'siri o'lkada saqlanib qoldi.

VIII asr boshida arablarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi mahalliy aholi etnogeneziga deyarli ta'sir ko'rsatmadi. Arablar ulardan siyosiy hukmronlikni tortib olib, turkiy xalqlarning O'rta Osiyoga kirib kelish jarayoniga chek qo'ya boshladilar. Xoqonlik qabilalarining mahalliy aholi bilan aralashib ketishi, ularning tobora o'troq hayot tarziga o'tishi holati yuz berdi. Turkiy til tobora keng tarqala boshladi. Arablar turkiy xalqlar ta'sirini sindirish maqsadida Movarounnahrni eronliklarga yaqinlashtirish siyosatini tutdilar. Shu maqsadda O'rta Osiyoga VIII-IX asrlarda arabiy va eroniy oilalarni ko'chirib keltirib joylashtirish siyosatini yurgizdilar. Bu davrga kelib turklar o'z ta'sirlarida Yettisuvni saqlab qoldilar, xolos.

3.3. O'zbek xalqi etnogenezining keyingi davrlari.

«O'zbek» atamasi xususida

O'zbek xalqi shakllanishining keyingi, yana bir muhim davri IX-XII asrlar hisoblanadi. X asrning oxirlarida turkiy etnik qatlarning Movarounnahrning barcha hududlarida ustunligini ta'minlovchi tarixiy voqealar sodir bo'ldi. Arg'u, tuxsi, qarluq, chig'il va yag'mo qabilalari ittifoqidagi qoraxoniylar davlati yuzaga kelib, bu davlat 999-yili Movarounnahrni o'z ilkiga kiritdi. Qoraxoniylar davlatida qarluq-chig'il turkiy til lahjasi keng tarqaldi. Keyinchalik shu til asosida adabiy turkiy til yuzaga kelib, uni Mahmud Koshg'ariy «eng ochiq va ravon til» deb atagan. Turkiy tilda IX-XII asrlar mobaynida bir qator asarlar yozilgan bo'lib, Ahmad Yugnakiyning (775-869) «Hibatul haqoyiq» (Haqiqatlar tuhfası) dostoni, Yusuf Xos Hojibning (XI asr, «Qutadg'u bilik» (Saodatga yo'llovchi bilim) asari, Mahmud Koshg'ariyning mashhur «Deyonu lug'atut-turk» asari, Ahmad

Yassaviyning (1041-1167) «Hikmatlar»i hamda «O'g'uzaoma», «Alpomish», «G'o'ro'g'li» kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Movarounnahr va Xurosonning forsiy-erariy tilida so'zlashuvchi aholisi X asrdan boshlab o'zini «tojik» -- ya'ni «tojik» deb yurita boshlaydi. Somoniylar va Qoraxoniylar (IX asr o'rtalaridan -1213-yilgacha) dan tashqari hukmronlik qilgan keyingi sulolalar, G'aznaviylar (997-1187), Saljuqiylar (1040-1157), Xorazmshoh-anushteginiylar (1097-1231)ning barchasi turkiy qavimga tegishli bo'lib, o'z vaqtida nafaqat O'rta Osiyo, balki O'rta Sharqda ham hukmronlik mavqeiga ega bo'lganlar. Mo'g'ullar istilosi, garchi aholi boshiga nihoyatda og'ir kulfatlar va yo'qotishlar olib kelgan bo'lsa-da, tadqiqotchilar fikricha, o'zbek xalqi etnogenezi va irqiga deyarli ta'siri bo'lmadi.

Movarounnahr va Xorazmdan shimolda joylashgan viloyatlarni, musulmon mualliflari Dashti Qipchoq, Qipchoq cho'li deb atashgan. Qadimdan bu yerlarda, asosan, turkiy xalqlar va turklashgan mo'g'ullar istiqomat qilar edilar. Chingizxon bosqinidan so'ng bu yerlar katta o'g'il Jo'chining ilkiga tushgan edi. Keyinchalik bu hudud ikki qismga bo'linib ketdi. Jo'chining o'g'li bo'lmish Shaybonning avlodidan bo'lgan Sulton Muhammad 13 yoshida (1312-1341) Oq O'rdaga hukmdor bo'ladi. Sulton Muhammadga O'zbekxon deb taxallus berilgan. Ayrim tadqiqotchilar "o'zbek" nomining kelib chiqishini O'zbekxon bilan bog'laydilar.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, o'lkamiz hududlarida eng qadimgi davrlarda yashagan o'troq mahalliy aholi so'g'diylar, xorazmiylar, baqtriylar, saklar, massagetlar hozirgi o'zbek xalqining asosini tashkil etadi. Tarixning qadimgi davrlarida aholi ko'p hollarda o'zlari yashagan joy nomi bilan atalgan bo'lib, o'rta asrlarga kelib, bu nomlar o'zgaradi. Xususan, Dashti Qipchoq hududlarida yashagan turkiy aholi Movarounnahr yerlariga kelib, bu yerda yashayotgan o'troq aholi bilan uyg'unlashib ketgan va aholi o'z nomini o'zbek deb atagan. O'rta asrlar tarixiy adabiyotlarida ham bu nom «o'zbek», «o'zbeklar» sifatida tilga olinadi. Ammo, shu narsa aniqki, Dashti Qipchoq hududlaridan kelgan turkiy qabilalar mahalliy aholi etnogeneziga, urf-odat va an'analariga sezilarli darajada ta'sir etmadilar, aksincha, uning orasiga singib ketib, yuqori darajadagi madaniyat ta'sirida bo'ldilar.

Ayrim tadqiqotchilar "o'zbek" atamasini "o'zbek", "erkin", "mustaqil" so'zidan kelib chiqib, XII-XIV asrlarda xalqimizga nisbatan ishlatila boshlagan, deb hisoblaydilar.

Tadqiqotchi Abduqahhor Ibrohimovning yozishicha, o'zbek xalqi, asosan, ikki etnik qatlamdan tashkil topgan. Birinchi qatlam Turon-Turkiston hududlarida shakllangan. Ikkinchi qatlam esa Volga (Itil) daryosi bo'ylaridan tortib, to Xorazmning shimoli, Sirdaryoning O'rta va quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda shakllangan, bu ma'kon o'tmishda turli nomlar bilan, chunonchi, Qipchoq dashti, Oltin O'rda, o'zbek viloyati, o'zbek mamlakatlari, o'zbek ulusi, deb atalgan. Xalqimizning bu qatlamini jug'rofiy o'rin jihatidan shartli ravishda shimoliy qatlam deb atash ham mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqining etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayondir. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududlarida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy so'g'diylar, qang'lar, baqtriylar, xorazmiylar, dovonliklar, saklar va massagetlar tashkil etadi. Turli davrlarda bu hududlarga kirib kelgan qabilalar, elatlar va xalqlar davr o'tishi bilan mahalliy aholiga o'z ta'sirini qisman o'tkazgan. O'zbek xalqi shakllanish jarayonining barcha bosqichlarida mahalliy aholi chetdan kelgan (kelgindi) aholiga nisbatan ustun bo'lgan.

Bu fikrimizni isbotlovchi dalillardan biri, keyingi uch-ikki ming yil davomida O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda mahalliy aholining tili uch marta o'zgardi. Xususan, sharqiy eroniy tillar o'miga g'arbiy eroniy tillari (fors tili) va eramizning boshlaridan boshlab turkiy tillar keng tarqala boshladi. Ammo mahalliy xalqning «qoni», ya'ni genetikasi aytarli o'zgarmadi va qadimiy xalqlarga xos ko'pgina antropologik xususiyatlar shu kunlarga qadar saqlanib kelmoqda.

O'zbek xalqi kelib chiqishining asosini eng qadimgi davrlardan boshlab o'lkamiz hududlarida yashab kelgan xalqlar va elatlar tashkil etgan. Ikki ming yil davomida mahalliy aholiga kelib qo'shilgan turkiy tilli elat va xalqlar o'zbek xalqining shakllanishida asosiy tarkibiy qism sifatida qatnashgan.

Tayanch tushunchalar

Entogenez, xorazmiylar, so'g'diylar, baqtriylar, saklar, massagetlar, Dashti Qipchoq. «Ikki daryo oralig'i tipi», «O'zbek» atamasi, O'zbekxon.

Takrorlash uchun savollar

1. Fanda janubiy qiyofali odamlar qanday ataladi?
2. Ilk bora O'rta Osiyo aholisi xususidagi ma'lumotlar qaysi

manbalarda tilga olinadi?

3. O`rta Osiyo yerlari qachon turk xoqonligi qo`liga o`tdi?

4. Arablarning O`rta Osiyoga bostirib kirishi mahalliy aholi etnogeneziga ta`sir ko`rsardimi?

5. IX-XII asrlarda qaysi asarlar turkiy tilda yozilgan?

6. Musulmon mualliflari qaysi hududlarni Dashti Qipchoq deb ataganlar?

7. O`zbekxon deb taxallus berilgan Oq O`rda hukmdori kim edi?

8. O`zbek atamasi qachondan beri qo`llaniladi?

4-mavzu. O`ZBEK XALQI DAVLATCHILIGINING TARIXIY ASOSLARI VA DASTLABKI BOSQICHLARI

REJA

1. Ilk davlatlar paydo bo`lishining asosiy omillari. Jahon tarixidagi dastlabki davlatlar.

2. O`lkamiz hududida dastlabki shaharsozlik madaniyati.

3. Eng qadimgi davlatlar. Ulardagi ijtimoiy - iqtisodiy hayot.

4. Antik davr davlatlari va madaniyati.

Adabiyotlar

26,28,46,70,74,76,92

4.1. Ilk davlatlar paydo bo`lishining asosiy omillari. Jahon tarixidagi dastlabki davlatlar

Nafaqat O`zbekiston, balki dunyo tarixida ilk davlatchilikning paydo bo`lishi masalalari hozirgi kunda tadqiqotchilar orasida eng dolzarb bo`lib turgan muammolardan biri hisoblanadi. Masalani o`rganib, unga aniqlik kiritishdan oldin, davlatchilikning ildizlari va paydo bo`lish shart-sharoitlariga diqqat-e`tiborni qaratmog`imiz lozim.

Yangi tosh asriga (neolit) kelib, O`rta Osiyo hududlarida dehqonchilikning paydo bo`lishi jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarini yanada tezlashtirdi. Bronza davriga kelib esa dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi, ixtisoslashgan hunarmandchilik xo`jaliklarining

rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi ko'payib, mehnat qurollari yanada takomillashib bordi. Jamiyatda ishlab chiqaruvchi xo'jalikning paydo bo'lishi va jadallik bilan rivojlanishi, o'z navbatida, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning janubida bronza (mil. avv. III-II ming yilliklar) davrida, Toshkent vohasi va uning atroflarida esa ilk temir (VIII-IV asrlar) davrida shakllanib rivojlandi. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, quyi, o'rta) oqimlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar-Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin.

Hozirgi kunga kelib, O'rta Osiyoning juda ko'plab bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklaridan (Sopolli, Jarqo'ton, Anov, Qiziltepa, Ko'zaliqir, Afrosiyob, Chust, Dalvarzin, Daratepa va boshqa) ishlab chiqaruvchi xo'jalik bilan bevosita bog'liq bo'lgan metall qurollar topib o'rganilgan. Metall qurollarning mehnat qurollari sifatida jamiyat hayotiga keng yoyilishi mehnat unumdorligining yanada yuksalishi uchun ulkan imkoniyatlar yaratib, bu jarayon davlatchilik paydo bo'lishini yanada tezlashtirdi.

So'nggi bronza davriga kelib, kulolchilik charxining ishlatila boshlanishi natijasida Sopolli, Oltintepa, Gonur, Jarqo'ton kabilarda kulolchilik mahallalari paydo bo'ladi. Shuningdek, hunarmandchilikning toshga, metallga, yog'ochga, suyakka ishlov berish turlari ham keng tarqaladi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi, alohida xo'jalik tarmog'i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlatchilik paydo bo'lishi uchun muhim bo'lgan qo'shimcha mahsulot ko'payishiga turtki bo'ldi.

O'rta Osiyo hududlarida yashagan aholi qadimgi davrlardan boshlab o'zaro munosabatlarni rivojlantirib kelganlar. Bronza davriga kelib shimoldagi ko'chmanchi chorvador qabilalar va janubdagi o'troq dehqonchilik aholisi o'rtasida o'zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashdi. Bu o'rinda o'sha davrda shakllanib, keyinchalik yanada rivojlangan qadimgi yo'llarning ahamiyati beqiyos bo'ldi. Bu yo'llar orqali O'rta Osiyo qadimgi aholisi mintaqadan tashqari qo'shni davlatlar Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Eron, Afg'oniston kabilalar bilan

tashqi aloqalarni rivojlantirganlar.

Xullas, bronza davriga kelib aholi ishlab chiqarishning ma'lum bir sohalariga — dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ularning bir yerga to'planishi uchun zamin yaratdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, o'z navbatida, mahsulot hajmining o'sib, qo'shimcha mahsulot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Demak, qadimgi xo'jaliklarning ixtisoslashuvi, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, hunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi, o'zaro ayirboshlash va savdo-sotiq taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladi. Bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblanadi.

Mil. avv. IV ming yillikka kelib qadimgi Misr xo'jaligida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik katta yutuqlarga erishadi. Ko'p tarmoqli bo'lgan hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqadi. Savdo-sotiq keng miqyosda rivojlanib boradi. Aynan mana shu davrda jamiyatning ijtimoiy hayotida ham tubdan o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Aholi orasida tabaqalanish ro'y berib, jamiyat uchta — hukmron qatlam (qabila oqsoqollari, kohinlar, boy jamoatchilar), dehqonchilik jamoasi a'zolari (qad. Misr jamiyatidagi moddiy ishlab chiqaruvchilar) va qullar qatlamlariga bo'linadi.

Mil. avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmida Qadimgi Misrda shahar markazi atrofidagi bir nechta qishloqlarni birlashtirgan unchalik katta bo'lmagan viloyatlar (nomlar) doirasida dastlabki davlatlar paydo bo'ladi. Markaziy shaharlar markazida hukmdor qarorgohi va bosh xudo ibodatxonasi joylashgan. Bu davrda Quyi Misrda 22 ta nom, Yuqori Misrda 20 ta nom bo'lgani ma'lum. Mil. avv. IV ming yillik oxirlariga kelib barcha nomlar birlashtirilib, Quyi va Yuqori podshohliklar tashkil topadi. Quyi Misr podshohligi poytaxti Enxab (Nexen) shahri, Yuqori Misr podshohligi poytaxti esa Buto shahri edi. Qadimgi Misrning rivojlanishi ilk, Qadimgi, Orta, Yangi, So'ngi podshohliklar davrlariga bo'linadi.

Mil. avv. V ming yillikka kelib, qadimgi Mesopotamiya aholisi hayotida Xalaf madaniyati (Tal-Xalaf qishlog'i nomidan) ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, bu hududlarda jamiyatning tabaqalashuvi va davlatchilikning paydo bo'lishi hamda Shumer sivilizatsiyasining asoslari Uruk (IV ming yillikning ikkinchi yarmi) madaniyati bilan bog'liqdir.

Bu davrda Mesopotamiya xo'jaligining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etardi. Asta-sekinlik bilan dehqonchilikdan hunarmandchilik xo'jaliklari ajralib chiqib, ular jamiyat rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarga aylana bosilaydi. Ichki va tashqi almashinuv rivojlanadi. Qo'shni viloyatlardan mis, oltin, qurilish mollari, qimmatbaho toshlar keltirila boshlanadi. Manzilgo'harlar o'Ichamlari kengayib, ular madaniy, ma'muriy, siyosiy va diniy markazlarga aylanib boradi.

Mil. avv. IV ming yillikka kelib ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish munosabatlari ham taraqqiy etadi. Natijada Mesopotamiya jamiyatida mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish ro'y beradi. Mil. avv. III ming yillikning boshlari Mesopotamiyaning (Tigr va Yefrat daryolari vodiysi) janubida Shumer, O'rta qismida esa Akkad kabi davlatlar, Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Umma, Lagas kabi bir nechta shahar-davlatlar mavjud edi. O'sha davr Mesopotamiya rivojlanishining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etardi.

4.2. O'lkamiz hududlarida dastlabki shaharsozlik madaniyati

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ilk shaharlarning paydo bo'lishi dastlabki davlatchilik shakllanishida eng muhim va asosiy omil bo'lib, bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan.

Ma'lumki, mil. avv. II ming yillikka kelib, qadimgi O'zbekistonning dehqonchilik vohalarida o'troq qabilalar rivojlanib, aholining alohida joylashuv tizimi shakllanadi. Aholining alohida joylashuv manzilgo'haridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar-o'troq dehqonchilikning rivojlanishi, aholi zichligining yuqori darajasi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizimining murakkablashib borishi, o'zaro almashinuv, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning kuchayishi hamda harbiy-siyosiy vaziyat O'zbekiston hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Jamiyat hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mil. avv. III ming yillikning oxiri-II ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shahar madaniyatining shakllanishi ham, xuddi jamiyat taraqqiyotida bo'lgani kabi, uzluksiz taraqqiyot yo'li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi uzoq, bosqichma-bosqich davrlarni

bosib o'tgan. Mil. avv. II ming yillikka oid O'rta Osiyodagi Jarqo'ton, Sopolli, Dashli, Gonur, Namozgoh, Olintepa, Ulug'tepa kabilarda ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega bo'ldi:

- aholining o'troq dehqonchilikka o'tishi va keng vohalar bo'ylab yoyilishi;

- hunarmandchilikning rivojlanishi va ayrim sohalarga ixtisoslashishi;

- qadimgi savdo yo'llarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi;

- tabiiy-geografik hamda harbiy strategik shart-sharoitlar.

Shahar madaniyati, dastavval, O'zbekistonning janubida, Surxondaryo hududida shakllandi, so'ngra esa shimolga So'g'd (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro), Xorazm, Shosh va Farg'ona hududlariga tarqaldi. Bu aynan yurtlar va xalqlar taraqqiyotidagi notekislik kabi tarixiy qonuniyatga zid emas.

Ko'p sonli arxeologik topilmalarning dalolat berishicha, O'zbekistondagi ayrim ko'hna shaharlarning yoshi 2700-3000 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob (Samarqand), Qiziltepa (Surxondaryo), Uzunqir, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo) kabilar kiradi. Qadimgi shaharlar—tarixiy rivojlanishdagi urbanistik jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asosi hisoblanadi. Fikrimizcha, shaharlar tarixini o'rganish jarayonida, dastavval, eng qadimgi shaharlar shakllanishi va rivojlanishi; aniq hududlar va viloyatlardagi tarixiy-madaniy shart-sharoitning ta'siri; ekologik-geografik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik muhitlarning darajasi va ta'sir doirasi; shaharlarning vazifasi; qadimgi shahar markazlarining tarixiy-madaniy jarayonlardagi o'rnini va ahamiyati masalalariga keng e'tibor qaratish lozim.

4.3. Eng qadimgi davlatlar. Ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayot

O'tgan asrning oxirlaridan boshlab, hozirgi kungacha qadar «Avesto» ma'lumotlari (viloyatlarning Ariyoshayona bo'yicha birlashishi) Gerodot va Gekatey asarlari («Katta Xorazm») shuningdek, Ktesiyning qadimgi Baqtriya podshohligi haqidagi ma'lumotlari va nihoyat arxeologik tadqiqotlar natijalari O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi muammolarini

o'rganish uchun asos bo'lgan bo'lishiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va sanasi bilan bog'liq bo'lgan mavzularning ayrim yo'nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo'lmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'la boshlaydi. Mil. avv. IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya (Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston) hududlarida harbiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy birlashmalar tashkil topadi. O'sha davrda Marg'iyona va So'g'diyona qadimgi Baqtriyaning ayrim qismlari bo'lganligi haqida turli ma'lumotlar bor. Baqtriya Sharqdagi eng muhim harbiy va iqtisodiy markazlardan biri bo'lib, aholining, qudratli shaharlar va qal'alarning ko'pligi, tabiiy xomashyoga boyligi, muhim markaziy savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi, hunarmandchilikning ravnaqi shundan dalolat beradi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar «Katta Xorazm», «Qadimgi Xorazm» masalalariga birmuncha aniqliklar kiritdi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Xorazm tuprog'ida mil. avv. VIII-VII asrlarga oid paxsa yoki xom g'isht turar joylar aniqlanmagan (turar joylar yarim yerto'lalardan iborat). Qadimgi Xorazm davlati mil. avv. VI asrda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Orolga vaqin bo'lgan yerlarda vujudga kelgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari O'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tgan. Xorazmning yirik sug'orish inshootlari mil. avv. VI-V asrlarga oiddir. O'lkada bu davrlarga oid ko'pgina shahar va qishloqlar xarobalari ochib o'rganilgan. Ulardagi topilmalar, manzilgohlar, xom g'isht va paxsadan qad ko'targan bo'lib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan.

Qadimgi So'g'diyona Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida joylashgan bo'lib, janubi-sharqda Baqtriya, shimoli-g'arbda Xorazm bilan chegaradosh bo'lgan. So'g'diyona haqida «Avesto», ahmoniy davri mixxat yozuvlari va yunon-rim tarixchilari ma'lumotlar beradilar. Qashqadaryodagi bir qator turar joylar va uy-qo'rg'onlar qoldiqlari mil. avv. IX-VIII asrlarga oiddir. So'g'diyonada Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Uzunqir kabi yirik shahar markazlari hamda qo'shni viloyatlar va davlatlar bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanadi.

O'zbekiston hududlaridagi eng qadimgi davlatlar haqida zardushtiylarning muqaddas diniy kitobi «Avesto», ahmoniylarning

mixxat yozuvlari (Behistun, Naq'hi Rostam, Suza, Persepol) yunon- rim tarixchilarining (Gerodot, Gekatey, Kursiy, Ruf, Arrian, Strabon va boshqalar) ma'lumotlar beradi. So'nggi yillarda Qadimgi Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ko'p hollarda yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlaydi.

Mil. avv. 559-yilda Eronda podsho Kir II ahmoniy davlatiga asos soladi. Mil. avv. 515-540-yillarga kelib, ahmoniy podsholari O'rta Osiyodagi Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona kabi viloyatlar va ko'chmanchi qabilalar ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. O'rta Osiyo xalqlari bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Xususan, ko'chmanchi massaget qabilalari ahmoniylarning katta qo'shinlarini tor-mor etdilar (mil. avv. 530-yil). Bu jangda fors podshosi Kir II ham halok bo'ldi. Shuningdek, mil. avv. 522 va 519-518-yillarda Marg'iyonada hamda saklar o'lkasida forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi.

Bu davrda qadimgi Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik edi. Kuchuktepa, Qiziltepa, Qizilcha, Bandixon kabi mil.avv.VI-IV asr yodgorliklaridan ko'plab mehnat qurollari topilgan. Dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan. Bu hududlarda, undan tashqari, chorvachilik, kulolchilik, temirchilik va badiiy hunarmandchilik (Amudaryo xazinasi) ham rivojlanadi.

Mil. avv. VI-IV asrlarda So'g'diyonada ko'plab shahar va qishloqlar bo'lib, ular fors podsholariga katta-katta soliqlar to'lab turganlar. Xususan, bu davrga oid Uzunqir, Yergo'rg'on, Afrosiyob, Lolazor, Xo'ja Boston, Sangirtepa, Chordara, Qo'rg'oncha, Ko'ktepa kabi 50 dan ziyod yodgorliklar o'rganilgan. Bu hududlardan topilgan ko'pgina topilmalar aholining dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi. Shuningdek, savdo-sotiq va o'zaro aloqalar ham ancha rivojlanadi.

Bu davrda Xorazm hududlarida ham yirik-yirik manzilgohlar mavjud edi. Qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda esa hunarmandchilik rivojlangan edi. Jonbosqal'a, Ko'zaliqir, Tuproqal'a kabilar madaniy markazlar hisoblangan. O'zbekistondagi eng qadimgi mahalliy yozuv namunalari ham Xorazm hududlaridan (Tuproqal'a) topilgan.

Mil. avv. 329-yilga kelib, Makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga yurishlari boshlandi. Iskandar qo'shinlari So'g'diyona va Ustrushona yerlarida juda qattiq qarshilikka duch keldi. Uyg'arlarda Iskandarning o'zi ham bir necha marta yarador bo'ldi. Mil. av.

chiqdi. Menedem har tomonlarni qurshovda qoldi..lekin uzoq vaqt qarshilik ko'rsatdi...Bu jangda 2000 piyoda va 300 suvoriylar 329-327-yillar davomida mahalliy so'g'diy aholi Spitamen boshchiligida yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurash olib borib, ularga juda katta talafot yetkazdi. Iskandar qo'shinlari hech qachon So'g'diyonadagidek qarshilikka uchramagan edi.

Kvint Kurtsiy Rufning asarida Spitamen jismonan baquvvat, jasur, mard va tadbirkor bir kimsa suratida tasvirlanadi. Dastlabki paytda «Iskandar Spitamenga katta-katta va'dalar beradi. Hatto So'g'diyona hokimligini in'om etmoqchi bo'ladi. Spitamen esa vatanfurushlik qilgandan ko'ra o'limni afzal biladi».

Spitamen, dastlab, masalaning mohiyatiga chuqur baho bera olmasdan, Iskandarni Turon xalqini ahamoniylar zulmidan ozod qiluvchi xaloskor, deb bilgan. Iskandarning amalda xalqqa o'tkazgan jabr-zulmi, qilgan yovuzliklari va shafqatsizliklarini o'z ko'zi bilan ko'rgach, uning fikri keskin o'zgaradi. «Iskandarnoma»da ham Iskandarning xalqqa o'tkazgan zulmsitamari quyidagi satrlarda ifodalangan:

Ey Iskandar nadir xohishing,

Bayon ayla, bizga bu g'araz ishing,

Urub tig' devlarni sahr aylading,

To' kib qonimiz, lolazor aylading.

Iskandar Doroning yuz minglab muntazam qo'shinlariga qarshi kurashdan ko'ra Spitamen boshchiligida bosh ko'targan xalq qasoskorlariga qarshi kurashish qiyin ekanligini tushunib yetadi, chunki qo'lga tushmas Spitamen dushman kutmaganda hali u yerda, hali bu yerda paydo bo'lar va makedoniyaliklarga ofat va talafot keltirardi». Jumladan, Kvint Kursiy Ruf Spitamen faoliyati bilan bog'liq, quyidagi voqeyiy misolni keltiradi: «Jangchilarning chaqqonligi otlarning tezligiga mos edi... Spitamen lashkarlariga o'rmonni qurshab olishni buyurdi va bir vaqtda ularni dushmanning yon tomoniga front orqasidan olib chiqdi. Menedem har tomonlarni qurshovda qoldi..lekin uzoq vaqt qarshilik ko'rsatdi...Bu jangda 2000 piyoda va 300 suvoriylar halok bo'ldilar. Bu talafotni Iskandar ustalik bilan hammadan yashirdi». Yoki makedoniyaliklarning Zarafshon daryosidan o'tish voqeasi ham bu borada jonli misoldir. Arrian bunday ma'lumot beradi: «Makedoniyaliklar daryodan mutlaq tartibsizlik bilan o'ta boshladilar. Varvarlar ular qo'yg'an xatolikni sezib, har tomondan o'rab oldilar... ularni qayta daryoga itarib tashlaydilar yoki o'q-yoy bilan otadilar... chorasiz qolgan makedoniyaliklar daryo o'rtasidagi orolga chiqib oladilar. Skiflar va Spitamen lashkarlari ularni qurshab kamondan otib tashlaydilar, bir qismini asir oladilar, ammo keyincha ularni ham otib tashlaydilar». Darhaqiqat,

Iskandar qo'shinlari juda katta talafot ko'rib So'g'diyona va Baqtriyadagi qo'zg'olonni bostira olmagan. Faqat g'arbiy viloyatlardan 19 ming yollanma qo'shin yordamga yetib kelgach, bu isyon bostirilgan. Yunon muarrixlarining asarlarida Spitamen bilan birgalikda Iskandarga qarshi jang qilgan skiflar, baqtriyaliklar, massagetlarning jasorati va ularning ajoyib urf-odatları va madaniyatları haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Jumladan, Kvint Kursiy Rufning ta'kidlashicha, skiflar boshqa «varvar» xalqlaridan farq qiladilar, «ularning fikr ifodalashlari qo'pol emas, madaniyati ham durust edi». Yana u davom etib, yozadi: «Aytishlaricha, ularning orasida donishmandlari ham bor ekan». Kvint Kursiy Rufning qayd qilishicha, «skiflarning hatto nutqi ham jozibador edi. O'zining go'zal nutqiga, madaniyatiga ega bo'lgan skiflarning o'sha davrlarda o'ziga xos adabiyoti ham bo'lgan», talafot.

Kvint Kursiy Ruf «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asarida skiflarning jasurligi va mardligini ta'rifiylaydi. Uning yozishicha, Iskandar skiflarning katta bir guruhini asir oladi. «Jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan skiflardan 30 kishini o'limga mahkum etganda, ular o'limdan ham qo'rqmasdan, xalq qo'shiqlarini baralla aytib, xursand bo'lib borardi», deydi u. Skiflarning mardligiga qoyil qolgan Iskandar asirlarni o'limdan saqlab qolib, hibsdan ozod qiladi.

Kvint Kursiy Rufning asarida Spitamen fojiasiga sabab bo'lgan xoinlar, qo'rqoq va sotqinlarga nafrat o'tini sochuvchi yorqin satrlar ham anchagina. Ana shunday sotqinlardan biri Spitamenning xotinidir. Horib-charchagan Spitamen shirin taom va sharob ta'sirida qattiq uyquda yotardi. «Xotini pinhona kelib, qilichini sug'urib oldi-da, Spitamenning boshini kesib tashladi. Qonga belangan erining kallasini bu jinoyatdan ogoh bo'lgan qulga keltirib beradi. So'ngra makedon qo'shinlari joylashgan lagerga kelib, Iskandarga muhim xabar olib kelganligini, bu xabarni shohga shaxsan o'zi yetkazishi lozimligini aytadi. Iskandar bu mudhish voqeadan ogoh bo'lib g'azablanadi. Iskandar Spitamen bilan yakama-yakka jangda olishish niyatida edi. U jallod xotini lagerdan tashqariga haydab yuborishni, unga sherik bo'lgan qulni shu verti xalqning eng og'u jazosiga mahkum etishni buyuradi. Spitamenning xotini erining boshij evaziga Iskandardan katta makofoftga umidvor edi. U xor-zor bo'lib o'ladi. «O'z eriga xiyonat qilgan xotin menga do'st bo'larmidi», deydi Iskandar». Spitamenning o'limi haqida Arrian boshqacharoq rivoyatni keltiradi. Uning yozishicha, «Skif-massagetlar

yengilganlaridan so'ng o'zlarini bilan birga ittifoq bo'lib dushmanga qarshi jang qilgan baqtriyaliklar va so'g'dlar yuklarini talaydilar va qochadilar. Spitamen ham ular bilan birga ketadi. Ularga «Iskandar dastga hujum boshlar emish», degan xabar yetgach, Spitamenning boshini tanasidan judo qilib, shohga yuboradilar va shu yo'sinda Iskandarning hujumining oldini olmoqchi bo'ladilar». Tarixiy yozma manbalarda katta sovg'a-salomlar bilan do'stlik aloqalarini o'rnatish maqsadida Xorazm shohi 1500 otliq suvoriylar bilan Iskandar oldiga bosh egib kelganligi yoziladi. Jumladan, «Iskandarnoma»da Xorazmshoh «Feruzbah va Jamshidshoh o'z askarlari bilan yordamga» kelgani ta'kidlanadi. Arrian esa «Xorazmliklar shohi Farasman Iskandarga bosh egib keldi», deydi. Strabon bo'lsa, «... massaget va saklarga attasiy va xorasmiylar ham kiradilar. Spitamen u yerga qochib ketgan... Iskandarga bo'sunmagan», deydi. F. Sulaymonovning «Sharq va G'arb» asarida esa «Xorasmiylar shohi Farasman ham yurishda ittifoq etish uchun Iskandarga suvoriylar otryadini olib keldi», deyiladi.

Aslida, Xorazm hukmdori o'zining donishmandligi va uzoqni ko'ra bilganligi tufayli mamlakat mustaqilligini saqlab qola oldi. U vaziyatni to'g'ri baholay oldi va Samarqandga Iskandar huzuriga keldi. Farasman mazkur uchrashuv chog'ida harbiy ittifoq tuzib, Qora dengiz tomon yurishni taklif etadi. Sug'dlik Spitamen qo'zg'olonini bostirish bilan band Iskandar «Farasmanga tashakkur aytib, u bilan do'stlik ittifoqini tuzadi. Shu bilan birga, hozir Pontiga, ya'ni Qora dengizga (Sh. K. R. T., Vatan tarixi) yurish vaqti emas», deb aytadi.

Iskandar ishonchini oqlagan Farasman yunonliklarning keyingi harbiy rejasi Hind zaminiga yurish ekanligini ham bilib oladi. Uzoqni ko'ra bilgan Farasman shu tariqa mintaqadagi yagona barqaror yer — Xorazm daxlsizligini saqlab qoladi hamda Iskandarning kelgusi rejalaridan voqif bo'lib oladi, Farasmaning Iskandar bilan ittifoqi strategiya nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan siyosiy qadam ekanligini shundan ham aniq ko'rish mumkinki, bir yil o'tar-o'tmas miloddan avvalgi 328-yili u yunonliklar tazyiqidan qochishga majbur bo'lgan Spitamenga Xorazmdan boshpana beradi (Strabon, miloddan avvalgi I asr — milodiy I asr). Fikrimizcha, Xorazm hukmdorining Iskandarning ashaddiy dushmani Spitamenni qabul qilishi nafaqat uning vatandoshlik hissidan, balki Iskandarning ahvolidan boxabarligi hamda ma'lum ma'noda, kezi kelganda, o'z imkoniyatlariga ishonganligidan hamdir. Zero, Xorazm bu zamonada janubi-

sharqdagi ta'sirini yo'qotgan bo'lsa-da, shimoli-g'arbda Qopa dengiz, Azov bo'ylarigacha bo'lgan yerlardagi mavqei saqlanib qolgandi. Xullas, Spitamen boshchiligidagi xalq qasoskorlari harakati o'lka xalqlari orasida mustahkam birlik, hamkorlik va ittifoqning bo'lmaganligi, dushman tomonga o'tgan ba'zi qo'rqoq va xoinlarning sotqinligi tufayli mag'lubiyatga uchradi. Ammo Spitamenni bartaraf etish, Baqtriya va So'g'diyonani egallash Iskandar uchun oson kechmadi.

Makedon qo'shinlarining yengilmaslik haqidagi afsonalari Markaziy Osiyoda chippakka chiqdi» Iskandar askarlari Baqtriya, so'g'diyonalik va skiflardan bir necha marta yengildilar, juda ko'plab makedon qo'shinlari janglar davomida qirib tashlandi. Birgina Politimet (Zarafshon) daryosi bo'yidagi janglarda makedon qo'shinlari ikki marta talafot ko'rdi. Iskandarning shaxsiy hayoti ham So'g'diyonada juda og'ir kechdi. Ayniqsa, Kiropil shahrini egallash paytida boshi va qo'lidan yaralanib, ko'p azob tortdi. Yana buning ustiga lashkarboshisi Karan boshliq qo'shinning qirib tashlanishi, skiflarning tinimsiz qilayotgan hujumlari Iskandarning ruhiy kasallanishiga sabab bo'ldi, uning xotirasi ancha zaiflashdi, asablari ishdan chiqdi. Natijada u o'ziga eng yaqin bo'lgan sarkardasi Klitni achchiq ustida o'z qo'li bilan o'ldirib qo'ydi.

Iskandarning bunday ruhiy tushkunlikka uchrashiga sabab Markaziy Osiyoning erksevar va ozodlikka intiluvchi mard va jasur xalqining kelgindi dushmanlarga qarshi mardonavor kurashlari edi. Chunki Iskandar mahalliy xalqqa og'ir zulm o'tkazdi, qanchadan qancha shaharlar vayron qilindi, yuz minglab yerli xalq qullarga aylantirildi, dunyo bozorlarida sotildi, qanchasi qirib tashlandi, behisob moddiy boyliklar talon-taroj qilindi, yerlar suv o'rniga qon ichdi, turar joylar, bog'-u bo'stonlar yondirildi, ularning kuli ko'kka sovurildi.

Bularning hammasi o'lkaning istiqboldagi rivoji va taraqqiyotini bir necha o'n yillar orqaga surib yubordi. Erksevar va hurriyatparvar, insoniy g'ururi yuksak va mag'rur ajdodlarimiz dushmanga bo'yin egmadilar, ularning qarshiligi borgan sari kuchayardi va ular dushmandan qonli qasos oldilar. Buni tushungan ayyor va tadbirkor Iskandar hiylakorlik va ustamonlik yo'liga o'tdi.

Iskandar mahalliy xalq vakillari, birinchi navbatda, hukmdor oqsoqollar va rahbarlar bilan umumiy til topish, ularga yaqinlashish yo'llarini izlay boshladi. U miloddan avvalgi 327-yilni Nautakda o'tkazib, bahorda Nautakka tutash bo'lgan So'g'd

qal'asini egallaydi. Tog'lar orasida joylashgan bu shaharning hokimi Aksiart edi. Yunon muarrixlarining ma'lumotlariga qaraganda, Iskandar Aksiart bilan yaqinlashgach, Baqtriya va So'g'diyona tog'lari orasida joylashgan 4 ta qal'ani: So'g'd, Sizimeta, Arimaza va Xorienni egallaydi. Gap shundaki, Iskandar Baqtriya zodagoni Aksiartni gozal qizi Roksana (Rahshona, Ravshanak)ga uylanadi va uni saltanat malikasi deb e'lon qiladi. Plutarx bergan ma'lumotlarga qaraganda, «Roksana Iskandarning xayoli, orzusidagi qiz edi». Arrianning yozishicha, «Jangchilar Doroning xotinidan keyin Osiyoda bunday gozalni uchratmaganliklarini aytib, Roksananing husni-jamoliga maqto'v so'zlar aytishadi».

Iskandar Roksana ni asirlikda ushlab turmasdan, uni o'ziga faxriy xotinlikka oladi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Iskandar Roksana tufayli Aksiartning barcha gunohlarini kechiradi va uni Baqtriya satrapi etib tayinlaydi. Bu voqeani eshitgach, Iskandarga raqib bo'lgan Eparx Xorien Iskandarga jangsiz taslim bo'ladi (qal'ani yunon-makedonlar uning nomi bilan atashgan) va o'z qal'asiga hokim bo'lib oladi. Ana shu tariqa Iskandar boshqa qal'alarni ham birin-keun egallay boshlaydi. Plutarx Iskandarning yerli xalq urf-odatlarini va madaniyatiga katta hurmat bilan qaraganini alohida ta'kidlaydi. «Hatto,- deydi u,- varvarlarning milliy kiyimlarini kiyib yurishni o'ziga ma'qul ko'radi». Hatto shoh makedon jangchilariga ham yerli xalqning urf-odatlarini o'rganishni ta'kidlaydi.

Zikr qilingan manbada ta'kidlanishicha, Iskandar «varvar»larning (ya'ni yerli xalqlarning - Sh.K.R.Sh., Vatan tarixi) kiyimlarini, dastlab, ularning vakillari bilan uchrashganda, ularning uylariga tashrif buyurganda, ahyon-ahyonda kiygan bo'lsa, keyinchalik u butunlay «varvarchasiga» kiyinib yurishga ko'nikib qoladi. Iskandarning yerli mahalliy xalqqa nisbatan bunday «odilona» va «insoniy» munosabatda bo'lishi aholi ma'lum bir qismining, asosan, yuqori tabaqa vakillarining Iskandar tomoniga o'tishiga sabab bo'ldi. Xalq rahbarsiz qoldi.

Iskandar qalbining to'ridagi yashirin va pinhona istak va tilak ham aynan shu edi. Bu hol uning Baqtriya va So'g'diyona xalqlari ustidan to'la hukmronlik o'rnatishiga imkoniyat yaratdi. Iskandar miloddan avvalgi 327-yilda Markaziy Osiyoni batamom o'ziga bo'ysundirib, mahalliy aslzodalardan bo'lgan Oropiyani So'g'd podshohligiga tayinlaydi va Hindiqush orqali Hindiston sari o'tlanadi. Hindistonni ham o'ziga tobe etgan Iskandar 324-yilda yana Markaziy Osiyoga qaytadi. Shu yili Suzda Iskandar katta

ommaviy to'ly uyushtiradi. Uning askarlaridan 10 ming jangchi, shu jumladan, shohga yaqin bo'lgan Gefestion, Krater, Ptofomey, Salavk, Evmen, Perdikka va boshqalar sharq avollariga uylanadilar.

Markaziy Osiyoda ahmoniyalar zulmi yunon-makedon istilochilari zulmi bilan almashdi. Bu zulmdan qutulish uchun So'g'diyona xalqlariga 150 yil, Baqtriya xalqlariga esa 180 yil kerak bo'ldi.

Tarixiy yozma manbalarda Iskandar Zulqarnayn adolatli, insofli va diyonatli bir podsho sifatida tilga olinadi. Bu sohada, xususan, yunon muarrixlari alohida jonbozlik ko'rsatganlar. Iskandarni Markaziy Osiyo xalqlarining do'sti, adolatparvar, ilm-ma'rifat va madaniyatni yoyuvchi shahanshoh sifatida ta'riflaydilar. Plutarxning yozishicha, «Iskandar Sharq xalqlari vakillarini yunon madaniyatidan bahramand qilishga...» uringan ekan. Hatto Markaziy Osiyoda bo'lganida, «...yerli aristokratlarning 30 ming o'g'illarini tanlab olib, ularga yunon tilini o'rgatib, grek madaniyati, ilmidan ta'lim berishni» buyurgan ekan. Albatta, yunonistonlik muarrixlarning bu tutgan yo'llarini tushunmoq kerak. Ular nima bo'lganda ham, Markaziy Osiyoni zabt etgan, uni asoratga solgan fotih Iskandar Zulqarnayn avlodidirlar.

Mil. avv. 323-yilda, makedoniyalik Iskandar vafot etganidan so'ng, O'rta Osiyo yerlari Salavka hukmronligi ostiga o'tadi. Salavkiylardan bo'lgan Antiox I davrida O'rta Osiyo viloyatlarida tinch hayot boshlanib, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdosotiq anchagina rivojlanadi. O'rta Osiyo yerlari salavkiylar davlatining muhim qismi bo'lib, harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega edi. O'rta Osiyo viloyatlarining salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri yunon-makedon vurishlari paytida vayron bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning va baqtrivaliklar, so'g'diylar hamda parfiyaliklarning bosqinchilarga qarshi kurashda birlashuv davri bo'ldi.

Mil. avv. III asrning o'rtalariga kelib, salavkiylar davlatida taxt uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Natijada, dastlab, Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari salavkiylardan ajralib chiqdi. Mil. avv. 250-yilda birinchi Yunon-Baqtriya podshosi Diodod o'zini hukmdor deb e'lon qildi va tangalar zarb etdi. Tangashunoslik ma'lumotlariga ko'ra, mil avv. III asrning oxirigacha Yunon-Baqtriyada bir necha podsholar o'tganki, ular yozma manbalarda eslatilmaydi. Mil. avv. II asr boshlariga kelib Demetriy, Yevkratid kabi podsholar Yunon-Baqtriya yerlarini

janubga tomon kengaytirib boradilar. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ko'chmanchi qabilalarning hujumlari va o'zaro kurashlari natijasida Yunon-Baqtriya podsholigi qulatiladi.

4.4. Antik davr davlatlari va madaniyati

Mil. avv. III asrning o'rtalarida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Parfiya davlati hozirgi Turkmaniston va Eronning bir qismini o'z ichiga olgan. Bu davlatning birinchi hukmdori Arshak bo'lib, u mil. avv. 247- yili taxtga o'tiradi. Mil. avv. 235-yildan boshlab, Parfiya podsholari o'z yerlari hududlarini kengaytirib bordilar. Milodiy III asrning birinchi choragida sasoniyalar arshakiylar hukmronligini tugatib, Parfiyada hokimiyatni qo'lga oldilar. Antik davr Parfiyaning qishloq xo'jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Mil. avv. III asr o'rtalaridan boshlab Parfiya davlati hozirgi O'zbekiston hududlarida joylashgan qadimgi viloyatlar Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona bilan siyosiy, madaniy va iqtisodiy munosabatlarni, ayniqsa, rivojlantirdi.

Undan tashqari, parfiyaliklar besh asr davomida Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoyning g'arb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarida vositachilik qildilar. Parfiyaliklarning yozuvi oromiy (Niso hujjatlari) yozuvi bo'lib, zardushtiylik diniga e'tiqod qilishgan.

Qadimgi Farg'ona turli davr manbalarida Dovon, Boxan, Polona, Parkana kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, Ershi (Marhamat) shahri Dovonning poytaxti edi. Antik davr Dovon aholisi dehqonchilik, uzumchilik, yilqichilik bilan shug'ullanishgan. Dovonning «samoviy otlari» o'lkadan tashqarida ham ma'lum va mashhur bo'lgan.

Mil. avv. II asrning oxirlarida Xitoy hukmdorlari Dovon yerlarini bosib olishga harakat qildilar. Ammo qo'shni davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan dovonliklar o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar.

Mil. avv. III asrlar boshlarida paydo bo'lgan Qang' davlatining hududlari Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlar edi. Mil. avv. II-I asrlarda Qang' davlati yerlari kengayib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlar va Xorazmni o'z ichiga oladi. Antik davrda Qang' davlati ancha rivojlangan davlat edi. O'troq aholi, asosan, vodiylarda yashab, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib, kelishgan. Qang'

hukmdorlarining markaziy shaharlari ikkita edi. Ular yozni O'rtorda (hoz. Aris va Turkiston oralig'ida), qishloyni esa Qanqa (hoz. Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida) shaharlarida o'tkazar edilar.

Mil. avv. I asrga kelib, O'rta Osiyo hududlarida antik davrning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Kushon davlati tashkil topadi. Dastlabki hukmdorlar Kadfiz I va Kadfiz II lar davlat yerlarini kengaytirib, pul islohoti o'tkazadilar. Milodiy II asrga kelib, Kushon davlati yerlari Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Kushon hukmdorlari, xususan, Kanishka (II asr) davrida savdo-sotiq, ichki va tashqi savdo, ayniqsa, rivojlanadi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ham ancha taraqqiy etadi. Bu jarayonda Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati nihoyatda katta bo'ldi. Kushon davlatida asosiy din buddaviylik bo'lib, yunon, zardushtiylik aqidalariga ham e'tiqod qilinar edi.

Antik davr O'rta Osiyo xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mil. avv. IV-II asrlar oromiy yozuvi asosida Xorazm, Parfiya va So'g'd yozuvlari paydo bo'ldi. Kushon davriga kelib, yana bir yozuv-Kushon (Baqtriya) yozuvi shakllanadi. O'rta Osiyo va Afg'oniston hududidagi arxeologik tadqiqotlar antik davr madaniyatining gullab-yashnaganidan dalolat beradi. Ayrig'om va ko'lna Termizda Budda ibodatxonalarini ochilgan. Fayoztepa, Quva, Xolchayon, Dalvarzin kabi ko'lna shaharlarda ham saroylar, ibodatxonalar ochilib, ular yuksak madaniyatga ega ekanligi kuzatilgan. 1972-yilda Dalvarzintepadan (Surxondaryo) tilla buyumlar xazinasini (32 kg) topilgan. Bu xazina orasida antik davrga oid bilaguzuk, xalqalar, to'g'alar, bo'yin taqinchoqlari kabi san'at buyumlari ham bor. Umuman, antik davr Qang', So'g'd, Farg'ona yerlarida mavjud bo'lgan madaniyat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tariladi.

Tayanch tushunchalar

Mehnatning dastlabki yirik taqsimoti, ixtisoslashgan hunarmandchilik, sun'iy sug'orma dehqonchilik, savdo va madaniy aloqalar, qadimgi Misr va undagi qatlamlar, Mesopotamiya, Uruk madaniyati, ilk shaharsozlik, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm, «Avesto», qadimgi Farg'ona, Qang', Kushonlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Kulolchilik charxi qachondan ishlatila boshlandi?
2. Shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida ahamiyat kasb etgan omillar haqida nimalar bilasiz?
3. Shahar madaniyati dastlab O'zbekistonning qaysi hududlarida paydo bo'lgan?
4. Qadimgi Xorazm davlati qachon va qaysi hududlarda vujudga kelgan?
5. Qadimgi So'g'diyona qaysi davlatlar bilan chegaradosh bo'lgan?
6. O'zbekiston hududlarida mavjud bo'lgan eng qadimgi davlatlar haqidagi ma'lumotlarni qaysi manbalardan olish mumkin?
7. Ahmoniy podsholar O'rta Osiyoning qaysi viloyatlari ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatdilar?
8. Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishlari qachondan boshlangan?
9. Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurash qanday kechgan?
10. Iskandar Zulqarnayn Xorazmga yurish qilmaganligining sababi nimada?
11. Qang' davlati qachon vujudga kelgan?
12. Kushon davlati yerlari qaysi hududlarni o'z ichiga olgan?

5-mavzu. BUYUK IPAK YO'LI. SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI, TARMOQLARI VA AHAMIYATI

REJA

1. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Buyuk Ipak yo'lining tarmoqlari
3. Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati.

Adabiyotlar

9,26,28,29,55

5.1. Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishi

Qadimgi xalqlarning turli tomonlama rivojlanishida savdo va tranzit yo'llarning ahamiyati nihoyatda kattadir. Mil. avv. III ming yillikka kelib, O'rta Osiyoning ko'pgina hududlari qadimgi aholi tomonidan o'zlashtirib bo'lingan edi. Cho'l va dasht hududlardagi

ko'chmanchi, chorvador aholi vohalardagi o'troq aholi bilan o'zaro aloqalarni bronza davriga kelib, yanada rivojlantiradilar. Tarixiy adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, Buyuk ipak yo'li tashkil topmasdan ancha ilgariyoq, Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo hududlarida o'zaro almashinuv yo'llari mavjud edi.

Bronza davridagi (mil. avv. III-II ming yilliklar) ana shunday yo'llardan biri «Lojuvard yo'li» deb atalib, uning bir tarmog'i Badaxshon, Baqtriya va Marg'iyona hududlarini Xorazm, So'g'd, Markaziy Qozog'iston va Ural bilan bog'lagan. Yana bir tarmog'i esa Baqtriya va Marg'iyonani Mesopotamiya bilan bog'lagan. Bu yo'l Pomir tog'laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo, Misr orqali o'tgan. Badaxshon lojuvardining Hind vodiysi, Mesopotamiya va Misrdan topilishi bu qimmatbaho toshning Qadimgi Sharqda nihoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi yo'llardan yana biri Eron ahmoniylarining yo'li bo'lib, bu yo'lning bir tarmog'i mil. avv. VI—IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini hamda O'rta Yer dengizi bo'yidagi Efes, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog'lagan bo'lsa, yana bir tarmog'i Eron-Baqtriya orqali So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududlaridan o'tib Oltoygacha borgan. Tarixiy adabiyotlarda bu yo'l «Shoh yo'li» deb ataladi.

Xitoy imperatori U-di mil. avv. 138-yilda diplomat, sayohatchi va saydogar Chjan Szyanni O'rta Osiyoga jo'natadi. Elchi Chjan Szyan (mil. avv. 138-126-yillarda) Xitoyning xunlarga qarshi kurashi uchun ittifoqchi izlab kelgan edi. U bir necha yillar xunlar qo'lida asirlikda bo'ladi va mil. avv. 128-126-yillarda Farg'ona (Dovon) ga keladi. Dovon hukmdorlari bilan harbiy ittifoq tuzishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Chjan Szyan ko'p qiyinchiliklardan so'ng yurtiga yetib keladi. Chjan Szyan missiyasi Xitoy uchun G'arbiy o'lkalarga chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Keyinchalik, Xitoy imperatori bilan Dovon hukmdorlari o'rtasida qonli urushlar bo'lib o'tdi. Bu urushlarga asosiy sabab xitoyliklarni hayratga solgan Dovon "samoviy otlari" edi.

Mil. avv. 111-105-yillarda imperator U-di Partiya (Xitoy manbalarida Ansi deb ishlatiladi) podsholariga, Qang' hukmdorlariga, keyinroq esa Baqtriya yerlariga (Kushonlar) o'z elchilarini jo'natib, ular bilan diplomatik savdo aloqalarini o'rnatadi. Shu tariqa, mil. avv. II-I asrlarga kelib, Chjan Szyan yurgan yo'llarda Xitoyni O'rta va G'arbiy Osiyo bilan bog'laydigan karvon yo'li parda bo'ladi. Bu yo'lning umumiy uzunligi 12 000 km dan iborat edi. Ik o'rta asrlarga kelib, Ipak

vo'lining yanada rivojlanganligini kuzatish mumkin. O'z davrida nifo'yatda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu yo'lining dastlabki tarmog'i Xitoydagi Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan.

Bu yo'l fanga «Ipak yo'li» nomi bilan faqat XIX asrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinand Paul Vilgelm Rixtsofen tomonidan kiritildi. Unga qadar bu yo'l «G'arbiy meridional yo'l» deb atalar edi. Ana shu karvon savdo yo'lining asl mazmunini tashkil etgan ipak qachon va qayerda paydo bo'ldi, degan masalada fanda har xil qarashlar bor. Bu to'g'rida turli xilda rivoyat va afsonalar to'qilgan.

Fanda ipakning vatani Xitoy deb tan olinganligi sir emas. Ammo hind olimi Mukerji Hindistonda ipakning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq va ishonarli ma'lumot bera olmasa-da, u ipakning Xitoyda paydo bo'lib, u yerdan boshqa yerlarga tarqalganligi fikriga qo'shilmaydi. U Hindistonda ham tog'li tumanlarda ipak qurti tut daraxtlari ustida pilla o'rashlarini ta'kidlaydi.

Xitoyda ipakning paydo bo'lishi haqida juda ko'p rivoyatlar bor. Shunday rivoyatlardan biriga qaraganda, Xitoyda ipak miloddan avvalgi III ming yillikda paydo bo'lgan ekan. Xitoy hukmdori Chin Chong ipak qurti, tut daraxti maydonlarini kengaytirish haqida katta g'amxo'rlik qilgan. Rivoyatlardan birida miloddan avvalgi 2698-yilda, yana bir rivoyatda esa miloddan avvalgi 2600-yilda Xitoy malikasi Si Ling Chi bog'da, tut daraxtlari soyasida choy ichib o'tirgan paytida, piyolasiga yuqoridan pilla tushib, issiq choyda yumshab, uning tolalari yoyilib ketadi. Malika Si pilla iplarini piyoladan olib tashlashga qancha urinmasin, uning uzundan-uzun tolalari chuvalib bo'lmaguncha choyni ipak toladan tozalay olmaydi. Rivoyatda aytilishicha, pilla tolasini olish usuli ana shu voqeadan so'ng ma'lum bo'lgan. Xitoy xalqi pilla kalavasini topib olishni Si Ling Chiga bog'laydi. Si bu Osmon xudosi nazarini tushgan malika deb, uni ilohiylashtirilgan va unga atab ibodatxonalar qurilgan. Hozirgacha Xitoyda malika Siga atab har yili ipak bayrami o'tkazilar ekan. Xitoy yilnomalari Fu Gi ismli hunarmandning miloddan avvalgi 3400-yilda musiqa asbobi yasab, uning tortlarini ipakdan qilganligini xabar beradi. Xullas, ipakning vatani Xitoy bo'lganligiga shubha yo'q. «Ipak yo'li» Xitoydagi ana shu ipak savdosi bilan bog'langan yo'ldir.

rivojlanib bordi. Kushonlar va efitalik davriga kelib (I-VI asrlar) O'rtasiyosiy orqali o'tuvchi Ipak yo'li tarmoqlari nazoratini mahalliy so'g'diy aholi qo'lga oladilar. Qo'shni davlatlar ham Ipak yo'lidan manfaatdor bo'lganligi sababli ilk O'rtasiyosiy Eron va Vizantiva hukmdorlari so'g'diylik bilan qonli kurashlar olib bordilar.

5.2. Buyuk Ipak yo'lining tarmoqlari. Ipak yo'li bir necha tarmoqlarga bo'linib ketgan. Xususan, bir tarmoq Anosi-Xami-Koshg'ar orqali Qo'qoniga, undan esa Toshkentga o'tgan. Bu yerdan Jizzax va Samarqand orqali Buxoroga kelgan yo'l Urganch orqali Gurevga, u yerdan Oqsaroy orqali Qora dengiz bo'yiga chiqqan. Yana bir tarmoq esa Duxxuan orqali Xo'tanga, undan Loxufga o'tib ketgan. Buyuk ipak yo'li deb nomlanuvchi Ipak yo'li bilan Undan tashqari, Buxoroga kelib, bu tarmoq ikkiga bo'lingan. Janubiy yo'nalish Buxoro-Qarshi-G'uzor-Kesh-Termiz orqali Nishopurga o'tgan va Hirot orqali Hindistonga o'tib ketgan. Nishopurdagi tarmoqlardan biri Telon-Qazvin-Hamadon-Bag'dod-Palmira yo'nalishi bo'ylab O'rtasiyosiy dengizi bo'yidagi Tir shahrigacha cho'zilgan. Umuman olganda, Ipak yo'lining janubiy tarmog'i O'zgan orqali O'shga o'tib, Quva-Marg'ilon-Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan. Shimoliy yo'nalishi esa Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati orqali Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga borib, bu tarmoq VI asrdan boshlab rivojlana boshlagan. Ipak yo'lining asosiy karvon yo'llaridan tashqari ichki savdo yo'llari ham mavjud edi.

5.3. Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati

O'rtasiyosiy hududlarida antik davrdan boshlab, rivojlanish jarayonlari Buyuk ipak yo'li bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, mil. avv. II asrdan boshlab, Xitoy va O'rtasiyosiy tarixiy-madaniy viloyatlari bilan savdo va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Farg'ona, So'g'd va Baqtriyaga ipakchilik kirib keldi. Karvon yo'li rivojlanib borgan sari savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Kushonlar va efitalik davriga kelib (I-VI asrlar), O'rtasiyosiy orqali o'tuvchi Ipak yo'li tarmoqlari nazoratini mahalliy so'g'diy aholi qo'lga oladilar. Qo'shni davlatlar ham Ipak yo'lidan manfaatdor bo'lganligi sababli ilk O'rtasiyosiy Eron va Vizantiva hukmdorlari so'g'diylik bilan qonli kurashlar olib bordilar.

Milodning boshlarida qadimgi dunyoning ilg'or madaniyati davlatlari, asosan, to'rttaga: Rim, Parfiya, Xitoy va Kushon davlatlariga bo'linadi. G'arbda Britan orollaridan sharqda Tinch okeani sohillarigacha cho'zilgan bu zabardast saltanatlar insoniyat tarixida birinchi bo'lib «Buyuk ipak yo'li» deb nomlanuvchi yo'l bilan bog'landilar. Ipak yo'li rivojlanib borgan sari podsholarning

o'zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga har hil sovg'alar in'om etishlari an'anaga aylandi. Savdo-sotiq misli ko'rilgan darajada rivojlanib bordi. Shuningdek, Sharq bilan G'arb madaniyatining bir-biriga ta'siri kuchaydi. Davlatlar rivojlanishidagi ko'plab madaniy o'xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi.

Buyuk ipak yo'li bo'ylab ko'plab karvonsaroilar, shaharlar barpo etildi. Bu yo'ldan borayotgan savdogarlar, ko'pincha, yo'lining oxirigacha bormas edilar. O'rta Osiyo viloyatlari bu yo'lining o'rtasida joylashganligi sababli savdogarlar Xorazm, Samarqand, Termiz va boshqa hududlarda o'z mollarini sotib, mahalliy mahsulotlarni xarid qilar edilar. O'rta asrlar O'rta Osiyo bozorlarida chetdan keltirilgan ko'plab mahsulotlar mavjud ediki, hozirgi kunda ipak yo'li ustidagi ko'hna shaharlar va manzilgohlardagi arxeologik qazishmalar natijasida topilayotgan topilmalar fikrimizni dalildir.

Mil.avv.II asrda paydo bo'lib, milodning XVI asriga qadar faoliyat ko'rsatgan Buyuk ipak yo'li shu davr ichida Sharq va G'arb xalqlarining keng miqyosidagi o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l orqali aloqalar qilgan qadimgi xalqlarning o'zaro hamkorlik, almashinuv va madaniyatlarining boyib borishi, tinchlik va taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston hududlari bu yo'ning chorrahasida joylashgan bo'lib, bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va me'morlar tashrif buyurganlar. Buyuk ipak yo'li bo'ylab keng miqyosdagi savdo-sotiq jarayonlari bo'lib o'tdi, diplomatik shartnomalar hamda harbiy ittifoqlar tuzildi. Osiyoning ichkarisiga va Uzoq Sharqqa harfiy yozuv va dunyo dinlarining (buddaviylik, xristianlik, zardushtiylik, moniy, islom) yoyilishida O'rta Osiyo xalqlari ulkan hissa qo'shdilar. Buyuk Ipak yo'li faqat karvon yo'li bo'libgina qolmasdan, Yevrosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan, uning har tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil bo'lib xizmat qilgan jarayondir.

YUNESKO tomonidan «Buyuk Ipak yo'li-muloqot yo'li» dasturining ishlab chiqilishi (1987-yil) Yevrosiyodagi 30 dan ortiq yetakchi davlatlarning 2000-yilga qadar ilmiy-madaniy faoliyati uchun yo'nalish bo'ldi. Respublikamiz hududlarida ham ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi. Buning natijasida ko'pgina tarixiy-madaniy obidalar o'rganildi, qadimgi yo'llar va yo'nalishlar aniqlandi, milliy va ma'naviy boyligimiz hamda an'analarimiz o'rganildi. Juda ko'pchilik tadqiqotchilar ishtirok etgan «Buyuk ipak yo'li-muloqot yo'li» dasturining asosiy vazifasi Sharq va

G'arb xalqlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgan hamda rivojlantirgan bu yo'lni xalqlarning birodarlik, o'zaro hamkorlik va samimiy muloqot yo'liga aylantirishdan iborat edi.

Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochilgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlaridan biri Buyuk Ipak yo'li va uning bo'ylarida joylashgan shaharlarni o'rganishdir. 1997-yilning mayida O'zbekiston ham o'z hissasini qo'shgan Mashhad - Seraxs, Seraxs-Mashhad temir yo'li ochildi. Bu bilan O'rta Osiyo mamlakatlari Fors qo'ltig'iga, Yevropa xalqlari esa O'rta Osiyoga temir yo'l orqali chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1998-yil Boku shahrida Buyuk Ipak yo'lini quruqlikda Yevropadan Yaponiyagacha tiklash masalalariga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Yevropa-Kavkaz-Osiyoni bog'laydigan ushbu transport yo'li (TRASEKA) qurilishida O'zbekiston ham ishtirok etmoqda va bu butun dunyo iqtisodiyotini yuksaltirishiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Tayanch tushunchalar

Bronza davri savdo va tranzit yo'llari, «Lojuvard yo'li», «Shoh yo'li», Chjan Syan va Buyuk Ipak yo'li, savdo va madaniy aloqalar, «Buyuk Ipak yo'li - muloqot yo'li».

Takrorlash uchun savollar

1. Bronza davridagi o'zaro almashinuv yo'li qanday atalgan?
2. «Shoh yo'li» qaysi davlat hududlarini bir-biriga bog'lagan?
3. Buyuk ipak yo'lining umumiy uzunligi qancha?
4. Ipakning paydo bo'lishi haqida Xitoyda qanday rivoyatlar mavjud?
5. Ipak yo'li atamasi fanga qachon va kim tomonidan kiritilgan?
6. Milodning boshlarida qadimgi dunyoning ilg'or madaniyatli davlatlari nechta edi?
7. Buyuk Ipak yo'li harakatda bo'lgan davrlarni aniqlang.
8. «Buyuk Ipak yo'li-muloqot yo'li» dasturining asosiy maqsadi nimalardan iborat edi?
9. Buyuk Ipak yo'li qanday ahamiyatga ega bo'lgan?

6-MAVZU. O`RTA OSIYO XALQLARI HAYOTIDA YUZ BERGAN UYG`ONISH (RENESSANS) DAVRI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO`SHGAN HISSASI (IX-XII, XIV-XV ASRLAR)

REJA

1. IX-XII asrlarda O`rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma`naviy madaniyatining yuksalishi.
2. Mo`g`ul bosqini va uning oqibatlari.
3. XIV-XV asrlarda O`rta Osiyoda moddiy va ma`naviy madaniyat ravnaqi.

Adabiyotlar

7.8.26.28.47.69.71

6.1. IX-XII asrlarda O`rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma`naviy madaniyatini yuksalishi

VIII asr oxiri IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og`ir siyosiy vaziyat abbosiylarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o`zgartirishga majbur etdi. Birin-ketin O`rta Osiyoda tohiriylar, safforiylar, somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo`lgan bunday siyosiy o`zgarishlardan so`ng Movarounnahr Xurosondan ajralib, o`z mustaqqilligini to`la tiklab olish imkoniga ega bo`ldi. Movarounnahrni birlashtirib, mustahkam davlat tuzgan davlat arbobi Ismoil Somoniy 900- yilda Xurosonni ham safforiylardan tortib olib, ulkan davlat barpo etdi. Xalifa somoniylar davlatini tan olishga va unga hukmronlik yorlig`ini yuborishga majbur bo`ldi. Shu tariqa IX asr oxirlariga kelib, Movarounnahr xalqlari Arab xalifaligidan abadiy xalos bo`ladi va arab xalifaligidan mustaqil bo`lgan yirik feodal davlat-Somoniylar davlati tashkil topadi.

Somoniylar mamlakatni boshqarishda davlat ma`muriyatini tashkil etadilar. Mamlakat o`nta devon (devoni vazir, devoni mustafi, devoni amir al-mulk, devoni sohib ash-shurat, devoni sohib al-borid, devoni mushrif, devoni muxtasib...) boshqaruvida idora etilgan. Somoniylar hokimiyati yirik zamindorlarning manfaatini himoya qiluvchi mustaqil feodal davlat edi («mulki sultoniy», «mulk yerlari», «vaqf yerlari») X asr oxiriga kelib, mamlakatda avj olib ketgan o`zaro urushlar uning iqtisodiy va siyosiy qudratiga katta putur yetkazdi va somoniylarning

qoraxoniylar davlatidan magʻlubiyatga uchrashiga olib keldi. XI asr boshlarida somoniylar davlati hududlarida ikki davlat: qoraxoniylar va gʻaznaviylar davlatlari paydo boʻldi.

Qoraxoniylar davlatni ei-yurf va viloyatlarga boʻlib idora qildilar. XI-XII asrlarda Oʻrta Osiyoda mulkchilikning yangi turi- iqta' tartiboti oʻrnatiladi («mulki sultoniy», «iqta'», «vaqf yerlari», «mulk yerlari»). XII asrning 30-yillari oxirida Movarounnahr Sharqdan kelgan ko'chmanchi qoraxitoylar hujumiga duchor bo'ldi.

IX-XII asrlarda mamlakat ma'naviy hayotining asosi islom mafkurasi edi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat berdilar. Buxoro sharqda islom dinining eng nufuzli markaziga aylandi. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar ajratildi. Arab tili va uning imlosi joriy etildi.

Movarounnahrda ko'p o'tmay, hatto ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini yaxshiroq bilgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Mahalliy bilimdonlar o'z vatanida quvg'in ostiga olinib, ko'pgina tolibi ilmlar xalifalikning markaziy shaharlari-Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa va Basraga borib bilim olishga va arab tilida ijod qilishga majbur bo'ladilar. Davlatni boshqarishda abbosiyar ma'muriyati ko'plab bilimdon siymolarga muhtoj edi, chunki arablar orasida shu davrda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdonlar hali oz, borlari ham zaif edi.

Eng mashhur madaniyat markazi shu davrda Bag'dod shahri edi. Bag'dodda «Bayt- ul hikma» (Donishmandlar uyi) tashkil etilgan edi. «Bayt- ul hikma»da Ahmad Fargʻoniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar ta'lim olganlar.

Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun davrida poytaxt Gurganj nihoyatda chiroy ochdi. Xorazmshoh o'z saroyini ma'rifat markaziga aylantirdi. Bu yerda nafaqat Xorazmdan, shuningdek, Sharqning boshqa yerlaridan mashhur olimu ulamolar kela boshladi. Ali ibn Ma'mun farmoni bilan shoh saroyi yaqinida yirik kutubxona ochilib, nodir qo'lyozmalar to'plandi. Abu Rayhon Beruniy va uning ustovi, o'z davrining Ptolomeyi degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan Abu Nasr ibn Iroq (Xorazmshoh Ma'munning yaqin qarindoshi) shohning topshirig'iga binoan yetuk olimu ulamolarga maktublar yo'llab, ularni poytaxt Gurganjga taklif qildi. Natijada Samarqand, Buxoro, Poikand, Termiz, Nishopur, Balx, Marv va hatto arab Iroqidan o'z davrining mashhur olimu fuqalolari Gurganjga keldi. Gurganj tez orada nafaqat ma'muriy va iqtisodiy, balki ilm-fan markaziga aylandi.

Bu yerga Sharq davlatlaridan ahli donishlar, astronom, matematik, kimyo, geometriya, geografiya, tarix, falsafa tibbiyot va boshqa ilmlarda nom chiqargan fan namoyandalari to'plandi. Bular orasida yosh olim va tabib Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Masihiy, shoir, faylasuf va tarixchi Ibn Xammor, astronom Mahmud al-Xo'jandiy va boshqalar bor edi. Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun olimlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlab, ularga g'amxo'rlik ko'rsatdi. Shu tariqa, 1004-yil boshlarida Xorazmshoh poytaxti Gurganjda «Majlisi ulamo» nomi bilan atalgan yirik ilmiy markaz shakllandi. Olimlarning bafurja ilmiy faoliyat ko'rsatishi uchun barcha sharoitlarga ega bo'lgan maxsus bino hozirlandi. Hikmatlar uyi tarkibida ulkan kutubxona, yosh iste'dodlar uchun madrasa, tarjimonlar va xattotlar maktabi ham faoliyat ko'rsatgan. Bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi Platon akademiyasi va Bag'doddagi «Bayt-ul hikma» akademiyasidagi an'analar davom ettirilib, ilimning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan. Ayniqsa, hayotiy zarur bo'lgan ilmlar-matematika, astronomiya, kimyo, geometriya, tarix, falsafa tibbiyot, fizika, geodeziya, biologiya, huquqshunoslik, dinshunoslik, mantiq, adabiyot fanlari o'rganilgan. Yunon olimlaridan Platon, Aristotel, Ptolomey, yurtimiz olimlaridan al-Xorazmiy, al-Forobiy, al-Farg'oniy va boshqa olimlarning asarlari tadqiq qilindi. Kutubxonada arab, fors, hind, yunon va boshqa tillarda bitilgan noyob qo'lyozmalarni o'rganish, ularni tarjima qilish hamda yangidan kitob holiga keltirish ishlari jadal olib borilgan. Buyuk olim va tashkilotchi al-Beruniy «Hikmatlar uyi» ga boshliq etib tayinlangan. «Donishmandlar uyi» ga Sharqning barcha viloyatlaridan olimlar, faylasuflar, adib va shoirlar yig'iladilar. Ular o'z vatanlaridagina emas, butun xalifalik mamlakatlarida ma'lum va mashhur allomalar edi. Ular keyinchalik Xorazm Ma'mun akademiyasining faxri-iftixori bo'lib tanildilar. O'zlarining bebaho asarlari bilan nafaqat Sharq va Yevropa, balki jahon fani rivojiga utkan hissa qo'shdilar.

Beruniy tez orada olimlar jamoasini fanning eng dolzarb masalalarini hal etishga yo'naltira oldi. XIX-XX asr boshlarida yashagan sharqshunos olimlar Gurganjda ilmiy dargoh faoliyatini chuqur o'rganib, uni o'z davrining yirik ilmiy markazi-Fanlar akademiyasi bo'lganligini tasdiqladilar. Bu ilmiy dargoh keyinchalik tarixda «Ma'mun akademiyasi» nomi bilan mashhur bo'ldi. Ayrim manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Xorazm Ma'mun akademiyasida yuzdan ortiq donishmandlar hamda bir necha yuzdan ortiq shogirdlar ijod qilishgan ekan.

Arab tarixchisi va geografi Yoqut Hamaviy (1179-1229) o'zining mashhur «Mu'jal ul-buldon» («Mamlakatlar lug'ati») va «Mu'jan al-udabo» («Adiblar qonusi») asarida 60 dan ortiq olim va adiblar ro'yxatini keltiradi. Bu ro'yxatda mashhur matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf va tabib Abu Ali ibn Sino, tabib va faylasuf Abu Saxl Iso ibn Yahyo al-Masihiy al-Jurjoniy, tarixchi, faylasuf va tabib, bag'dodlik Abulxayr ibn Xammor, matematik va astronom Mahnud ibn Xidr al-Xo'jandiy, buyuk olim va tarixchi Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy, Abu Xayr al-Hasan ibn Sivar ibn Boba ibn Baxnam, Abu Said Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq, Al-Horajiy, kinyogor olim Abu Hakim Muhammad ibn Abdumalik al-Sofih al-Xorazmiy al-Kosiy, Abu Abdulloh al-Biayn-Naysaburiy, Ahmad ibn Muhammad as-Suhayli al-Xorazmiy, Ahmad ibn Hamid al-Naysaburiy, tarixchi olim Ibn Miskavayx, tabiatshunos olim Abu Abdulloh Husayn ibn Ibroxim at-Taboriy an-Notiliy va boshqa olimlarning nomlari zikr etilgan.

Xorazm Ma'mun akademiyasi 15 yil faoliyat ko'rsatdi. Lekin shunga qaramay, ilm-fan va madaniyat xazinasini qimmatbaho asarlar bilan boyitdi. Jahon sivilizatsiyasini jadal rivojlanishiga katta hissa qo'shdi, ko'plab buyuk siymolarni tarbiyaladi.

Mahmud G'aznaviy 1017-yilda yuzming kishilik piyoda va otliq askari, 500 jangovar fil bilan harbiy yurish boshlab, poytaxt Gurganj shahrini zabt etdi. Mamud G'aznaviy ixtiyoriga o'tgan Xorazmga u o'zining harbiy sarkardasi Oltintoshui hokim qilib tayinladi.

Xorazm Ma'mun akademiyasining faoliyati shu tariqa o'xtatiladi. Olimlarning bir guruhi Sharqning turli shaharlariga tarqalib ketdi. Beruniy va ustozlaridan Abu Nasr ibn Iroq, Abdussamat Avval ibn Abdussummat al-Hakim, yana Bayhaqiy, Abul Xayr Xammor va boshqa bir necha olimlar G'aznaga, sulton saroyiga olib ketildi. Ularning keyingi ilmiy faoliyati g'aznaviy saroyida davom etdi. Ibn Sino va shogirdlari esa Jurjon va Hamadonda-Qobus ibn Vashmgir va Abu Tohir saroyida, al-Xo'jandiy Ray shahrida umrining oxirigacha Ma'mun akademiyasi an'alariga sodiq qolib jahon fan uchun bebaho asarlar yaratdilar.

IX-X asrlarda O'rta Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. Uning ildizlari O'rta Osiyo, ayniqsa, Xorazm, shuningdek, Bobil, Eron, Hindistonning antik dunyosiga va qadimgi madaniyatiga borib taqalar edi. IX-XII asrlarda arab tilida asarlar yozgan eng mashhur olimlar Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr

Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abulxayr Hammor, Abunosir Arron va boshqalar edi.

1998-yil Ahmad Fargʻoniyning 1220-yilligi nishonlandi. Ahmad Fargʻoniy (797-865) astronom, matematik, geograf edi. Bagʻdod yaqinida Raqoq nomli mavzeda rasadxona qurilishiga boshchilik qilib, astronomiya maktabini tashkil etadi. Uning "Kitob fi Usul ilm an-Nujum" ("Falakiyot ilmining usullari haqida kitob"), "Falakiyot risolasi", "Al-Majistiy", "Ilm -xayya", «Al-Fargʻoniy jadvallari», «Usturlob bilan amal qilish haqida», «Oy yerning ustida va ostida boʻlganida vaqtni aniqlash risolasi», "Yetti iqlim hisobi", "Usturlob yasash haqida kitob" asarlari mashhur hisoblanib, ularning qoʻlyozmalari Angliya, Fransiya, Germaniya, Misr, Hindiston, AQSH va Rossiyada saqlanmoqda.

Ahmad Fargʻoniy yaratgan ilmiy kashfiyotlar natijalari qaysi fan sohasida boʻlishidan qatʼiy nazar, pishiq, puxta va nihoyatda mukammal boʻlgan. XII asrdayoq olimning asarlari lotin tiliga tarjima qilingan va Yevropaga tarqalgan. Yevropaliklar Ahmad Fargʻoniyning al-Fraganus deb ataganlar. Uning asarlarini lotin, nemis, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilganlar.

Muhammad ibn Muso Xorazmiy (783-850) mashhur matematik, astronom, geograf, tarixchi edi. Vatandoshimiz algebra faniga asos soldi. Uning «Al-jabr», «Zij», «Quyosh soati haqida risola», "Sur'at ul-arz», «Usturlob holati haqida risola» kabi asarlari Sharq va G'arb mamlakatlarida ilmiy fikrlarning rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Xorazmiy yaratgan yigirmadan ortiq asardan bizning davrimizgacha faqat o'ntasi yetib kelgan.

Xorazmiy "Al-jabr va al-muqobala" kitobi bilan matematika tarixida birinchi boʻlib algebra faniga asos soldi. "Algebra" atamasi ushbu kitobning al-jabr deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematikada algoritm atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning "Al-jabr" asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'chash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

Abu Nasr Forobiy (873-951) Sharq falsafasining ulugʻ mutafakkiri boʻlib, qadimgi dunyo falsafiy merosini saqlashda va rivojlantirishda katta hissa qoʻshdi. U 160 dan ortiq asar yozgan, ulardan «Aristotelning «Metafizika» asari maqsadlari haqida», «Musiqqa kitobi», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Siyosat al-Madaniya» ("Shaharlar ustida siyosat yurgizish"), "Fozil odamlar shahri" shular jumlasidandir.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) haqiqiy ensiklopedik olim, oʻz

davriy deyarli barcha fanlari bilan muvafaqqiyatli ravishda shug'ulangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Uning («Al-qonun fit-tib», «Kitob ush-shifo», «Donishnomasi», «Risolat at-tayr») asarlari juda mashhur. XVII asrga qadar Yevropada tibbiyot tajribasi va fani Ibn Sino g'oyalari ta'siri ostida bo'lgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd qilingan bo'lsa ham, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan, bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan. Uning mineralogiya va geologiya fanlariga qo'shgan hissasi juda salmoqlikdir. 1956-yilda O'zbekistonda topilgan mineral Avitsenit deb atalgan. Ibn Sino g'arbda "Avitsena", sharqda "Shayxur rais" nomi bilan shuhrat qozongan.

Xorazm madaniyati Xorazmlik ulug' olim Abu Rayhon Beruniyning nomi bilan bog'langan. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) 150 dan ortiq ilmiy asar yozgan bo'lib, «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Meteorologiya» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. Beruniy ilm-fanning hammasi sohalarini yaxshi bilgan qomusiy olim edi. U astronomiya, geologiya, gidrostatika, geografiya, tarix fanlarga katta hissa qo'shdi.

XI-XII asrlarda ijtimoiy fanlar ham anchagina taraqqiy etdi. Masalan, shoir Abu Abdullo Rudakiyning prozaik asarlari, Abulqosim Firdavsiyning, «Shohnoma»si, Gardiziyning «Zayn-ul-bahor» («Go'zal xabarlar») asari, Nizomulmulkning «Siyosatnoma»si, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik» asarlari shu davrga oid bo'lib, undan tashqari shu davrlarda Zamahshariy, Mahmud Koshg'ariy, Anak Buxoriy, So'zani Samarqandiy kabilar ham ijod etdilar.

Bu davrda O'rta Osiyoda me'morchilik san'ati ham gurkirab rivojlandi. Buxoroda Dehgaron, Masjidi kalon, Namozgoh, Mag'oki Attoriy masjidlari, Surxondaryodagi Jarqoton minorasi, Ko'hna Urganchda Faxriddin Roziy maqbarasi, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi va boshqa yodgorliklar me'morchilik san'atining yorqin namunalari hisoblanadi.

IX-XII asrlarda dunyoviy fanlar bilan birga, diniy bilimlar ham keng rivojlandi. Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Burxonuddin Marg'iloniy, Abu Xafs Kabir Buxoriy kabi ulamolalar islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Islom dini ta'limotining rayuqqi va targ'ibotining kengayishida Buxoro shahri markaziy o'rin egalladi. Tasavvuf ta'limoti rivojlandi. O'rta Osiyoda uning turli xil yo'nalishlari (XII asrda Turkistonda Yassaviya, XIII asr oxirida Xorazmda Kubraviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya) paydo bo'ldi va tarqaldi.

Suyunchixon, Xo'jand hokimi Temur Malik, Urganch shayxi Najmiddin Kubro, shahzoda Jaloliddin kabilar Vatan mustaqilligi va ozodligi uchun qon to'kib kurashdilar. Ammo ular ona-yurt ozodligini saqlab qolishga bo'lmadi.

6.2. Mo'g'ul bosqini va uning oqibatlari

Urganch shahri himoyasiga mana shunday og'ir bir asnoda bosh XIII asning boshlariga kelib (1206-1215) Mo'g'ulistonda Chingizxon hukmronligida ko'chmanchi mo'g'ullarning ulkan davlati paydo bo'ldi. Bu davrda O'rta Osiyo hududlarida xorazmshohlar davlati mavjud bo'lib, xo'zaro urushlar va boshboshdoqlik oqibatida bir qudratli saltanat inqirozga yuz tutib boshlagan davr edi. Chingizxon bilan Muhammad Xorazmshoh o'rtasida qisqa muddat (1215-1218) elehlik munosabatlari davomi etgan bo'lishiga qaramay, bu munosabatlar oxir oqibat fojiali tugadi. Harbiy jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rgan mo'g'ul qo'shinlari xorazmshohlar davlatidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tushkunlik vaziyatidan foydalanib, qisqa muddatda (1218-1221) O'rta Osiyo yerlarini bosib oladilar.

Asrlar davomida moddiy va ma'naviy madaniyati rivojlanib kelgan O'rta Osiyodagi ko'pgina shaharlar- Buxoro, Samarqand, Xo'jand, Termiz, O'tror, O'zgan, Urganch, Qesh kabilar vayronaga aylantirildi. Dehqonchilik vohalari xarobazorga aylandi. Mo'g'ul bosqinchilari mahalliy aholiga hamda ularning madaniyatiga hech bir shafqat qilmadilar. Arab tarixchisi Ibn al-Asir (1160-1214) O'rta Osiyodagi mo'g'ul bosqini haqida shunday yozadi: «...Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib, Turkistondagi Kashg'ar va Bolasog'un kabi viloyatlarni, Movarounnahrda Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarni... vayron etib, qirg'in qilib, talon-taroj qilib egalladi. Tatarlar (mo'g'ullar) hech qaysi shaharni omon qoldirmadilar, ketayotib, vayron etdilar. Ular nimaniki yonidan o'tgan bo'lsalar, o'zlariga yoqmagani narsalarga o't qo'ydilar».

O'rta Osiyo xalqlari mo'g'ul bosqinchilariga qarshi qahramonona kurash olib bordi. Xususan, O'tror hokimi Inalxon, Buxoro mudofaachilari Ixtiyoriddin Qushlu, Hamid Pura Qoraxitoy, Suyunchixon, Xo'jand hokimi Temur Malik, Urganch shayxi Najmiddin Kubro, shahzoda Jaloliddin kabilar Vatan mustaqilligi va ozodligi uchun qon to'kib kurashdilar. Ammo ular ona-yurt ozodligini saqlab qolishga bo'lmadi.

Urganch shahri himoyasiga mana shunday og'ir bir asnoda boshchilik qilgan, zamonasining buyuk allomasi Shayx Najmiddin Kubro nomi bilan tarixga kirgan 76 yoshli Ahmad ibn Umar Xivakiyning jasorati tillarda doston bo'ldi.

Chingizxon shayx Najmiddin Kubroni yaxshi bilardi. U Urganchga hujum qilganda, shayxga xabar yuborib: «Maslahatim shuki, siz u yerdan tashqari chiqsangiz, darveshlaringizga ziyon-zahmat yetkazilmagay», dedi. Najmiddin Kubro shunday javob qiladilar: «Mana, yetmish yildirki, Xorazm xalqi bilan yashab

kelmoqdaman. Bugungi kunda qazoyi ilohiy bato jazosini yubordi. Ularning kallasida muruvvat degan narsa bo'lmaydiki, orasidan qochib o'zinni bir chekkaga olsam. Balki, ular bilan birga beg' amona yog'iyga duchor bo'lganim tuzukroq bo'lar. Bafolarga ham ular bilan yor bo'lsam».

Mirzo Ulug'bek Shayx Najmiddin Kubroning javoblarini sharhlab bunday deb yozadi: «Bir keksa umri oxirlashib qolgandi. Shu sababdan unga so'z kor qilmadi. Quyidagicha javob berdi: «Yetmish yildirki, Xorazmda xushhol yashayman. Taqdir muruvvati shuni taqozo qiladiki, kelgan baloga tan bergum goho. Qonimni shu yerda to'kadigan bo'lishsa, tangri farmonidan qochmagum, qiyna olovi yongan ekan, Urganjda ho'l-u quruq yondi. Shoh lashkari o'qu tig' bilan band, donoy-u nodon holi bilan ishi yo'q. Uning boshini kesmasang yaxshi bo'lardi, degan pandni mo'g'ulning eshitgisi yo'q, qazo tig'i taqdir tufayli o'tkirlashgan ekan, keksay-u yoshning boshi kesilgusi». Najmiddin Kubro shahar himoyachilariga qarata iltijo bilan «Yo Vatan, yo sharafli o'lim!» deb xitob qiladi. Mo'g'ullar hali biron yerda bunchalik qattiq qarshilikka duch kelmagan edi, hali biron joyda mo'g'ul askarlari bunchalik ko'p qirg'in qilinmagan edi. Dahshatli qirg'inbarot Urganj fojiasi yetti oy davom etadi. Son jihatdan ustun bo'lgan dushman mashaqqatlar va hisobsiz qurbonlar evaziga g'alabaga erishadi. Qo'lida qurol ushlashga majoli qolmagan urganchliklar ilojsizlikdan taslim bo'ladi. Jarohatlangan shayx Najmiddin Kubro o'limi oldidan tug' tutgan mo'g'ul sarboziga tashlanib, bir qo'li bilan qatl etayotgan mo'g'ul yalovining uchini ushlab turgan. Oxiri tug'ni qirqib olganlar. Bu haqda Mirzo Ulug'bek bunday deb yozadi: «Murshidi a'zam Shayx Najmiddin Kubro xudo amri bilan Xorazm uchun boshini tikdi. Boshini topshirishda qatil yaloviga yopishdi. Dini haq iqlimining shohi Ul piyr sarpanjasidan o'n zabardast yigit yalovni chiqarib ola olmadilar. Sayidlar shayxi sarpanjasida kofir yalovini ko'rib, hayratda qolgan oqillar bu holni sharhladilar: Yalov uchini Shayx utib, ta'rif aytdiki, vafotim sanasi «shohi shuhado» («Shahidlar shohi»)dir.

...Biz shunday ulug'lardanmizki, gavhar tutamiz: oriq celiki tutgan pastkash emasmiz. Imon qadalinida bir qo'limiz bilan may ichsak, ikkinchi qo'limiz bilan kofir yalovidan tutamiz» Urganch taslim bo'lgach, yondiriladi, hamma tirik jon qilichdan o'tkaziladi, boyliklar talanadi. Juvayniyning na'lumotlariga qaraganda, 100 ming nafar hunarmand, kosib, rassomlar asirga olinib, Mo'g'ulistonga jo'natilgan. Mo'g'ullar vahshiylikning bor usullarini ishga solganlar, yo'qlarini esa o'vlab topganlar.

Mo'g'ullar shaharning ka'ini ko'kka sovurish bilan bir qatorda,

Urganjdan nom-nishon qoldirmaslik uchun Amudaryodagi to'g'oni buzib, suvni shaharga burib yuboradilar. Barcha ulkan tarixiy obidalar, ilm-ma'rifat manbalari suvga bostiriladi. Natijada uzoq muddat davomida barpo etilgan bu ulkan qadimiy madaniyat va ma'muriy markazda hayot to'xtaydi. Juvayniyning iborasi bilan aytganda, «Urganj qashqir makoni bo'lib qoldi va bu yerda boyo'g'li va burgut in qurdi».

Tarixiy Urganj fojiasi xorazmshohlar davlatining inqirozini bildirar edi. Movarounnahr va Xorazmning bepoyon hududlari Chingizxon davlati tasarrufiga o'tadi. Ammo Chingizxon va uning galalari bilan kurash hali o'z nihoyasiga yetmagan edi. Bu kurashning asosiy sardori va bayroqdori sulton Jaloliddin Manguberdi edi.

Movarounnahr va Xorazmni qo'lga kiritgan Chingizxonga sulton Jaloliddin hayot ekan, tinchlik yo'q edi. Ayniqsa, 1221-yilda Jaloliddinning mo'g'ullar ustidan Niso, Nishopur, G'azna atroflarida qozongan g'alabalari Chingizxon oromini buzmoqda edi. Ikki o'rtadagi jang 1221-yilning yozida Parvona dashtida bo'ladi. Jaloliddin janglar tarixida birinchi marta mo'g'ullarga qarshi kurashda yangi taktik usulni qo'llaydi: jangchilarga otdan tushib, jilovlarni bellariga bog'lashni va kamon bilan jang qilishni buyuradi. Tun qorong'usiga qadar davom etgan jangda ikki tomonning birortasiga zafar kulib boqmaydi. Ertasi kuni Qayqur no'yon harbiy hiyla ishlatmoqchi bo'ladi. U dushmani yangi qo'shinlar kelib qo'shildi, deb ishontirish maqsadida kigiz-namat va choponlar orasiga poxol hashaklar solib, sun'iy boshlar yasab, ularni otlar ustiga o'tqizib qo'yadi. «Soxta jangchilar»ni tuyalar karvoni va aravalar orasiga joylaydilar. Bu hiyla Jaloliddin askarlarini dastlab ancha dovdiratib qo'yadi. Ularniig ba'zilar hatto chekinishga maslahat ham beradilar. Ammo sulton og'ir va bosliqlik bilan avvalgi kundagi taktika asosida otdan tushib kurashni davom ettirishni tavsiya qiladi. Dushmanning bir necha hujumi qaytarilgach, sulton buyrug'i asosida chalingan karnay sadolari ostida Jaloliddin askarlari otlarga minib, shovqin-suronlar bilan mo'g'ullar ustiga tashlanadilar. Dushman tilka-pora qilinadi va juda katta talafot beradi. Qayqur no'yon ozgina odam bilan Chingizxon huzuriga kirib boradi. Bu xabarni eshitgan Chingizxon dahshatga tushadi. U shu zahotiyuq, o'zining barcha kuchlarini jamlab, sulton Jaloliddinni daf qilish maqsadida shaxsan o'zi o'tlanadi.

Parvona dashtidagi g'alaba sulton Jaloliddinga qimmatga tushadi. Mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonilgandan so'ng qo'lga kiritilgan o'ljani taqsimlash paytida nizo kelib chiqadi. O'ljaga tushgan bir arab ot uchun xorazmshohning mo'tabar amirlaridan

Sayfiddin O'g'roq bilan Hazora maligi Amin Malik janjallashib qoladilar. Qizishib ketgan Amin Malik tortishuv paytida O'g'roqning boshiga qamchi bilan tushiradi. Sulton Jaloliddin bu nizoni bartaraf qilmaydi. Xafa bo'lgan Sayfiddin O'g'roq 30 ming askari bilan ketib qoladi. Qabaqli turkman va xalaj sipohlari ham sultondan yuz o'giradilar. Natijada Jaloliddinning qo'shinlari yarmiga kamayib, kuchsizlanib qoldi.

Chingizxon ikki o'rtadagi masofani juda tez fursatda bosib o'tib G'aznaga yetib ketadi va Jaloliddinni 1221-yilning kuzida ta'qib qila boshlaydi. Jaloliddin Chingizxonning ko'p sonli qo'shinlariga qarshi tura olmasligini payqab, avval G'aznaga, so'ngra Sind (Hind) daryosiga chekinadi. Chingizxon Sind daryosiga yaqinlashganda Jaloliddinning keyingi kuni daryoni kechib o'tmoqchi ekanligini eshitib, shu kechning o'zidayoq daryoning kechuv yo'lini to'sadi. U sulton qo'shinining orqadagi qismiga yetib olib, uni tor-moz qiladi. 1221-yil 9-dekabrda Jaloliddinning yarim oy shaklida joylashtirilgan hamda qanotlari bilan Sind daryosiga tiralgan oz sonli qo'shinini o'rab oladi. «Sulton Jaloliddin bin Sulton Muhammad Xorazmshoh», - deb yozadi Mirzo Ulug'bek, - «o'zini suvu - olov o'rtasida ko'rdi, chunonchi, bir tarafida keskir qilichlar olov sochardi, boshqa tarafida esa qonxo'r daryo turardi. Hech bir tomondan chiqib ketishning iloji yo'q edi. Noiloj jangga kirishdi. Bahodirlik otini kurash maydoniga solib, tatar kofirlardan ko'pini halokat tuprog'iga qordi va hech bir kulfatsiz jang qildiki, agar Rustami doston tirik bo'lganda, unga bo'lgan muhabbat yopig'ini o'z elkasiga solgan bo'lardi. Agar kumushdan Isfandiyor bu jangni mushohada qilganda, uning xizmatida qullik lavozimini jonu - dil bilan qabul qilgan bo'lardi».

Chingizxon Jaloliddinni tiriklayin qo'lga olishga farmon beradi. Xorazm bahodiri yetti yuzta mard yigitlari bilan jang maydoni o'rtasida arslonlardek jon berib jon olardi. «Qaysi tomonga ot choptirmasin, tuproqni qonga bo'yar edi. Agar bu jangni Zolning o'g'li ko'rsa edi, o' sulton Jalol (uddin)ning qo'lini o'pgan bo'lardi». Ammo Chingizxon lashkari hisobsiz edi. Uning jang maydonidagi asosiy kuchlari parokanda bo'lish arafasida turgandi. Biroq pistirmadagi 10 ming nafar saralangan lashkar jang oqibatini Chingizxon foydasiga hal qiladi. Sulton Jaloliddin vaziyatning g'oyat og'ir va mushkulini hisobga olib, rafiqasi, onasi va farzandlarining dushman qo'lga tushishini istamay, ularni Sind daryosiga cho'ktiradi. Chunki o'sha kuni mo'g'ullar Jaloliddinning qo'lga tushirilgan 7 yoshli o'g'lining uragini tiriklayin sug'urib olgan edilar. O'zi esa qora to'riq otiga minib, so'nggi bora mo'g'ullarga hamla qilib, so'ng oti jilovini orqaga tortadi. Sovutini yelkadan tashlab, otiga qamchi

bosadi va balandlikdagi qoyadan o'zini Sind daryosiga otadi (Daryo qirg'og'idan to o'zan (suv)gacha o'n gazdan ortiqroq edi). Jaloliddin daryoning narigi sohiliga o'tib oladi va ko'zdan g'oyib bo'ladi. Mirzo Ulug'bekning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Jaloliddinning orqasidan daryoning narigi qirg'og'iga uning yana yetti jangchisi birga suzib o'tadi. Daryo qirg'og'iga kelib, bu voqeani kuzatib turgan Chingizxon taajjub va hayratdan yoqasini barmoqlari bilan tutib: «Otadan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan. U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang (akula) kabi botir. Qanday qilsinki, hali hech kim taqdir bilan, hech bir mojaroda teng kelolmagan. Lekin u mardlikning dodini berdi. Qazoyi qadar qarshisida qudrat qo'lini (mardona) ochdi. Mardlik bilan undan (qazo) qutulib bo'lmaydi. Nima qilsin-qilmasin bu ulug' xudo ishidir», — degan edi.

Dushmanidan omon-eson qutulgan Jaloliddin o'zining oz sonli askari bilan Shimoliy Hindistonning bir chekkasiga o'tib, omonatgina jon saqlashga majbur bo'lgan edi. Bundan xabar topgan Shatra viloyatining podshosi chaqirilmagan mehmonlarning og'ir ahvolidan foydalanib, ularni daf qilmoqchi bo'ladi va hujum uyushtiradi. Ahvolining tangligini hisobga olgan Jaloliddin tavakkal qilib, Shatra podshosini yakkama-yakka jangga chorlaydi. Bu jangda g'alabaga erishgan sultonga Shatra podshosining mingta otliq va besh mingta yaxshi qurollangan jangchilari taslim bo'ladilar va uning tomoniga o'tadilar. Bu muvaffaqiyatdan so'ng tevarak-atrofdagi yangi-yangi kuchlar Jaloliddinga kelib qo'shiladilar. Bu mamlakatning eng katta lashkarboshisi Shamsiddin Eltutmish ham umumiy dushman — mo'g'ullarga qarshi kurashmoq maqsadida 30 ming otliq, va 100 ming piyoda asl qurol tutgan askarlarini olib, Jaloliddin huzuriga keladi. Lashkarboshi ixtiyorida 300 ta fil ham bor edi. Shu tariqa Jaloliddin Hindiston shimolida katta davlat barpo etadi, o'z nomidan kumush va mis tangalar zarb ettiradi, o'zi egallab turgan hududda soliq siyosatini joriy qiladi. U o'z davlati chegaralarini kengaytirib, kuch to'plab, so'ng mo'g'ullar bilan hisob-kitobni bir yoqliq qilishni qalbining to'rida tugib qo'yadi. Jaloliddin Manguberdi ana shu maqsadda o'zining dastlabki harbiy yurishlarini Iroqqa lashkar tortishdan boshlaydi. Tez orada Iroq va Eronning obro'li xon va beklari Jaloliddin tomoniga o'tadilar. Misr va Suriya davlatlari ham sultonga elchi yuborib, u bilan birga qo'shilish istagini bildiradi. 1226-yilgacha Jaloliddin Ozarbayjon va Gurjistonni jang bilan egallaydi.

Ammo, nachora, taqdir o'yini Jaloliddinga kutilmaganda ovoq ostidan yana bir dushmani dunyoga keltiradi. Kichik Osiyodagi Ani

suitoni Alovuddin Qayqubod o'z ixtiyori bilan Jaloliddinga kelib qo'shilgan bo'lsa-da, u bilan o'zaro kelisha olmaydi va Jaloliddinga qarshi fitna tayyorlaydi. Bu fitnada Kichik Osiyodan tashqari, Shom (Suriya), Shimoliy Mesopotamiya kabi davlatlar va boshqa bir qator shaharlarning hukmdor va beklari ham qatnashadilar. Jaloliddin bu fitnani nazar-pisand qilmaydi va e'tibor bermaydi. Jaloliddin bilan fitnachilar qo'shinlari o'rtasidagi jang 1230-yil 10-avgustda bo'lib o'tadi. Unda Jaloliddin qo'shinlari katta mag'lubiyatga uchraydi va u kichik bir guruh qo'shin bilan Ozarbayjon hududlariga chekinadi. Kuchsizlanib qolgan Jaloliddinni uning eski raqibi mo'g'ullar qo'li bilan yo'q qilishga qaror qilgan Ozarbayjondagi ismoiliylar hukmdori Alovuddin Muhammad III mo'g'ullarga yashirin maktub yo'llaydi. Unda Jaloliddin tor-mor qilinganligi va uning qo'shinlari juda oz sonli ekanligi xabar qilinadi. Mo'g'ullar Xorazm bahodirini qo'lga olish uchun maxsus katta qo'shin jo'natadilar. Jaloliddinning o'z a'yonlari va yaqinlari o'rtasida ham e'tibori keta boshlaydi. Hatto uning bosh vaziri Sharof al-Mulk ham unga qarshi fitna uyushiradi. Uning xatlaridan biri Jaloliddin qo'lga tasodifan tushib qoladi va u Sharof al-Mulkni qatl etadi. Xorazmshoh Jaloliddin asta-sekin o'zining barcha boru-bisoti va mulkidan ajraladi. Ular o'zlariga mustaqillik olib, Jaloliddinni tark etadilar. Taqdir undan yuz o'g'irganligiga chiday olmagan sulton maishatparastlik va ichkilikka beriladi.

1231-yilning avgustida tunda mo'g'ullar Jaloliddin Manguberdi qo'rasiga hujum qiladilar va shirakayf holatda yotgan sultonni qo'lga olib, otga bog'lab, olib qochadilar. Yo'lda o'ziga kelgan Jaloliddin qo'lini bo'shatib, yonidagi mo'g'ul askarining qilichini tortib olib, ular bilan jang qiladi va ulardan o'zini ozod qiladi. Yolg'iz qolgan Jaloliddin Manguberдини endi kurd qaroqchilari qo'lga oladilar. U o'zini qaroqchilarning boshlig'iga tanishtirishga majbur bo'ladi: «Meni shu yaqindagi bek qo'lga topshirsang, ayniqsa Shahobiddin Rozi mulkiga olsang, katta mukofot olasan, mening o'zin seni mingboshi qilib qo'yaman» deydi. Bu taklifga qaroqchilar boshlig'i rozi bo'lib, Jaloliddinning qo'lini bog'lab, xotinini unga qorovul sifatida qoldirib, ikkita ot olib kelish uchun qo'shni qishloqqa ketadi.

Shu payt qo'lida nayza ushlagan bir kurd paydo bo'ladi. U qo'li bog'liq asinning kimligini qorovul ayoldan so'raydi. Ayol uning sultonligini, eri qo'lga tushirganligini aytadi. Kurd esa bunga ishonmaydi. Uning akasini xorazmiylar Hilol qamali cho'chida o'ldirgan edilar. Shu bois akasining o'chini olish maqsadida qo'li bog'liq qurolsiz mahbusning ko'kragiga nayza sanchadi va o'ldiradi.

Bu g'oyatda alamii fojia 1231-yil 17--20-avgustlar orasida sodir bo'lgan. Ulug' vatandoshimiz Jaloliddin Manguberding ayanchli taqdiri ana shu tariqa o'z poyoniga yetadi. Uning jasadi Mayafariqninga keltiriladi. Bu yerda uni al-Malik va al-Muzaffar hukmdorning vaziri bo'lgan amakisi O'tirxon taniydi.

Xorazmshoh Jaloliddin Manguberding jasadi tunda Mayafariqninga yaqin joyda dafn etiladi. Uning qabrini hech kim haqorat qilmasin degan maqsadda u yer tekislab yuboriladi.

An-Nasaviy 1241-yilda arab tilida «Siyrat us-Sulton Jaloliddin Manqburni» («Sulton Jaloliddin Manguberding hayot yo'li») asarini yozgan. Bu asar XIII asrda fors tiliga tarjima qilingan, uning arabcha nusxasi Parij, Kohirada va forscha nusxasi Tehronda, ruscha tarjimasi Bokuda nashr etilgan. Ushbu asar asosida 3. M. Buniyodovning «Anushtegin — xorazmshohlar davlati» (1097—1231) asari dunyoga kelgan.

Shahobiddin an-Nasaviy o'z asarida Jaloliddin Manguberding shaxsiy fazilatlari va xususiyatlarini oddiy va sodda ifodalay olgan: "U turk bo'lib, qora mag'iz yuzli, burni oldida qora xoli bor, o'rita bo'yli yigit edi. Fors tilida ham bemaol so'zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo'q, sherlar ichida sher edi. U kamtarin, jiddiy odam bo'lib, hech qachon baqirmas, so'kinmas, o'z atrofida gilar oldida o'zini juda yaxshi, sipo tutar edi. U ko'p gapirmas, xoxolab kulmas, ahyon-ahyonda jilmayar edi. U adolatni hurmat qilar, o'z fuqarolariga nisbatan adolatli bo'lishga intilar edi. U o'z xalqining mushkul ahvolini yengillashtirishni yaxshi ko'rar edi. Biroq u yashagan to's-to'polon davr unga bunday xayrli, savob ishni amalga oshirishga imkon bermadi. U hukmronlik qilgan davrdagi suronli voqealar uni zo'rvonlik ishlatishga majbur etib, uning tabiatini ma'lum darajada o'zgartirdi. Sulton Jaloliddin eng og'ir, murakkab sharoitlarda ham qat'iy tura oluvchi, eng qiyin sinovlardan ham sira qo'rqmaydigan, ularga befarq qarovchi odam edi".

Albatta, Muhammad an-Nasaviydan o'tkazib, ortiqroq bir gap aytib Jaloliddin to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Biz shu narsani ayta olamizki, xalqimiz ona- Vatanni Jaloliddindek sevuvchi farzandlari bo'lganligi bilan faxrlanadi.

Mo'g'ullar istilosi oqibatida Movarounnahr va Xurosonning obod viloyatlari, shaharlari xarobazorga aylantirildi. Zarafshon, Marv, Xorazm vohalarida sug'orish tarmoqlari buzib tashlanishi natijasida yam-yashil dalalar, bog'-rog'lar xarobazorga aylandi. Bu davrda ilm-fan va ma'rifatga yetkazilgan jarohat ham oz bo'lmadi.

Bosqinchilar to's-to'poloni vaqtda Buxoroda, Samarqandda, Urganchda bir nechta kutubxonalar yonib ketdi. Misol uchun,

Buxoroda «Mas'udiya» madrasasi va katta kutubxona yonib ketdi. Faqat XIII asrning 70-80- yillariga kelib O'rta Osiyoda asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, shahar hayoti, hunarmandchilik jonlana boshlandi. Mo'g'ul bosqini davrida inqirozga yuz tutgan fan-adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi. XIII asrda Buxoroda «Mas'udiya» va «Xoniya» madrasalari qurildi. Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy kabilar adabiyot sohasida ijod etdilar. Undan tashqari, Abu Umar Mirhojiddin Jusjoniyning «Tabaqoti Nosiriy», Alouddin Otamalik Juvayniyning «Tarixi jahon gushay» («Jahon fotihlari tarixi»), Fazlulloh Rashididdinning «Jome at-tavorix» («Tarixlar to'plami») kabi tarixiy asarlari yaratildi.

6.3. XIV-XV asrlarda O'rta Osiyoda moddiy-ma'naviy madaniyat ravnaqi

XIV asrning 50-60-yillarida O'rta Osiyoda feodal tarqoqlik g'oyatda kuchayib, ular qonli urushlarga aylandi. Amir Bayon Sulduz Samarqandda, Amir Xoji Barlos Keshda, Amir Boyazid Jaloir Xo'jandda, O'ljoytu Sulduz Balxda, Muhammad Xo'ja Yazdiy Shibirg'onda o'zlarini mustaqil hisoblaganliklari sababli, ular o'rtasida doimiy nizolar bo'lib turdi. Natijada davlatni boshqaruv ishlari va xo'jalik hayoti butunlay izdan chiqqan edi.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganidan keyin (1370-y.), u va uning avlodlari davri mamlakatimiz tarixi turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga boy davr bo'ldi. Bu davrda O'rta Osiyoda uzoq muddat davom etgan mo'g'ullar istibdodiga barham berildi. Xususan, bu davrda ilmiy-madaniy hayotning gurkirab rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin. Amir Temur tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, tilshunoslik, diniy ilmlarga katta e'tibor berdi. Uning saroyida Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Bahriiddin Ahmad, Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy kabi allomalar faoliyat ko'rsatishgan. Amir Temur harbiy yurishlar, davlatni boshqarish ishlaridan tashqari juda ko'pgina me'moriy obidalar qurish ishlarini ham olib bordi. Ayniqsa, Samarqandda juda ko'plab me'moriy obidalar, bog'lar, saroylar bunyod etildi. Xususan, Bibixonim masjidi, Shohizinda maqbarasi, Bog'i Dilkusho, Bog'i Nav, Bog'i Bihisht, Bog'i Shamol kabi bog'lar, Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy kabi qarorgohlar shular jumlasidandir.

Amir Temur Shahrisabzda Oqsaroy va maqbaralar, Turkisonda Ahmad Yassaviy maqbarasi, Toshkentda Zangiyota maqbarasi,

Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasalar barpo ettirdi. Butun O'rta Osiyo hududlarida qishloqlar, karvonsaroylar, hammomlar, madrasalar, maqbaralar qurilishi o'sha davr uchun misli ko'rilgan darajada olib borildi.

Amir Temurdan so'ng uning avlodlari jahonning moddiy-ma'naviy madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shdilar. Xususan, **Ulug'bek davrida fan va madaniyatga homiylik qilish**, bu sohalarning gullab-yashnashi va qurilish ishlari yanada avj oldi. Ulug'bek zamonida Samarqand, Buxoro, G'ijduvon, Shahrisabzda masjid va madrasalar, saroylar bunyod etildi. 1428-1429-yillarda Samarqandda rasadxona bunyod etildi. Bu rasadxonada Ulug'bek bilan o'z davrining mashhur olimlari Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchilar ham faoliyat ko'rsatib, astronomiya sohasida ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Rasadxona yordamida Ulug'bek mashhur astronomik jadvallar — «Zij Ko'ragoniy»ni tuzdi.

Bu davrda tarixiy fanlar sohasida ham ko'pgina ishlar qilindi. 1424-1425-yillarda Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»ni tugatdi. Hofizi Abro' "Zubdat at-tavorix" («Tarixlarning yuqori qismi») asarini yozdi. Abdurazzoq Samarqandiy o'zining «Matla' us-sada'yn va majmai ul-bahrayn» asarida Shohruh davri tarixini yoritib berdi. Shuningdek, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilarning ham ijodi gullab-yashnadi.

Bu davrda adabiyot sohasida ham samarali ishlar qilindi. Bu jarayonda shoir va davlat arbobi bo'lgan Alisher Navoiyning xizmatlari katta bo'ldi. Undan tashqari, Jomiy, Lutfiy, Sakkokiy kabilar o'lmas asarlar yaratdilar. Kamoliddin Behzodning rassomlik faoliyati rivojlandi. XIV-XV asrlar O'rta Osiyoda musiqa san'ati taraqqiyotida ham yangi mahsuldor bosqich bo'ldi. Mahoratli sozandalar, bastakorlar, hofizlar orasidan Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Qosim Rabboniy, Darvish Ahmad Qonuniy va boshqalar yetishib chiqdilar. Umuman olganda, temuriylar davridagi madaniy taraqqiyot «Temuriylar uyg'onishi (renessansi)» atamasiga muvofiq keladi. Bu, haqiqatan ham, turli madaniy doiralar — fan, adabiyot, badiiy ijodning yagona O'rta Sharq zaminida o'ziga xos uyg'onishi edi.

Tayanch tushunchalar

Somoniylar, devonlar, yer egaligi turlari, «Bayt ul - hikma», mashhur allomalar, mo'g'ul bosqini, siyosiy tarqoqlik, Amir Temur davrida ilm-fanning taraqqiy etishi, Ulug'bek faoliyati, renessans.

Takrorlash uchun savollar

- 1.VIII asr oxiri IX asr boshida xalifalik tarkibidan qaysi davlatlar ajralib chiqdi?
- 2.Somoniylar davlat ma'muriyatini qanday tashkil qilganlar?
- 3.Qorahoniylar davlatni qanday tartibda idora qilganlar?
- 4.Sharqda islom dinining eng nufuzli markazi qayer edi?
- 5.Bag`dodda «Bayt ul-hikma»da ta'lim olgan mashhur allomalardan kimlarni bilasiz?
- 6.Abu Rayhon Beruniyning qanday asarlarini bilasiz?
- 7.Vatandoshlarimizdan qaysi ulug` allomalar diniy bilimlarning rivojiga hissa qo`shishdi?
- 8.Qanday sabablarga ko`ra mo`g`ullar O`rta Osiyoni fath etishga muvaffaq bo`ldilar?
- 9.Jaloliddin Manguberding nomi nima uchun mangulikka daxldor?
- 10.Temuriylar davrida ilmiy-madaniy hayotning rivojiga kimlar hissa qo`shgan?

7-mavzu. AMIR TEMUR DAVLATI VA UNING HUQUQIY-G`OYAVIY ASOSLARI

REJA

- 1.XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrdaagi vaziyat. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishi.
2. Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosati.
- 3.«Temur tuzuklari»- adolatli hamda kuchli davlat barpo tishdagi muhim qonun-qoidalar sifatida.
- 4.Amir Temur davri ma'naviyati va hozirgi zamon.

Adabiyotlar

10.11.26.39.40,41,56,57,69,72,78,84,86.

7.1. XIV asr ikkinchi yarmida Movarounnahrdaagi vaziyat. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishi

XIV asr o`rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo`rlari qo`l ostida bo`lsa ham bu yerlar mayda bo`laklarga bo`linib ketib, ularda to`ju taxt, hokimiyat uchun o`zaro nizolar kuchayib ketgan edi. 1348 yilga kelib, Sharqiy Turkiston yerlarida

Mo'g'uliston feodal davlati tashkil topdi, uning xoni eib Chig'atoy avlodidan Tug'luq Temur ko'tarildi. Tug'luq Temur dastlabki davrlardan o'z yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahr yerlariga bir necha harbiy harakatlar uyushtirdi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy inqiroz kuchayib borgan davrda tarix maydoniga mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda nom chiqargan buyuk sohibqiron, mohir sarkarda Amir Temur kirib keldi.

Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida barlos beklaridan Muhammad Tarag'ay oilasida 1336-yil 8-aprelda dunyoga kelgan. Uning amakisi Hoji Barlos Kesh shahrining hokimi edi. Temur yoshligidanoq harbiy mahoratga ega shaxs bo'lib, u o'z atrofiga barlos urug'idan chiqqan yosh jangchilarni to'plagan edi. 1360-1361- yillarda Tug'luq Temur hech qanday qarshiliksiz Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Xoji Barlos Xurosonga qochadi. Vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor hissiyoti kuchli bo'lgan yosh Temur esa amakisi hokimlik qilib turgan yerlarini dushman qo'lga bermaslik uchun Tug'luq Temur xizmatiga kiradi va tez orada uning ishonchini oqlab, Kesh viloyati yerlariga hokimlik qilish uchun yorliq oladi.

Amir Temurning bu ishi Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik, o'zaro kurashlar va boshboshdoqlik hukm surgan davrdagi birdan bir to'g'ri yo'l edi. Chunki Movarounnahr amirlarining Tug'luq Temurga qarshi bosh ko'tarib chiqishi mo'g'ul bosqinchilarining Movarounnahr yerlarini yana bir bor vayron etishiga olib kelishi muqarrar edi.

Tug'luq Temur 1361-yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni tajribasiz o'g'li Ilyosxo'jaga topshiradi. Lekin Temur Ilyosxo'jaga xizmat qilishdan bosh tortib, o'sha vaqtda Balx hokimi bo'lib turgan Amir Qozog'onning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. Temur o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mo'g'ullarga qarshi kurash boshlaydi. Mahalliy hokimiyat uchun bo'lgan janglarning birida, aniqrog'i, Seyistonda turkmanlarga qarshi bo'lgan janglarda o'ng qo'li va o'ng oyog'idan yaralanib, bir umrga oqsoq bo'lib qoladi. Shu boisdan undan dahshatga tushgan dushmanlari Amir Temurni hasad bilan "Temurlang" deb atashgan.

1363-yilda Tug'luq Temurning vafoti Movarounnahr uchun bo'lgan kurashlarni kuchaytirib yuboradi. Lekin mo'g'ul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahr yerlarini bermasliklari ma'lum edi. Shu munosabat bilan, Amir Temur va Tug'luq Temur vafotidan so'ng Movarounnahrdan haydalgan Amir Husaynning birlashgan do'stinlari 1365-yilda Ilyosxo'ja qo'shinlariga qarshi ittifoqlikda kurash

boshlaydilar. Toshkent va Chinoz oralig'ida bo'lgan mashhur «Loy jangi» ittifoqchilar o'rtasidagi kelishmovchilik tufayli mag'lubiyat bilan tugaydi. Ushbu voqealardan so'ng Amir Husayn va Amir Temur o'rtasida dastlabki ixtilof boshlanadi. «Loy jangi»da g'alabaga erishgan Ilyosxo'ja uchun Movarounnahrda keng yo'l ochilgan edi.

U katta qo'shinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlonzoda va Abu Bakr Qalaviy boshliq sarbadorlar Ilyosxo'jaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalari ko'rsatib qarshilik qilganliklari tufayli Samarqandni biroz qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrni butunlay tark etishga majbur bo'ladilar.

Movarounnahrda mo'g'ullar ustidan qozonilgan g'alaba haqida xabar eshitgach, Amir Temur va Amir Husayn Movarounnahrda yo'l olib, Samarqand yaqinidagi Konigil degan joyda sarbadorlarning rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari hiyla yo'li bilan o'ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Husayn egallab, uning hukmronligi tiklanadi. Shu vaqtdan boshlab Amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashib ketadi.

Bu vaqtga kelib, butun Movarounnahr yerlarida o'zaro urushlardan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og'irlashib ketgan edi. Mana shunday bir vaqtda, mamlakatda o'zaro urushlarga barham beradigan markazlashgan davlat tizimini barpo etish nihoyatda zarur edi. Buni birinchi bo'lib anglagan Amir Temur Amir Husaynga qarshi zimdan kurash olib borib, 1370-yilda Movarounnahr taxtini egallashga muvaffaq bo'ladi.

Vatan haqida qayg'urish, Vatan mustaqilligini tiklash haqidagi fikrlar shu yillar yuzaga chiqib, Amir Temur Balx shahrida chaqirilgan qurultoyda Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi. Temur o'z tasarrufida markazlashgan davlatni yuzaga keltirish maqsadida Kesh shahridan Samarqandga ko'chib o'tib, uni Movarounnahrning poytaxtiga aylantiradi. Sohibqiron amiq mulohazalari bilan xalqni zulmdan ozod qilish va uzoq yillik boshboshdoqlik hukmron bo'lgan yerda markazlashgan davlat tuzish mushkulligini sezganligi sababli, dastlab, mamlakatni tashqi xavfdan saqlash maqsadida asosini barlos urug'lari tashkil etgan yengilmas va jangovar milliy qo'shin tuzadi, ularga katta intiyozlar beradi.

Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda, asosan, o'z qo'shinlariga suvanganligi sababli harbiy islohotga, ya'ni qo'shin boshliqlarini tanlash, lashkar qismlar, ularning joylashishi, askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e'tibor bergan. U qo'shinlarini o'nlik, yozlik, minglik kabi askariy

birikmalarga bo'lgan. Uning uchun har bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz hisoblagan. Amir Temur lashkarlarga ham katta e'tibor berib, ular nizomni qat'iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo'lishi, dushmanga yumshoq muomalali va adolatli bo'lishi lozim deb hisoblardi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor, saxovatli, xudojo'y kishilar ko'p bo'lgan. Ular bechoralarga xayr-u ehson ko'rsatish, boshga og'ir kunlar tushganda, yordam qo'lini cho'zish, asirlarga yumshoq muomalada bo'lish va ularni ozod etishga odatlanganlar. Amir Temur doim jangda jasorat ko'rsatgan amirlar va askarlarga alohida e'tibor bilan qaradi. Natijada Sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qo'shinlari ichida intizomni mustahkamlash bilan o'z davlatining poydevori bo'lgan qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Temur Movarounnahr taxtini egallagan vaqtdan boshlab, o'z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Shu maqsadda u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni o'z tasarrufiga oladi. Xorazmga besh marotaba yurish qilib, 1388-yilda uni butunlay bo'ysundiradi, bu yerda hukmronlik qilayotgan so'fiylar sulolasini tugatadi. Temur o'zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotida kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni o'z tasarrufiga oladi. 1394-1395-yillarda Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi yurish qilib, uning ko'p sonli qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi va Oltin O'rda hududini egallaydi. Temurning bu g'alabasi Oltin O'rdaga juda katta zarba berish bilan birga, Temur qo'shinlarining Volga daryosi bo'ylarida bema'lol yurishlariga ham keng yo'l ochdi. Ta'kidlash jo'zki, Temurning bu g'alabalari tarix sahnasida ukan ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur 1398-yilda Hindistonga qilgan yurishida Dehli shahrini, 1400-yilda Suriyaga qilgan yurishida Halab va Bayrut shaharlarini, 1401-yilda Damashq shahrini egallaydi. 1402-yilda usmoniylik imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag'lubiyatga uchratdi. Bu g'alaba bilan Temur Yevropaniig usmoniylik asoratiga tushishini bir necha o'n yillar orqaga surib yubordi.

Temur 1404-yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga yurish uchun harbiy taraddud ko'radi. Shubhasiz, Temur bu yurish uchun uzoq yillar tayyorlanib, jang uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yillar davomida to'plagan edi. 1404-yilda Temur 200 minglik qo'shin bilan Xitov safariga otlandi. Ammo Temurning qattiq betobligi tufayli uning qo'shinlari 1405-yilning yanvar oyida Xitoyga

yaqin bo'lgan chigara shahar O'tror shahrida to'xtaydilar va shu yerda 1405-yilning 18-fevralida buyuk sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

7.2. Amur Temur davlatining ichki va tashqi siyosati

Temur o'zining hayoti davomida harbiy iste'dodi, mohir sarkardaligi, diplomatligi va yetuk davlat arbobi bo'lganligi tufayli milliy yuksalish va insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Sohibqiron turkmo'g'ul an'alariga amal qilgan holda, o'z davlati hududlarini suvurg'ol tariqasida in'om qilish yo'li bilan boshqargan. Temur Movarounnahrda tashqaridagi yerlarini to'rt ulusga bo'lib, farzandlariga in'om etdi. Bu masalaning e'tiborli tomoni shundaki, garchi sohibqiron tomonidan bo'lib berilgan yerlar ichki mustaqillikka ega bo'lsalar-da, amalda batamom markaziy hokimiyatga bo'ysundilar. Temurning o'ta darajadagi zukkoligini shundan bilsa bo'ladiki, u uluslar o'rtasida o'zaro nizolar kelib chiqmasligi uchun ularning faoliyatini doimo o'zi nazorat qilib turadi.

Temur davlatining eng ko'zga ko'ringan va muammoli tomoni shundaki, sohibqiron kichik bir viloyat doirasida tarbiya topgan bo'lsa-da, davlat mafkurasining boshqaruv tayanchi kuchli hokimiyat ekanligini tushundi va davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaydigan vazirlarni tanlashga harakat qildi. Amir Temur vazir to'rtta sifatga ega bo'lishi lozim deb hisoblagan: birinchisi-asllik, toza nasllilik, ikkinchisi aql-farosatlilik, uchinchisi-sipoh, raiyat ahlidan xabardorlik, to'rtinchisi-sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Amir Temur hukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yig'ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, saroy harajatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajararlar.

Bu davrlarda yerga egalikning ba'zi turlari mavjud bo'lib, ular suvurg'ol yerlar, vaqf yerlar, jamoa yerlari edi. Xususiy yer egalari, tarvon unvonini olganlar, davlatga soliq to'lashda ba'zi imtiyozlarga ega bo'lganlar. Vaqf yerlar masjid va madrasalarga qarashli yerlar bo'lib, bu yerlardan soliq olinmagan. Amir Temur davrida asosiy soliq daromad solig'i-xiroj bo'lib, u olinadigan daromadning uchdan bir qismiga teng bo'lgan. Temur tuzuklarida yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki yer osti suvlarini tortib oladigan inshoot

qursa, yo, biron bog` ko`kartirsa yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, faqat yerni o`zlashtirganining uchinchi yili (birinchi, ikkinchi yil, umuman, to`lamagan) qonun doirasida xiroj solig`i olingan. Undan tashqari, ushr, mol, suvloq kabi soliq turlari mavjud bo`lib, ular yillar davomida amal qilingan tartib-qoidalarga binoan to`plangan. Soliq to`lovchi soliq yig`ish jarayonida soliqni yaxshi so`zlar bilai to`plashi, aholini kaltaklash hollari, zanjirband etish hollari kelib chiqmasligini nazorat qilishi shart edi.

Amir Temur davlatining asosini o`n ikki ijtimoiy toifa tashkil etgan. «Temur tuzuklari»da sanab o`tilgan bu toifalar quyidagilardir: 1. Sayyidlar, ulamo, mashoyix, fozil kishilar; 2. Ishbilarmon, donishmand odamlar; 3. Xudojo`y, tarkidunyo qilgan kishilar; 4. No`yonlar (no`yon — tuman boshlig`i—10 ming kishilik qo`shin boshlig`i—Sh.K.P.Sh.); amirlar, mingboshilar, ya`ni harbiy kishilar; 5. Sipoh, va raiyat (raiyyat—soliq to`lovchi xalq); 6. Maxsus ishonchli kishilar; 7. Vazirlar, sarkotiblar; 8. Hakimlar (faylasuflar, donishmand, allomalar—Sh.K.R.Sh.); 9. Tafsir va hadis olimlari; 10. Ahli hunar va san`atchilar; 11. So`fiylar; 12. Savdogar va sayyohlardir.

Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarining tutgan o`rniga keng e`tibor berdi. Fransuz olimi Alfons de Lamartin Amir Temur davlati haqida shunday degan edi: «Yevropa na Iskandarda, na Afildada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi foth Napoleonada adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas». «Davlat ishlarini,—deb yozgan edi Amir Temur,— saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To`ra va tuzukka tayanib, saltanatda o`z martaba va maqonimni mustahkam saqlab turdim».

Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta e`tibor berdi. Dastlab, Samarqandni poytaxt qilib olgach, u juda katta imtiyozlarga ega bo`lgan shaharga aylanadi. Sohibqiron harakati bilan Samarqandda dunyoning yirik shaharlaridan keltirilgan binokorlar, me`morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar bino etildi. Hatto g`ariblarga oziq-ovqat beradigan g`aribxonalar, yo`lovchilar qo`nib o`tadigan maxsus joylar ham qurilgan. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan o`ralib, Ohamin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So`zangaron va Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma`muriy bino Ko`ksaroy va Bo`stonsaroylar ham aynan shu yerda quriladi. Temur noyob qurilishlardan tashqari, Samarqand atrofida o`zining xesh-u aqrabolariga atab turli go`zal bog`lar qurdirardi.

Temur ulkan sohibqiron sifatida o`zining ona yurti Keshga katta

diqqat-e'tibor bilan qaradi. Yozma manbalardagi ma'lumotlariga qaraganda, Amir Temur Shahrisabzda Oqsaroy, jome' masjid, madrasalar barpo ettiradi. Sohibqironning ulug' saxovatining yana bir tomoni shunda ediki, u bepoyon dastlar bilan qamrab olingan Turkiston shahrining ham obodonchiligiga keng e'tibor berdi. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini qurish bilan bu yerda nafaqat obodonchilik, balki ko'chmanchi va o'troq aholi orasidagi munosabatni yaxshi yo'lga qo'yish, urug'lar o'rtasida tinchlik saqlash maqsadi yotgani ma'lum.

Amir Temur davrida yangi shaharlar, savdo va hunarmandchilik keng rivojlanganligini aytib o'tish lozim. Temurning sa'y-harakatlari bilan Buxoro, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib bordi. Ayniqsa, bu davrlarda hunarmandchilikning keng rivojlanishi shaharlarda hunarmandchilik mahallalari, savdo rastalari soni ortib borishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Sohibqiron savdo yo'llari rivojiga, uning tinchligiga keng e'tibor berib bordi. Shaxsan o'zining nazorati ostida savdo yo'llari nazorat qilib borilishi savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minladi.

Sohibqiron chet davlatlar bilan aloqani keng yo'lga qo'ydi. U davr shart-sharoitlariga ko'ra tashqi siyosatta qat'iy, faol harakat qilib, o'z saltanati dovrug'ini jahon miqyosiga chiqara oldi. Sohibqironning Yildirim Boyazid ustidan bo'lgan g'alabalaridan so'ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif etgan. Shunday qilib u Yevropa davlatlari bilan yaqin qo'shnichilik qilish, savdo karvon yo'llarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib, o'z davlati shuhratini Yevropaga tarqata oldi. Uning saltanatini dovrug'i bu mamlakatlarga yetib borishi bilan Fransiya, Angliya, Genuya, Vizantiya, Ispaniya kabi davlatlarning qirollari sohibqiron bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o'rnatishga intilganlar. Shu bois ular sohibqiron huzuriga muntazam elchilar yuborib turganlar. Temurning chet davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalarida uning o'g'li Mironshoh ko'p yordam bergan.

Amir Temur davrida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo'lgan. Sohibqiron o'z davrining fan va madaniyati jonkuyari sifatida shuhrat qozondi. Temur taqvovor ruhoniylarga chuqur hurmat bilan qaradi. Ularning duolarini oldi, doimo kamsitilgan mazhab tarafdorlarini o'z himoyasiga oldi. Darvesh, faqir va miskinlarni o'ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslik uchun barcha talablarini bajardi.

O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy taraqqiyotida Temurning diniy va dunyoviy bilimlarga e'tibor berishi katta ahamiyatga ega edi.

Sohibqiron doimo ilm ahli va ulamo bilan suhbatda bo'lib, qalbi toza kishilarga talpingan. Temur davridagi ilm-fan, me'morchilik, san'at sohaları o'z davriga nisbatan o'ta darajada rivojlanib, yuksak ma'naviy boylik darajasiga ko'tarildi. Shu davrning nodir qo'lyozmalari tarixning mo'jizasiga aylanib qoldi.

Amir Temurning doimo amal qilib kelgan «Kuch adolatdadir» degan so'zlari uning davlatni boshqarishdagi yuksak qobiliyatidan dalolat beradi.

Mashhur muarrixlardan biri Nizomiddin Shomiy o'zining «Zafarnoma» asarida shunday yozadi: «...uning adolati-yu siyosati o'rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xo'tan chegarasidan Dehli va Kanboyit atrofigacha, Bobil Abvobdan to Misr va Rum hududigacha bo'lgan yerlardan savdogarlar u yerda tursin, bolalaru, beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollari keltirardilar va olib ketardilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko'z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz ne'mat va poyonsiz marhamatlar Amir sohibqironning siyosati va adolati natijasidandir».

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Temurning hayoti katta jangnoma, u ko'plab mamlakatlarni o'z tasarrufiga oldi. Lekin bu yerdagi asosiy masala Temur shaxsining ustunligini va idora qilish qudratining sirlarini, mohir sarkarda va tinchlik posboni, fuqaro farovonligi rahnamosi sifatidagi shaxs ekanligi, uning yuksak me'moriy inshootlar qurishdagi o'rini izohlash, uning yechimini topishdir.

7.3. «Temur tuzuklari» - adolatli hamda kuchli davlat barpo etishdagi muhim qonun-qoidalar sifatida

Amir Temur va temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar anchagina bo'lib, ular orasida «Temur tuzuklari» buyuk jahongir havoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar ichida, shubhasiz, alohida ahamiyat kasb etadi. «Temur tuzuklari» jahonning mashhur kutubxonalaridan joy olgan qimmatli asardir.

«Temur tuzuklari» ikki qism, 56 ta bandedan iborat tarixiy va huquqiy asar bo'lib, unda sohibqironning davlat tuzilishi va mamlakatlarni boshqarish xususidagi nuqtayi nazarini bayon qilinadi. Bu asardan ko'plab sharq hukmdorlari o'zlarining faoliyatlari davomida foydalanganlar va unga yuqori baho berganlar. Jumladan, Shoh Jahon(1628-1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1821-1842), Buxoro amiri Abdullahadxon(1885-1910) «Tuzukot» dan

parchalar ko'chirtirib, ulardan o'z faoliyatlarida foydalanganlar.

«Tuzuklar»ning birinchi qismida Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342-1405-yil 18-fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va mamlakatlarni, masalan, Eron va Afg'onistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda xoni To'xtamishxon ustidan, nihoyat, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qismi Solihqironning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-u nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalaring burchi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokozolar xususida gap boradi.

Amir Temur o'z oldiga ulug' davlatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mo'g'ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etib, xo'jalikni oyoqqa turg'izish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni bir me'yorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini himoya qilish, islom diniga rivoj berish, ilm-fan, madaniyat, me'morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko'lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo'ygani edi. Uning bunday sa'y-harakatlari katta kuch-g'ayrat, mablag', bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi. Temur yetuk siyosatdon va mohir davlat arbobi bo'lib, u o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farqli ravishda, davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyangan.

7.4. Amir Temur davri ma'naviyati va hozirgi zamon

Ma'naviy ildizlanmizdan biri bu Temur ma'naviyatidir. Bu qudratli manba insoniyat tarixida tengi yo'q markazlashgan davlatchilikka, qonunchilikka asos solish bilan yer yuzining devarli hamma mamlakatlarida o'rganilib, hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amir Temur insonni qadrlay oladigan va uni farqlay oladigan ulkan arbob edi. Musulmonchilikda, "Eng yaxshi kishining ikki qo'li ham to'g'ri bo'ladi, u bir qo'li bilimgina emas, ikki qo'li bilan ham

yaxshilik qiladi», degan hikmatli ibora bor. Amir Temur do'stiga ham, dushmaniga ham ana shunday ikki qo'li bilan yaxshilik qildi. Qolganlarni ham shunga undadi. "Tuzukot» da ham, tarixiy asarlarning mualliflari ibn Arabshoh Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy asalarida ham, de Klavixo kundaligida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

Temur o'z faoliyati davomida oliy insoniy fazilatlariga astoydil amal qildi. Temur o'z farzandlariga qilgan vasiyatda shunday deydi: «... Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zailarni ko'ring, yo'qsillarni zanginlar (boylar) zulmiga tashlamang. Adolat va yaxshilik qilmoq dasturingiz bo'lsin». Adolatni shunchalik qadrlagan hukmdor, albatta, xalq orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lishi tabiiy hol edi.

Temurning «Kuch-adolatda» degan so'zi haqiqatda shiorga aylanib, hamma davrlar uchun jaranglab turuvchi ibora tusini olganligini shohidi bo'lishimiz mumkin. Temur xalqning shikoyatlari va arzlarini o'rganuvchi maxsus arzbegi lavozimini joriy qilgan. Arzbegi shikoyat, arzalarni ko'rib chiqar, ularda kimlar aybdorligini aniqlar va bu xususda kengashga xabar qilar edi. Aybdorlar kim bo'lishidan qat'iy nazar qattiq jazolangan. Soliqlar, moliyaviy masalalarda qat'iy tartib qoida o'rnatilgan. Rus sharqshunosi D.N. Logofet bu xususda shunday deb yozadi: «... biz hozir zo'r berib intilayotgan daromad solig'i degan narsa uning (Temurning) hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi».

Temur ma'naviyati ulkan manba va tunganmas bir buloqdir. Hozirgi mustaqillikka erishgan davrimizda yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda, milliy mafkura g'oyalarini fuqarolarimiz ongiga singdirishda bu manbaning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham Prezidentimizning Amir Temur tavalludining 660 yillik tantanalari va keyingi vaqtdagi qator chiqishlarida bu manbaning ahamiyati takror va takror qayd etilmoqda. Temur ma'naviyatining bizga o'rgatuvchi, saboq bo'lguvchi joylari juda ko'pdir. Zero, bu ma'naviyat-bobokalonlarimizning bebaho ma'naviy boyligining bir bo'lagi bo'lib, yurtimiz ravnaqi va porloq kelajagi uchun hamisha xizmat qilajakdir.

Hurmatli yurtboshimiz Islom Karimov Amir Temur davri ma'naviyati, sohibqiron shaxsiyati va u qoldirgan ulkan meros nima uchun zarurligi masalalariga to'xtalib, buni quyidagicha sharhlab berdilar: «Amir Temur avvalo qudratli davlat qurgan. Davlat qudratli bo'lmasa, betakror ma'naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo'lmasdi. O'zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat

asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning «Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim» degan so'zlari buning yorqin dalilidir.

Tayanch tushunchalar

Markazlashgan davlat, Amir Temur, «Loy jangi», Ilyosxo'ja, Sarbadorlar, Temur davlati, harbiy yurishlar, Anqara jangi, suyurg'ol, devonbegi, arkbegi, tarxon, «Kuch adolatdadir», «Temur tuzuklari», Temur davri ma'naviyati.

Takrorlash uchun savollar

1. Amir Temur qayerda tug'ilgan?
2. Qanday sabablarga ko'ra "Loy jangi" Ilyosxo'janing g'alabasi bilan yakunlandi?
3. Amir Temur qachon Movarounnahr taxtini egallashga muvaffaq bo'ldi?
4. Amir Temur davlatida vazirlarning vazifalari nimalardan iborat edi?
5. Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga qanday e'tibor bergan?
6. Amir Temur qaysi chet davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o'rnatgan?
7. Temur tuzuklarining nechanchi qismida Amir Temurning harbiy yurishlari haqida hikoya qilinadi?
8. Amir Temurning davlat va mamlakatni boshqarishda o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farqli tomonlari nimalarda deb o'ylaysiz?
9. Buyuk jahongir hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi qanday asarlarni bilasiz?
10. Sizningcha, Amir Temur bilan Yildirim Boyazid o'rtasida bo'lib o'tgan urushdan Yevropa hukmdorlari qanday naf ko'rdilar?

8-MAVZU: TURKISTONNING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

REJA

1. XV-XVI asr boshlarida Movarounnahrda*gi* ijtimoiy – siyosiy vaziyat.

2. O'rtta Osiyo hududlarining parchalanishga yuz tutishi va ularning sabablari.

3. O'rtta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketish oqibatlari.

Adabiyotlar

12,13,26,45,53,58,67,68

8.1. XV-XVI asr boshlarida Movarounnahrda*gi* ijtimoiy- siyosiy vaziyat

1405-yilda, Amir Temur vafotidan so'ng, uning yirik davlati parchalana boshladi. Temuriy shahzodalarning taxt uchun o'zaro kurashlari qudratli davlatning bo'linishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. Sahibqiron taxtiga valiahd qilib nabirasi Pirmuhammadni qoldirgan bo'lsa-da, ko'pgina amirlar va amaldorlar uning hukmronligini tan olmadilar. 1405-yil mart oyida Temurning boshqa bir nabirasi Xalil Sulton Samarqand taxtini egalladi. Undan tashqari, Xurosonda Shohruh; Balx, G'azna va Qandahorda Pirmuhammad, G'arbiy Eron va Ozarbayjonda Mirzo Umar va Abu Bakr Mirzo; Turkiston, Sabron, O'tror, Sayramda Amir Berdibek, O'ratepa va Farg'onada amir Xudoydod, Xorazmda amir Idiku o'zlarini hukmdor deb e'lon qildilar.

Mamlakatdagi parokandalik va o'zaro urushlarga barham berish uchun Shohruh Mirzo ko'p sa'y- harakatlar qildi. XV asrning 20-yillariga kelib, Amir Temur mulklarining qariyb hammasi Shohruh va uning oila a'zolari qo'l ostida edi. Movarounnahr yerlarini 1409-yildan boshlab Shohruhning to'ng'ich o'g'li Mirzo Ulug'bek boshqara boshladi. Ulug'bekning hukmronlik davri (1409-1449-y.), asosan, Movarounnahrda ijtimoiy-iqisodiy hayot, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Ulug'bek bobosi Amir Temur kabi harbiy istodga ega emas edi. U mamlakat ichidagi va atrofidagi osoyishtalikni saqlab turish maqsadida ayrim harbiy yurishlar qilib turdi, xolos. 1447-yilda, Shohruh Mirzo vafotidan so'ng, temuriyzodalar o'rtasida kurash boshlanib ketdi. Oqil va dono hukmdor Ulug'bek bu kurashlarga

barham berishga harchand harakat qilmasin, buning uddasidan chiqolmadi. Aksincha, o'g'li Abdullatifning bevosita ishtiroki tufayli o'zi bu kurashlarning qurboni bo'ldi. Xullas, XV asrning o'rtalariga kelib, Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin (1449-y.) Temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun kurash yana avj oldi. Abulqosim Bobur (1452-1457) va Abdusaid Mirzolarining (1458-1468) faoliyati ham o'zaro urushlarga barham bera olmadi. 1469-yilga kelganda Xurosonda Husayn Boyqaro hokimiyatni egallab, bu hududlarda nisbatan tinchlik o'rnatdi. Uning do'sti buyuk shoir Alisher Navoiy (1441-1501) muhrdor, vazir, Astrobod hokimi lavozimlarida ishlab, Xuroson ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynadi. Navoiyniig sa'y-harakatlari bilan Hirotda ilm-fan, madaniyat gurkirab rivojlandi. O'zaro urushlarga nisbatan barham berildi.

Movarounnahrda esa bu davrga kelib, siyosiy tarqoqlik avjiga chiqdi. Har bir viloyat, har bir shaharda temuriy shahzodalar o'zlarining mustaqil hukmronligini o'rnatishga harakat qildilar. Bu o'zaro kurashlar Movarounnahr ahlining ahvolini yomonlashishiga olib keldi.

XV asr oxirlariga kelib, Movarounnahrda Temuriylarning bir-biridan o'zaro mustaqil bo'lgan uchta hokimiyati vujudga keldi:

Samarqandda Sulton Ahmad Mirzo hukmronligi (1468— 1503);

Toshkentda Sulton Mahmud Mirzo hukmronligi (1468-1498);

Andijonda Umarshayx I Mirzo hukmronligi (1468-1494).

Bu uchala davlatning o'zaro urushlari Movarounnahr ahlining temuriylardan noroziligini yanada avj oldirdi. Ayniqsa, yuqori tabaqa vakillari markazlashgan davlat tarafida turdilar. Bu temuriyzodalarning davlat boshqaruvida mustahkam tayanchga ega emasligidan dalolat berardi. Bu vaqtda temuriylar huzurida ta'lim olgan Abulxayrxonning nevarasi Muhammad Shohbaxt (1451-1510) Dashti Qipchoqda dasht urug'larini birlashtirib, o'z hokimiyatini mustahkamlamoqda edi.

Shayboniyxon harbiy harakatlar olib borib, markazlashgan davlat tuzish maqsadida goh temuriylar, goh shimoldagi mo'g'ullar bilan ittifoq tuzdi. U 1487-88-yillarda O'tror, Sayram, Yassi (Turkiston), Sig noq shaharlarini bosib olib, 1499-yilda Movarounnahr hududlariga jiddiy harbiy harakatlar boshladi.

Mahalliy hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro kurashlar avj olgan Samarqand shahrini Shayboniyxon 1500-yilning boshlarida jangsiz egalladi. Dasht ulug'lari bir necha oy shaharni shafqatsiz talon-taroj qildilar. Bu esa mahalliy feodallar noroziligiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) o'sha yili (1500-yil) Samarqand taxtini ikkinchi marta egalladi.

Ammo mahalliy zodagonlar ko'pchiligi Boburni qo'llab-quvvatlamadilar. 1501-yilning bahorida Bobur Shayboniyxon bilan bo'lgan jangda yengiladi va Samarqandni unga topshiradi.

Dashti qipchoqliklar qisqa muddat ichida Buxoro(1500), Samarqand (1501), Toshkent (1503), Hisor (1504), Urganch (1505), Hirot (1507) kabi shahar va viloyatlarni egallab, Sharqiy Turkiston chegaralaridan Markaziy Afg'oniston hududlarigacha cho'zilgan yerlarda markazlashgan shayboniyalar davlatiga asos soldilar. Temuriylar davlatidagi siyosiy tarqoqlik, ayrim hukmdorlarning ajralib mustaqillikka intilishi bu davlatning yemirilishiga olib kelgan bo'lsa, Shayboniyxon bunday tarqoqlikka chek qo'yib, mamlakatning birligini mustahkamlay oldi.

Shayboniyxonning janubga tomon yurishlari Eron shohi Ismoil I tomonidan to'xtatildi. 1510-yil Marv atroflarida bo'lgan jangda dasht qo'shinlari tor-mor etildi va Shayboniyxon halok bo'ldi. Eroniylar tomonidan qo'llab-quvvatlangan Bobur 1511-yilda Hisor, Ko'lob, Qunduz, Badaxshon va Samarqandni egalladi. Ammo 1512-yilda shayboniylardan bo'lgan Ubaydulla Sulton qo'shinlari G'ijduvon yaqinida Bobur va shoh Ismoilning birlashgan kuchlarini mag'lubiyatga uchradi. Shundan so'ng Bobur avval Qobulda, keyin esa Hindistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Dashti Qipchoq qabilalari esa Movarounnahrda o'rnatilib qoldilar.

XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi Dashti Qipchoq, Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy voqealar to'g'risida Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Boburning «Boburnoma» asarlari muhim manbalar hisoblanadi.

Temuriyzodalar o'rtasidagi o'zaro urushlar, birodarkushliklar nafaqat quyi tabaqa ahlining, balki yirik zodagonlarning ham noroziliklariga sabab bo'ldi. Natijada Amir Temur asos solgan ulkan saltanat tanazzulga yuz tutdi va tugatildi. Temuriylardan keyin hokimiyat tepasiga kelgan shayboniylar sulolasi davrida ham markaziy hokimiyat unchalik mustahkam emas edi (bu o'rinda Abdullaxon II(1583-1598) hukmronligi davri birmuncha diqqatga sazovordir). Bu holat o'sha davr Vatanimiz hududlarining parchalanib, alohida davlatlarga bo'linib ketishi va zaiflashuvi uchun zamin yaratadi.

8.2.O'рта Osiyo hududlarining parchalanishga yuz tutishi va uning sabablari

Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng, Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar

markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ydilar. Ubaydulla Sulton 1512-yilda Buxoro hukmdori bo'lgan bo'lsa, 1534-yildan butun markazlashgan o'zbek davlatining Oliy hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon mamlakat poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko'chirdi. XVI asrning 40-yillariga kelib, zodagonlar va mahalliy sulolalar o'rtasida shaharlar va hududlar uchun kurash avj olib ketdi. Samarqand hukmdori Abdulatifxon (1541-1552-y.) bilan Buxoro xoni Abdulazizxon (1540-1550-y.) o'rtasidagi kurashni Toshkent va Sirdaryo bo'yidagi shaharlarning hukmdori Baroqxon (Navro'z Ahmadxon) yanada kuchaytirdi. U hatto 1551-yilda Samarqandni bosib oldi. Karmana va Miyonkol hukmdori Abdulla Sulton Baroqxonga qarshi kurash olib bordi va 1557-yilda Buxoroni bosib oldi.

1561-yilda taxtga o'tirgan Iskandarxon ham siyosiy tarqoqlikka barham bera olmadi. Ammo uning o'g'li Abdullaxon II markazlashgan shayboniylar davlatini tiklash maqsadida amirlar va sultonlar bilan ayovsiz kurash olib bordi. Tinimsiz urushlar natijasida Farg'ona (1573), Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari (1574), Samarqand (1578), Toshkent, Shohruhiya, Savram, Oxangaron (1582), Balx (1583), Badaxshon (1584), Hirot (1588), Xorazm (1595) Abdullaxon qo'l ostida birlashtirildi. Ammo 1598-yilda Abdullaxon II vafotidan so'ng uning o'g'li Abdulmo'min uzoq muddat taxtni boshqara olmadi. So'nggi Shayboniy hukmdor Pirmuhammad II ham bebosh amirlarni tiyb qo'ya olmadi.

Yuzaga kelgan vaziyatdan Eron safaviylari, Xiva inoqlari va qozoqlar unumli foydalandilar. Eroniylar Balxni, qozoq sultonlari o'z manfaatlari yo'lida Toshkentni egallagan bo'lsa, Xorazm xonlari mustaqil bo'lib oldilar. Buxoroning zodagon guruhlarini astraxanlik Jonibek Sultonni taxtga taklif qildilar. Jonibek Sulton o'g'illari foydasiga taxtdan voz kechdi va shu tariqa O'rta Osiyoda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Ashtarxoniylar Balxni eroniylerden, Toshkentni qozoqlardan tortib oldilar. Ammo ko'pgina urushlarga qaramay, Xorazm o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Ayrim ashtarxoniy hukmdorlar Imomqulixon (1611-1642y.), Abdulazizxon (1645-1680), Ubaydullaxon (1702-1711) hukmronliklari davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harchand harakat qilinmasin, bu harakatlar aytarli ijobiy natijalar bermadi. Mahalliy amirlar va sultonlar o'z joylashgan shahar va hududlarida hokimlik qilib, bu hududlarda yirik yer egalari bo'libgina qolmay, butunlay xo'jayin edilar. Ulardan ko'pchiligi o'z guruhlarini kuchiga tayanib, markaziy hokimiyatga devarli bo'yanmas edilar. Hukmdorlar esa amirlar va sultonlarning bir-birlari ustiga

yurishlaridan ko'p foydalanardilar. Abulfayzxon hukmronligi davrida (1711-1747) markaziy hokimiyat o'z ahamiyatini yo'qotib bordi. Hokimiyat asta-sekinlik bilan mang'it urug'lari qo'lga o'ta boshladi. Bu urug' vakili bo'lgan Muhammad Rahim 1753-yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o'tirdi.

Xorazm hududida 1512- yilda mustaqil Xiva xonligi vujudga keldi. Unga Shayboniy urug'idan bo'lgan Elbarsxon (1512-1525) asos soldi. Elbars vafotidan keyin Xiva xonlari tez-tez almashib turgan. O'zaro urushlar va hukmdorlarning tez-tez almashib turishi natijasida bu davrda Xorazm hali markazlashgan davlat darajasiga yetmagan edi.

Xon hokimiyat qabila zodagonlari bilan cheklangan bo'lib, nizolar va o'zaro urushlar deyarli tinmagan. Shu davrda Xorazm chuqur inqiroz davrini boshidan kechirdi. Savdo-sotiqning arzimasi darajada ekanligi shahar hayotini sust rivojlantirdi. Bu jarayon XVII-XVIII asr boshlarida ham davom etdi. XVII asr oxiri — XVIII asr boshlariga oid Xorazm haqidagi ma'lumotlarda siyosiy va iqtisodiy tanazzul ta'kidlanadi. Xususan, Abdulg'oziyning «Shajarayi turk» asarida, Ivan Fedotov ma'lumotlarida bu holat qayd etilgan. Boshqaruvda vazir qushbegi bilan birgalikda xon maslahatchilari, inoqlarning borligi ma'muriy tuzumning juda murakkabligidan darak beradi. Xo'jalik inqirozi va feodal urushlar Xorazm vohasi madaniyatiga ham putur yetkazdi. Feodal o'zaro nizolar Arab Muhammad (1602-1623) va uning o'g'illari davrida eng yuqori nuqtaga yetdi. Asfandiyor (1623-1643), Abulg'ozixon (1643-1663), Anusha (1663-1687) xonlar davrida Buxoro bilan Xiva o'rtasida mamlakat ahvolini xarob qiladigan urushlar bo'lib o'tdi.

Ashtarxoniylar davridagi iqtisodiy-siyosiy tushkunlik Buxoro xonligini parchalanishiga olib keldi. Bu davrda Farg'ona xonlikdan alohida o'lka sifatida ajralib chiqdi, 1710-yilda minglar sulolasidan bo'lgan Shohruhbiy Farg'onada hokimiyatni o'z qo'lga oldi. Minglar sulolasi keyinchalik Sirdaryo havzasini, Yettisuving bir qismini egalladi. Bu davlatning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib qoldi.

XVIII asr boshlarida Buxorodan Balx, Xorazm, ikkinchi yarmida Toshkent mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdilar. Ichki kelishmovchilik, nizolar va siyosiy parokandalik mamlakatdagi bo'linib ketishning asosiy sababi bo'ldi. 1722-yildagi Rajabxon qo'zg'oloni Buxoro xonligini larzaga soldi. Abulfayzxon (1710-1747) davrida Buxoro xonligi shu darajada parokandalikni boshidan kechirdiki, Eron shohi Nodirshoh 1740-yilda Buxoroni, keyin xorazmni bosib oldi. Buxoroliklar va xorazmliklarni eroniyalar talab, xonavayron qildilar. 1747-yilda Nodirshoh vafotidan keyin

Abulfayzxon ham o'ldirildi.

8.3. O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishi oqibatlari

Uchta xonlik boshqaruv tizimida feodal munosabatlar asos qilib olingan edi. Xonliklar hududida yer egaligining uchta turi: davlat yerlari, xususiy yerlar, vaqf yerlari mavjud edi.

Xonliklar aholisi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanar edilar. Asosiy soliq turlari xiroj, zakot bo'lib, shu bilan birga, turli majburiyatlar mavjud edi. Bular Xiva xonligida begar, qazuv, mushrifona va boshqalar bo'lsa, Buxoro amirligida suv haqi, nimsara va boshqalar, Qo'qon xonligida esa xashar, harbiy xizmat majburiyatlari bor edi.

Xonliklar boshqaruvida islom mafkurasi asosiy o'rinni egallagan bo'lib, diniy mutaassiblik mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Ayniqsa, xonliklar ichidagi etnik guruhbozlik fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishiga to'siq bo'lar edi. Bundan tashqari, turli urug' vakillari davlat boshqaruvida yuqori mavqega ega bo'lish uchun boshqa urug' vakillariga qarshi zimdan va ochiqchasiga kurash olib borib, siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarar edilar. Buni Xiva xonligidagi XVIII asr voqealarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu davrda Xivada turli urug' vakillaridan xonlar ko'tarildi.

Bu xonlarning almashishi xalq uchun katta kulfatlar keltirar edi. XVII asr oxirlariga kelib, Xiva xonligida qo'ng'irotlarning mavqei osha bordi va 1804-yilda ular Xiva xonligi taxtini egallab, 1920-yilgacha bu xonlikda hukmronlik qilishdi. Qo'qon xonligida hukmronlik qilishgan minglar sulolasi o'zlarining tashqi istilochilik urushlari va o'zaro sulolaviy kurashlari bilan xonlik aholisining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini yanada og'irlashtirdi. Ayniqsa, Xudoyorxon davrida talonchilik urushlari va solingan ko'plab soliqlar xalqning ko'plab noroziligiga sabab bo'ldi, natijada Xudoyorxon ikki marotaba taxtdan haydalib, yana taxtni egalladi. Minglar sulolasi Qo'qonda 1710-yildan 1876-yilgacha hukmronlik qilishdi.

XVII-XVIII asrning birinchi yarmida bitta iqtisodiy hududdagi bir elat, bir xalqning uchta mustaqil, siyosiy xonlikka ajralib ketishi, bu hududda yashayotgan xalqlarning boshiga juda og'ir kulfatlarni keltirdi. Xonliklar ichidagi sulolaviy va o'zaro urushlar xalqning og'ir ahvolini yanada og'irlashtirdi. Xivaliklarning turkman urug'lariga qarshi uyushtirgan mavsumiy talonchilik yurishlari, Buxoro amirlari Kitob va Shahrisabz bekliliklariga qarshi olib borgan doimiy urushlari,

Qo`qon xonligining Toshkent va Xo`jand uchun Buxoro amiriga qarshi kurashlari o`zaro madaniy, savdo aloqalarining uzilib qolishiga sabab bo`ldi.

Har qanday ilg`or fikr diniy mutaassiblarning ta`qibiga uchrardi. Bu paytda nafaqat boshqa hududlar bilan, hatto Qo`qon, Xiva, Buxorodagi madaniy markazlarning ham o`zaro aloqasi yo`q edi. Bu, o`z navbatida, O`rta Osiyo ilm-fanini turg`unlikka, hatto tanazzulga olib keldi. Tabiiy fanlarga e`tibor, umuman, yo`qoldi. O`rta Osiyo xalqlari Yevropa fan texnika taraqqiyotidan bexabar bo`lib, orqada qolib ketdi.

Rossiya bilan o`rnatilgan savdo aloqalari, asosan, bir guruh boylar qo`lida bo`lib, ular madaniy aloqalarga, fan-texnika taraqqiyotini kirib kelishiga aytarli ta`sir ko`rsatmadi va o`lkadagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyat chor Rossiyasining o`z agressiv maqsadlari uchun sharoit yaratib berdi. Natijada Rossiya O`rta Osiyoni osonlik bilan bosib oldi.

Tayanch tushunchalar

O`zaro urushlar, Shohruh, Ulug`bek, Husayn Boyqaro, Navoiy, Shayboniyxon, Bobur, safaviylar, Ubaydulla Sulton, Abdullaxon II, ashtarxoniyalar, hokimiyatni kuchaytirish uchun kurash, Xiva inoqlari va qo`ng`irotlari, Qo`qon minglari, Buxoro mang`itlari, xonliklardagi norozilik harakatlari, Rossiya bilan savdo aloqalari.

Takrorlash uchun savollar

1. Nima uchun Amir Temur asos solgan ulkan saltanat tanazzulga yuz tutdi?
2. Movarounnahrda Ulug`bek hukmronligi davri qanday izohlanadi?
3. Buxoro xonligini parchalanishga olib kelgan sabablar nimalardan iborat edi?
4. Xorazm davlati qanday sabablarga ko`ra Xiva xonligi nomini oldi?
5. Xonliklar boshqaruvida islom mafkurasi qanday rol o`ynagan?
6. Xonliklarning Rossiya bilan savdo aloqalari qanday sabablarga ko`ra kuchaydi?
7. Xonliklardagi hukmdor sulolalarning tashqi istilochilik urushlari va o`zaro sulolaviy kurashlari qanday oqibatlariga olib keldi?
8. Nega jahonga buyuk siymolarni bergan O`rta Osiyoda XVII-XIX asrlarga kelib, ilm-fan tanazzulga yuz tutdi?

9-mavzu. CHOR ROSSIIYASINING TURKISTONDAGI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

REJA

1. Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi va uni boshqarishning mustamlaka tizimi.

2. Turkistonning xomashyo bazasiga aylantirilishi va o'lkada chor Rossiyasi iqtisodiy hamda siyosiy manfaatlarining amalga oshirilishi.

Adabiyotlar

12,14,28,31,32,53,61,66,65

9.1. Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi va uni boshqarishning mustamlaka tizimi

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib O'rta Osiyo xonliklaridagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahvol tang darajada bo'lgan bir paytda, Rossiya jahondagi eng agressiv davlatlar qatoriga kirgandi. Yevropa davlatlariga nisbatan iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolayotganligi Rossiyaning O'rta Osiyoni o'ziga bo'ysundirish niyatini ro'yobga chiqarishni tezlashtirdi. Bu niyat Rossiya imperatori Pyotr I (1672-1725) davrida tug'ilgan bo'lib, u Xiva xonligini bo'ysundirish uchun hatto 1717-yilda Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida O'rta Osiyoga harbiy ekspeditsiya uyushtirgan edi. Lekin bu harakat, undan keyingi boshqa harbiy harakatlar, jumladan, 1839-40-yillarda Perovskiy boshchiligidagi harbiy yurish ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. XVIII-XIX asrning birinchi yarmi davomida rus hukumati Pyotr I orzularini amalga oshirish yo'lida uning vasiyatlarini bajarib, Qipchoq dashtlarini o'ziga bo'ysundirdi va u yerda harbiy istehkomlar bunyod etdi. Bu davrda Rossiya uchun sanoatni rivojlantirish, uni xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun yangi bozorlar izlash kechiktirilmaz vazifa bo'lib qoldi.

Rossiyaning agressiv tashqi siyosati davomida uning kelajakda imperiyani kengaytirish uchun Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eronga uyushtiradigan harbiy yurishida, janubdagi dengizlar, ular orqali okeanga chiqishida O'rta Osiyo platsdarm vazifasini bajarishi kerak edi.

Yana shuni ko'rsatib o'tmoq joizki, chorizmning Turkistonga

bo'lgan qiziqishi bu o'lkadagi katta yer osti boyliklarini o'zlashtirishga intilish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoda Rossiya va Angliya manfaatlari to'qnashdi. Bu hol Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklarini bosib olish rejasini ishlab chiqishi va harbiy yurishlarni boshlashiga sabab bo'ldi.

Shu sabablarga ko'ra chor Rossiyasi o'zining tish-tirnog'igacha qurollangan qo'shinlari bilan Turkiston xalqlarini bo'ysundirish va jonajon Vatanimizni bosib olib, egalik qilish maqsadida harbiy yurishlarini boshladi.

Oldindan belgilangan reja asosida rus qo'shinlarining hujumi Qo'qon xonligiga qaratildi. Zamonaviy qurollar bilan ta'lataminlangan 2850 kishilik rus qo'shini bir yil oldin mag'lubiyatga uchragan general Perovskiy boshchiligida 1853-yil iyul oyida Oqmachit qal'asiga hujum qildi. Oddiy qurollar bilan qurollangan 400ga yaqin qal'a himoyachilari 20 kun davomida dushman hujumini qaytarib, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik timsoli bo'lib tarixga kirdilar.

1853-1856-yillardagi Qrim urushi sababli Rossiya O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarini to'xtatishga majbur bo'ldi. U Qo'qon xonligidagi faol harakatini 1860-yil yozidagina qayta tashkil qila oldi. Xalqimizning qahramonona qarshiligiga qaramasdan yangi harbiy texnika bilan qurollangan rus qo'shinlari 1860-1864-yillarda Pishpak, To'qmoq, Avliyo ota, Turkiston, Chimkent shaharlari va ular atrofidagi qishloqlarni bosib oldilar. Bu janglarda ko'ngilli himoyachilar, Qo'qon xonligi sarkardasi mulla Alimqul va boshqalar o'z qahramonliklari bilan vatanparvarlik namunalarini ko'rsatdilar.

1864-yil oktyabrida general Chernyayev boshchiligidagi rus qo'shinlarining Toshkentga hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, ular Niyozbek qal'asini egallab, Chirchiq daryosidagi to'g'onni buzib tashladilar va shaharga suv chiqmay qoldi. 1865-yil may oyida ruslar Toshkent shahriga yangitdan hujum boshladilar. Himoyachilarning fidokorligi, Mulla Alimqulning tadbirkorligi yangi harbiy qurollar va muntazam harbiy qo'shin oldida ojiz edi. Toshkentni ruslar 42 kun deganda bosib oldilar.

1865-1866-yillarda rus qo'shinlari Qo'qon xoni va Buxoro amiri o'rtasida hamisha qo'ldan qo'lga o'tib turgan Xo'jand, O'ratepa, Jizzax shaharlarini qattiq janglardan keyin egalladi.

Buxoro amiri Muzaffarning ko'rgan tadbirlariga, xalqning qahramonona qarshiliklariga qaramasdan, 1868-yilgi Cho'ponota va Zirabuloq janglarida ruslarning qo'li baland keldi. Natijada amir Muzaffar Qo'qon xoni Xudovorxon (1864-1879) kabi Rossiya bilan noteng sulh shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi. Qo'qon

xonligiga va Buxoro amirligiga tegishli bo'lgan yerlarning katta qismi Rossiya tasarrufiga o'tkazildi. Katta miqdorda tovon puli to'landi.

Olinmas qal'a hisoblangan Xiva xonligiga ruslar qattiq tayyorgarliklardan keyin 1873-yilda hujum qildilar. Xonlikdagi qoloqlik, harbiy texnika va san'atning pastligi bu yerda ham ruslarning g'olib kelishiga asos bo'ldi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz (1864-1910) Gandimyon shartnomasiga asosan, 2200000 oltin so'm to'ladi hamda Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlaridan va mustaqil tashqi siyosat yurguzishdan mahrum bo'ldi. Ruslarning O'rta Osiyodagi harbiy harakatlari XIX asrning 80-yillari o'talarigacha chorvador ko'chmanchi turkmanlarni bo'ysundurgunga qadar davom etdi. Rossiya o'lkamiz xalqlarini kuch, qurol, talonchilik va vayronagarchiliklar yo'li bilan bosib oldi.

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, o'lka to'la ravishda harbiylar qo'liga o'tdi va o'lkani boshqarish katta vakolatlarga ega bo'lgan Turkiston general-gubernatorligiga topshirildi. Turkiston general-gubernatori lavozimiga general fon Kaufman tayinlandi.

General-gubernator katta huquqlarga ega bo'lib, xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar olib borishi, soliq siyosatini belgilashi, rus fuqaroligi huquqini berishi, mahalliy aholi ustidan chiqarilgan turli hukmlarni ijro etishga ruxsat berishi mumkin edi. Bu «Vaqti Nizom» qonuni chor ma'muriyatining mustamlakachilik siyosati manfaatlariga mos kelmasligi sezila boshlagach, Kaufman Rossiya imperatoriga 1873-yilda Turkiston o'lkasini boshqarishning yangi nizom loyihasini taqdim etdi. Nizom 1886-yilda podsho Aleksandr II tomonidan tasdiqlandi. Nizomning asosiy g'oyasiga ko'ra, o'lkada Rossiya hukmronligi yanada mustahkamlanishi, o'lka yerlari avvalgidek harbiy vazirga bo'ysundirilishi nazarda tutilgan. Markaziy o'lka boshqaruvi general-gubernator hamda uning kengashi va mahkamasidan iborat edi.

XIX asrning 90-yillariga kelib, Turkiston general-gubernatorligi beshta — Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlariga, viloyatlar uezdlarga, uezdlar bo'lislarga, bo'lislar uchastkalariga bo'linib boshqariladigan bo'ldi.

Turkistonning barcha viloyatlarida harbiy gubernatorlik boshqarmalari tasis etildi. Harbiy gubernatorlar bevosita podsho tomonidan tayinlanadigan bo'ldi. Viloyat boshliqlari esa doimo harbiy gubernatorlarning nazorati ostida bo'ldi.

O'lkada mustamlakachilik tartiblari o'rnatilishiga qadar hakamlik vazifasini bajarib kelgan qozitar mahalliy aholi o'rtasidagi huquqiy muammolarni shariat va qdat normalariga tayanib hal

qiluvchi organ sifatida saqlanib qolindi. Bu, albatta, mahalliy xalq ommasining noroziligini kuchaytirmaslik maqsadida ko'rilgan tadbirlar edi. Ular general-gubernator tomonidan tasdiqlanib, uyezd boshliqlari nazorati ostida ish olib bordi.

Turkiston general-gubernatorligining markazi-Toshkenani boshqaruv 1870-yilgi shahar boshqaruvi qoidasiga ko'ra to'lig'i bilan podsho ma'muriyati qo'liga o'tdi. 1877-yilgacha eski shahar va yangi shahar alohida boshqarilsa-da, lekin eski shaharda hokimiyat general Geyns qo'lida edi. O'sha yili shahar Davlat dumasiga saylovlar bo'ldi. Saylangan 71 deputatning atigi 21 nafari mahalliy aholi vakillari edi.

Shunday qilib, XIX asrning oxirlarida O'rta Osiyoning katta qismi Turkiston general-gubernatorligi nomi bilan Rossiya tasarrufiga o'tdi. Qo'qon xonligi tugatilib, Xiva xonligi va Buxoro amirligi Rossiya imperiyasiga qarashli kichik, yarim mustamlaka davlatga aylanib qoldilar. Xiva xonining Amudaryo bo'limi boshlig'i, Buxoro amirining «Rus siyosiy agentligi» nazorati ostida ekanligi va uchastka pristavlarigacha harbiylardan bo'lganligini inobatga olib, o'lkada to'la harbiy-ma'muriy boshqaruv, harbiy politsiya rejimi o'rnatilganligini yana bir bor qayd qilamiz. Bunday boshqaruv tez vaqt ichida o'lkani ruslashtirish va iqtisodiy qaram hududga aylantirish imkonini berdi.

9.2. Turkistonning xomashyo bazasiga aylantirilishi va o'lkada chor Rossiyasi iqtisodiy hamda siyosiy manfaatlarining amalga oshirilishi

Chor Rossiyasi Turkiston o'lkasini egallagan kunlaridan boshlab o'zining iqtisodiy mustamlakachilik niyatlarini amalga oshirishga kirishdi.

Buning uchun, birinchi navbatda, Rossiya gubernyalardagi sanoat korxonalarini muntazam ravishda xomashyo bilan ta'minlab turuvchi temir yo'llar qurildi. Shu maqsadda 1881-1886-yillarda Mixaylovskiy ko'rfazidan Chorjo'ygacha Kaspiyorti temir yo'li qurildi. 1888-yilda bu yo'l uzaytirilib, Samarqandga yetkazildi. 1906-yilda "Toshkent - Orenburg" temir yo'li ishga tushirildi. 1912-yilda Farg'ona vodiysi ham Rossiya bilan temir yo'l orqali bog'landi.

Mustamlaka Turkistonda temir yo'llar qurib bitirilishi o'lkani Rossiya sanoatining g'ildiragiga yanada mahkamroq bog'ladi. O'lkaning xomashyo yetkazib beruvchi manba sifatidagi o'rni mustahkamlangach, bu yerga turli firma va birjalar kirib kela boshladi va ular Turkistonning iqtisodiy hayotida jadallik bilan o'z ta'sirini kuchaytirib bordi. Ular o'lkadan xomashyo olib ketish,

Rossiyadan sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari olib kelib sotish bilan cheklanmay, sug'oriladigan yerlarni sotib olib, paxta ekishni kengaytirdilar. Paxtachilikning rivojlanishi bunday firma-birjalar, mahalliy sudxo'r va savdogarlar uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. Ular, asosan, xomashyo yetishtirish yo'lga o'tib olgan dehqonlarga kelasi yil oladigan hosil hisobidan pul qarz berar edilar. Dehqonlarning moddiy ahvoli og'irlashgani sari, ularning hosildan tushgan daromadi qarzini to'lashga, yerga ishlov berishga, oilasiga oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga ham yetmas, ikkinchi tomondan, katta yer maydonlari mahalliy boylar va sudxo'rlar qo'lga o'tib keta boshladi. Bu holat yersiz dehqonlar, mardikorlar va arzon ishchi kuchini yanada ko'payishiga sabab bo'ldi.

Rossiya sanoatida paxta tolasiga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bu yerlarda yetishtiriladigan paxtaning sifatiga e'tiborni kuchaytirdi. Shu maqsadda o'lka yerlarida paxtaning amerika navlarini yetishtirishni yo'lga qo'yish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boruvchi stansiyalar tashkil etildi. Hatto bu navlarni o'rganish uchun Amerikaga maxsus mutaxassislar ham yuboriladi. Mustamlaka yillarida bunday navlar o'lka paxtachiligida yetti barobar ko'paydi.

Rossiya Turkistondan ko'proq foyda ko'rish maqsadida o'lkaning o'zida xomashyoga dastlabki ishlov beruvchi korxonalar tashkil etishga kirishdi. Bunday korxonalar o'lkada barpo bo'layotgan sanoatning asosiy sohasi edi. 1900-yilgacha Turkistonda 170 dan ortiq sanoat korxonalari ishga tushirildi. Bularning 80% ni paxtaga qayta ishlov beruvchi korxonalar tashkil etdi. O'lkaning o'zida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan sanoatning rivojlanishi va Rossiyadan kirib kelayotgan tayyor sanoat mahsulotlari asrlar davomida hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelayotgan aholini xonavayron etdi.

Raqobat natijasida hunarmandchilikning ko'plab sohalari inqirozga yuz tutdi, xonavayron bo'lgan hunarmandlar ham yersiz dehqonlar singari ihsizlar safini to'ldirib bordi.

O'lkaning ko'plab unumdor yerlariga paxta ekilishi boshloqli ekinlar ekiladigan maydonlarning qisqarishiga olib keldi. Ming yillar davomida o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan mahalliy aholi asta-sekin oziq-ovqat masalasida Rossiyaga qaram bo'lib qoldi. G'alla mahsulotlari o'lkaga Rossiyadan keltirilib, unga chor ma'murlarining o'zi narx-navoni belgiladi. Sanoatda band bo'lgan mahalliy ishchilarning turnush sharoiti yana ham og'ir edi. Chunki ularning ish haqi yevropalik ishchilardan 2-2,5 barobar kam bo'lsa, olinadigan soliqlar va jarimalar shuncha ko'p edi.

Mustamlakachilik siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri

Turkiston o'lkasini ruslashtirishdan iborat bo'ldi. Podsho hukumati tomonidan ko'p minglab yersiz dehqonlarni, ishsizlarni mustamlaka Turkistonga ko'chirib keltirilishi bu maqsadga erishishda katta o'rin tutdi.

Chorizm Turkistonni rus inqilobchilari va sotsial-demokratlarini surgun qiladigan makonga aylantirdi. Markaziy Rossiya, Kavkazortidan kelgan Rossiya monarxiyasining minglab raqobatchilari Turkistonning yirik shaharlariga joylashib oldilar.

Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarga katta imtiyozlar berildi, ularning joylashishi, dehqonchilik qilishi uchun ko'p miqdorda mablag'lar ajratildi, o'zini o'nglab olgunga qadar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turildi.

Yangi tashkil topgan rus qishloqlari aholisi mahalliy aholiga nisbatan ancha ko'proq ekin maydonlariga ega bo'ldi, ma'lum muddatgacha soliقدan ham ozod qilindi. Natijada ko'chirib keltirilganlar qisqa vaqtda ishlab chiqarishning texnikaviy zaminini ham yaxshilab oldilar. Bunday imtiyozlarni chor ma'murlari «Rossiyadan ko'chib kelayotganlar bo'sh yerlarni o'zlashtirishga, bog'lar yaratishga yordam beradi», deb ko'rsatdi. Aslini olganda qashshoqlashib ketgan yuz minglab aholining O'rta Osiyoga ko'chirib keltirilishi Rossiyada tobora chuqurlashib borayotgan ichki ziddiyatlarni hal etishning bir yo'li bo'ldi.

Mustamlaka o'lkada ko'p sonli rus aholisining mavjudligi Rossiya uchun harbiy va siyosiy tayanch bo'ldi. Ular, ayni bir vaqtda, mahalliy xalqlarning mustamlakachilik tuzumiga qarshi bo'lgan harakatlarini buzib turish uchun tayanch vazifani bajardilar. Chorizمنىng Turkistondagi madaniy-ma'rifiy ishlari mustamlakachilik siyosatiga to'la bo'ysundirildi. Bu boradagi siyosat mahalliy aholining ma'naviy hayotiga aralashmaslik, deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, aslida, aholini ruslashtirish, milliy madaniyatini cheklash, kamsitishdan iborat bo'ldi. Shu maqsadda dastlabki tadbirlar Yevropa turmush tarzini ifoda etuvchi maktablarni ochishdan boshlandi. O'lkada joriy etilgan rus-tuzem maktablari haqidagi loyihaga binoan 1884-yili Toshkentda dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi.

Podsho ma'murlari mahalliy maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishni mahalliy aholini ruslashtirish borasidagi "katta to'siq"; deb qaradilar. Shu sababli eski maktablarda o'qish-o'qitish ishlarini yaxshilash uchun biror-bir tadbir ko'rilmadi. Maktablarning ahvoli Rossiya bosqinidan avval qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qolib ketaverdi.

Rossiya Turkistonni istilo qilgach, rus ma'murlari o'z mavqelarini mustahkamlash uchun mahalliy xalqning ayrim

an'analardan, urf-odatlaridan foydalanishga urindilar va shu maqsadda diniy aqidalardan, mahalliy xalq o'rtasida obro' e'tibor qozongan shaxslardan, ruhoniylardan foydalandilar. Mahalliy xalqlarning tarixiy qadriyatlariga, diniy e'tiqodlariga ta'sir o'tkazish, ularni ma'naviy qaramlikda ushish uchun Rossiya ma'muriyati, tajribali mustamlakachi davlatlarning o'z mustamlakalarida olib borgan missionerlik siyosatlaridan foydalandilar. Ostroumov va boshqa missionerlarning o'lkadagi faoliyati buning yorqin misolidir.

Mahalliy aholining yashash tarzi, sihat-salomatligini yaxshilash borasida ham biron-bir tadbir amalga oshirilmadi. Gubernyalarda, uezdlarda bir yoki ikki vrach bo'lib, ular ham, asosan, soldatlar va rus aholisiga yordam ko'rsatish bilan band bo'lganlar.

Masalan, 250 ming qoraqalpog' aholisi orasida atigi bitta shifokor bor edi. Vrachlar yetishmasligini, sog'liqni saqlash ishlarining bunday ahvolini chor ma'murlari «mahalliy aholi kuchli, sog'lom va kasal bo'lmaydi. Ular yashaydilar va vaqi kelganda o'ladilar. Tarqalgan epidemiyalarga qanchalik pul ajratilmasin, baribir, yetmaydi», — deb chorizmning shovinistik siyosatini yaqqol namoyish etdilar.

O'lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar asta-sekin mahalliy aholining moddiy va ma'naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlashishiga olib kelib, chorizm mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi.

Mavzuga oid ma'lumot

Chor Rossiyasi Turkistonga XIX asr ikkinchi yarmi boshlarida hujum qilishdan necha o'n yillar muqaddam, bu o'lkani ham eniga, ham bo'yiga pinhona tadqiq etishga kirishadi. Xuddi shunday nomatlub, josusona yo'l tutish inglizlar tomonidan ham olib borilganligi ma'lum. Ikki mustamlakachi davlat manfaatlari goh Xiva, gohida Buxoro amirligi siyosiy chorahalarida to'qnash kelgan hollar ko'p bo'lgan. Akad. V.V. Bartold garchi, «Turkiston rus istilosiga qadar ilmiy tadqiqotlar uchun deyarli yopiq edi», degan bo'lsa-da, elchi libosidagi harbiylar, turkiy tili, islomni yaxshi bilgan josuslar — sayyohlar xonliklarda bo'lganlarning o'z ma'murlarini qiziqitgan ma'lumotlarni to'plaganlar.

Ilmiy josuslik xizmati, turgan gapki, mazlum etiladigan o'lkaning harbiy quvvati, nufuzi, tabiiy boyliklari, iqtisodiyoti, madaniyati, xullas, hamma jihatdan qamrab olishni taqozo etardi. Shunga ko'ra, rus muarrixlari keyinchalik e'tirof etganlaridek, asosiy nezdilarda bir yoki ikki vrach bo'lib, ular ham, asosan, soldatlar va rus aholisiga yordam ko'rsatish bilan band bo'lganlar.

Masalan, 250 ming qoraqalpog' aholisi orasida atigi bitta

diqqat qo'lyozma manbalarga qaratiladi. Qo'lyozma manbalar yurtini bosib olish, idora etish va boyliklarni tasarruf etishda beqiyos omil ekanligini bosqinchilar yaxshi bilganlar.

Xonlar, amirlar bu xildagi qora niyatlardan g'ofil kelgan elchilarga mulozamat ko'rsatib, noyob qo'lyozmalarni ham tuhfa etganlar. Masalan, 1820- yilda Negri boshliq rus elchilariga Muhammad Yusuf Mumshiyning «Muqimxoniyalar tarixi» tortiq qilinadi. Buxoroda bo'lgan N.Xanikov jami 166 nodir asarni Sankt-Peterburgga o'z marib ketadi. Bu kitoblar orasida, jumladan, Aziz ibn Muhammad Nasafiyning «Al-Maqсад al-aqso» (1411- yil), «Lug'at Navoiyya» (1815), «Devoni Hoqoniy» (XVII asr), «Vaqfiya» (1815), «Dastur al-vuzaro» (1566), «Tuzuki Temur» (1847), «Fathnomayi Sultoniy» (1847), «Zichi Ulug'bek (XVI asr), «Risola dar ilmi hisob» (1835), «Daftari Chingiznoma» (XIX asr), «Iskandarnoma» (1523), «Abushqa» (1560), «Ahsan al-qisas» (1850), «Majmuayi doston» (XVII asr), Husayn Boyqaro devoni (1868) qo'lyozmalari bo'lgan. Bu bebaho xazina javohirlari hozirgi paytda «Xanikov yig'masi» nomi ostida Sankt-Peterburgdagi davlat ommaviy kutubxonasida saqlanayapti.

1858-yilda elchilar guruhida yurtimizga kelgan P.I.Lex Imperator Fanlar akademiyasining Osiyo muzeyi uchun «Hudud ul-olam» (X asr), «Kitob al-ansob» (XII asr), «Tarixi Kashidiy» (XVI asr) asarlarini olib ketadi. Tilmoch Y. K. Kazbekov ham qo'lyozmalarni g'orat kilish ishidan chetda qolmaydi. U Xoja Ahror va Abdurahmon Jomiy asarlarining asl nusxalarini, To'ra Xoja Andijoniyning «Me'roj al-futuh», Avaz Muhammad Attorning «Tarixi Shohruhiy», Fariduddin Attorning «Tazkirat al-avliyo» singari asarlarini olib ketadi.

G.A.Arandarenko (Samarqand viloyati harbiy gubernatori) Qarshi, Shahrisabz beklilklari mazlum etilgan paytlarda 2 ta «Shohnoma», «Haft iqlim», «Zahirayi Xorazmshohiy», «Kitob tibb», «Iskandar tarixi» singari qo'lyozmalarni qo'lga kiritadi.

Turkistonda uzoq muddat yashagan V.L.Vyatkin, I.A.Kastane, V.P.Nalivkinlar ham butun imkoniyatni ishga solib, qo'lyozma asarlarini jang'arish payida bo'lganlar. V.L.Vyatkin yig'gan asarlar 190 jildni tashkil etgan.

Ular orasida «Fathnoma», «Zubdat ul-osor», «Miftoh al-tolibin», «Kitob tuhfat al-nasab», «Nizom ut-tavorix», «Tuhfat al-Xoniy», «Tarixi Muqimxoniy», «Temurnoma», «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi Roqim», «Akbarnoma», «Murod ul-orifin», «Mahbub ul-qulub», «Xamsa», «Tazkirat ush-shuaro» kabi ilmiy-tarixiy qimmatli beqiyos kitoblar asosiy ko'pchilikni tashkil etgan.

Graf N.Ya.Rostovsev («Muntaxib ul-tavorix», «Ravzat us-safo», «Xulosat ul-axbor», «Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn», «Zichi Ko'ragoniy»), N.Mallitskiy («Zafarnoma», «Ravzat ul-ahbob») kabi lavozim sohiblari ham Sharq qo'lyozmalarini to'plashga ruju qo'ygan edilar. Istilo va undan keyingi mustamlakachilik yillarida Freytag, Akimushkin, Ivanov, Smirnov, Gluxovskiy, Stroganov, Kostikov, Erdman, Dorn, Folkman, Simonich, Dolgorukiy, Tamayev, Uillin, Kartovoy, Geyns, Pozalyan, Dyakonov, Trigorov, Golik, Revel, Kats, Danzas singari olim-u korchalonlar Turkistondan o'margan qo'lyozmalarni Sankt-Peterburg kutubxonalariga topshiradilar. Shubhasiz, tekinga emas. Birgina Volochinskiy yurtimizdan olib ketgan 24 asarni imperator kutubxonasiga katta mukofot evaziga taqdim etadi.

Achinarli joyi shundaki, Buxoro amirlarining boy va ko'p qamrovli kutubxonalari butkul talon-taroj etilgan. Amir Nasrullo davridan boshlangan holat amirlikning vassallik yillarida avj nuqtaga ko'tariladi. Amir kutubxonasi mundarijasidagi «Muraqqa'» (1197-h.), «Misbah» (991-h.), «Yusuf va Zulayho» (930-h.), «Tuzuki Temuriy», «Xamsa» (986-h.), «Devon» (1111-h.), «Ravzat as-safo» (1009-h.), «Shohnoma» (1007-h.), «Ajoyib al-maxluqot va g'aroyib al-mavjudot» (910-h.) kabi asarlar Sankt-Peterburgda saqlanib turibdi.

Ma'naviy xazinamizni talon-taroj etish va tashib ketishda general-gubernator P.Kaufmanning qo'li uzun, imkoniyati cheklanmagan edi. Sankt-Peterburgdagi davlat ommaviy kutubxonasida «Kaufman yig'masi» nomli ostida saqlanayotgan 150 jilddan oshiq qo'lyozmalar mundarijasi diqqatni tortmay qolmaydi. Turkistonni qonga botirgan jallod, ayni vaqtda, Sharq qo'lyozmalarining qimmatini yaxshi tushunib, uni kutubxonaga «tortiq» qilishni ham esdan chiqarmagan. Uning Qo'qon, Xiva va Buxoro xonliklari shahar-qishloqlaridan taniqli fuzalo va arboblardan turli yo'llar bilan qo'lga kiritgan asarlari sirasida «Tarixi qipchoqiy» (XVIII), «Tazkirat ush-shuaro» (XVII asr), «Tasavvuf», «Temurnoma», «Haft avrang» (XVIII asr), «Kimjoi saodat», «Lubbi lubob», «Latoyif at-tavoif», «Masnaviyi ma'naviy», «Majma al-g'aroyib», «Maxzan at-ta'arruf» (XIX asr), «Me'roj an-nubuvvat» (XVII asr), «Riyozi al-vosilin» (XIII asr), «Shavohid an-nubuvvat» (XVII asr), «Kulliyoti Jomiy», «Kulliyoti Xoja» (XV asr), «Kulliyoti Soib» (XIX asr), «Kulliyoti Qosim Anvar», «Xamsa», «Zahirat al-mulk», «Rashohati ayu al-hayot», «Ravzat al-ahbob» (XVIII asr), «Ravzat as-safo» (XV asr) kabi noyob qo'lyozmalar mavjud. 1916-yilda M.F.Gavrilov ma'naviy talonchilikni davom ettirib, «Zafarnomayi Xudoyorxoniy», «Haft iqlim», «Ravzat us-safo»,

«Shayboniynoma», «Subhonqulinoma», «Tavorix anbiya va muluk», «Tarixi kabir» asarlarini olib ketgan edi.

1834-yilda sharqshunos X.D.Fren O'rta Osiyodan izlab topish mumkin bo'lgan Sharq mualliflariga mansub yuzta asarning xronologik ro'yxatini tuzib chiqdi.

1868-yili Samarqand egallagach, musulmon dunyosiga mashhur xalifa Usmon Qur'oni general Abramov tomonidan o'lja qilinib, Sankt-Peterburgga jo'natildi. Xuddi shu general Abramov Shahrisabz va Kitob bekliklarini egallagach, yuzga yaqin nodir qo'lyozmalarni ham musodara qilgan edi.

General fon Kaufman topshirig'iga ko'ra sharqshunos A.L. Kun Xiva saroyidan 300 ta qo'lyozma, 18 ta Qur'on, 50 ta darslik kitoblarini musodara qilgan. 140 jildli bu nodir qo'lyozmalardan 129 tasi tarixiy asarlar edi. Sharq shoirlarining 30 jildli asarlari, 50 jildli fiqh ilmiga doir kitoblar Peterburgdagi Xalq kutubxonasiga yuborildi. Kun va uning yordamchilari Xiva xonlari tanga zarb etish uchun ishlatgan 200 muhr va yuzlab tangalar, nodir bezak-buyumlarni olib ketdilar. Ular orasida xivalik ustalar kandakorlik san'atining eng yuksak namunasi — qo'ng'iroq sulolasi xonlari taxti bebaho o'lja bo'ldi. 1874-yili bu Xiva xonlari taxti qurol-aslaha Palatasiga topshirildi.

Qo'lyozma manbalarning Sankt-Peterburgga muttasi tashib ketilishi oqibatida XX asr boshlariga kelib, qadimiy qo'lyozmalarni topish amalda mumkin bo'lmay qoladi. 1902-yilda V.V.Bartold Turkistonga navbatdagi safarga kelganida tan olib, «Hozirgi vaqtda Qo'qonda biron-bir qo'lyozmalar yig'masi qolgan emas. Hatto 1897-yilda K.G.Zeleman (Osiyo muzeyi direktori) Xudoyorxon kutubxonasining kitobdori Sarimsoq xojada ko'rgan eng oxirgi nusxalari ham yo'qolibdi», deyishga majbur bo'lgan edi.

Tayanch tushunchalar

Rus-ingliz raqobatchiligi, rus bosqini, xomashyo bazasi, mustamlaka boshqaruv tizimi, Turkiston general-gubernatorligi, temir yo'llari qurilishi, sanoat korxonalari, ruslashtirish siyosati, rus-tuzem maktablari.

Takrorlash uchun savollar

1. Rossiyaning Turkistonga qiziqishi qanday sabablar bilan bog'liq?
2. 1860-1864-yillardagi harbiy harakatlari davomida rus qo'shinlari Qo'qon xonligining qaysi shaharlarini bosib oldilar?
3. Buxoro amirligi yerlari ruslar tomonidan qachon bosib

olindi?

4. "Gandimyon shartnomasi" Xiva xonini qanday huquqlardan mahrum qildi?

5. Turkiston general-gubernatori qanday vakolatlarga ega edi?

6. Turkiston o'lkasini boshqarishning yangi nizomi qanday g'oya asosida tuzilgan edi?.

7. Qanday sabablarga ko'ra chor Rossiyasi mustamlaka Turkistonda temir yo'llar qurishga kirishdi?.

8. Turkistonda hunarmandchilikning asosiy sohalari inqirozga yuz tutishiga sabab nima?

9. * Turkistonda ruslashtirish siyosati qanday olib borilgan?

10. Rossiyasi Turkistonni bosib olgach mahalliy xalqlarning moddiy va ma'naviy merosiga qanday munosabatda bo'ldi? Fikrlaringizni misollar bilan izohlang.

10-mavzu. CHORIZM ISTIBDODIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY-OZODLIK KURASHI. JADIDCHILIK

REJA

1. Milliy ozodlik harakatining boshlanishi va uning bosqichlari

2. Jadidchilik harakati.

Adabiyotlar

12,15,32,48,54,75,79,81,82,91

10.1. Milliy ozodlik harakatining boshlanishi va uning bosqichlari

O'lkada XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, chor Rossiyasining mustamlakachilik, ulug' davlatchilik, shovinistik siyosati mahalliy aholining milliy ozodlik harakatlari boshlanishiga asosiy sabab bo'ldi.

Tarixiy manbalarda, arxiv hujjatlarida chor Rossiyasi qo'shinlarining O'rta Osiyo hududiga kirib kelishi bilan unga qarshi xalq ozodlik harakatlari boshlanganligi va bu chor hukumatining ag'darilishiga, qolaversa, mustaqillikka erishganimizga qadar davom etganligi haqidagi ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar asosida O'rta Osiyo xalqlarining chorizmga qarshi olib borgan quyidagi eng yirik va ommaviy tus olgan kurashlarini qayd qilishimiz mumkin: 1837-1846-yillarda Sulton Kenesarin rahbarligidagi kevinchalik Buxoro amirligining Shahrisabz bekligidagi harakatlar, 1871-yilda

Eshon Eshmuhammad boshchiligida Sirdaryo viloyatidagi chiqishlar: 1871-yildagi Farg'onada Yetimxon qo'zg'oloni; 1872-yilda Chirchiqdagi isyonlar, 1873-76-yillar Qo'qondagi Po'latxon qo'zg'oloni; 1892-yildagi Toshkent qo'zg'oloni; 1898-yildagi Andijonda Dukchi Eshon qo'zg'oloni; 1899-yildagi Sirdaryo viloyatidagi harakatlar, 1916-yildagi Jizzax qo'zg'oloni va boshqalar.

XIX asr 70-yillar boshlaridagi Farg'onadagi xalq harakatlarini alohida qayd etish lozim. 1868-yilda Kaufman bilan sulh shartnomasi tuzib. Qo'qon xonligining katta hududlarini Rossiya ixtiyoriga bergan va Rossiya hukmronligini tan olgan Xudoyorxon siyosatidan nafaqat oddiy xalq, balki yirik yer egalari ham norozi edilar. Qo'qon xonligida elchi va josus vazifasini bajargan polkovnik Shaufus ma'lumotlariga qaraganda, norozi beklar tepasida Abdurahmon oftobachi turgan. 1872-yilda xon siyosatiga qarshi xalq harakati ayniqsa kuchaydi. Bundan foydalangan Abdurahmon oftobachi uning tanishi mulla Is'hoq Hasan o'g'lini qirg'izlar orasida Po'latxon nomi bilan qo'zg'olon ko'tarishga undadi va o'zi ham bu harakatga qo'shiladi. 1873-yilda boshlangan bu qo'zg'olonda oddiy xalq-dehqonlar, hunarmandlar faol ishtirok etdilar va bu harakat butun Farg'ona vodiysi bo'ylab yoyildi. Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek boshchiligidagi xon qo'shinlari ham qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatladilar. Bu voqeadan qo'rqib ketgan Xudoyorxon rus hokimiyatidan boshpana so'rab, Toshkentga qochdi. Qo'qon taxtiga uning o'g'li Nasriddinbek (1875-76) xon qilib ko'tarildi.

Qo'zg'olonchilar kelishuviga binoan esa Po'latxon xon etib saylanishi kerak edi. Nasriddinbekning xonlikka ko'tarilishi va uning ham ruslar bilan kelishuv siyosatini olib borishi, qo'zg'olonchilar o'rtasida norozilik keltirib chiqardi. Natijada Marg'ilon, Namangan, Andijon hududlarida Po'latxon tarafdorlari yerlarini kambag'allarga bo'lib berib, xon siyosatiga qarshi chiqdilar. Qo'qon xonining ruslarga qarashli bo'lgan yerlarida ham norozilik chiqishlari avj ola boshladi. Bu rus hukumatini xavotirga solib qo'ydi va Kaufman Qo'qon xonligini tugatish to'g'risida podshoning roziligini so'rab, iltimosnoma jo'natdi. Qo'qon xonligi hududiga esa Skobelev boshchiligida harbiy jazo otryadi kiritdi. Bu vaqtda Nasriddinxon hokimiyatdan chetlashtirilib, vodiya Po'latxonning mavqei oshib ketgan edi.

Harbiy jihatdan ustun bo'lgan rus qo'shinlari qo'zg'olonchilarni tezda mag'lubiyatga uchratdi. Po'latxon qo'shinlari harakatining ikkinchi bosqichi 1875-yili

Ohangaron, Fclov, Pskent va Toshkentda bo`lib o`tgan harakatlarni o`z ichiga oladi. Bu harakatlarda qattiq zarbaga uchragan qo`zg`olonchilar 1876-yili Andijonda, Oloy vodiysida kurashni davom ettirdilar. Lekin harbiy jihatdan kuchlar teng emas edi. 1876-yil 1-martda Po`latxon tutib olinib, Marg`ilonda osib o`ldirildi. Boshqa qo`zg`olonchilar ham qattiq jazolandi. Podshoning buyrug`i bilan Qo`qon xonligi tugatilib, Farg`ona viloyati tashkil etildi.

Farg`ona vodiysida bo`lib o`tgan 70-80-yillardagi xalq harakatlarida Qurbonjon dodxoh Yetimxon, Darvishxon to`ra, Yoqubbek boshchiligidagi qo`zg`olonlarni aloluda qayd qilishimiz zarur. Qurbonjon dodxoh rus qo`shinlariga qarshi kurashda sharq ayollarining qahramonligini, jasoratini namoyon etdi. Manbalarning ma`lumot berishicha, general Skobelev sulh tuzish uchun mayor Ionovni Qurbonjon dodxoh huzuriga jo`natadi. Ammo Qurbonjon dodxoh mayorni qabul qilmay, faqat o`z mavqei bilan teng bo`lgan sarkarda bilangina muzokaralar olib borishi mumkinligini bildiradi. Chorasiz qolgan rus generali Skobelev u bilan sulh tuzishga va uni «Oloy malikasi» deb tan olishga majbur bo`ldi. Qurbonjon dodxohning nabiralari 1898-yilgi milliy ozodlik qo`zg`olonida ham faol qatnashganlar. Rus amaldorlari doimo Oloy malikasidan hayriqishgan. Shuning uchun gubernatorlar uning oldiga tez-tez kelib turishgan.

1901-yilda Rossiya imperiyasi Qurbonjonga imperatritsaning sovg`asini shaxsan topshirgan. Qurbonjon dodxoh 1907-yilda O`shda 96 yoshida vafot etgan.

O`rta Osiyo xalqlarining mustamlakachilarga qarshi kurashida Yoqubbek va u boshqargan Yettishahar davlati (1865-1877) ham muhim o`rin egallaydi. Chunki ular Qo`qon, Buxoro, Xiva vatanparvarlarining rus bosqinchilariga qarshi kurashlarida yordam berib turishgan. Shu sababli Turkistondagi so`ngi mustabid davlatni tugatish Rossiya uchun kechiktirilmas vazifa bo`lib qoldi. 1877-yil 22-iyunda rus qo`shinining G`uljaga bostirib kirishi shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan edi. Amir Yoqubbekning to`satdan vafot etishi Yettishahar davlati qo`shinining mag`lubiyatga uchrashiga sabab bo`ldi. Oqmachit, Chimkent, Toshkent mudofaalarini tashkil qilishda jonbozlik ko`rsatgan Yoqubbek Turkiston ozodligi uchun kurash yo`lida jon baxshida etgan qahramonlarimizdan biridir.

1878-yili Mingtepada chorizmining siyosiy-iqtisodiy zulmiga qarshi Yetimxon boshchiligidagi g`alayon ko`tarildi. Bunday g`alayon 1879-yilda Farg`ona viloyatida ham sodir bo`ldi. Bu qo`zg`olonlar kuch bilan bosirilsa ham aholining qahr-g`azabidan xavfsiragan Farg`ona viloyati gubernatori g`ayriqonuniy soliq vig`uvchilarni ishdan olib tashlashga majbur bo`ldi.

1889-1890-yillarda Farg'ona vodiysi va Toshkent hududlarida ko'plab xalq harakatlari, qurolli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Shulardan biri Darveshxon qo'zg'olonidir. Andijon uyezdinging Qo'rg'ontepa volostida yuqori tabaqaga mansub bo'lgan vatanparvar Darveshxon qo'shin to'plashga kirishdi. U mustamlakachilik tuzumiga qarshi ochiqdan ochiq qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rdi, ammo Farg'ona viloyati harbiy ma'murlari katta kuch yuborib Darveshxon kuchlarini tor-mor etdi, uning yordamchisi Mo'minboy ushlab olinib, dorga osildi.

1892-yilgi qo'zg'olon ko'plab tarixiy adabiyotlarda rus hukumatining o'lkaning bir qancha shaharlarida vabo kasali tarqalishining oldini olish uchun Toshkent shahrida ko'rilgan chora-tadbirlariga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon deb ta'riflangan bo'lsa-da, aslida bu qo'zg'olon chor Rossiyasining o'lkada ko'p yillar davomida olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan edi.

Rus hukumatining vaboni oldini olish uchun ko'rgan chora-tadbirlari davomida mahalliy aholining diniy e'tiqodlari, urf-odatlari hisobga olinmaganligi natijasida sabr kosasi to'lgan xalq omunasining noroziligi kuchaydi. Natijada bu qo'zg'olonda Toshkent shahri aholisining barcha qatlamlari ishtirok etdi. Mahalliy aholining milliy-madaniy an'alariga xos diniy bayram «Qurbon hayit» kuni boshlangan bu qo'zg'olon, tezda chor askarlari tomonidan bostirilib, qo'zg'olonchilardan 8 kishi dorga osib o'ldirilishiga, 15 kishini 2 yil muddat bilan mahbuslar rotasiga yuborilishiga, 2 kishini olti oydan qamoq jazosini o'tashga hukm qilishdi. Lekin chor Rossiyasi dunyo matbuotchilari oldida bu jazolar shov-shuvga sabab bo'lishidan cho'chib, ushbu jazoni umrbod surgun bilan almashtirdi. Bu qo'zg'olon Toshkent shahrining o'zida yuz bergan bo'lsa-da, uning aks sadosi butun Turkiston o'lkasi bo'ylab tarqaldi.

XIX asr oxirlarida Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi o'zka xalqlarining milliy ozodlik harakatining yana bir yorqin namunasi 1898-yil may oyida Andijonda bo'lib o'tgan Dukchi Eshon qo'zg'oloni orqali namoyon bo'ldi. Bu qo'zg'olon rahbari Muhammadali Eshon o'z davrining obro'li, diniy va dunyoviy ilmlardan boxabar, davr siyosatini to'g'ri tushungan shaxs edi. U o'z muridlari va hamfikrlari bilan bosqinchilarning xalqqa qarshi olib boravotgan zulmkor siyosatini qoralalar va bunga qarshi har qanday harakatni ma'qullar edi.

Dukchi Eshon Mingtepa qishlog'idan turib Farg'ona shaharlari va qirg'iz yerlaridagi mustamlakachilardan norozi aholini birlashtirish va bu zulmni ag'darib tashlash uchun harakat boshladi.

Qo'zg'olon olib borish usullaridan bexabarlik, birlikning yo'qligi, uyushmaganlik, qurol-aslaha va moddiy bazaning yetishmasligi qo'zg'olonning tezda mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi, ayniqsa, qo'zg'olonning kelishilgan muddatdan oldin boshlanishi, harakat mag'lubiyatining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilib, uning rahbarlari qattiq jazolandi. Qo'zg'olon natijasida Farg'ona viloyatida va butun Turkiston general-gubernatorligida harbiy politsiya rejimi kuchaytirildi.

XX asr boshlariga kelib, Rossiyadagi ijtimoiy, siyosiy vaziyat Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'lka hududida demokratik-inqilobiy harakatlar avj ola boshladi. Bu harakatlarni biz nafaqat rus aholisi orasida, balki mahalliy mehnatkashlar orasida ham kuzatamiz.

Turkiston o'lkasi hududida temir yo'llarning qurilishi, zavod va fabrikalarning ishga tushirilishi Rossiya markaziga ko'plab o'lka boyluklarining chiqib ketishini osonlashtirdi. Bu jarayon mahalliy aholi ahvolini yanada og'irlashuviga sabab bo'ldi. Turkiston o'lkasi hududida dehqonlar g'alayonlari, norozilik chiqishlari ortib bordi. Rossiyaning 1914-yilda boshlangan birinchi jahon urushiga tortilishi natijasida mahalliy xalqdan olinadigan soliqlar miqdori oshib bordi. Turkiston o'lkasi hududida yersiz dehqonlarning soni ko'paydi. Chor hukumatining 1916-yil 25-iyunda «Urush borayotgan joylarda mudofaa va harbiy inshootlarni qurish, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan jamiki boshqa ishlarni bajarish uchun rus bo'lmagan aholining erkak qismini jalb etish to'g'risidagi» farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonga muvofiq hozirgi O'zbekiston hududlaridan 19-43 yoshgacha bo'lgan 250 mingdan ziyod erkak aholi front ortidagi ishlar (mardikorlikka) chaqiriladigan bo'ldi.

Mardikorlikka ketadiganlar uch oyda qaytib kelishlari, bungacha ularning oilalari hukumat tomonidan ta'minlanishi va'da qilindi. Ro'yxatga olish davomida amaldorlar boylik orttirish payida bo'lishib, boylarning bolalarini pul evaziga ro'yxatga kiritishmadi. Bu xalq noroziligining ortib borishiga sabab bo'ldi. 1916-yil iyul oyidan mahalliy aholining qo'zg'oloni boshlandi. 4-iyul kuni Xo'jandda, 5-iyul Samarqand viloyatida, 10-iyul kuni Marg'ilonida, 11-iyulda Samarqand va Toshkentda mardikorlikka olishga qarshi qo'zg'olonlar boshlandi. 1916-yil 18-iyulda butun Turkiston harbiy holatda deb e'lon qilindi.

1916-yildagi harakatlarning eng kuchaygan nuqtasi 13-iyul kuni boshlangan Jizzax qo'zg'oloni bo'ldi. Jizzaxda qo'zg'olonga Nazirxo'ja Abdusalom o'g'li, Abdurahmon Jevachi kabi xalq

yo'lboshlari boshchilik qilib, aholini mustaqil beklik tuzishga chaqirdilar. Qo'zg'olon davomida temir yo'l bekatlari, ko'priklar vayron qilingan.

Jizzaxning yangi shahariga yetib kelgan polkovnik Afanasyevning jazo otryadi qo'zg'olonchilardan yengildi. Shundan keyin Turkiston general-gubernatori yuborgan polkovnik Ivanov boshchiligidagi katta harbiy kuchlarga ega bo'lgan jazo otryadi qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Chor qo'shinlari bilan so'nggi to'qnashuv 1916-yil 21-iyulda Qilich qishlog'ida bo'lib o'tdi. Mingga yaqin kishi hibsga olinib, jazolandi. 1916-yilgi qo'zg'olon hukmron sinflarning zulmiga qarshi qaratilgan xalq qo'zg'oloni edi. Qo'zg'olonni harakatga keltirgan asosiy kuch dehqonlar va hunarmand kambag'allar bo'ldi.

Qo'zg'olonchilarni mahalliy ziyolilar, ruhoniylarning bir qismi qo'llab-quvvatladi. Qo'zg'olon bostirilgach, uning yo'lboshchilari jazoga tortilib, o'limga mahkum etildi. Jami 51 kishi qatl etildi, 168 kishi surgun qilindi, 128 kishi qamaldi, 228 kishi turli jazo xizmatlariga safarbar etildi. 1916-yilgi qo'zg'olon butun mustamlakachilik davomida Turkistondagi eng qudratli va uyushgan qo'zg'olon bo'ldi.

10.2. Jadidchilik harakati

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan musulmlarka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko'rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o'ynadi.

Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo'lib, u o'sha davrda Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalari hayotga tatbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi.

Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmolda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma'rifatchilik; 2) 1915-yildan—1918-yil fevraligacha-

muxtoriyatchilik; 3)1918-yil fevralidan 20-yillar oxirigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlari orasida, dastlab, Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali (1851-1914) bo'ldi. Ismoilbek 1884-yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli «usuli savtiya», ya'ni «yangi usul» nomi bilan shuhrat qozondi. «Jadid» arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni bildiradi. Ismoilbek g'oyalari qabul qilgan yangilik tarafdorlari «jadidlar», uning g'oyalari esa «jadidchilik» nomini oldi. Ismoilbek Gaspirali darslik yaratadi, o'zining "Tarjimon" (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi.

I.Gaspirali 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo'ldi. Buxoroda amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga «Muzaffariya» nomi beriladi. 1898-yilda To'raqo'nda (Qirg'iziston) ham shunday maktab ochildi. 1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib, jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari alohida e'tiborga molikdir.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.

2. Umimli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.

3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyofilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi qism ibtidoiy qism deb atalib, uning tahsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil

o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik o'qimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906-yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma'rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro'znomalarning ko'plab vujudga kelishida ham ko'rindi. Chunonchi, 1906-yilda Ismoil Obidovning muharrirligida «Taraqqiy», shu yili Munavvarqori muharrirligida «Xurshid»,

1907-1908-yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida «Shuhrat», Ahmadjon Bektemirov muharrirligida «Osioy» ro'znomalari chop etildi.

Lekin tez orada chor ma'muriyati ashaddiy shovinist N.P. Ostromov bildirishnomasiga asoslanib, bu ro'znomalarni man etdi.

Ma'rifatchilikning yangi to'lqinida 1913-1915-yillarda «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Buxoroi sharif», «Turon», 1917-yilda esa «El bayrog'i», «Kengash», «Hurriyat», «Ulug' Turkiston» gazetalari, «Oyina» jurnali kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo'ldi.

Jadidchilik Stolipin reaksiyasidan so'ng yashirin tusga o'tdi. Chunonchi, Toshkent politsiyasi mahkamasiga etkazishicha, maxfiy guruhlardan birini o'qituvchi Ahmadjonov boshqargan va u asosan, milliy ziyolilar hamda o'quvchi yoshlar vakillaridan tarkib topgan. Qo'qondagi maxfiy guruh 50 kishidan iborat bo'lgan. Andijondagi jadidlarning yashirin tashkiloti «Taraqqiyparvar» deb atalib, maxfiy ishlar bo'yicha politsiya bo'limining ma'lumotlariga qaraganda, uning rahbarlaridan biri Ubaydulla Xo'jayev bo'lgan. Shuningdek, podsho ayoqchilari 1909-1916-yillar davomida mudarris va maktab o'qituvchilarining o'lkani boshqarishda islohotlar o'tkazish kerakligi haqida targ'ibotlar olib borayotganliklarini bir necha marotaba hukumatga yetkazganlar.

Rossiya Fevral demokratik inqilobi arafasida Turkiston jadidchiligi vetuk siyosiy harakatga aylandi. Agar Birinchi Jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, Fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining «taraqqiyparvarlar» oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Ular qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish tomon o'lkani boshqarish

yuzasidan asosli islohotlar o'tkazish, o'lkaga Davlat Dumasidan aholi soniga qarab o'rin berish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalo, milliy matbuot erkinligini ta'minlash, chorizmni konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kiradi. Rossiyadagi Fevral demokratik inqilobi Rossiyada yangi davlat tuzumi o'rnatilgandan so'ng federativ davlat shaklida muxtoriyat olishga umid bog'lagan jadidlarni ruhlantirib yubordi. Ayni paytda, milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan, jadidlar tomonidan «Sho'roi Islomiya», «Itifoqi musulmin» «Turon» kabi bir qator tashkilotlar tuzilgan. Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining turli qatlamlarini o'z ortlaridan ergashtira oldilar. Ular ongida musulmonlar birligini mustahkamlash, jipslashtirish hissini uyg'otdilar. Ammo ular tez kunlarda tushundilarki, Rossiyadagi Muvaqqat hukumat va uning Turkiston Qo'mitasi ham o'lkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom ettirish yo'lini tutmoqda. Chunonchi, bu siyosat Ta'sis majlisini chaqirishga tayyorgarlikda yaqqol namoyon bo'ldi. Shu vaqidan jadidlar uchun mustaqillik va muxtoriyat yo' hayot, yo mamot muammosiga aylandi va jadal siyosiy janglar boshlandi. Ular hukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga oldilar va Turkistonning Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-hududiy muxtoriyat olishi uchun astoydil harakat qilishga kirishdilar. Jadidlarning dasturiy hujjatlarida diqqat-e'tibor milliy-hududiy muxtoriyatning asosiy tamoyillarini amalga oshirish mexanizmlari Turkiston Federativ Respublikasi imkoniyatlariga taalluqli bo'lgan masalalar bo'yicha qonunlar chiqarishni amalga oshirish uchun chaqirilgan mustaqil vakolatli o'lka hokimiyatining oliy organlari, boshqaruvi va sudi mexanizmlarini ishlab chiqish, o'z davlat tuzilishini barpo etishga qaratildi. Boshqaruvning poydevori sifatida respublika shakli tanlab olindi. Demokratik huquq va erkinliklar berilgan va konstitutsion jihatdan kafolatlanish lozim bo'lgan demokratik jamiyatni shakllantirish ustuvor maqsad qilib belgilandi. Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi haqidagi o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etishni mamlakatdagi turli ijtimoiy kuchlar o'rtasida tinchlik va kelishuvchilik, demokratik asosda shakllantirilgan Rossiya Ta'sis majlisini chaqirish bilan bog'langanliklari ham diqqatga sazovor. 1917-yil iyulda «Sho'roi islomiya»dan «Sho'roi Ulamo» tashkiloti ajralib chiqdi. Ammo Ta'sis majlisida o'rin olish masalasining muhimligini anglash, bu ikki oqimning keyinchalik qo'shilishiga va «Turk Adami markaziyati» nomi bilan ataluvchi yagona Turkiston Federalistlari partiyasining tashkil etilishiga olib keldi.

Biroq Turkistondagi oktabr voqealari va bolsheviklarni zo'rvonlik bilan hokimiyatni egallashlari ularga o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular Petrogradga tuzilgan bolsheviklar hokimiyatining «Rossiya xalqlari Deklaratsiyasi» (1917-yil 2-noyabr), "Rossiya va sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga Murojaatnoma" (1917-yil 20-noyabr) hujjatlarida ko'rsatilgan millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi to'g'risidagi huquqlardan foydalanib, Turkiston muxtoriyati hukumatini e'lon qildilar. Uch oygina yashagan bu muxtor respublika tugatilishi oqibatida jadidlar ta'qibga uchradilar. Munavvarqori Abdurashidxonovning guvohlik berishicha, «Ittihodi taraqqiy (1917-1920), «Milliy ittihad» (1920-1925), «Milliy istiqlol (1925-1929) va «Turkiston Milliy Birligi» (1921-1923) (raisi Ahmad Zakiy Validiy) maxfiy tashkilotlari o'lkada hokimiyatni qo'lga olish maqsadida faoliyat yuritgan. Sovet davrida jadidlardan chiqqan milliy ziyolilar sovet organlarida faoliyat ko'rsatdilar va o'z faoliyatlari bilan xalq ta'limi sifatini rivojlantirishga ma'rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ayrim qismi mustabid tuzumning siyosatiga ko'ngmay xorijga o'tib ketdilar, muayyan qismi esa istiqlolchilar harakatiga qo'shilib ketdilar. Istiqlolchilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qilish, ayniqsa, sovet organlarida ishlab, milliy mustaqillik g'oyalarini targ'ib qilishdagi sa'y-harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan 1929-1937-1938-yillarda ommaviy qirg'in qilinishiga olib keldi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa ham, bu hududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik harakatiga ham o'ziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari, dastlab, amir va xon hukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o'tkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar, keyinchalik xon va amir yakka hukmronligi har qanday taraqqiyotga to'siq ekanligini tushunib yetdilar. Chunki 1917-yilda Xivada Afandiyorxon ruxsati bilan tuzilgan yosh xivaliklardan iborat majlis va nozirlar kengashi, ularning taqiqlanishi va Junaidxon davridagi yosh xivaliklarning qattiq ta'qib qilinishi; Buxoro amiri Said Olimxonning o'zi qabul qilgan islohotlar o'tkazish haqidagi farmonini bekor qilishi va 1918-1920-yillarda yosh buxoroliklarning quvg'inga uchrashi shunga olib kelgan. Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida jadidlar hukumat organlarida rahbar lavozimlarida ishlab, mamlakatni taraqqiy qildirish va mustaqillikni saqlab qolishga intildilar (1920-1924). Biroq sovet rejimi, avval, Buxoro

va Xorazm davlatlari mavjudligiga chek qo'ygan bo'lsa, keyinchalik barcha jadid namoyondalarini jismonan mahv qildi.

Umuman olganda, asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so'ngra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muhim o'rin tutadi.

Mavzuga doir mulohaza

Respublika, viloyat davlat arxivlarida butun-butun qishloq mehnatkashlarining yangi ariq chiqarish, mavjud ariqlarni tartibga solish, daryo, soylarga to'g'onlar qurishni so'rab yozgan ariza, talabnomalari ko'plab saqlangan. Arizalarni qarab chiqish uchun avval ular rus tiliga tarjima qilinardi. Vaqt esa o'tib borar, masala hal bo'lguncha dehqonlar azob chekardi.

O'lka ehtiyojlari qondirilmay, sekin-asta qashshoqlanish boshlandi. An'anaviy xalq ta'limining eng muhim vositalari hisoblanmish islom dini ta'limotiga asoslangan maktab va madrasalar faoliyati cheklab qo'yildi. Bir vaqtning o'zida yangi ko'chib kelgan o'ris mahalla va qishloqlarida xristian cherkovlari-butxonalar qurildi. Hatto N. Ostroumov degan ashaddiy josus masihiy «Injil» kitobini o'zbekchaga tarjima qilib tarqatdi...

Shahar hokimlari qozi va boshqa amaldorlar, imomlar va maktabdorlarni chaqirib, masjidlarda namozdan so'ng oq podshohning nomini duo qildirishga buyruq berdilar.

Fozilbek Otabek o'g'lining yozishicha, biron musulmon ko'chada o'tib ketayotgan uyezd boshlig'i yoki pristavni ko'rmay qolib, o'rnidan turmagani va salom bermagani uchun, oxrankalar qaytib kelib, uni kaltaklagan, hatto qamatgan. Andijon hokimi ayrim mo'tabar odamlarni: «Menga salom bermading», deb haqorat qilgan. gap qaytarsa, bir necha kunga qamatgan.

Ichki siyosatdagi bu ishlar ikki maqsadni ko'zlab qilinar edi. Biri — mahalliy musulmonlar e'tiqodini susavtirib, diniy ibodatlarni ichdan yemirish va shu yo'l bilan o'lkada xristianlik diniy huquqlarini qaror toptirish. Ikkinchi maqsad — bosqinchi o'ris podshohi va uning oilasiga ehtirom bildirish orqali keyinchalik SSSRda to'la g'alaba qilgan g'oya — mahalliy xalqni «ulug' rus» xalqini e'zozlashga o'rgatish va shu yo'l bilan xalqimizning o'zligini unutishga undash.

Bunday siyosat oqibatida o'lkada asta-sekin ma'naviy

qashshoqlik boshlandi. Mustamlakachilar xalqni gumrohlikda saqlash uchun islom dini da'vatiga qarshi axloqsizlik, nopoklik odatlarini yoydilar. Elni masihiylikka tortish, o'ta noziklik bilan ruslashtirish siyosatini yurgizmoqchi bo'ldilar. «Yangi shahar» deb atalmish o'rislar yashaydigan obod joylarda ichkilikxonalar tashkil qilindi. Bu kasofat ba'zi imoni zaif musulmonlarni ham o'ziga tortdiki, o'sha davrdan boshlangan ichkilikbozlik sho'rolar hokimiyati yillarida hamma yoqni qamrab oldi. Endi esa bundan qutulishning aslo iloji bo'lmayotir.

Shaharlarda yangi ochilgan ko'chalarga rus podshohlari-yu, o'ris generallarining nomlari qo'yildi. Keyinchalik, o'lkaga temir yo'l tortilgach, barcha bekat nomlari ham ruslashtirildi. Nom qo'yishdagi bu yangilish ishlar mana, endi mustaqillikka erishilgandan keyingina tugatila boshlandi.

Bularning barchasi mahalliy xalq ommasining ikki tabaqasiga, ayniqsa, yomon ta'sir ko'rsatadi. Biri — mehnatkash xalqning o'sha davrdagi piri-ustozlari bo'lmish islom dinimizning oliy tabaqali peshvolariga azob berayotgan edi. Mahalliy mudarrislar, diniy olim-ulamolar bunday ko'rgilikdan ruhiy azobda qoldilar. Ular yaxshi bilarditarki, Qur'oni Karimning biron so'zi tugul, hatto biron nuqtasi, harfini tushirib qoldirish ham gunohi kabirdir. Axir, qanday qilib uning ma'nosini buzgan holda yangidan nashr qildirib bo'ladi, qanday qilib xalqimiz ongiga singib ketgan So'fi Olloyorning ta'limiy g'azallarini o'zgartirib bo'ladi. Nahotki, juma namozlarida oq podshoh va uning oilasi nomini xutbaga qo'shib o'qitilsa! Ichkilikbozlik..., boshqa yangi betartibliklarga qanday chidab bo'ladi! Buning ustiga, madrasalar ixtiyoridagi vaqf yerlarga ham tajovuz boshlandi. Bunday yerlar madrasa xodimlari va talabalarning tirikchilik manbai edi. Bunday yerlarni hukumat tomonidan sotib yuborish haqida ko'rsatma bo'lgan edi. Natijada ulamolar asosiy daromad manbaidan ham ajralib, iqtisodiy jihatdan kambag'allashishi boshlangan edi.

Chorizm ichki siyosati ruhiy azob berayotgan tabaqa — yangi muallimlar va ko'zi ochilayotgan yoshlar edilar, bular XX asrdan boshlab shakllangan bo'lg'usi jadidlar toifasining dastlabki vakillari edilar. Ular yangi ochilgan rus-tuzem maktablarining ayrim taraqqiyparvar muallimlari va o'sha maktabni bitirgan yosh mullabachehalar Rusiya bosqinidan so'ng hayotda yuz berayotgan salbiy o'zgarishlarni, mehnatkash xalq ahvoli va kayfiyatini sinchkovlik bilan kuzatishga qodir yoshlar bo'lib, keyinchalik ilg'or fikrli jadidizm harakatining faollari o'sha yoshlardan yetishib chiqdi. Ular hokim to'ralarning ko'zidan viroqda yurishga urinar, ammo

ro'y berayotgan voqealarni ko'rib, o'zlarini qo'ymoqqa joy topa olmas edilar. Ularda hukmron tuzumga qarshi tug'yon boshlanayotgan edi. Ular faqat bitta narsani milliy istiqbolni, o'z xalqining porloq istiqbolini o'ylar edilar.

(Sayfiddin Hoji Jalilov. «Saltanatni titratgan kunlar». Toshkent, 1998, 16--19-betlar)

Tayanch tushunchalar

Milliy ozodlik harakatlari, Po'latxon qo'zg'oloni, Dukchi Eshon, mardikorlik, Jizzax qo'zg'oloni, Jadidchilik, Turkiston jadidlari, Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar, Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari.

Takrorlash uchun savollar

1. Turkistonda milliy ozodlik harakatlari boshlanishining asosiy sabablari nimalarda edi?
2. Qanday sabablarga ko'ra Qo'qon xonligi tugatildi?
3. Nima uchun rus amaldorlari Qurbonjon (Oloy vodiysi hokimi) dodxohdan doimo hayiqishgan?
4. Andijon qo'zg'olonining rahbari Muhammadali Eshon o'z oldiga qanday maqsadlar qo'ygan edi?
5. Mustamlakachilik davomida Turkistondagi eng qudratli va uyushgan qo'zg'olon haqida bilasizmi?
6. Turkistonda jadidchilik g'oyalari qachondan boshlab yoyildi?
7. Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturida qanday masalalar ko'tarilgan?
8. Turkiston jadidlari yetuk siyosiy harakat sifatida qanday talablarni ilgari surdilar?
9. Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi haqidagi o'z g'oyalarni hayotga tadbiq etish uchun qanday harakat olib bordilar?
10. Jadidlarning qanday harakatlari ularning sovetlar tomonidan ommaviy qirg'in qilinishiga sabab bo'ldi?

II-mavzu. TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI VA UNGA QARSHI QUROLI HARAKAT

REJA

1. 1917- yil fevral inqilobining Turkistonga ta'siri.
2. Oktabr to'ntarishi. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi, uning shovinistik siyosati.
3. Turkison muxtoriyatining e'lon qilinishi va bolsheviklar tomonidan tor -mor qilinishi.
4. Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati.

Adabiyotlar

6,16,28,42,64,73,59.

11.1. 1917-yil fevral inqilobining Turkistonga ta'siri

1917-yil 27-fevralda Petrogradda bo'lgan demokratik inqilob g'alabasi Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada Turkistonda ham ishchi va soldat deputatlari Sovetlari va har xil toifalar vakillaridan tuzilgan ijroiya komitetlar tashkil etila boshlandi. Toshkentning hamma dahalari vakillari to'planib «Sho'royi Islomiya» tashkilotini tuzdilar.

1917-yilning mart oyida o'lka muxtoriyati masalasi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi asosiy masala bo'lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat demokratik ziyolilar o'rtasida, hatto oddiy fuqarolar orasida ham tarqala boshladi. 31-mart kuni rus podshosining o'lkadagi tayanchi - Turkiston general-gubernatori hokimiyatni tark etdi. 1917-yil 7-aprelda Muvaqqat hukumat qarori bilan kadet N.N.Shepkin raisligida Turkiston qo'mitasi tashkil qilindi. 9 kishidan iborat bu komitet a'zolarining to'rttasi: A.Bukeyxonov, M.Tinishboyev, S. Maqsudov, va A.Davletshinlar turkiy xalqlar vakillari edi.

Turkiston mahalliy aholisining oshib borayotgan ijtimoiy-siyosiy faoliyati sharoitida Toshkentda 1917-yil 16-aprelda «Sho'royi Islomiya» ning Toshkent tashkiloti tashabbusi bilan chaqirilgan Butunturkiston musulmonlarining I- qurultoyi ish boshladi.

Qurultoyning so'nggi majlisida markaziy rahbar organ-Turkiston o'lka musulmon sho'rosi tashkil etilishi haqida qaror

qabul qilindi. Shunday qilib, Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam qo'yildi.

Afsuski, birlashish jarayonlari har doim ham bir tekis rivojlanmadi. Munavvar Qori boshchiligidagi «Sho'roi Islomiya»dan 1917-yil iyun oyida diniy alamolardan tashkil topgan «Sho'royi Ulamo» ajralib chiqdi. «Sho'royi Ulamo» jamiyati tarafdorlari demokratik kayfiyatdagi milliy ziyolilar va musulmon ruhoniylarning jamiyatda islohotlar o'tkazishi yo'lidagi har qanday urinishlariga va yevropacha madaniyatning kirib kelishiga keskin qarshi chiqishdi. Ma'rifiy, siyosiy sohadagi yangilanishlar haqidagi g'oyalarni ham rad etishdi.

Toshkentdagi ishchi va soldat deputatlari Soveti musulmonlar o'rtasidagi ushbu bo'linishdan ustalik bilan foydalanishga urindi. Sentyabr voqealari natijasida Toshkent Soveti hokimiyatni qo'lga olishga harakat qildi.

1917-yil 10-sentabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi ochildi. Ushbu qurultoy hokimiyatni soldat, ishchi va dehqon deputatlari sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Sentyabr voqealari jamiyatdagi siyosiy qarama-qarshiliklarni keskinlashtirib, o'lkadagi ishchilar harakati bilan milliy harakatning keyingi yo'llarini bir-biridan ajratib yubordi.

Toshkentda 1917-yil 17-20-sentabrda turkistonlik va qozoq musulmonlarning qurultoyida «Sho'royi Islomiya», «Sho'royi Ulamo», «Turon» va boshqalarni birlashtirish yo'li bilan butun Turkiston va Qozog'iston uchun umumiy bo'lgan «Ittifoqi muslimin» degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilindi.

«Ulamochilar»ning ushbu qurultoyidagi asosiy masala Turkiston o'lkasining bo'lg'usi siyosiy boshqaruvi to'g'risida bo'lib, unda demokratik Rossiya tarkibida hududiy federatsiya "Turkiston federativ respublikasi" tuzilishi g'oyasi o'lg'a surildi. Fevral inqilobining ta'siri bilan Turkistonda kasaba uyushmalari omniaviy ravishda tashkil etildi, mahalliy xalqlar tillarida gazetalar chiqq boshladi.

11.2. Oktabr to'ntarishi. Turkistonda mustabid Sovet hokimiyatining o'rnatilishi, uning shovinistik siyosati

1917-yil sentabr oyida bolsheviklashgan Toshkent Soveti soldatlarni va asli rossiyalik ishchilarni o'z tomoniga torta olgan edi. Oktabr oyida Rossiyada to'ntarish bo'lib o'tgandan so'ng, uning ta'siri tez orada mustamlaka o'lkaga ham yoyildi. Toshkentdagi Oktabr to'ntarishi qatnashchilari 1-noyabrda Bosh

komissar general Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasini qamoqqa oldilar va shu kuni Turkistonda Sovet hokimiyati o'rnatilganligi e'lon qilindi. Qurollangan yevropalik ishchilar, asosan, temiryo'lchilar, Toshkent garnizonining soldatlari davlat to'ntarishini o'tkazdilar.

Turkiston bolsheviklari o'lkadagi butun hokimiyatni o'z qo'llariga olish uchun shafqatsiz kurash olib bordilar.

1917-yil 15-22-noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ishchi, soldat va dehqon deputatlarining III o'lka sezida hokimiyat masalasi hal qilindi. Bunda 15 kishidan iborat Turkiston Xalq komissarlari soveti tuzildi (8 so'l eser va 7 bolshevik). Hukumatga mahalliy aholidan bironta ham vakil kiritilmadi. S.Lapin boshliq «ulamochi»lar, menshevik va so'l eserlarning o'lka Soveti tarkibiga musulmon vakillarini ham kiritish borasidagi takliflari inobatga olinmadi. Bu esa bolsheviklarning milliy masalada yo'l qo'yan katta siyosiy xatosi bo'lib, bunda sovet rahbarlarining shovinistik kayfiyatlari ochiq namoyon bo'ldi. Hukumatning bunday ziddiyatli tarkibi o'lkada yevropalik aholi hukmronligini mustahkamladi.

Rossiya Xalq Komissarlari Soveti 2-noyabrda «Rossiya xalqlari huquqlarining deklaratsiyasi» va 20-noyabrda «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» murojaatnomasini e'lon qildi. Ushbu dabdabali hujjatlarda xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi rasmiy ravishda tan olindi; hattoki ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzish huquqi; hamma va har qanday milliy, diniy imtiyozlar va cheklashlar bekor qilindi.

Bu hujjatlar qanchalik balandparvoz va'dalar bermasin, amalda quruq tashviqot bo'lib chiqdi. Ko'p o'tmay, Turkiston XKS "Sho'royi Islomiya", «Sho'royi Ulamo» tashkilotlarini tarqatib yubordi. Bu tashkilotlarning a'zolari Turkiston muxtoriyatini, keyinroq esa milliy istiqloq harakatini qo'llab quvvatladilar.

11.3. Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi va bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinishi

1917-yil 26-28-noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda demokratik musulmon ziyolilar talabi bilan Turkiston aholisining yevropalik qismi vakillari ham teng huquqli bo'lib ishtirok etdilar. Turkistonni boshqarish tizimi to'g'risidagi masala uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turdi. Qurultoyda o'lkaning barcha mintaqalari va ko'pgina junoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakillar hozir bo'ldi. Unda vakillarning siyosiy faolligi tufayli

muhim masalalar yuzasidan munozaralar bo'lib o'tdi. Muxtoriyat e'lon qilish g'oyasini qo'llab-quvvatlovchilar ko'pchilikni tashkil etdi.

Qurultoyda qabul qilingan qarorda: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat eigan xalqlarning o'z taqdirlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Rossiya tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qildi».

28-noyabrda tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, Turkiston Muxtoriyati deb ataladigan bo'ldi. Butunrossiya Ta'sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat kengashi va Turkiston xalq (millat) majlisi qo'lida bo'lishi kerak edi. Turkiston Muvaqqat kengashi a'zolaridan tuzilgan Muvaqqat hukumat hay'ati tarkibiga 8 kishi saylandi, yana 4 o'rin yevropalik aholi vakillariga ajratildi.

Qurultoy jarayonida Turkiston Millat majlisi 54 kishidan iborat qilib saylandi, shundan 36 nafari mahalliy aholi vakillaridan edi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa fursat ichida xalq o'rtasida katta e'tibor qozondi. Abdurauf Fitrat muxtoriyat e'lon qilingan kuni «Milliy Laylatu'lqadrimiz» deb atadi. Turkiston muxtoriyatini barcha demokratik kuchlar qizg'in quvvatladi.

Afsuski, o'zka bolsheviklari Turkiston Muxtoriyati hukumatiga katta xavf deb qaradilar. Turkiston Sovetlarining IV syezdi Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari deb hisobladi va hukumat a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror qabul qildi. Turkiston XKS muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning «Dashnoqsutyun» partiyasi a'zolaridan keng foydalandilar.

1918-yilning 19-fevralida (eski hisob bilan 6-fevral) Qo'qon shahrida faoliyat ko'rsatayotgan Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari natijasida ag'darib tashlandi. Hukumat ag'darilgach ham, Qo'qon va uning atroflaridagi tinch aholini talash va o'ldirish battar avjiga chiqdi. Faqat Qo'qonning o'zida uch kun davomida 10000 kishi o'ldirildi.

«Ulug' Turkiston» gazetasi chuqur qayg'u bilan xabar berganidek, 20 (7)-fevral Ho'qand tarixining eng dahshatli kuni bo'ldi. Eski shahardagi hamma magazinlar, savdo firmalari, banklar va ozmi-ko'pmi yaxshiroq ko'ringan xususiy xonadonlarning hammasi talangan. Gazetadagi ushbu maqola «Ho'qand hozir o'liklar shahri» deb tugaydi. Turkiston Muxtoriyatining ag'darilishi O'ra Osiyoni sovetlashtirishga keng yo'l ochib berdi.

11.4. Turkiston mintaqasidagi istiqlolehilik harakati va uning tarixiy ahamiyati

Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinsa ham, u Farg'ona vodiysida istiqlolehilik harakatini tashkiliy jihatdan rasmiylashtirdi, unga milliy bo'yoq va tus berdi. Muxtoriyat hukumatining tugatilishi istiqlolehilik harakatining butun Farg'ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turki vazifasini o'tadiki, chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg'onaliklar endi bolsheviklar tuzumi va sovet Rossiyasiga qarshi qurolli kurashga o'tandilar. Demak, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha tuzumga qarshi istiqlolehilik harakatining boshlanishini xronologik jihatdan 1918-yil fevral oyining so'nggi o'n kunligida deb belgilashimiz mumkin.

Dastlabki istiqlolechi guruhlarining tuzilishi Qo'qon atrofidagi Bachqir qishlog'idan chiqqan Kichik va Katta Ergashlarning nomlari bilan uzviy bog'liqdir. 27 fevralda bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rniga Katta Ergash qo'rboshi (uni Mulla Ergash ham deyishgan) Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik targ'ibiga qarshi kurash boshladi.

Skobelev uyezdida esa Marg'ilon militsiyasining sobiq boshlig'i Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li — Madaminbek sovetlarga qarshi kurash e'lon qildi. «Yakkatut volosti Garbobo qishlog'idagi Madaminbek guruhining qarorgohiga ommaviy ravishda mahalliy yoshlar kelib qo'shildilar», deb yoziladi 1918-yilga oid arxiv xujjatlarining birida.

1918-yil mart oyiga kelib, Farg'ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ortiq qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsatardi. Madaminbek Skobelev uyezdida, aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Pahlavon, Qobul, Sotiboldi Qozi va Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon shahri atrofida, Eshmat qo'rboshi Qo'qonning Buvayda qishlog'ida, Jonibek Qozi O'zgan tomonda Muhiddinbek Novqatda o'z faoliyatlarini boshladilar.

Istiqlolehilik harakatining harbiy birlikka aloqasi bo'lmagan qurolli bezorilik yoki bosqinchilik yoxud «bosmachilik harakati emasligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Istiqlolehilik harakatining o'ziga xos milliy yo'nalishi va Turkistonga mos xususiyatlari bo'lgan. Harakatning boshdan oxirigacha ustuvor g'oya — bu butun Turkistonning milliy istiqloli edi.

Sovet hokimiyati vakillarining butun Turkiston o'lkasida

yuritgan shovinistik va mustamlakachilik siyosati, mahalliy aholi manfaatlari bilan hisoblashmay, ularning nafsoniyatiga tegishi istiqloqlchilik harakatining doimiy ravishda avj olishiga hamda uning uzluksiz davom etishiga olib keldi.

Turkistondagi istiqloqlchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari dehqonlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar edi. Turkiston Respublikasi rahbarlaridan birining e'tirof etishicha, istiqloqlchilik harakatiga «asosan, dehqonlar va hunarmandlar qatnashdi. Farg'onadagi qurolli muxolifat kuch va son jihatdan tish-tirnog'igacha qurollangan sovet qo'shinlaridan ba'zan mag'lubiyatga uchrab tursada, e'tiqod va ozodlik uchun kurashayotgan istiqloqlchilar vodiydagi butun aholi orasidan doim madad va yordam olib turardilar.

Turkistondagi istiqloqlchilik harakatining uyushgan bu shaklda namoyon bo'lishida qo'rboshilar ko'rsatgan g'ayrat, shijoatni alohida ta'kidlab o'tish kerak. O'z vaqtida Farg'ona vodiysida Kichik va Katta Ergashlar, Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom Pahlavon, Buxoro Xalq Respublikasida Said Olimxon (sobiq amir), Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Anvar Posho, Salim Posho, Davlatmandbek, Jabborbek, Oston Qorovulbegi, O'rmon Polvon, Hayit Amin, Fuzayl Mahdum, Doniyolbek, Xorazm Xalq Respublikasida Junaidxon, Gulomalixon, Qo'shmamedxon, Temir Alixon kabi qo'rboshilar bu harakatni yagona kuchga birlashtirish uchun rahbarlikni birin-ketin o'z qo'llariga olsalar-da, lekin Farg'ona vodiysi, Xorazm va Buxorodagi istiqloqlchilik harakati boshdan oxirigacha yagona markazga to'liq uyusha olmadi. Turkiston fidoyilarining ozodlik harakatini yagona markazga birlashtirish uchun izchil kurashayotgan Madaminbek bilan Anvar Poshoning taqdirleri esa fojiali tugadi.

Farg'ona vodiysidagi istiqloqlchilik harakati 1919-yil yozining oxiri va kuzida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi islom qo'shinlari safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlar armiyasining qo'shilishi vodiya sovet hokimiyatini ag'darish uchun real kuch edi. Sentabrning dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod shahrini egalladi. Qurshob qasabasi yonidagi janglarda sovet armiyasi qismlari katta mag'lubiyatga uchrab, O'sh shahriga chekindi. 8-sentabrda bir yarim kecha-kunduzlik qonli janglardan keyin O'sh shahridagi garnizon taslim bo'ldi va qamoqxonada yotgan mahbuslar istiqloqlchilar tomonidan ozod qilindi.

Madaminbek qo'shinlari 13-sentabrda Eski Marg'ilon shahrini egalladilar. Shu bilan birga, vodiydagi eng yirik strategik shahar-

Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Afsuski, bir oy davomida Farg'ona vodiysini larzaga keltirgan Madaminbek boshchiligidagi musulmon qo'shinining hujumi pirovard natijada mag'lubiyat bilan tugadi.

1919-yil 22-oktabrda Pomirning Ergashtom ovulida bo'lgan anjumanda Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 musulmon va 8 rus, hammasi bo'lib 24 kishi kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig'i bo'lishi bilan birga, Bosh qo'mondon qilib ham tayinlandi.

1919-yilning kech kuziga kelib, Madaminbek qo'l ostida 30 mingga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi istiqloq janglarini olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbekda 20000 yigit, Ergash qo'rboshida 8000 yigit bo'lgan. Aynan ana shu uch lashkarboshi vodiydagi jangovor harakatlarni yo'naltirib turganlar.

Madaminbek siyosida sarkardalik, davlat va siyosat arbobiga xos sifatlar o'zaro uyg'unlashib ketgan edi. U Farg'ona vodiysidagi istiqloqchilarning haqiqiy ma'nodagi dohiysi, tan olingan yo'lboshchisi edi. Madaminbek vodiydagi sovet hokimiyati organlariga muqobil ravishda o'z siyosiy boshqaruv usulini joriy qildi. Bunday boshqaruv usulini yana Ergash, Shermuhammadbek qo'rboshilargina joriy etgan edilar.

Turkistondagi istiqloqchilik harakati 1920-yilning yozi va kuzida o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Kurash yana ham shafqatsiz va murosasiz tus oldi. Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi vatanparvarlar bilan bir qatorda, endilikda Xorazm va Buxorodagi fidoyilar ham bosqinchi qizil armiya jangchilariga qarshi muqaddas kurashga otlandilar. Kurash bayrog'ini vodiya Madaminbek o'rniga endi Shermuhammadbek ko'tardi. Farg'ona vodiysidagi butun qo'rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumanida o'zlarining navbatdagi qurultoylariga to'plandilar. Qurultoy 1920-yil 3-mayda Turkiston muvaqqat hukumatini tuzdi. Ushbu qurultoyda Shermuhammadbek hukumat raisi va islom qo'shinlarining Oliy bosh qo'mondoni qilib saylandi. Bolshevik maddohlardan birining e'tiroficha, «Madaminbek qo'rboshilar o'rtasida eng kuchlisi bo'lgan bo'lsa, Shermuhammadbek shubhasiz, eng xavflisi edi».

Turkiston MIK raisi Inog omjon Xidiraliyevning yozishicha, «1920-yil sentabrda bosmachilarning soni 70000 kishiga yetdi va kuchli vahima uyg'otdi».

Turkistondagi istiqloqchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari ham yetarli darajada mavjud bo'lib, ular, asosan, jadid munavvarlari va islom ulamolari edi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki,

istiqlolchilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qilishi borasida jadidlar bilan ulamolar o'rtasida o'zaro raqobat mavjud edi. Namanganlik Nosirxon To'ra Said Kamolxon To'ra o'g'li, toshkentlik muftiy Sadriddinxon Maxsum Sharifxo'ja Qozi o'g'li, Turkiston MIKning sobiq o'rinbosari To'raqul Jonuzoqov, asli boshqirdistonlik Ahmad Zakiy Validiy To'g'on va boshqalar istiqolchilik harakatini g'oyaviy mafkurachilari edilar. Harakatga rahbarlik qilgan islom ulamolari orasida yassaviylik, naqshbandiylik tariqatlarining pirlari ko'p bo'lgan.

1920-1924-yillarda istiqolchilik harakati Buxoro va Xorazm Respublikalarida ham avj oldi. Buxoro Xalq Respublikasidagi harakatning Turkistondagi istiqolchilik harakatidan farq qiladigan asosiy tomoni shundan iboratki, vatanparvarlar Buxoroda ikki jabhada turib kurash olib borishlariga to'g'ri keldi. Bir tomondan, amirlik tuzumi tarafdorlari bo'lgan mujohidlar, jadidlardan iborat. Ular Buxoro hukumatiga va shuningdek, qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurash olib bordilar (Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor va b.), ikkinchi tomondan, milliy istiqol g'oyalari sodiq bo'lgan buxorolik vatanparvarlar Fayzulla Xo'jayev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati bilan yashirin aloqalar o'rnatib, Buxoroning muqaddas tuprog'idan qizil askarlarning olib ketilishi, Buxoro Respublikasining mustaqilligi amalda qaror topishi uchun kurashdilar (Anvar Posho, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va b.).

Xorazm Xalq Respublikasida qizil armiyaga qarshi kurashning tepasida Junaidxon turdi. U Xorazmda siyosiy hokimiyat uchun kurash boshlab, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Qisqa muddatda Junaidxon o'z qo'shinini 20.000 kishiga yetkazdi. O'zbek hunarmandlari va dehqonlaridan tashkil topgan dastalarga Madraimboy, Sa'dulla bola, Shokir bola va boshqalar rahbarlik qilgan. Junaidxon boshchiligidagi mujohidlar hujumga o'tib, 1920-yil yozida Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Ilonli va Taxtani qayta egallashdi, ko'plab qizil askarlarni asirga olishdi. Junaidxon sovet qo'mondonligiga maxsus maktub yuborib, agar qo'shinlar Xorazmdan olib chiqib ketilmasa, asirlarni olib tashlashini bildirdi. Biroq sovet qo'mondonligi Junaidxonning xaqli talablarini rad qilgach, u bosqinchilarni olib tashlashga buyurdi.

1924-yilga kelganda istiqolchilar iqtisodiy tanazzul va qashshoqlik, dahshatli ochlik, xalqning og'ir turmushini ko'rmasliklari mumkin emas edi. Tinimsiz davom etgan yetti yillik kurashdan Turkiston xalqlari ham, qo'chosli va ularning yigitlari ham juda toliqqan edilar. Shuning uchun qasoskorlarning ko'pchiligi

1924-yil davomida qarshilikni to'xtatdilar. Bunga ularning rahbarlari orasida jipslik va umumiy dasturning yo'qligi ham sabab bo'ldi.

Lekin hali oldinda kurashning to'liq o'n yili turar edi. Vatanparvarlar yana 1935-yilgacha bosqinchi qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurashni olib bordilar.

Istiqlol uchun kurashganlar

Junaidxon (1857—1938) uning asl ismi Qurban Mamed (Muhammad) sardor bo'lib, u 1857- y. Xiva shahridan 30 chaqirim shimoli-g'arbda joylashgan Badirkent qishlog'ida (hozirgi Toshhovuz viloyati, Taxta tumani) turkman yovmutlari urug'ining junaid tarmog'iga mansub mulkdor Hojiboy oilasida tug'ildi. U o'ta murakkab va ziddiyatli shaxs edi. Junaidxon 1873-yilda Xiva xonligiga hujum boshlagan chor Rossiyasi generali Golovachyov qo'shiniga qarshi kurashgan yovmut yigitlari safida bo'ldi. U uzoq yillar davomida o'z urug'ining mirob, qozi va oqsoqoli bo'lgan. 1912-yildan boshlab, Xiva xoniga qarshi qaratilgan turkmanlarning turli chiqishlariga rahbarlik qildi. Xiva xoni Asfandiyorxon (hukmronlik yillari 1910—1918) o'z tomoniga ag'darib olish maqsadida 1915-yilda Junaidxonga butun turkman qabilalarining sardori — harbiy qo'mondoni unvonini beradi. Turkman urug'larining oqsoqollari uni junaid urug'ining xoni-Junaidxon deb e'lon qilishadi. Turkmanlarning mustaqil harbiy feodal davlatini tuzish uchun intilgan Junaidxon Badirkentda to'plagan qo'shinini olib, 1916-yil fevral oyida poytaxt Xiva shahri ustiga yuradi. Toshkentdan yetib kelgan general Galkinning jazo otryadi Asfandiyorxon hukumatiga qarshi ko'tarilgan bu qo'zg'olonni shafqatsiz bostiradi. Junaidxon Qoraqumga chekinadi, qisqa muddat Eron va Afg'onistonda bo'ladi. U 1918-1920-yillarda Xiva xonligining mutloq hukmdoriga aylanadi.

1920- yil mart oyida qizil askarlar tomonidan Xiva xonligi tugatilib, uning o'rniga Xorazm Xalq Respublikasi tashkil etilganidan so'ng, Junaidxon sovet hukumatiga jiddiy xavf sola boshlaydi. Bu davrda Junaidxon qo'l ostida 30.000 kishilik qo'shin bor edi. 1923-yil 8-avgustda Taxtabozor qal'asida bolsheviklar ta'sirida bo'lgan turkman qabila dohiylarining qurultoyida «Junaidxon turkman xalqi va sovet hokimiyatining dushmani», deb e'lon qilindi.

1924-yil noyabrda sovet hokimiyati ma'murlari bilan Junaidxon vakillari o'rtasida muzokaralar bo'ladi. Turkmaniston SSR sovetlarining I sezidida (1925- yil fevral) Junaidxon va uning

safdoshlari afv qilinadi. Biroq, u 1927-yil 9-sentabrda Toshhovuz okrugidagi Oqtepada sovet hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Lekin uning qo'shinlari qizil askarlar tomonidan mag'lubiyatga uchratiladi. U 1931-yilda Eron orqali Afg'onistonga o'tib ketadi va 1938-yilda Hirot atrofida vafot etadi. Uning avlodlari hozir Eronning Hamadon shahrida yashashadi.

Shermuhammadbek (1893—1970) Farg'ona vodiysidagi istiqlochilik harakatining taniqli arbobi. U Farg'onadagi Toshloq tumanining Garbobo (Karbobo azizlar) qishlog'ida beklar avlodidan bo'lgan Qo'shoqvoy hoji xonadonida 1893-yilda tug'ildi. A.Z.Validiy Turonning yozishicha, Shermuhammadbek 1916-yilda Chor Rossiyasi tomonidan mardikorlikka olingan va Polsha fronti ixtiyorida ishlagan. 1918-yildan istiqlochilar safida turgan. Uning asosiy maqsadi Turkistonda islom jumhuriyatini tashkil qilish bo'lgan.

U xorijda 1942-yilda tuzilgan turkistonlik muhojirlarning «Vatanni ozod qilish» (ba'zi manbalarda «Faol») nomli yashirin tashkilotining asoschilaridan biri hisoblanadi. Din peshvosi Muboshirxon Taroziy bu tashkilotning boshlig'i. Shermuhammadbek esa harbiy qo'shinlar bosh qo'mondoni edi. 1943-yil mart oyida Afg'oniston hukumati tashkilot rahbarlarini, shu jumladan, Shermuhammadbekni ham qamoqqa oladi. U ikki yil davomida Qobul qamoqhonasida tutqunlikda turadi. Qamoqdan chiqqanidan so'ng ma'lum muddat Hindistonga ketadi. 1951-1959-yillarda Pokistonda yashaydi. 1959-yildan to umrining oxirigacha Turkiyaning Adana shahrida hayot kechiradi. Shermuhammadbek 1970-yil 10-martda, ukasi Nurmuhammadbek 1983-yil 10-yanvarda Adana shahrida vafot etishadi. Ularning farzandlari hozirgi kunda AQSH va Turkiyada yashaydilar. Shermuhammadbek muhojirlikda Farg'ona vodiysidagi istiqlochilik harakati va o'zi boshchilik qilgan mujohidlar faoliyati haqida o'zining xotiralarini yozib qoldirgan.

Tayanch tushunchalar

Fevral inqilobi, Sho'royi Islom, Sho'royi Ulamo, Ittifoqi musulimin, Oktabr to'ntarishi, Turkiston Muxtoriyati, istiqlochilik harakati, Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati, Farg'ona, Buxoro va Xorazm qo'rboshilari.

Takrorlash uchun savollar

1. 1917-yilgi fevral inqilobi Turkistonga qanday ta'sir qildi?
2. Turkistonda Sovet hokimiyati o'rnatilganligi qachon e'lon qilindi?

3. O'lkada bolsheviklari Turkiston Muxtoriyati hukumatiga nima uchun katta xavf bilan qaradilar?

4. Turkistonda Sovet hokimiyati va bolshevikcha tuzumga qarshi dastlabki istiqbolchilik guruhlari qayerlarda tuzildi?

5. Turkistonda istiqbolchilik harakatining uyushgan bir shaklda namoyon bo'lishida g'ayrat-shijoat ko'rsatgan qo'rboshilardan kimlarni bilasiz?

12-mavzu. MUSTABID SOVET TUZUMINING O'ZBEKISTONDAGI QATAG'ONLIK SIYOSATI

REJA

1. Sovet tuzumining milliy rahbar xodimlarga nisbatan qatag'onlik siyosati (20-30-yillar)

2. Qatag'onlikning yangi to'liqlari.

Adabiyotlar

14,16,28,44,67.

12.1. Sovet tuzumining milliy rahbar xodimlarga nisbatan qatag'onlik siyosati (20-30-y.)

1918-yil aprel oyida RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sotsialistik Respublikasi tuzildi. Bolsheviklarning majburan yon berishi bilan hokimiyat organlarida mahalliy aholi vakillari ishtirok qila boshladilar. 1919-yil sentabr oyida mahalliy aholining Sovetlarga jalb qilinishiga xalaqit beruvchi, sovet hokimiyatining o'lkadagi tayanchi faqat rus ishchilari deb hisoblaydigan, mahalliy aholiga ishonchsizlik bilan qarovchi Turkistonning bir qator rahbarlariga nisbatan choralar ko'rildi. Shu o'rinda qayd qilish lozimki, o'lkada mustamlakachilik siyosatini olib borishda Markaz tashkil qilgan Turkkommissiya va RKP (b) MK Turkbyurosi, keyinroq uning o'rniga VKP (b) MK ning O'rta Osiyo byurosi kabi tashkilotlar katta xizmat ko'rsatdilar.

Turkiston komissiyasi, Turkkommissiya — RKP(b) MQ, butun Rossiya MIQ va RSFSR XKKning Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi 1919-yil 8-oktabrda tashkil qilindi. RKP(b) MQ Siyosiy byurosida komissiya a'zolari qilib V.Bokiy, F.Goloshchekin, V.Kuybishev, Y.Rudzutak, M.Frunze, Sh.Eliyeva tasdiqlandilar. Ular qatoriga keyinchalik mahalliy rahbarlardan A.Rahimboyev, A. To'raqulov, Q.Otaboyev, T.Risqulov, S.Xo'janov kiritildi.

Turkkomissiyaga cheksiz huquq berilgan edi. Ularning asosiy vazifasi qanday qilib bo'lsa ham, Turkistonda sovet hokimiyatini saqlab qolish va mustahkamlash edi. Turkkomissiya bu vazifani amalga oshirishda zo'ravonlik usulidan asosiy vosita sifatida foydalandi. Faoliyatining dastlabki kunida oq komissiya o'zining hukmini o'tkazishga harakat qildi. Markazdan kelgan komissiya a'zolari milliy rahbar kadrlarning Turkiston o'lkasi va xalqi manfaatlarini himoya qilishlariga, markaz siyosatiga qarshi chiqishlarning barcha ko'rinishlariga qarshi ayovsiz kurashdi. Turkistondagi istiqlolchilik harakatlarini tugatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldi. «Turk Respublikasi» va «Turk Kompartiyasi»ni tashkil qilish, Turkkomissiya faoliyatini to'xtatishni talab qilib chiqqan T.Risqulov, A.To'raqulov, Q.Otaboyev kabi bir qator milliy rahbar kadrlarga nisbatan quvg'inlar va qatag'onlar o'tkazdi. Sovet hokimiyatiga hayrixoh bo'lmagan mahalliy aholi vakillarini «bosmachilar»ga sherik sifatida ayblab, ularni qamoqlarga tashladilar, sudsiz-so'roqsiz o'tib tashlashgacha borib yetdilar. Aslida, Turkistonda TurkMIQ va XKK emas, balki Turkkomissiya hukmron edi. Respublikada amalga oshirilishi zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalar faqat Turkkomissiya ruxsati va ko'rsatmasi bilan qilindi.

O'rta Osiyodagi oxirgi milliy davlatlar — Xiva xonligi va Buxoro amirligini tugatilishida Turkkomissiya «bosh-qosh» bo'ldi. Bu mustaqil davlatlarga nisbatan bosqinchilik rejaları Turkkomissiya a'zolari M.Frunze, V.Kuybishev, Y.Rudzutak, F.Goloshchekinlar tomonidan ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Buxoro va Xorazmda sovetlar andozasidagi davlatlarni (BXSR, XXSR) tashkil qilinishi ham, Turkkomissiya «ssenariysi» asosida qilindi. Turkkomissiya O'rta Osiyo hududida tom ma'nodagi mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligi boyliklarining Markazga muntazam ravishda tashib ketilishiga rahbarlik qildi.

1920-yil iyulda RKP(b) MQ Turkiston byurosi tashkil qilinishi munosabati bilan Turkkomissiyaning partiyaviy vakolati to'xtatildi. 1923-yil RKP(b) MQning qarori bilan Turkiston komissiyasi butunlay tugatildi.

Turkiston byurosi (Turkbyuro) - 1920-yil iyulda RKP(b) MK tomonidan tashkil qilindi va Turkistonga yuborildi. U Markazning Turkistondagi ishonchli «mafkuraviy idorasi» edi. Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalarida bolsheviklar tashkil qilgan kompartiyaga «g'oyaviy-tashkiliy» jihatdan «yordam berishi» kerak edi. Aslida, Turkbyuroning tashkil qilinishiga O'rta Osiyo respublikalaridagi istiqlolchilik harakatining kuchayib borishi,

TASSR, BXR, XXSRdagi bir qator rahbar kadrlarning milliy manfaatlarini qat'iylik bilan himoya qilishi, respublikalarda «sovetlashtirish» jarayonining jadallik bilan amalga oshmayotganligi va, eng asosiysi, Markazning O'rtasiy respublikalaridagi mahalliy rahbar kadrlarga ishonmasligi sabab bo'lgan edi.

Turkbyuro Markazning g'oyaviy-siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida partiya saflarini muntazam ravishda «yot unsurlardan tozalab» turdi. Milliy rahbar kadrlarning «g'oyaviy softligi»ni nazorat qildi. Bu vazifani amalga oshirish uchun Markaz Turkistonga muntazam ravishda «tajribali bolsheviklardan» yuborib turdi. Birgina 1921-yil RKP(b) MQ Turkbyuro ixtiyoriga 354 kommunist-emissarlarini yuborgan edi. Ular Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalarida mas'ul lavozimlarda ishladilar. O'rtasiyning shart-sharoitlarini, urf-odatlarini va xususiyatlarini bilmagan bu emissarlar zo'ravonlik bilan hokimiyat organlarida hukmronlik qildilar.

1922-yil mayda RKP(b) MQning Turkbyurosi RKP(b) MQning O'rtasiy byurosi (Sredazbyuro)ga aylantirildi. Unga Turkbyuroning zimmasidagi barcha vazifalar yuklandi, shu bilan birga, uning g'oyaviy-siyosiy ta'sir doirasi yanada kengaydi. O'rtasiydagi milliy-hududiy chegaralanish, zo'ravonlik bilan o'tkazilgan jamoalashtirish, sun'iy sanoatlashtirish, O'zbekistonni xom-ashyo bazasiga aylantirish, mulkdorlarni sint sifatida tugatish Sredazbyuroning faol ishtirokida, uning g'oyaviy rahnamoligida amalga oshirildi. O'rtasiy respublikalaridagi barcha g'oyaviy-siyosiy tadbirlar, o'zgarishlar Sredazbyuroning ruxsati va uning rahbarligida qilindi. Turkbyuro va Sredazbyuro Markazning O'rtasiy Respublikalari ustidan nazorat qiluvchi maxsus boshqaruv organi edi. O'rtasiy Respublikalari bu tashkilotga, so'zsiz, bo'syunishga majbur edilar.

Turkbyuro va Sredazbyuro Turkiston ASSR, O'zbekiston SSRdagi faoliyati davomida mahalliy xalq ongiga unga yot bo'lgan kommunistik g'oyani singdirish bilan bir qatorda, milliy rahbar kadrlarga, milliy ziyolilarga nisbatan ko'plab quvg'inlar va qatag'onlar uyushtirdi. Ularning milliy madaniyati, islom dini va qadriyatlarini oyoq osti qilinishida bosh-qosh bo'ldi.

1934-yil 2-oktabrda SSSR XKK va VKP(b) MQning qarori bilan Sredazbyuro faoliyati tugatildi.

Turkistondagi rahbar xodimlar, xususan, Tutor Risqulov (Turkiston MIK raisi) boshchiligidagi milliy kommunistlar Turkiston mustaqilligi va uning o'z taqdirini o'zi belgilashdek demokratik tamoyillar uchun kurash boshladilar. 1920-yilda TKP

Musulmon byurosining III konferensiyasi va TKP ning V o'lk konferensiyasida T. Risqulovning turk xalqlari kommunistik partiyasi tuzish va Turkiston Respublikasini Turk Respublikasi deb atash haqidagi g'oyalari ko'rib chiqildi va ma'qullandi. Biroq bu g'oyalarning asl maqsadi Turkiston mustaqil bo'lganligi bo'is. Markaz T.Risqulov va uning tarafdorlarining fikrlariga qarshi chiqdi. O'z navbatida, Markazning Turkistondagi hukmronligining tayanchi Turkkomissiya bu harakatni rad etdi va millat fidoyilarini quvg'inga uchradi. F.Risqulov o'lkada ulug' davlatchilik shovinizmi, burjua millatchiligi yuzaga kelayotganligi to'g'risidagi masalalarni ko'tarib chiqdi. F. Xo'jayev partiya ichidagi toqat qilib bo'lmas holatlarini ko'rsatib o'tdi. Ushbu vatanparvarlarning chiqishlari, keyinchalik ularni jismoniy yo'q qilishda ayblov uchun asos bo'ldi.

Turkistonning sotsial-iqtisodiy rivojlanishi borasida bildirilgan muqobil fikr mualliflari millatchilikda ayblandilar. Ayni shu damlarda O'zbekistonning ilg'or, hurfikrli farzandlari «Inog'omovchilik», «18-lar guruhi», «qosimovchilik» kabi guruhbozlikda va davlatga qarshi millatchilikda ayblanib, qatag'on qilindilar. 20-yillarning oxiriga kelib, Respublikada mustabid tuzum o'zini to'liq namoyon etdi. Siyosiy qatag'onliklar avj oldi.

«Inog'omovchilik» — mustabid Sovet davlati jazo organlari tomonidan ataylab to'qib chiqarilgan va 1926-1931-yillarda bir qator milliy rahbar kadrlar va ziyolilarni aybsiz qatag'on qilinishiga sabab bo'lgan bolsheviklar rejimining bo'htonidir. «Inog'omovchilik»ning sababchisi O'z KP(b) MK Ijroiya byurosi a'zolidigiga nomzod, O'z KP(b) MK Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif xalq komissari Rahim Inog'omov edi.

R.Inog'omov 1926-yil oxirida «O'zbekiston ziyolilari» risolasini matbuotda e'lon qiladi. Unda «Oktabrda o'zgarish o'zbek xalqi uchun kutilmagan voqea bo'ldi va unga o'zbek mehnatkashlari tayyor emas edi». Oktabrgacha bo'lgan davrda «...rus istibdodiga qarshi mustaqillik harakatida tarixiy rolni ziyolilar o'ynagan», degan fikrni ilgari suradi. Shuningdek, R.Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston kompartiyasini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashmayotganlikda, Markazning Sredazbyuro, SredazEKOSO kabi «nazoratchi» organlarini zo'ravonlikda ayblaydi.

R.Inog'omovning bu qarashlarini Samarqand, Farg'ona, Toshkent okuruglaridagi bir qator partiya va sovet idoralari rahbar xodimlaridan N.Mavlonbekov, I.Isamuhamedov, Shermuhamedov, M.Alimov, Xo'jayev, Bobonazarov va boshqa faollar qo'llab-

quvvatlashadi.

R.Inog'omov «Qizil qalam» adabiy jamiyatining majlisiga (1926-yil 10-dekabr) raislik qilish jarayonida Vadud Mahmudga so'z beradi va unga marksizm bilan din munosabatlari masalasida so'z yuritishiga «sharoit tug'diradi».

O'z KP(b) MQ va VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi R.Inog'omov bildirgan tanqidiy fikrlarni va uning fikriga qo'shilganlarni partiyaga qarshi «Inog'omovchilik guruhi» deb siyosiy «tamg'a» bosadi va ularga qarshi Respublika partiya tashkilotini oyoqqa turg'azadi.

1926-yil 12-dekabrda bo'lgan O'z KP(b) MK Ijroiya byurosi «R.Inog'omov faoliyati» haqidagi masalani ko'rib chiqib, «inog'omovchilik»ni O'zbekiston kompartiyasidagi «mayda burjuachilik, millatchilikka tomon og'ish» deb baholadi va Respublika partiya tashkilotlarida keng muhokama qilib, «inog'omovchilik»ka «baho berish»ni topshiradi. Shunga binoan barcha partiya tashkilotlari (okrug, rayon, shahar partiya qo'mitalari va hatto partiya yacheykalari) majlislarida «inog'omovchilik» qoralanadi.

Sredazbyuro raisi I.Zelenskiy «inog'omovchilik» haqida VKP(b) MQga yuborgan axborotnomasida (1927-yil 13-yanvar) «Inog'omov boshchilik qilgan elementlar» hech qanday kuchga ega emas, lekin ular partiyada va omma orasida jiddiy tayanchga ega», deb yozgan edi. 1927-yil yanvar oyida «inog'omovchilik» masalasi VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosida maxsus ko'riladi. Unda «inog'omovchilik»ning «trotskiy-zinoviyev oppozitsiyasi bilan g'oyaviy yaqinligi» «ochib beriladi».

A.Ikromov o'zining 1927-yil 7-yanvarda «Pravda Vostoka» gazetasida chop etgan «Partiya uchun kurash» maqolasida, O'zKP(b) MQning V plenumida (1927-yil mart) qilgan ma'ruzasida va 1927-yil 11-mayda xalq ta'limi masalasiga bag'ishlangan partiya aktivida qilgan «Madaniy inqilob vazifalari haqida»gi ma'ruzasida R.Inog'omovni «milliy og'machilik» va «millatchilik»da ayblaydi.

O'zKP(b) Markaziy Nazorat komissiyasi Prezidiumi 1927-yil 16-oktabrda R.Inog'omov haqidagi masalani ko'rib chiqib, uni partiyaga qarshi guruhbozlikda ayblaydi va «qattiq xayfsan» e'lon qilib, jiddiy ogohlantiradi. 1927-yil qishida bo'lgan O'z KP(b)ning III syezdi R.Inog'omovni «g'oyaviy jihatdan» tor-mor qilindi deb hisoblaydi va uni Qashqadaryo okrugining eng chekka qishlog'iga ishlash uchun yuboradi. Oradan ma'lum muddat o'tganidan so'ng, 1930-yil 30-mayda «Pravda Vostoka» gazetasida R.Inog'omovning «ochiq xati» e'lon qilinadi. Unda «Partiyaning Respublikada milliy

kadrlar borasidagi yoʻlni tanqid qilganim notoʻgʻri boʻlgan. Chunki men partiyaning milliy siyosatini, milliy kadrlarni davlat va partiya ishlariga jalb qilish borasidagi faoliyatini yaxshi bilmaganman», deb tavba qildiriladi.

R.Inogʻomov qarashlariga qoʻshilgan, uni davom ettirmoqchi boʻlgan Mavlonbekov, Eshonxoʻjayev va Isomuhamedovlar ham partiyaviy tazyiq ostiga olinadi. Chunki ular R.Inogʻomov ishini davom ettirib, paxta yetishtirish masalasida Markaz koʻrsatmasini ochiqdan ochiq qoralab, Oʻzbekistonni SSSRning «qizil mustamlakasi» deb ataydilar. 1931-yil 9-aprelda boʻlgan OʻzKP MK va Markaziy Nazorat komissiyasi Prezidiumi yigʻilishida «Mavlonbekov, Eshonxoʻjayev va Isomuhamedovlarni «inogʻomovchilik»da va ogʻmachi guruhbozlikda ayblab, ularga «qarshi shafqatsiz kurash olib borish» topshiriladi. Respublikadagi barcha partiya tashkilotlarida ularga qarshi kompaniya boshlab yuboriladi. Yigʻilishlarda ularning xatti-harakatlarini fraksion, guruhbozlik deb tan olishga va oxir-oqibatda tavba-tazarru qilishga majbur qiladilar.

«Inogʻomovchilik»ni Zaki Validiy Toʻgʻon va Mustafo Choʻqayevlar oʻzbek kommunistlarining «Oʻrta Osiyo byurosiga (Sredazbyuro) qarshi dadil chiqishi» deb baholagan edilar. M.Choʻqayev R.Inogʻomovga Parijda chiqayotgan "Yash Turkiston"da ishtirok etishni taklif qiladi.

«Qosimovchilik» - 1929-1930-yillarda sovetlar rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatagʻon qilish maqsadida ataylab uyushtirilgan navbatdagi uydirmasi edi.

1929-yil ikkinchi yarmida OʻzSSR Oliy sudining raisi Saʼdulla Qosimov qamaladi. Bolsheviklar hukumatining jazo organlari tomonidan «toʻqib chiqarilgan» ayblov asosida bu ishga ataylab siyosiy tus beriladi. S.Qosimov bilan birga tarix oʻqituvchisi Olimov, sud idorasi xodimlari Musaboyev va Spiridonov ham qamaladi. Ularga «Respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa qilganlikda», uoʻyo S. Qosimov «oʻtirishlarda» «aksil inqilobchilar» bilan qoʻshilib, «millatchilar partiyasini tuzish haqida fikr bildirgan» degan soxta va asossiz ayblar qoʻyiladi. Shuningdek, Respublika Bosh prokurori Sharipov «panislomchilik»da, tarix oʻqituvchisi Olimov «millatchi, aksilinqilobchi gʻoyalarni targʻib qiluvchi bosmachi» sifatida ayblanadilar. Bularga qoʻyilgan soxta ayblar gazetalarda ataylab eʼlon qilinib, xalq koʻz oʻngida ularni "dushman"ga aylantiradilar. Hatto yolgʻon guvohlargacha oʻylab topadilar. Samarqanddagi 2-vino zavodi ishchilari vakillari sudga kelishib, «ishchilar nomidan» sudlanuvchilarni otish kerak degan

talab bilan chiqishlari uyushtiriladi.

Natijada bolsheviklar rejimining «odil sudi» soxta ayblov va soxta guvohlar bergan ko'rsatmaga asoslanib, S. Qosimov, Sharipov, Olimov, Musabekov va Spridonovlarni otishga, qolganlarini esa 10 yildan qamoq jazosiga hukm qiladi.

Yer-suv islohoti bilan yangi iqtisodiy siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik darajasi masalasida umumlashtirilgan yondashuv «18lar guruhi» nuqtai-nazarida yaqqol namoyon bo'ldi. U Respublikaning 18 nafar mas'ul partiya va sovet xodimlarini o'z ichiga olgan edi (ular orasida O'zSSR Yer ishlari xalq komissari I.Hidiraliev, ichki ishlar xalq komissari Rafiqov va boshqalar bor edi). O'zSSR XKK raisi F.Xo'jayev bu guruhga ochiq qo'shilmagan bo'lsa-da, ularga g'oyaviy jihatdan rahnamolik qiladi.

Milliy rahbar kadrlar hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar

INOMJON XIDIRALIYEV (1891—1928) — davlat va jamoat arbobi.

I.Hidiraliev 1891-yil Farg'ona viloyati Namangan uyezdi Pop volosti Iskovat qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. 1903-1905-yillarda Popdagi, 1906—1907-yillarda Qo'qondagi rus-tuzem maktabida o'qidi. 1909-1917-yillarda O'sh va Jalolobod shaharlarida Bozorqo'rg'on va Qo'rg'ontepadagi pristavlarda kotiblik va tilmoçhlik qildi. 1917-yil noyabrda uni O'sh shahar dumasiga a'zo qilib saylashadi.

I.Xidiraliev 1919-yildan boshlab turli sovet idoralarida mas'ul lavozimlarda mehnat qiladi. 1920-yil Qo'rg'ontepada tuman inqilobiy qo'mita raisi, Farg'ona viloyati partiya qo'mitasi raisi bo'lib ishladi. 1922-yil fevralda Turkiston ASSR Yer-suv ishlari xalq komissari etib tayinlandi. U o'lkada paxtachilik, g'allachilik va bog'dorchilik sohasini qayta tiklash borasida katta ishlar qildi. U Turkiston ASSR MIK raisi (1922—1924), Turkiston ASSR MIK va XKKning RSFSRdagi Muxtor vakili (1924 yil yanvar-noyabr) bo'lib ishladi. I.Hidiraliev 1924-yil aprel, avgustda Londonda bo'lgan Sovet-Angliya muzokaralarida ishtirok etdi. U bu lavozimlarda ishlagan paytda Turkiston Respublikasi manfaatlarini himoya qildi. F.Xo'jayev, T.Risqulov, Q.Otaboyevlar bilan hamkorlikda bolsheviklarning shovinistik siyosatini izchillik bilan tosh qildi. Turkistondagi istiqolochilik harakatiga hayrihohlik bilan qaradi. U «o'n sakkizlar guruhi»ning tashkilotchilaridan biri edi (1925-yil), 1926-yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligi banki pravleniya raisi lavozimida ishladi.

I.Xidiraliev "O'zbekistonda yer-suv islohotini amalga oshirishda xalq komissari sifatida faol qatnashdi. U bolsheviklar tomonidan o'tkazilayotgan «quloqlarni sinf sifatida tugatish» siyosatiga qarshi chiqqan edi. Paxtakor dehqonlarni iqtisodiy jihatdan himoya qilishda jonbozlik ko'rsatdi.

Biroq mustabid tuzumning unga o'tkazgan ruhiy tazyiqlari va doimiy ta'qib ostiga olishlari ta'sir qilmadan qolmadi. I.Xidiraliev 1928-yil 31-dekabrda Moskvadagi «Natsional» mehmonxonasida o'z joniga qasd qildi.

1929-yilda mashhur jadidchi, ma'rifatparvar Munavvarqori Abrurashidxonov boshliq «Milliy istiqlol» tashkiloti a'zolarini qamoqqa olish boshlandi. Bu tashkilotning qamoqqa olingan 85 a'zosidan 15 nafari otildi. Qolganlari axloq tuzatish lagerlariga jo'natildi. «Milliy itihod» tashkilotining a'zolari ham qatag'on qilindilar. Mashhur jamoat arboblari Mannon Abdullayev (Ramzi), Nosir Saidov, Mahmud Mirxodiyev, Xosel Vasilov, Sobir Qodirov va boshqalar o'lim jazosiga hukm qilindilar, so'ngra bu hukm uzoq muddatli qamoq jazosiga almashtirildi.

1930-yilda Davlat Banki ma'muriyatida o'tkazilgan tozalash vaqtida qator rahbar xodimlar qamoqqa olindilar. O'zbekiston SSR Sudi raisi Sa'dulla Qosimovning «qosimovchilik» deb nomlangan ishini ko'rib chiqish boshlandi. Bu jarayonlarning mohiyati ko'zga ko'ringan siyosiy arboblarni tugatishga qaratilgan edi.

30-yillarning boshi dindor va e'tiqodli kishilarga nisbatan zo'ravonlik siyosiy qatag'onlikning cho'qqisi bo'ldi. Juda katta miqdordagi islom, xristian, budda diniga taalluqli asarlar yo'q qilindi. Bu davrda O'zbekistondagi dindorlar, ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo'natildi. O'tmishda nafaqat diniy rusumlar ado etadigan, balki madaniyat, fan, tarbiya, san'at markazlari, xalqning ko'p asrlik merosini saqlovchisi bo'lgan machit va madrasalarning deyarli barchasi yopib qo'yildi, ayrimlari buzib tashlandi.

Butun Respublikaning hayoti Markazning qattiq nazorati ostiga o'tdi. Partiya direktivalaridan har qanday chekinish aksilinqilobiy siyosiy muxolifat deb baholandi.

1937-yildan «antisovet», «xalq dushmanlari»ni qidirib topish va jazolash keng tus oldi. Xususan, siyosiy boshqaruv organlarining (OGPU) faoliyati, asosan ana shunday «tamg'a» olgan shaxslarni qidirish va tekshirish bilan bog'liq bo'ldi. Masalan, F. Xo'jayev, A. Ikromov, D. Manjara, A. Karimov kabi partiya va davlat rahbarlari hibsga olindilar va otib tashlandilar.

O'zbekiston Ichki Ishlar Xalq Komissarligining «uchliklari»

olib borgan faoliyati oqibatida 1939-1953-yillar mobaynida 61799 kishi qamoqqa olingan, ulardan 56112 nafari turli yillarga qamoq jazosiga, qolganlari otishga hukm qilingan. Keyinroq ularning ko'pchiligi oqlandi, ming afsuslar bo'lsinki, ularning aksariyati bu adolatga o'limidan so'ng sazovor bo'ldilar.

12.2. 1930-50-yillarda ziyolilarning ta'qib qilinishi

Milliy adabiyot va san'atning ahvoli qiyin va nomutanosib holatda edi. Shaxsga sig'inishning rutubatli iqlimiga qaramay, ijodiy hayot so'nmedi, yozuvchilar va adabiyotshunoslar qatori kengaydi. 1934-yil martda Toshkentda O'zbekiston yozuvchilarining syezdi bo'ldi va unda Respublika yozuvchilar uyushmasi tashkil qilindi.

O'zbek yozuvchilarining nomlari jahonga keng yoyila boshladi. G'afur G'ulom, Oybek, G'ayratiy, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Oydin Sobirova, Usmon Nosir, Komil Yashin va boshqalarning asarlarida xalqning ijtimoiy hayoti va an'analari, mehnat qahramonlari shijoati kabi xususiyatlar o'z badiiy ifodasini topgan.

Lekin 30-yillarda kuchaygan ma'muriy buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig'inish mafkurasi ijod ahlini, qolaversa, respublikaning madaniy hayotini buza boshladi. Ijodni partiyaviylik va yagona mafkuraga bo'sundirilishi hayotni badiiy tasvirida vulgar-sotsial ko'rinishlarga keng yo'l ochdi. Partiya tomonidan yangi hayotni kuylashga bo'lgan chaqiriq va majburiy cheklashlar ijodiy jarayonda tarixiy o'tmishni bir tomonlama tasvirlashga olib keldi.

Adabiyotda murakkab ijtimoiy muammolarni bo'yab ko'rsatish, xato va kamchiliklar haqida sukut saqlash zaruriy shart bo'lib qoldi.

Milliy madaniyat 30-yillarda qattiq fojiga uchradi. Inson haq-huquqlarining poymol qilinishi kuchaydi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Shokir Sulaymon, Elbek, Botu, A'zam Ayub, Usmon Nosir, Qosim Sorokin kabi millatning yetuk ziyolilari qatag'on qilindi va xalqimiz ularning asarlarini o'qishdan uzoq vaqt mahrum bo'ldi.

40-yillar oxirlarida fan va madaniyat xodimlarini qatag'on qilishlar davom etdi. VKP (b) MKning 1946-yil «Zvezda» va «Leningrad» jurnallari haqidagi qarorlari qatag'onlar yangi to'lqinining g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi. Shu paytdan boshlab, adabiyot va san'atda ijodiy demokratik rivojlanish uzoq yillar davomida suniy ta'qib qilindi, joylarda xurfiylik siquvga olindi.

Markazning ko'rsatmalariga asoslanib, respublikaning partiya organlari ijodiy ziyolilarga qarshi kurash olib bordilar. Ularning asarlaridagi milliy g'oyalar ularni ayblash uchun foydalanildi. Yozuvchi va shoirlarning asarlarida o'rta asr va inqilobgacha bo'lgan davrdagi xalq tarixini, madaniyatini badiiy tasvirlash o'tmishni qo'msash, ideallashtirishga urinish, deb ayblandi va ularga «millatchi» degan tamg'alar yopishtirildi. Shu qabilda Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda va boshqa o'zbek yozuvchilari qoralandi.

1951-yil avgustda respublika matbuotida «qator shoir va yozuvchilarning ijodida mafkuraviy og'ishlar» mavzusida maqola chop etildi. Unda Turob To'la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, Sobir Abdulla, Habibiy kabi ijodkorlar millatchilikda va panturkchilikda ayblanib, tanqid qilindilar. Shuningdek, Oybek, H. Zarifov, H. Yoqubov, Said Ahmad, I. Sultonov va boshqalar «o'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda turish»da va «jiddiy g'oyaviy xatoliklar»ga yo'l qo'yganchilikda ayblandilar.

1951-yilda Maqsud Shayxzoda, Shukrullo Yusupov, Gulom Alimov va boshqa bir qator ijodkorlar «antisovet millatchilik faoliyati»da ayblanib, qamoqqa olindilar va 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar. Shu yillari jamiyatshunos olimlardan bir guruhi, chunonchi, faylasuf V. Zohidov, iqtisodchi A. Aminovlar panturkizmi tashviqot qilishda va burjua- millatchilikda ayblanib, ta'qib qilindi.

Qatag'on qilingan san'at, fan va madaniyat arboblari mustabid tuzum davrida haq-huquqsizlik qurboni bo'ldilar.

Adolat bir qadar qaror topib, shaxsga sig'inish va uning oqibatlarini tuzatish uchun olib borilgan kurashlardan keyin asossiz qatag'on qilingan madaniyat va fan arboblari oqlandilar.

12.3. Qatag'onlikning yangi to'loqlari

80-yillarning o'rtalariga kelib, qatag'onlik va qonundan chekinishlar yana bo'y ko'rsata boshladi. Galdagi qatag'onlik to'loqiga nafaqat ijod ahli, balki xojalik xodimlari va davlat arboblari ham tortildi.

O'zbekistonning milliy ziyolilari hech qachon, hattoki mustabid tuzumning «gullab-yashnagan» davrida ham o'zbek xalqining milliy mustaqilligi g'oyalaridan voz kechmadilar. Ochiq kurash, imkoni bo'lmaganda ham, milliy mustaqillikni qo'liga kiritish uchun zindan kurash olib bordilar.

O'zbekistonda qonunchilik va huquqiy tartiblarni tiklash,

partiya davlat organlarini kadrlar bilan mustahkamlash degan niqoblar bilan Markazdan katta vakolatga ega bo'lgan mas'ul xodimlarning «desant» guruhlarini kela boshladi. Ularga partiya, sovet va sud organlaridan muhim ahamiyatga ega bo'lgan lavozimlar berildi. Uydirma, to'qib chiqarilgan «paxta ishi» va «o'zbeklar ishi» deb ishlarga siyosiy tus berildi. Oqibatda go'yoki butun O'zbekiston jinoyatchilar makoniga aylanib qolgandek tasavvur uyg'otishga harakat qilindi. Ittifoqning Gdlyan va Ivanov boshliq emissarlar guruhi Respublikadagi turli sohalarida ishlayotgan bir necha minglab rahbar xodimlarni tergov jarayoniga tortdilar.

Ularga poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik va jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlaridagi aybnomalar qo'yildi. Mahbuslarni «o'z aybiga iqror qilish» uchun jismoniy zo'ravonliklar, ruhiy azoblar qo'llanildi. O'zbekiston Kompartiyasi MK ning sobiq birinchi kotibi Sh.R. Rashidov nomiga ham nohaq tuhmatlar qilindi, o'zbek xalqining milliy g'ururi toptaldi. Bunda O'zbekiston SSSRning o'sha davrdagi qo'g'irchoq rahbarlarining mash'um hissasi bo'ldi.

Ommaviy qamoqqa olishlar avj oldi, qiynoqlarga ko'plab halol, sof vijdonli kishilar ham tortildi. Qo'shib yozishlar, ko'zbo'yamachilik va poraxo'rlik kabi illatlar sotsialistik jamiyatda tabiiy holat bo'lib, o'sha paytdagi barcha Respublikalarda mavjud hodisa edi. O'zbekistonga nisbatan «paxta ishi» oldindan, maxsus tayyorlangan uzoqni mo'ljallab tashkil qilingan siyosiy fitnadan boshqa hech narsa emasdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng «paxta ishi» qayta ko'rib chiqildi va minglab begunoh kishilar oqlandilar.

O'z navbatida, O'zbekistonning mohir, taniqli davlat va jamoat arbobi Sh.R. Rashidovning pok nomi tiklandi. Shuningdek, mehnatkash o'zbek xalqining yuzi yorug' ekanligi asoslandi.

O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda Toshkent shahrida Yunusobod mavzesida mustabid sovet rejimi davrida qatag'on qilingan shahidlar xotirasiga bag'ishlab o'rnatilgan yodgorlik majmuining ochilishi bugungi minnatdor avlodning ajdodlarimiz oldidagi chuqur ehtiromi ramzidir.

Tayanch tushunchalar

TASSR, T. Risqulov va F. Xo'jayev, siyosiy qatag'onlar: «inog'omovchilik», «18 lar guruhi», «qosimovchilik», ma'muriy buyruqbozlik tizimi, Markaz tazyiqi, fan va madaniyat xodimlari qatag'oni, qatag'onliklarning yan'gi to'lqinlari.

Takrorlash uchun savollar

1. Turkiston mustaqilligi va demokratik tamoyillar uchun kurashgan rahbar xodimlardan kimlarni bilasiz?
2. Turkkomissiyaning asosiy vazifasi nimalardan iborat edi?
3. Sovet hokimiyati dinga va e'tiqodli kishilarga qanday munosabatda bo'ldi?
4. Qatag'on yillarida adabiyot va san'at ahlining ahvoli qay darajada edi?
5. Markazdan yuborilgan "desant" guruhlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat edi?
6. Mustaqil O'zbekiston rahbariyati "paxta ishi" masalasiga qanday yondoshdi?

13-mavzu. SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY, MA'NAVIY QARAMLIGI HAMDA UNING OQIBATLARI

REJA

1. 20-30-yillar O'zbekiston iqtisodi va uning markazga qaramligi
2. 1945-80-yillar O'zbekiston iqtisodiyoti.
3. «Hujum» harakati. Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyatning oqibatlari

Adabiyotlar

6.17,19,28,33,35,90.

13.1. 20-30-yillar O'zbekiston iqtisodi va uning Markazga qaramligi

20-yillarning boshlarida joriy etilgan yangi iqtisodiy siyosat O'zbekistonning ham iqtisodiyotida jonlanishga olib keldi. Lekin 20-yillarning oxirida bu siyosat o'zining mohiyatini yo'qota boshladi va 1929-yilda batamom bekor qilindi. Erkin savdo, xususiy tadbirkorlikka chek qo'yildi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining xarid narxi tushirilishi oziq-ovqat muammosini keltirib chiqardi, dehqonlar qashshoqlashdi.

O'zbekistonda sovet hokimiyatini mustahkamlashning zaruriy

sharti sifatida industriyalashtirish siyosatini amalga oshirish boshlandi. Sanoati qoloq, malakali ishchi kadrlari, mutaxassislari deyarli yo`q, og`ir sanoatni rivojlantirish tajribasi yo`q o`lkada industriyalashtirish og`ir kechdi. Shu bahona malakali ishchilar, muhandis-texnik xodimlar Rossiyaning markaziy hududlaridan ko`chirib keltirildi. Faqat 1931-yilning o`zida ko`chirib keltirilganlar 15.000 nafarni tashkil qildi. Oqibatda 1926-1939-yillari O`zbekiston aholisi 37 foizga ko`paygan bo`lsa, yevropaliklar soni 62 foizga oshdi.

Industriyalashtirishning dastlabki paytida kichik suv elektrostansiyalari handa qishloq xo`jaligiga, paxtachilikka qaratilgan xomashyoni qayta ishlash korxonalarini qurilib, ishga tushirildi. Chirchiqdagi GESlar, Toshkent to`quvchilik, poyabzal, tamaki, Farg`ona to`qimachilik, Samarqand va Marg`ilondagi ipak fabrikalari shular jumlasidandir. 30-yillarda Toshkent to`qimachilik kombinati, qishloq xo`jalik mashinasozlik zavodi, Chirchiq ximiya kombinati va boshqa ko`plab yirik korxonalar ishga tushirildi. 30-yillar ohirida Respublikada 1445 ta har xil sanoat korxonalarini mavjud bo`lib, ularda 142 ming ishchi mehnat qilardi.

Sovetlarning «o`z kuchimiz bilan qisqa muddatda» deb olib borgan industriyalashtirish siyosati O`zbekiston uchun g`oyat og`ir kechdi. Markaz Respublikamizning yer osti va yer usti qazilma boyliklari, xomashyo manbalarini talon-taroj qilib, arzon ishchi kuchidan foydalanib, o`lkadan mumkin qadar ko`proq foyda olish harakatida bo`ldi. Bu siyosat, ayniqsa, millionlab dehqonlar hisobidan amalga oshirildi. Chunki qishloqda zo`rlik bilan olib borilgan jamoalashtirish siyosati g`arazli maqsad uchun juda ham qo`l keldi.

1930-yilning boshlaridan yoppasiga jamoalashtirish harakati boshlanib, katta yer egalari, o`rta hol dehqonlar va kambag`allarning yerlari jamoa xo`jaliklariga birlashtirildi, ularning qo`llaridagi otulov, mehnat vositalari, chorva mollari ham majburiy umumlashtirildi.

Davlat jamoa xo`jaliklari orqali rejalashtirilgan yo`l bilan mehnatkash dehqonlar hosilning deyarli barchasini yig`ib oladigan bo`ldi. Buning natijasida dehqonlar xo`jaligi xonavayron bo`ldi. 30-yillar boshlarida yuz bergan ocharchilik oqibatida minglab kishilarning qirilib ketishi, aholining haligacha qishloq xo`jalik mahsulotlariga yo`lchamay kelishi o`sha davr ko`r-ko`rona siyosatining natijasi bo`ldi.

Ommaviy jamoalashtirishga suyanib, badavlat xo`jaliklar, ayrim o`rtahol dehqonlardan 5,5 mingdan ortig`i o`z oilasi bilan

uzoq o'lkalarga surgun qilindi. Bu bilan sovet davlati qishloq aholisining bosh ko'tarishga qodir, vaziyatni tushunadigan qismini yo'q qilib, talonchilik siyosatini osonlashtirdi.

O'z-o'zidan ravshaniki, jamoalashtirish siyosati natijasida qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi pasayib, moddiy manfaatdorlik yo'qoldi, qishloq aholisi qashshoqlashdi. Dehqonni ekspluatatsiya qilishning birdan bir takomillashgan uslubi kashf etildi.

Umuman, jamoalashtirish o'zbek qishlog'i tarixiy rivojlanishining sog'lom jarayonlariga to'sqinlik qildi. U dehqonlarning davlat tomonidan asoratga solinishiga olib keldi. Kolxozlarga zo'rlik bilan haydab kirilgan dehqonlar barcha asosiy fuqarolik huquqlaridan va, avvalo, ko'chib yurish erkinligi, kasb faoliyatini tanlash huquqlaridan mahrum qilindilar. «Baxtli» kolxozchilar «badavlat turmush»dan qochib ketishlaridan xavfsirab, Stalin ularning pasportlarini olib qo'yishni buyurdi. Kolxozchilarning kolxozdan ko'ngilli ravishda chiqishlari taqiqlandi. Ularning noroziligini bosish uchun 1932-yil 7-avgustdagi farmon bilan kimda-kim dehqonlarni kolxozlardan chiqishga «majbur» qilar ekan, 5 yildan 10 yilgacha muddat bilan «konsentratsion lagerlar»ga tashlanishga hukm qilinadi, deb ko'rsatma berdi.

Jamoalashtirish qishloq xo'jaligiga juda og'ir zarar bo'lib tushdi. Respublikada ocharchilik boshlandi (1933-yil). G'alla yetishtirish keskin qisqardi. Chorvachilikka haddan tashqari katta ziyon yetdi.

Jamoalashtirish to's-to'polonlari paxtachilikka ham ta'sir ko'rsatdi, paxta yakkahokimligining yalpi ommalashuviga olib keldi. 1930-yilning bahoridan boshlab SredazEKOSO Respublika hukumatidan yoppasiga jamoalashgan tumanlarda «to'rt dan uch qism maydonga chigit ekish»ni talab qildi.

Respublika rahbariyati, imkoni boricha, yalpi paxtachilikni avj oldirishdan iborat halokatli jarayonni to'xtatib qolishga urinib ko'rdi. Ular tomonidan paxta bilan bir qatorda, g'alla ekish, sabzavot yetishtirish, chorvachilikni rivojlantirish uchun mustahkam yem-xashak bazasini yaratish kabi oqilona takliflar qo'yildi. Biroq Kremldagi siyosiy rahbariyat «joylar»dan bo'lgan takliflarga quloq solishni istamadi. Stalin paxta mustaqilligiga erishish shiori ostida Respublikamizni paxta yakkahokimligiga faollik bilan majbur etdi. Uning tazyiqi bilan 1933-yildayoq paxta respublika tayyorlab beradigan qishloq xo'jalik mahsulotlari umumiy hajmining 81,5%ini tashkil etdi, 1937-yilga kelib, bu ko'rsatkich 93,4 % ga yetdi.

Davlatning qishloqdagi azaliy an'anaviy xo'jalik aloqalari

tizimiga yoppasiga aralashuvi, qishloq xo'jaligi uchun mutlaqo zararli bo'lgan sotsialistik munosabatlarning majburan tiqishtirilishi mustaqil rivojlanishning ichki imkoniyatlarini barbod qildi, qishloq mehnatkashlarining ongi esa buzilib bordi. Dehqonlar yerga va ishlab chiqarishga egalik tuyg'usini, ming yillardan buyon singib kelgan mehnatsevarlik fazilatlarini yo'qotib bordilar. Ulardagi mehnatga, kasb mahoratiga bo'lgan mehr-muhabbat sovib bordi. Bu buzilish jarayonlarining ta'siri hali-hanuz barham topgan emas. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, bozor agrar islohotlarining zamonaviy tajribasida sovet o'tmishidan meros bo'lib qolgan jiddiy to'siq «har qadamda uchrayotgan rasmiyatchilik, ko'zbo'yamachilik, ishimizga yuzaki qarashdir». Bu zararli illatlarning ildizi zo'ravonlik bilan amalga oshirilgan jamoalashtirishda yashiringan edi.

Hatto xalqimizning qadim an'anasi hashar ham ekspluatatsiya quroliga aylantirildi. 1939-yilda qazilgan Katta Farg'ona kanali, bir tomondan, xalqimizning mehnat jasorati, ikkinchi tomondan, xalqni ezishning sovetcha ko'rinishi bo'lgan desak xato qilmaymiz. O'zbekistonda paxta yakkahokimligini kuchaytirish yo'li bilan SSSR paxta mustaqilligiga erishdi.

13.2. 1945-80-yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti

Ikkinchi jahon urushi yillari davrida izdan chiqqan O'zbekistonning iqtisodiyoti urushdan keyingi 1946-1950-yillari g'oyat keskinlashgan xalqaro vaziyatda qayta tiklana boshladi.

Mamlakatning ichki resurslari, tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchini g'oyat kuchli ekspluatatsiya qilish evaziga xorijiy sarmoyalardan bosh tortgan holda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash xalq boshiga og'ir kunlarni keltirdi. O'zbekiston xalq xo'jaligini tiklash ishlari sovet hukumatining zo'r berib qurollanish siyosatiga bo'ysundirildi. Ayni bir vaqtda, o'zbek xalqi urushda vayron bo'lgan o'lkalarni tiklashga ham o'z hissasini qo'shdi. Urush davrining shart-sharoitlari saqlangan holda xalqning mardona va fidokorona mehnati bilan besh yil ichida sanoat mahsulotini ishlab chiqarish urushdan avvalgi darajaga yetib, deyarli ikki marta oshib ketdi.

Urushdan keyingi yillarda qishloq xo'jaligini, ayniqsa chorvachilikni tiklash ishlari ancha og'ir o'tdi. 1945-yil 15-iyuldagi Markaziy hukumatning «O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish choralari to'g'risida»gi qarori asosida paxta yakkahokimligi kuchaytirildi va O'zbekistonning markazga

bog liqligi yana ham mustahkamlandi. Ob-havoning injiqligiga, tiklash ishlarining qiyinchiliklariga qaramasdan, 1950-yilgi tayyorlangan paxta 2.200.000 tonnaga yetdi.

50-60-yillarda sanoat va qishloq xo'jaligini boshqarish tizimiga ayrim o'zgarishlar kiritildi. Jumladan, 1954-1956-yillari ittifoq miqyosidagi bir qator yirik korxonalar Respublika ixtiyoriga o'tkazildi. Natijada sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning salmog'i 31 foizdan 55 foizga ko'tarildi. Xo'jalikni boshqarishda iqtisodiy omillarga suyanish, mehnat manfaatdorligini oshirish va boshqa tadbirlar o'z samarasini bermadi, chunki jamiyatda tub islohotlar o'tkazilmagan edi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ekstensiv yo'l bilan, ya'ni tabiiy boyliklardan o'rinsiz, hisobsiz foydalanish, butun xalqning mehnatini haddan ortiq ekspluatatsiya qilish hisobiga 60-70-yillarda sanoatning yangi sohalari vujudga keldi.

O'zbekistonda oltin, uran, rangli metallar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yila boshlandi. Energetika, kimyo sanoati rivojlandi. Sanoatning rivojlanishi natijasida Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Zafarobod, Nurobod kabi yangi shaharlar qad ko'tardi. Lekin mustamlaka holatidagi Respublikaning rivojlanayotgan iqtisodidan boshqalar ko'proq manfaatdor edilar. So'nggi hisob-kitoblarga qaraganda, bevosita Ittifoq ministrlklariga bo'ysundirilgan faqat oltin va uranning o'zidan 15 milliard Amerika dollariga teng boylik Markazga olib ketilgan. O'zbekistonning aksariyat shahar, qishloqlari gazlashtirilmagan holda Respublikada qazib chiqarilgan tabiiy gaz Rossiyaning sanoat markazlariga yetkazib berildi.

50-60-yillari O'zbekistonda paxta maydonini yanada kengaytirish maqsadida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish ishlari olib borilib, 1945-1985-yillari qariyb 2.400.000 gektar yangi yerlar o'zlashtirildi. Sug'orish ishlarini yaxshilash uchun sun'iy suv omborlari qurildi.

Qishloq xo'jaligi uchun traktor, paxta terish mashinasi va boshqa texnika uskunalari tayyorlab berildi. Paxtachilikning moddiy texnika bazasini mustahkamlash bilan birga paxta hosildorligini oshirish uchun kimyoviy moddalardan cheksiz foydalanildi. Ko'rilgan tadbirlar natijasida 1970-yili respublikada paxta maydoni 1.700.000 gektarni tashkil qildi, yalpi hosil 4.495.000 tonnaga yetdi.

Yirik sanoat korxonalarining vujudga kelishi bilan Respublikaning Ittifoqqa bog'lanishi yana ham kuchaydi. Prezident I.A. Karimov: «... u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga Markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi», deydi.

1985-yilning bahorida qishloq xo'jaligini boshqaruv tizimiga

o'zgartirish kiritilib, mehnatni tashkil etishning brigada yoki oila pudrati, ijara shakli yangi shakllari joriy etildi. Lekin markazda mamuriy buyruqbozlik boshqaruv tartibi saqlangan holda ko'rilgan tadbirlar, qayta qurishlar natija bermadi. Jamiyatda, xususan, iqtisodiyotda inqirozli holatlar kuchaya bordi. Qayta qurish deb boshlangan quruq kompaniya, Prezident I. Karimov tabiri bilan aytganda, «hamma yoqni buzib, baqir-chaqir, o'g'rilik, qotillikni kuchaytirdi».

XII besh yillik vazifalari ilgari uch besh yilliklardagi kabi bajarilmay qoldi. O'zbekistonda milliy daromadning o'sishi 80-yillar birinchi yarmida o'rtacha hisobda 3,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ikkinchi yarmida bu ko'rsatkich 2,2 foizni tashkil qildi.

Paxta ekin maydonlarining o'zinsiz kengaytirilishi va agrotexnika qoidalarining buzilishi tufayli yerning hosildorligi pasayib ketdi. Hosildorlikni oshirish uchun ekin maydonlarida haddan tashqari ortiqcha mineral o'g'itlardan foydalanish oqibatida bu yerlar ma'lum bir vaqtdan keyin batamom yaroqsiz holga kelib qoldi. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, O'rtacha Osiyoning yirik daryolari suvlaridan nazoratsiz foydalanish, o'lkada o'zinsiz ravishda sun'iy suv havzalarining qurilishi natijasida Orol dengizi asta-sekin quriy boshladi va XX asrning eng yirik Orol fojiasi vujudga keldi.

O'zbekistonning iqtisodiy ahvolidagi noxush holatlarning ijtimoiy oqibatlari nihoyatda og'ir bo'ldi. O'lkaning o'ziga xos demografik holati hisobga olinmasdan davlat budjetidan ijtimoiy sohaga ajratiladigan mablag' qoldiq prinsipiga asoslanib yildan yilga qisqarib bordi. Ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish masalalarida miqdoriy o'sishlar ko'zga tashlanganligi bilan, aslida bular inson talabini qondirmas edi. Respublika bu sohalaridagi ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi 15 respublika o'rtasida 13-14-o'rinlarda turdi.

80-yillarda fan, madaniyat va xalq ta'limiga ajratilgan harajatlar davlat byudjetining atigi 2,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1989-yili Yevropa mamlakatlarida 5,5 foizni, Afrika mamlakatlarida 5,4 foizni tashkil qilgan. Bolalar o'limi, oshqozon-ichak va yuqumli kasalliklar bo'yicha O'zbekiston SSSR da birinchilar qatorini egalladi. Aholining o'rtacha yoshi 1970-yil 72 yosh bo'lsa, 1980-yili bu ko'rsatkich 67,7 yoshni tashkil qildi. Bunga asosiy sabab ekologik vaziyatning keskinlashuvi bo'ldi. Jafokash o'zbek xalqining turmush darajasi achenarli ahvolda bo'lib, boshqa Respublikalar bilan qiyoslaganda oxirgi o'rinlarda edi. Bundan boshqacha bo'lishi mumkin ham emas edi.

Davlat bosh ekspluatator rolini bajargan sotsialistik tizimda birinchi yarmida o'rtacha hisobda 3,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ikkinchi yarmida bu ko'rsatkich 2,2 foizni tashkil qildi.

Paxta ekin maydonlarining o'zinsiz kengaytirilishi va agrotexnika qoidalarining buzilishi tufayli yerning hosildorligi

nuvvatlangan edi. 20-yillarda respublika, viloyat, tuman va quyi sovet tashkilotlari qoshida tashkil etilgan xotin-qizlar bo'limlari

mehnat ahli o'z kuchi bilan yaratgan mahsulotning atigi 25-30 foizi hajmidagina haq oldi. Sovet Ittifoqining sanoat rivojlanishiga, yadro qurollarini ishlab chiqarish, koinotni o'zlashtirishdagi yutuqlariga katta hissa qo'shgan O'zbekistonning million tonnalab paxtasi, ming tonnalab oltin, kumush, uranlari uchun Markaz u bilan nohaq, surbetlarcha, adolatsiz hisob-kitob qildi. O'sha davrning mehnat ilg'orlari sovet tizimidagi sotsial siyosatning og'ir oqibatlarini hali ham ko'rishyapti.

13.3. «Hujum» harakati. Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyatning oqibatlari

XX asr boshlarida O'zbekistonda paydo bo'lgan milliy taraqqiyparvar harakatlar dasturida ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi va ijtimoiy hayotda o'z o'rnini egallashi masalasi o'z aksini topgan edi. Masalan, jadid tashkiloti «Sho'royi Islom» o'zining dasturida birichi bo'lib ayollarga saylovda qatnashish huquqini berish masalasini qo'ydi. Jadidchilik rahbarlari M.Behbudiy, A.Furqat, F.Xo'jayev, A.Cho'lpon, A.Avloniy kabi taraqqiyparvarlar xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini nihoyatda yuqori baholab, ularni ijtimoiy ozodlikka chiqarish zarurligini ta'kidlagan edilar. Ularning fikricha, jamiyatni o'zgartirish ma'naviy- madaniy-maishiy hayotni tubdan isloh qilishdan boshlanishi kerak. Ya'ni xotin-qizlarni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to'g'ri hal qilmasdan, yosh avlodni to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Oxir-oqibatda millat taqdiri uning ayollari va oilasining holatiga bog'liqdir. Shuning uchun 20-yillarda amalga oshirilgan tadbirlar nafaqat xotin-qizlar, ayni paytda jamiyatning progressiv ruhidagi erkaklar tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan edi.

20-yillarda respublika, viloyat, tuman va quyi sovet tashkilotlari qoshida tashkil etilgan xotin-qizlar bo'limlari bu jabhada, umuman olganda, to'g'ri ishlarni amalga oshirishdi. Faollar masalaga dastlabki yillarda juda ehtiyotkorlik bilan yondashdilar, har bir xonadonga kirib, tushuntirish ishlari olib bordilar, maxsus xotin-qizlar klublari, artellar, do'konlar tashkil etdilar, bu yerlarda ular savod chiqardilar, tikishni va savdo-sotiqni o'rgandilar. Barcha tadbirlar Turkiston xotin-qizlari turmush tarziga xos xususiyatlarga, milliy an'analarga mutanosib holda olib borildi. O'sha paytlarda hech kim paranji tashlash haqida gap so'z yuritmasdi. Faollar ko'proq ishonitirish usuliga suyanishardi. Shunga ko'ra, xotin-qizlar huquqini ta'minlash, ularni yaratuvchilik va

jamoatchilik ishlariga jalb etish borasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi.

Lekin erishilgan bu yutuqlar mustabid tuzumni qoniqtirmas edi. Bu jarayonni sun'iy ravishda tezlashtirish maqsadida unga zarbdor safarbarlik xususiyatini bera boshladi. 1926-yilning sentabr oyida O'rta Osiyo partiya komitetlarining xotin-qizlar bo'limlari xodimlari ishtirokida kengash o'tkazildi va u yerda xotin-qizlar orasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish va uni majburiy ravishda o'tkazishga qaror qilindi. Bu majburiy tadbir «Hujum» deb ataldi, ya'ni hujum uslubida ayollar muammosini hal qilish siyosati ustun bo'la boshladi. Bu kompaniyani o'tkazish uchun 1926-yil dekabr oyida O'rta Osiyo respublikalari va xususan O'zbekistonda maxsus komissiyalar tuzildi. Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarishning eng muhim vazifalaridan biri paranjiga qarshi kurash edi. Bu tadbirni ayollar naqadar quvonchi bilan qarshilab olganliklarini aytib o'tmaslik noxolislik bo'lar edi. Chunki qora chimmatni tashlash yorug'-olamni ochiq yuz bilan ko'rish, ilm olish, hayotda erkaklar bilan baravar huquqqa ega bo'lish ularning asrlar davomidagi orzusi edi. 1927-yil 8-mart kuni O'zbekistonda bo'lgan yuzlab mitinglarda qatnashgan minglab xotin-qizlar o'z paranjalarini tashladilar. Lekin bu ijtimoiy-siyosiy tadbirni o'tkazishda o'sha davrda mavjud bo'lgan ijtimoiy ahvol, milliy -ma'naviy dunyoqarash, oiladagi nihoyatda nozik bo'lgan erkak bilan ayol o'rtasidagi munosabat, kishilar ongiga singib qolgan islom qadriyatlarini, oila va ayollar masalasidagi mavjud an'analar, urf-odatlar e'tiborga olinmadi.

1927-yilga kelib, o'z safida mahalliy millatlardan 25 ming a'zoga ega bo'lgan O'zbekiston kompartiyasiga «Hujum» ning tashkilotchisi bo'lish va namuna ko'rsatish vazifasi yuklandi. Ular kommunist sifatida o'z xotinlarini paranji yoqiladigan joylarga majburan olib kelib paranjalarini tashlatishar, ertasiga esa yana paranji yopinishga majburlardilar. VKP (b) MQ O'rta Osiyo Byurosining XIV Plenumi (1927-y. oktabr) partiya a'zolarining ana shu ishlarini «maishiy jinoyat» sifatida baholadi va ularga partiya safidan o'chirishgacha bo'lgan jazoni qo'llashga qaror qildi. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish bahonasi bilan partiya saflarida «tozalash» o'tkazildi. Partiya saflarini taftish qilish jarayonida ayrim mas'ul xodimlar sovet hukumati o'rnatilgandan keyin ham qalin pul berib uylanganliklari, meros sifatida xotin olganliklari va bir qator xodimlar qo'shxotinli ekanliklari ma'lum bo'lib qoldi. Ularning hammasi, hatto inqilobga qadar qalin to'lagan ham partiya tomonidan jazolandilar. Mana shunday tekshiruvlar natijasida ba'zi bir partiya tashkilotlarida mas'ul xodimlarning ayollari ham partiya safiga kirish

uchun arizalar bera boshladilar.

«Hujum» shu qadar shiddatli tus oldirtdiki, hatto xotin-qizlar yuzini ochish bo'yicha O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari o'rtasida «sotsialistik musobaqa» ham tashkil qilindi. U tarixga «millionlar shartnomasi» nomi bilan kirgan. Musabogaqa respublikalarning sovet sud organlari ham qo'shildilar. Ular chiqargan qarorlarning birida: «ajralish ishlari bir haftadan kechiktirmay ko'rib chiqilsin», degan band mavjud edi. Gap shundaki, «Hujum» boshlanishi bilan ayollar nomidan sudlarga ajralish xususida ko'plab arizalar tushgan bo'lib, ular sovet hukumatining balog'atga yetmaganlarni erga uzatish, qalin berish, qizlarning ruxsatisiz nikoh o'qitishni taqiqlash haqidagi yangi qonularga tayanib o'zlarining mutaassib yoki keksa erlaridan ajratishni istagan ayollarning murojaati edi. «Odil» sovet sudi xuddi ana shularni dastak qilib, yuqoridagi mantiqsiz qarorni chiqargan edi. Bu qaror natijasida O'zbekistonda minglab oilalar buzikdi, bolalar esa ota-onalar o'rtasida sarson-sargardon bo'ldi. Shoshma-shosharliq bilan qo'yilgan qadam ana shunday mudhish oqibatlariga olib keldi. Sudga ajralish haqida ariza bergan bir qator ayollar o'sha davrda musulmon odatiga ko'ra erlari yoki aka-ukalari tomonidan jazolandilar.

Lekin, shunday bo'lsa-da, «Hujum» dastlab katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. 1927-yil bahoriga kelib, 100 ming ayol parajasini tashladi, 5 ming ayol savodsizlikni tugatish kurslarida tahsil oldi, 5202 nafar ayol viloyat, shahar, tuman sudlariga xalq maslahatchilari qilib saylandilar, biroq bu yutuqlar faqat «Hujum» ning ta'sir kuchi bilan bog'liq emasdi, yoki ba'zi bir moskvalik sharqshunos olimlar ta'kidlanganlaridek, ayollarimizning faolligi faqat yopinchiq ichida o'tayotgan umriga nisbatan norozilik tufayli emasdi. Buning o'ziga xos sababi ayollarimiz tabiatida adolatsizlikka qarshi kurash tuyg'usining mavjudligi edi. Aks holda, 1916-yilda erlarini, aka-ukalarini mardikorlikka jo'natishni istamay qo'zg'olon ko'targani uchun rus askarlari tomonidan otib tashlangan Ruzvonbibi Ahmadjonova, Zuhrabibi Musayevalarni yoki mustamlaka zulmiga qarshi kurashgan Qurbonjon Dodxo kabi jasur ayollarni bir esga olaylik-chi, ular nimalarga qarshi isyon ko'targan edilar?

Sovetlarning xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish borasida shoshma-shosharliq va zo'rvonlik usulida amalga oshirgan siyosati ayollarning begunoh qurbon bo'lishiga sabab bo'ldi. Manbalarning guvohlik berishicha, 1927-yil 27-iyunda Qo'qon viloyati Buvayda tumanining Poloson qishlog'ida dehqon Abduqodir Xojimatov o'z ayolini paranji tashlab faollik ko'targani uchun osib o'ldirgan. Shu oyda Beshariq tumanining Yangiqo'rg'on qishlog'ida ham shunday

voqea sodir bo'ldi. Andijon viloyati Pirnazar Mahram qishlog'ida esa xotin-qizlar orasida ish yurituvchi faollardan Xadicha Eshboyeva va uning turmush o'rtog'ini o'ldiradilar. Toshkentda Ko'kaldosh madarasasi minorasidan reaksiya dindorlar ayolni qopga solgan holatda yerga tashladilar. Bunday dahshatli voqealarni ko'plab keltirish mumkin. Umuman, rasmiy hujjatlarda ko'rsatilishicha, «Hujum» kompaniyasi (1927-1928)-yillarida O'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar, qishloq, tuman kengashlarini a'zolari, xotin-qizlar klublari va kutubxonalar mudirlari o'ldirilgan. Albatta, bu raqamlar sovet statistik ma'lumotlarida ataylab kamaytirib ko'rsatilganligi hozirgi kunda hammaga ma'lum.

Xotin-qizlar bunday qiynoqlarga, tazyiq va terrorga qarshi norozilik bildirdilar. Aksariyat viloyatlarda xotin-qizlarning terrorga qarshi namoyishlari bo'lib o'tdi. Shundan so'ng hukumat xotin-qizlarni huquqiy jihatdan himoyalash ishlarini bajarishga majbur bo'ldi. Birgina 1928-yilning o'zida ayollarga nisbatan noqonuniy ish tutganligi uchun 671 kishi qamoqqa olinib, har-xil muddatga ozodlikdan mahrum qilindilar. Shulardan yetti kishi otuvga hukm qilindi.

Afsuski, masalaning nozik jihatlari bilan, «Hujum» muvaffaqiyatlaridan esankirab qolgan kompartiya va uning siyosiy rahbarlari O'rta Osiyo xalqlari qoniga singib ketgan Islom omilini butunlay inkor etdi. Unga bepisand qarab, yerga urush, oshkora tan ofmaslik, uni qo'porib tashlash yo'lini tanladilar. Shuningdek, ijtimoiy omilga ham e'tibor berilmadi. Bunday shoshma-shosharlik aholi orasida sovet hukumatiga nisbatan dushmanlik munosabatini kuchaytirdi. Ular xotin-qizlarning ozodlikka chiqarilishiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqa boshladilar. Hukumat vakillari paranjisini tashlagan xotin-qizlarga nisbatan qilingan jinoyatlarni ruhoniylardan ko'rdilar, ularni bosh aybdor deb hisobladilar.

Muqaddas Qur'on ham ayollarning ijtimoiy hayotda ishlab chiqarishda ishtirok etishini ta'qiqlamaydi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, bir qator taraqqiyparvar ruhoniyalar diniy boshqarmalar qoshida «Xotin-qizlar bo'limlari» tashkil etishga harakat qilganlar. Jumaladan, Farg'ona vodiysi qishloqlarida «Diniy boshqarma xotin-qizlar bo'limi» mudirasi Mursali bibi imzosi bilan aholi o'rtasida da'vatnomalar tarqatilgan. Unda paranji tashlashga qarshilik ko'rsatmaslik, ayni chog'da, diniy tarbiyani unutmazlik ta'kidlangan. Taassufki, partiya-sovet tashkilotlarining mutasaddilari taraqqiyparvar ruhoniyalarning bu tashabbusini qo'llab-quvatlamadilar. Shuni alohida ta'kidlash joizki, jamiyatdagi o'zgarishlarni to'liq his etolmagan ba'zi ruhoniyalar «Hujum» kompaniyasidan avvalroq, ya'ni

1925-yilda katta yoshdagi ayollar va qiz bolalar uchun maktab tashkil etishni boshlab yuborgan edi. Markaziy diniy boshqarima barcha musulmonlar, imomlar, muhtasiblarga murojaatnoma qabul qilib, unda islom erkaklar bilan bir qatorda ayollarga ham o'qish va yozishni o'rganish majburiyatini qo'yadi, deb ko'rsatildi. Ayollarni o'qitishdan mahrum etuvchi o'rta asr mutaasibligiga berilmaslik tavsiya etildi. Manbalarga ko'ra, ruhoniyatning ayrim ilg'or vakillari o'zlari xotinlari boshidan paranjini yechganlar. Qo'qon ruhoniyatining rahnamosi To'raxon Maxsum dindorlarning vazifasi hukumat bilan aholi o'rtasida vositachilik qilishdan iborat deb ta'kidlagan edi. Andijon va Namangan aholisi orasida katta obro'ga ega bo'lgan, Andijon ruhoniyati rahbari Shayh Mavloni ham ayollarni ozodlikka chiqarishga qaratilgan hukumat tabdirlariga qarshilik ko'rsatmaslikka chaqirgan. Ba'zi taraqqiyparvar ruhoniylar paranji tashlashni diniy yo'l bilan qonuniylashtirish maqsadida «Fatvo» chiqarishga harakat qilgan edilar.

Xotin-qizlar ozodligi uchun kurash, aslida, sinfiy kurash emas, dunyoqarashlar kurashi edi. Mazkur kurash asrlar osha Islom ongiga muhrlangan o'zbek xalqining o'z tasavvurlaridan majburan voz kechishga qaratilgan edi. Bu kurash partiya qo'mitalarining noto'g'ri ish usullari asosida sun'iy ravishda sinfiy kurashga aylantirildi. Targ'ibot yuritish uchun machitlar tanlandi, paranji tashlash bo'yicha tarkibiga militsiya boshlig'i kirgan «Uchliklar» tuzuldi, mullalardan o'z xotinlari yuzini ochish to'g'risida majburan tilxat olindi. Bunday g'irromlik xotin-qizlar harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

«Hujum» harakatining asl maqsadi faqat paranji tashlashdan iborat emas edi. Uning asosiy maqsadi xotin-qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarishga keng jalb etish edi. Shu maqsadda o'sha yillarda O'zbekistonda va unga qo'shni Respublikalarda bir qator xotin-qizlar artellari tashkil qilindi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, dastlabki yillarda xotin-qizlar kuchidan keng foydalanish masalasiga chiyotkorona yondashildi. Ular birdagina fabrika va zavodlarning og'ir ishlariga tortilmadi. Ayollar og'ir yuk ko'taradigan va sog'ligiga zarali murakkab sohalarda ishlamasligi alohida ta'kidlandi. Biroq 20- yillar ohiriga kelib, bu yondashuv keskin o'zgardi. Ayollar va erkaklar mehnatini tom ma'noda tenglashtirish g'oyasi ustuvorlik qildi. Natijada ayollarni ishlab chiqarishning barcha sohalariga faol jalb etish boshlandi. O'zbekistonda ko'plab ishchi kuchi yetishmasligini niqob qilib aksariyat partiya va sovet rahbarlari uni xotin-qizlar hisobiga to'ldirishni taklif etdilar. Jumladan, qurilish ishlarini ayollar zimmasiga yuklash mumkin: ular g'isht tashishni, terishni va

duradgorlikni uddalay oladi, degan xulosa chiqarildi. Ayollarni og'ir sanoatga jalb etish ham uzluksiz amalga oshirildi. O'zSSR MIQ huzuridagi xotin-qizlar mehnati va turnushini yaxshilash komissiyasi raisi A.Volnoy ayollar metall va yog'ochni qayta ishlash sanoatida ham bemaol ishlaydilar, deb ta'kidladi. Bunday bir tomonlama yondashuv o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini bilmaslik yoki bilgan taqdirda ham, uni mensimaslik oqibati bo'lib, o'zbek ayoli ko'nikmasiga mutlaqo zid bo'lgan og'ir mehnatga jalb qilish va ular evaziga sanoatni jadal rivojlantirishdan iborat edi. Shuning uchun ham A.Volnoy: «Biz metallni qayta ishlash sanoatiga 10 ming ishchi tayyorlashimiz zarur, ularning 15% ayollar bo'lishi kerak. 7 ming shofyorning 50%, 2700 traktorining 20 mingga xotin-qizlar bo'ladi», deb aytgan edi.

Sovetlarga xos "teng huquqlilik"ka erishish oqibatida 1939-yilga kelib, ayollar erkaklar bajaradigan ishning 50% ni egllashdi. Bu ko'rsatkich, ayniq, qishloq xo'jaligida yaqqol ko'zga tashlandi. 1930-yili O'zbekiston va Turkmanistonning paxtakor tumanlarida yashovchi ayollar jamoa va davlat xo'jaliklaridagi ishchi kuchining 80 % ni tashkil etlardi. Ular qishloq xo'jalik ishlarining 15 sohasida: urug' tozlashdan tortib, yer haydash, ekin ekish unga ishlov berish va terib olishgacha bo'lgan barcha ishlarda qatnashardi. Yoppasiga jamoa xo'jaliklariga ayollar maishiy shart-sharoitlar, xususan, bolalar bog'chasi yo'qligidan bir qo'lida yoki yelkasida bolasini ko'tarib, dalada ishlardilar. Bu partiya - sovet tashviqotchilari tomonidan «kolxozchilarning yuksak ongliligi» sifatida talqin qilinardi. Sovet «g'amxo'rliigi» ning eng zo'r timsoli ayollar uchun maxsus «yengil ketmonlar» ishlab chiqarilgani edi.

«Hujum» kompaniyasi jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Eng avvalo bu tadbir shoshma-shosharlik bilan, o'zbek xalqiga xos milliy xususiyatlar, urf-odatlar o'rganilmasdan amalga oshirildi. Shunga qaramasdan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, «Hujum» kompaniyasi faqatgina kommunistik mafkuraning «Ijtimoiy buyurtmasi» asosida yuz bermadi, u xotin-qizlarning o'zlaridagi mavjud ijtimoiy tenglik, erk uchun intilishlari va harakatlarining mantiqiy yakuni sifatida ham namoyon bo'ldi. O'zbekiston xotin-qizlarining bilim saviyasi 30-yillarining ikkinchi yarmiga kelib, ancha o'sganligi ko'zga tashlandi. Masalan, 1937-yilga kelib savodsizlikni tugatish maktablarini O'zbekistonning 273.637 xotin-qizlari bitirdilar. 183 ayol kolxoz raisasi, 242 ayol rais muovini, 606 ayol esa brigada boshlig'i lavozimlarida ishladilar. 1938-yilda tikuvchilik ishlab chiqarishida band bo'lgan ishchilarning 82,3% ni, qandolatchilik ishlab chiqarishda 65,5%ni to'qimachilik

ishlab chiqarishda qariyb 88,0%ni xotin-qizlar tashkil etdi. 1940-yilga kelib, xotin-qizlardan yetishib chiqqan ishchi va xizmatchilar soni 232 ming nafarga yetdi. Bu respublikadagi mahalliy xotin-qizlar mehnatsevarligi fan va madaniyat sohasida ham namoyon bo'lg'i. 1930-yilda O'zbekistonda bo'lib o'tgan olimlar ayollar birinchi konferensiyasi 400 ga yaqin xotin-qizlar qatnashdilar. Ular orasida birinchi o'zbek ayollaridan kimyo fani sohasida tadqiqot olib boruvchi M.A.Hojinova, Z.Saidnosirova, tibbiyot fani sohasida Z.Umidova va boshqalar bor edi. Adabiyot va san'at sohasida Zulfiya, Oydin, S. Eshonto'rayeva, T.Nasihova kabi ayollar ijod qildilar.

«Qatag'on» yillarida «Hujum»ni quvunch bilan qabul qilib, unga o'z fikrini, shijoatini, hayotini bag'ishlagan ayollarning ko'pchiligi qurbon bo'ldilar. Adolatsizlik asosida qurilgan mustabid tuzumning jazo qonuniyatlari jamiyat hayotida eng tabarruk inson, go'zallik timsoli bo'lgan ayollarga ham rahm qilmadi.1937-38-yillarda «Hujum»ning faollari Tojixon Shodiyeva, Sobira Xoldorova, Xosiyat Tiflaxonova, Mar'yam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova va minglab oddiy ishchi dehqon ayollar, madaniyat va fan arboblari qatag'on qilindilar. Mustabid sovet davlati va uning g'oyaviy rahnamosi bolsheviklar partiyasi o'zi ilgari surgan «Hujum» kompaniyasini qo'llab-quvvatlagan o'zbek ayollari jasoratiga shu uslubda «tashakurlar»bildirdi. Lekin ziddiyatlar va yo'l qo'yilgan jiddiy hatolarga jismoniy va ma'naviy yo'qotishlarga qaramasdan, «Hujum» o'zbek ayolining ozodlikka chiqishida teng huquqqa erishishida ijtimoiy hayotda erkaklar bilan baravar mavqega ega bo'lishida muhim tarixiy bosqich bo'ldi.

Sovet davlatining statistik ma'lumotlarida ko'rsatilishcha, 1925-1941-yillar davomida xalq ta'limi maktablari soni muttasil ortib borgan. Masalan, 1924-25- o'quv yilida O'zbekistonda 160 ta sovet tipidagi maktablar tashkil qilinib, ularda 17209 o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 1941-yilga kelib, maktablar soni 5504 taga va ularda o'qitilayotgan o'quvchilar soni esa 1, mln.315 ming kishiga yetgan.

Biroq raqamlar ortidan quvish va shoshma-shosharlik oqibatida umumiy ta'limni joriy qilishda ko'pgina jiddiy hatolarga yo'l qo'yildi. Jumladan, maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o'qishga tortilmay qoldi, o'qishni tashlab ketayotgan o'quvchilar soni (ayniqsa, mahalliy millat yoshlari orasida) ortib bordi, ko'pgina maktablarda o'qitish saviyasi mutlaqo talabga javob bermasdi, chunki muallimlarning bilimlari yetarli emasdi. Ayniqsa, ularning moddiy ahvoli yomon edi, maktablar son jihatdan muttasil oshib borayotgan bo'lsa-da, ularning o'quv moddiy bazasi esa nochor ahvolda qolayotgan edi.

Sovetlarning «madaniy inqilob» tadbiri jamiyatning barcha jabhalarini, ayniqsa, fan va madaniyatni o'ta mafkuralashtirib uning har bir sohasini qamrab oldi. Bolsheviklar tarbiyaning dastlabki va ta'sirchan o'chog'i bo'lgan xalq ta'limini birinchi kundanoq mafkura izmiga solish uchun butun imkoniyatni ishga soldi. Maktablarda siyosiy tarbiyani yo'lga qo'yishga va uni takomillashtirib borishga e'tibor berdi.

Ziyoli kadrlarni tayyorlashda sinfry jihatdan ishonchli, aholining «mehnatkash» tabaqalaridan chiqqan kishilarni tanlab olish kerak, degan g'oya ilgari surildi. Chunki avvaldan yaxshi ma'lumki, aqliy va mantiqiy mushohada etish darajasi qancha past bo'lsa, savollar ham, noroziliklar ham shuncha kam bo'ladi. Shuning uchun ham madaniyat xodimlarining tarkibini ijtimoiy jihatdan ishonchli bo'lgan «mehnatkashlar» hisobiga soddalashtirish, ular orasidagi eng zakovatli va omilkor qatlamni siqib chiqarish maqsad qilib qo'yildi. Bu «madaniy inqilob»ning asosiy tezislaridan biri bo'lib, «shaklan milliy, mazmunan proletar madaniyati» ni vujudga keltirishdan iborat edi. Bu g'oya sovet davlatining barcha o'n yilliklari davomida yashab keldi. 30-yillarda uni amalga oshirish borasida qo'yilgan dastlabki qadam madaniyatning barcha sohalari uchun kadrlar tayyorlash, yuqorida aytganimizdek, «mehnatkashlar», ya'ni, «proletar qatlamdan» boshlanganligi ham bejiz emas edi.

30-yillarda respublika oliy o'quv yurtlari tarmog'i ham ortib bordi. Samarqandda O'zbekiston davlat universiteti, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Toshkent, Nukus, Xiva, Urganch shaharlarida oliy maktablar tashkil etildi. Agar 1932-yilda respublikadagi 31 ta oliy o'quv yurtida 12,2 ming talaba o'qigan bo'lsa, 1941-yilga kelib ularda ta'lim olayotgan talabalar soni 18 ming kishiga yetdi. Shu yili oliy o'quv yurtlarini 7373 mutaxassis bitirib chiqdi. Shu bilan birga bu yillar davomida 100 ga yaqin o'rta maxsus o'quv yurtlari tashkil qilinib, ularda 15 mingga yaqin yoshlar turli malakalarga ega bo'ldilar. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida bu yillar davomida o'zbek millatiga mansub talabalar soni ham ortib bordi. Lekin shuni qayd etish kerakki, oliy o'quv yurtlaridagi mavjud professor-o'qituvchilar o'zagini, asosan, rus ziyolilari tashkil qilardi. Birgina O'rta Osiyo Davlat universitetida 1933-yilda faoliyat ko'rsatayotgan 65 professor, 75 dotsent va ilmiy unvonga ega bo'lmagan 175 o'qituvchilardan juda ozchiligini mahalliy millatga mansub professor-o'qituvchilar tashkil qilardi.

20-yillar o'rtalaridan boshlab mustabid tuzum O'zbekistonda qator ilmiy tadqiqot institutlarini tashkil qildi. Chunki bu institutlar bir tomondan, O'zbekistonning xom-ashyo sohasidagi yangi -yangi

imkoniyatlarini ochishga yoldan bersa, ikkinchi tomondan, olinayotgan va Markazga olib ketilayotgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarhini tushirishga yordam berar edi. Tashkil qilingan ilmiy muassasalar orasida O'zbek Davlat Ilmiy tadqiqot instituti (UzNII), Paxtachilik ilmiy- tekshirish instituti (Soyuz NIXI) kabilar bor edi. Yirik ilmiy kuchlarni o'zida birlashtirgan O'ra Osiyo Davlat universiteti (SAGU)da O'zbekistonning tabiiy boyliklari, iqlim va tuproq xususiyatlari, xayvonot va o'simliklar dunyosi keng o'rganila boshladi. Bu davrda geologiya qidiruv ishlari bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi, xususan, o'nlab neft konlari topildi. Nodir metallar qalay, mis, oltin, marmar konlari topildi. Lekin bu boyliklar O'zbekiston iqtisodiyotiga emas ittifoq iqtisodiyotiga foyda keltirdi.

Bir qator ilmiy izlanishlar ijtimoiy fanlar sohasida ham amalga oshirildi, xususan, O'zbekistonning qadimiy, o'rta asrlar va yangi tarixining ayrim masalalariga doir asarlar nashr etildi, qadimiy sharq qo'lyozmalarini to'plash, Samarqandda va Termiz tumanida arxeologik qazish ishlari boshlab yuborildi, xalq og'zaki ijodi, etnografiya, til va adabiyot hamda san'at sohalarini tadqiq qilish kengayib bordi. Bu kabi ishlarni 1921-yilda taniqli ma'rifatchi olim Munavvar Qori Abdurashidxonov rahbarligida tuzilgan davlat ilmiy kengashi (GUS) amalga oshirayotgan edi.

1932-yilga kelib, O'zbekiston olimlari Respublika Fanlar akademiyasi tashkil etish ishiga kirishdilar. Bu yo'lda ilk tashlangan qadam Markaziy Ijroiya Qo'mita qoshida 1932-yil 11-oktabrda O'zbekiston ilmiy tekshirish muassalariga rahbarlik qiluvchi respublika qo'mitasining tuzilishi bo'ldi. 40-yillarning boshida O'zbekistonda 60 dan ortiq maxsus ilmiy tekshirish muassasalari, laboratoriya va stansiyalari mavjud bo'lib, ularda nazariy va amaliy fan sohalari bo'yicha turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. 1940-yil 9-yanvarda Fan Qo'mitasi Ittifoq Fanlar akademiyasining filialiga aylantirildi.

Kompartiyaning madaniy merosni inkor etish siyosati arab yozuvini lotin grafikasiga aylantirish haqidagi qarorida ham o'z aksini topdi. SSSR MIQ va XKK ning ushbu qarori 1929-yil 1-avgustda qabul qilindi.

Islohot o'tkazishdan maqsad, avvalo, arab imlosiga qaraganda ancha yengil o'zlashtiriladigan lotin imlosini o'rganish bilan savodsizlikni mumkin qadar tezroq tugatish uchun intilish ekanligini sezish qiyin emas. Ammo yozuvning lotinlashtirilishiga qarshi turgan muxoliflar sovetlarning bu yo'l ko'p millatli Sovet O'rta Osiyosi xalqlarini Sharq musulmon mamlakatlaridan sun'iy ravishda ajratib olib, ular uchun alohida yangi madaniyat va tarix yaratishni maqsad

qilib qoʻyganlar, degan fikrlari mutlaqo toʻgʻri ekanligini hayotning oʻzi tasdiqlaydi.

1940-yil may oyida Oʻzbekiston SSSR Oliy Soveti III sessiyasida T.N. Qoriniyozovning maʼruzasi boʻyicha yozuvni rus grafikasiga oʻtkazish haqida koʻrsatma berildi. Qarorda «oʻzbek xalqi keng ommasining tashabbusi, xalqning xohish-istagi» deb alohida taʼkidlandi. Shuningdek, kirillitsaga oʻtish «xalqlar doʻstligini mustahkamlash» vositasi deb talqin qilindi. Yangi islohot lotin imlosiga oʻtishda nazarda tutilmagan siyosiy sabablarga ham ega edi. Maʼlumki, 20-yillar oxirida Turkiya lotin imlosiga oʻtgan boʻlib, markaziy hukumat SSSR tarkibidagi Oʻrta Osiyo respublikalarini burjua mamlakati boʻlgan Turkiya va boshqa kapitalistik dunyo mamlakatlari yozuvidan foydalanishga yoʻl qoʻya olmas edi. Taniqli va xizmat koʻrsatgan olim, professor T.N. Qoriniyozovni asosiy maʼruzachi sifatida tanlab olishdan maqsad imloni oʻzgartirishga nisbatan boʻlishi mumkin qarshilikning taʼsirini kamaytirish boʻlgan. Ammo Oʻzbekiston ziyolilarining eng ilgʻor vakillari bu davrda qatogʻon etilgan boʻlib, qarshilik koʻrsatish haqida soʻz ham boʻlishi mumkin emas edi. Taassuflar boʻlsinki, katta-katta xarajatlar maorif va madaniyat ravnaqi uchun emas, balki mustabid rejim siyosatiga maʼqul keladigan islohotlarga sarf etildi.

1934-yilning mart oyida Oʻzbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi vujudga keldi.

Bu davr adabiyoti katta yutuqlarga ham erishdi. Avvalo, shuni aytish kerakki, 30-yillarda tarjima badiiy ijodning muhim sohalardan biri sifatida rivojlana boshladi. Rus va jahon adabiyotining koʻzga koʻringan namunalari oʻzbek tiliga tinimsiz ravishda tarjima etildi. Adabiy aloqalarning shunday shakllari taʼsirida oʻzbek adabiyotida shu paytgacha mavjud boʻlmagan roman, qissa, sonet, terset, ballada singari yangi janrlar oʻzbek yozuvchilari ijodiga kirib keldi. Rus va jahon adabiyoti taʼsirida oʻzbek adabiyotining realizmi kuchaydi.

Adabiyotimizning qaysi bir turini olmaylik, 30-yillarda bu turlarda qator umurboqiy asarlar yaratildi. A.Qodiriy «Oʻtgan kunlar»dan keyin «Mehrobdan chayon» romanini yozib, oʻzbek romanchiligini jahon madaniyati darajasiga olib chiqdi. Koʻp oʻtmay, A.Qahhorning «Sarob», Choʻlponning «Kecha va kunduz» (birinchi kitobi), Oybekning «Qutlugʻ qon», shuningdek, S.Ayniyning tarixiy va avtobiografik romanlari maydonga keldi. Shʼeriy janrlarda Oybekning «Chimyon daftari» turkumi va dostonlari, Hamid Olimjon, Gʻafur Gulom, Uygʻun, Mirtemir, Usmon Nosir va boshqa shoirlarning lirik hamda liro-epik asarlari yaratildi. Dramaturgiya asarlari orasida esa Hamzaning «Burungi qozilar yoxud Maysaraning

ishi» «Paranji sirlaridan bir lavha yoxud Yallachilar ishi», G.Zafariyning «Halima» singari uzoq yillar mobaynida tomoshabin e'tiborini qozonib kelgan pyesalar paydo bo'ldi.

Sovet tuzumi, bir tomondan, o'zbek adabiyotining rus va jahon adabiyoti yutuqlaridan bahramand bo'lishiga imkoniyat tug'dirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, unda erksevarlik, millatparvarlik va milliy taraqqiyot g'oyalarning kuylanishiga jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatdi.

30-yillarda sahna san'atida opera va balet sohasida dastlabki yutuqlarga erishildi. Kino san'ati qaror topdi. Ayni shu davrda adabiyot va san'atda sotsialistik realizm deb atalmish yo'nalish hukmron bo'la boshladi va Respublikada madaniy hayot kommunistik mafkuraga bo'ysundirildi.

Urushdan keyingi 50-60-yillarda Respublika ijodiy ziyolilarining yangi avlodi shakllandi. Shaxsga sig'inishning fosh etilishi bilan yuzaga kelgan yillar shamoli bilan badiiy adabiyotda ko'pgina salmoqli asarlar yaratildi, bir qancha yangi o'zbek teatr va konsert san'atining dong'ini taratgan jamoalar tashkil etildi. Jamiyatda inqirozli holatlarni kuchayishi bilan madaniy hayotdagi ziddiyatlar ham keskinlashdi. Chirib borayotgan sotsializm g'oyalarisiz tarixiy, badiiy asarlar yorug'lik ko'rmaydigan bo'ldi. Faqat 80-yillarning ikkinchi yarmidan yangicha fikrlash davrida sotsializm g'oyalari va amaliyotining jamiyat hayotining barcha sohalaridagi mudhish oqibatlarini fosh qiladigan asarlar yaratildi.

Kecha-yu kunduz kishilar ongiga majburan singdirilgan kommunistik mafkura odamlarni ma'naviy qashshoqlikka olib keldi. «Ijtimoiy tenglik» to'g'risidagi sotsializm g'oyasi kishilarni ishyoqmas, boqimanda qilgan bo'lsa, «davlat mulki», «umumxalq mulki» degan aqidasi insonni mulkdorlik, egalik tuyg'ularidan begona qildi. «Davlat mulki»ga «egasiz mulk» deb qarash natijasida tashimachilik ommaviy tus oldi.

O'zbek xalqi uchun eng dahshatlisi milliy, diniy, tarixiy qadriyatlardan judo bo'lganligida edi. «Yagona sovet xalqi», «internatsional til» to'g'risidagi uydirma nazariyalar adabiyot va san'atdagi «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» asarlarning yaratilishi xalqimizni azaliy qadriyatlaridan mahrum etdi.

Tayanch tushunchalar

Markazga qaramlik, «harbiy kommunizm», industriyalashtirish, jamoalashtirish, fashizmga qarshi urush, sanoatning yangi sohaları, yangi yerlar o'zlashtirilishi-ekologik fojea, «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat» shiori — milliylikning poymol

qilinishi, kadrlar tayyorlashdagi nuqsonlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Qanday sabablarga ko'ra O'zbekistonda olib borilgan industrialashtirish siyosati og'ir kechdi?
2. Qishloqlarda olib borilgan jamoalashtirish siyosati qanday salbiy oqibatlariga olib keldi?
3. "Hujum»ga zarurat bormidi?
4. Sovetlarning xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish borasidagi shoshma-shosharlik va zo'rovonlik usulida amalga oshirgan siyosati qanday oqibatlariga sabab bo'ldi?
5. Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat qanday oqibatlariga olib keldi?"
6. O'zbekistonning iqtisodiy ahvolidagi noxush holatlar qanday ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqardi?
7. Sobiq Itifoq davrida kadrlar tayyorlashda qanday xatoliklarga yo'l qo'yilgan?

14-mavzu. IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEK XALQINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI

REJA

1. Sovet-german urushining boshlanishi: xalq tanlagan tarixiy yo'l.
2. G'alaba yillarida mashaqqatli mehnat
3. Evakuatsiya qilingan aholiga ko'rsatilgan samimiy g'amho'rlik.
4. O'zbekistonliklarning urush janggohlaridagi jasoratlari.
5. Urush yillarida O'zbekistonda fan va madaniyat

Adabiyotlar

6,7,26,28,33,35.

14.1. Sovet-german urushining boshlanishi: xalq tanlagan tarixiy yo'l

Ikkinchi jahon urushi XX asrning eng katta fojiasi bo'ldi. Insoniyat urushida o'lganlar hisobidan 50 mln.dan ortiq kishidan ajraldi. Bu birinchi jahon urushida o'lganlardan 5 baravar ko'pdir. Vayrongarchilikdan ko'rilgan zarar va urush olib berish uchun

sarflangan mablag'lar miqdori 4 trillion dollarni tashkil qildi.

Halokatli jahon mojarosi 20-30-yillar chegarasida jahonning asosiy mintaqalarini qamrab olgan chuqur siyosiy va iqtisodiy tanglikning oqibati edi. Lekin harbiy zo'rvonlikning ortishida Yevropa, Osiyo va AOSH mamlakatlari hukuron doiralarning geopolitik da'volari ham sezilarli rol o'ynadi.

1939-1940-yillar mobaynida fashistlar Germaniyasi Polsha, Norvegiya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Daniya, Luksemburgni bosib oldi va 1941-yil yozda, 22-iyun yakshanba kuni tongotarda hujum qilmaslik haqidagi avgust shartnomasi shartlarini buzib, Sovet Ittifoqi hududiga halokatli urush olovini yog'dirdi, SSSRga hujum boshladi. Sovet Ittifoqi, shu jumladan, O'zbekiston xalqlari uchun og'ir sinovlar vaqti va ularning nemis-fashist bosqinchilariga qarshi fidokorona kurashi boshlandi.

Gitlerchilarning sharqqa doir harbiy muddaolarini o'zida gavdalantirgan «Barbarossa» rejasiga «Yashin tezligidagi urush» g'oyasi asos bo'lgan edi. Sovet mamlakatlarini bitta qisqa muddatli kompaniya jarayonida mag'lub qilish va urushni 1941-yil kuzda tamomlash mo'ljallangan edi.

Boshlangan urush davlat hayotining barcha jabhalarida o'zgartirishlar qilishni, shiddatli mudofaa uchun kuch-g'ayrat sarflashni talab etardi. Yuqori hokimiyat eshelonida esa sarosimalik ko'zga tashlanar edi. Faqat 29-iyundagi Xalq Komissarlari Kengashi nomidan joylarga ko'rsatmalar jo'natilib, unda urush ahvolini keskin o'zgartirib yuborganligi, Vatan jiddiy xavf ostida qolganligi, barcha ishlarni harbiy izga solish uchun tez va qat'iy ravishda qayta qurishni amalga oshirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan edi. Hujjatlarning asosiy talabi «Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!» degan chaqiriqda o'z ifodasini topgan edi.

1941-yil 30-iyunda I.V.Stalin boshchiligidagi Davlat Mudofaa Qo'mitasi (DMQ) tashkil topdi. DMQ qo'lida davlat, harbiy va partiyaviy hokimiyat to'plangan edi. Boshlangan urush sharoitida sovet qurolli kuchlariga strategik rahbarlikni amalga oshiruvchi favqulodda organ sifatida Stalin boshliq Oliy Bosh Qo'mondon Qarorgohi tashkil etildi. 8-avgustda Stalin Oliy Bosh Qo'mondon lavozimini qabul qildi. Barcha muhim harbiy siyosiy qarorlarni qabul qilish haqiqatda uning qo'lida to'plangan edi, bu qarorlar DMQ buyruqlari yoki VKP(b) MQ siyosiy byurosining qarorlari sifatida rasmiylashtirilardi. Stalinning faqat yirik masalalardagina emas, balki mayda-chuyda masalalarni ham hal qilishga urinishi ko'plab rahbarlarning tashabbusini bo'g'ib qo'ygan edi. Faqat 1941-yil 3-iyuldagina Stalin xalqqa murojaat qilishga qaror qildi. U

o'zining radio orqali so'zlagan nutqida haqiqiy ahvolni aytishga majbur bo'lgan edi.

Urushning dastlabki og'ir kunlaridanoq, sovet xalqi bosqinchilar ustidan g'alabaga erishishga butun kuchlarini bag'ishlashga intildilar. O'zbekiston xalqi mustabid tuzum davrida bo'lganligi uchun bu dahshatli urush g'am-g'ussasidan chetda qolmadi.

Hozirgi kunlardan, imperiyacha kommunistik rejim qo'llangandan keyin, Sovet o'tmishiga, shu jumladan, urush davriga yangicha baho berilmoqda. Nuqtayi nazarlar bir xil emas, albatta. Ba'zan shunday fikrlar bildirilmoqdaki, ularning mohiyati – ezilgan O'zbekiston xalqi sovet imperiyasi iskanjasida qolib, «Sotsialistik vatan»ni o'zining ona –Vatani sifatida himoya qila olmasdi, yot mustabid-mustamlakachilik rejimini saqlab qolish uchun jon dilidan kurasha olmas edi, shuning uchun chinakam vatanparvarlik haqida gap ham bo'lishi mumkin emasdi, degan ma'noni anglatmoqda. Aksincha, o'zbek xalqi ko'p yillar mobaynida milliy ozodlikni orzu qilib yurar va sovet tuzumining qulashidan obyektiv ravishda manfaatdor edi. O'zini vatanparvarlik burchini yuksak ado etgan o'zbek xalqi fashizimdan faqat SSSRni emas, eng avvalo, O'zbekistonni himoya qilishni, uni yana bir bosqichdan saqlab qolishni maqsad qilib qo'ygan edi, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Og'ir urush yillarini o'z boshidan kechirgan kishilarning xotiralaridan ma'lum bo'lishicha, odamlar o'sha vaqtda «Sotsializmning afzalliklari», sovet rejimini himoya qilish zarurligi haqida kam o'ylar edilar. Xalqning aksariyat qismi mustabid tuzumni qoralari edi. Chunki Respublikada xalq Turkiston Muxtoriyatining qonga belanganligi, ozodlik uchun kurash harakatining zo'ravonlik bilan bostirilishi, diniy e'tiqodlar uchun ta'qib qilishlar esdan chiqmagan edi. Jamolashtirishning Stalincha zo'ravonlik bilan amalga oshirilishi yuz bergan jinoyatlar xotiradan ko'tarilmagandi.

Prezident xaqli ravishda bunday deb ta'kidlagan edi: «Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g'oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo'lmasin, o'z Vatani, el-yurtning yorug' kelajagi, beg ubor osmon uchun jang maydonlarida halok bo'lganlarni, o'z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz.

Bu achchiq, lekin oliy haqiqatni unutishga hech kimning haqqi yo'q va bunga yo'l ham bermaymiz!».

Vatanga bo'lgan muhabbatdan iborat muqaddas tug'u og'ir urush davrida O'zbekiston xalqining ijtimoiy xulq-atvorini namoyon

qiluvchi asosiy ma'naviy talab, bu xalq vatanparvarligining bitmas-tuganmas manbai bo'ldi. Shu bilan birga, gitlerchi bosqinchilarning bosib olingan hududlarda qilgan ashaddiy jinoyatlari haqidagi, fashizm o'zi bilan birga olib kelgan «Yangi tartib» to'g'risidagi ma'lumotlar ham ommani vatanparvarlik ruhiga ta'sir qiluvchi turtki bo'ldi. Natijada Vatanparvarlar harakati tobora chuqurlashib chinakam umumxalq xususiyatini kasb etdi.

Fashist zolimlarga qarshi kurashda O'zbekiston xalqining faol ishtirok etishi uning milliy ruhining qudratli namoyon bo'lishi edi. Urushning dastlabki kunlaridanoq, butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham partiya tashkilotlari tomonidan miting va yig'ilishlar tashkil qilindi, ularning qatnashchilari fashistlar Germaniyasining to'satdan hujum qilishiga o'z g'azab-nafratlarini ifodaladilar, barcha kuchlarni, agar lozim bo'lsa, hayotlarini ham g'alaba ishiga bag'ishlashga azmu qaror qilganliklarini yakdillik bilan bayon etdilar. Chumonchi, 1941-yil 22-iyulda Toshkent to'qimachilik kombinatining ishchilari ana shu daqiqadan boshlab, o'zlarini Vatan himoyasiga safarbar qilingan deb hisoblashlarini bildirdilar. «Toshkent qishloq xo'jaligi mashinalari» zavodi, «Qizil tong» fabrikasi ishchilari dushmanni tor-mor qilish uchun har qanday vazifani sharaf bilan bajarishga, butun kuch va vositalarini bag'ishlashga qaror qilganliklariga hukumatni ishonurdilar.

23-24-iyunda Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona, Nukus va Respublikaning boshqa shaharlarida ham ko'p ming kishilik mitinglar bo'lib o'tdi. Ularda so'zga chiqqanlarning nutqlari Vatanni ko'kraklarini qalqon qilib himoya qilishga, mamlakat ichkarisida va frontda yovuz bosqinchilar ustidan g'alabani ta'minlashga qaratilgan ohang bilan to'lib-toshgan edi.

Har kuni frontga jo'natish istagi bilan harbiy komissarlarga kelib turgan arizalar oqimi o'zbekistonliklarning milliy vatanparvarlik ruhi yuksakligining yaqqol namunasi bo'ldi. Mazkur arizalarni turli kasbdagi va xar xil millatga mansub kishilar: erkaklar va ayollar, keksalar va yoshlar, partiyali va partiyasizlar yo'llar edilar.

Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, urushning dastlabki kunlarida Respublikaning shahar va tuman harbiy komissarligiga ko'ngillilardan 14 mingdan ortiq ariza tushgan.

Ko'ngillilar va xizmatga chaqirilganlarni harakatdagi armiya saflariga kuzatish partiya organlari tomonidan siyosiy tadbirga aylantirildi, mitinglar tashkil qilindi. O'zbekiston xalqi fashistlar bosqinini o'z yurtiga, jonajon yeriga qilingan tajovuz deb tushundi. Shuning uchun ham ota va onalar o'z o'g'illarini frontga kuzatar

ekanlar, ularga bosqinchilarga qarshi sharaf bilan kurashish. Shiroq, Spitamen, Jaloladdinlarning Chingizxon olchoqlariga va o'tmishdagi boshqa manfur bosqinchilarga qarshi kurashlarda g'olib chiqqan qahramonlarning jangovar jasoratlaridan namuna olishni talab qilardilar.

O'lka aholisi an'anaviy vatanparvarligining ajoyib namunalaridan biri frontga umumxalq yordami ko'rsatish edi.

O'zbekistonliklar urushning dastlabki kunlaridanoq mudofaa jang'armasini tashkil etish harakatida faol ishtirok etdilar.

Ommaning tashabbusi bilan bunday jang'arma yaratishning tobora yangi va yangi shakllari vujudga keltirildi. Mudofaa jang'armasiga ishchilar, kolxozchilar, ziyolilar bir kunlik ish haqlari, «Kommunistik shanbafiklar»da ishlab topilgan pullar, fuqarolarning shaxsiy jang'armalari, qimmatbaho boyliklari, davlat zayomlari, buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari topshirilardi. Umuman, urushning dastlabki kunlarida Respublika aholisidan 30 ming so'mlik miqdorida pul, obligatsiya va qimmatbaho boyliklar tushdi. O'zbekiston aholisi urush yillarida mudofaa jang'armasiga jami 649.9 mln.so'm pul, 22 kg oltin va kumush topshirdi.

Frontga yordam ko'rsatish vatanparvarlik harakatida aholining barcha tabaqalari qatnashdi. Bunda diniy uyushmalar ham faol ishtirok etdiki, bu haqda sovet tarixshunosligida shu davrgacha hech narsa deyilmagan. Turli dinlarga e'tiqod qiluvchi dindorlar ma'murlarning xafa qilishi va ta'qiblarini ham unutib, mehr-shafqat haqidagi aqidalarga tayangan holda insonparvarlik yordami ko'rsatishga, mamlakatni mustabkamlashga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishga intildilar. Diniy ibodatxonalarning xizmatchilari qimmatbaho diniy ashyolar, muqaddas esdaliklarni topshirdilar. O'zbekistonda harbiy texnika, asosan, tank kolonnalarida jangovar samolyotlar eskadrilyalar qurilishiga mablag' to'plash harakati keng quloqch yozdi. Masalan, «O'zbekiston kolxozchisi» kolonnasi qurilishiga Respublika kolxozchilari o'zlarining shaxsiy jang'armalaridan 1942-yil dekabrda 26 mln.so'm to'pladilar. Aholi tomonidan issiq buyumlar to'plash va tayyorlash vatan himoyachilari haqida insoniy g'amxo'rlikning yorqin ko'rinishi bo'ldi. Frontga paxtali kurtkalar, kalta postinlar, kigiz etiklar, sharflar, qo'lqoplar, paypoqlar, quloqchin qalpoqlar, jemperlar va hokazolar jo'natib turildi. Jangchilar uchun to'plangan buyumlar va oziq-ovqatlarni O'zSSR Oliy Prezidiumining raisi Y.Oxunboboyev rahbarligidagi delegatsiya frontning oldingi marralarigacha olib borgan edi. Respublika aholisi urushning faqat dastlabki 6 oyi mobaynida frontga 4.1.5 mingga turli issiq buyumlar

yubordi. Yakka oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar bularga kirmaydi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida yaqqol namoyon bo'lgan qudratli vatanparvarlik o'zbek xalqining ma'naviy sog'lomligidan dalolat beradi. Bolshevistik ma'murlarning ko'pdan ko'p ta'sir ko'rsatishlariga, mustabid tuzumning ateistik va ma'naviy ekstremizimga qaramasdan, o'zbek xalqi o'zining chuqur ilmiy, ma'naviy negizlarini saqlab qoldi. Bular uning ko'p yillik tarixi va insonparvarlik an'alariga, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga uzviy ravishda singib ketgan edi.

14.2. Galaba yo'lidagi mashaqqatli mehnat

Sovet-German urushi boshlang'ich davrining eng murakkab va mas'uliyatli vazifalaridan biri iqtisodiyotni harbiy izga solishdan iborat edi.

Shuni aytish kerakki, mamlakat xalq xo'jaligini qayta qurish og'ir sharoitlarda kechdi. Moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini front ehtiyojlariga muvofiq qayta taqsimlash, harbiy mahsulot ishlab chiqarishni keskin ko'paytirish va odatdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni qisqartirish, ishlab chiqarishni G'arbdan Sharqqa ko'chirish, uni mamlakat ichkarisidagi rayonlarda tezlik bilan ishga tushirish zarur edi. Bularning hammasini faqat haddan tashqari qisqa muddatlarda, lekin shu bilan birga, urushdan oldingi Sovet Ittifoqining qariyb 40% aholisi istiqomat qiladigan, ko'mirning 63% qazib olinadigan, po'latning 50%, donning 38% ishlab chiqariladigan, qudratli mashinasozlik bazasi, shu jumladan, ko'pgina mudofaa korxonalari joylashgan hududni bosqinchilar bosib olgan bir sharoitda amalga oshirish kerak edi.

Urushning borishi mamlakat ichkarisidagi ishlarga to'g'ridan to'g'ri bog'liq edi. Shuning uchun ham siyosiy rahbariyat iqtisodiyotni qayta qurishga ustuvor ahamiyat berdi. Qayta qurish grajdanlar urushi yillarida sinovdan o'tgan harbiy kommunistik yo'llar bilan amalga oshirildi. 20-iyundan boshlab, mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni soati 6 kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Haqiqatda esa u 12-14 soatga yetar edi. Ta'tilga chiqish bekor qilindi. Bu hol ishchi-xizmatchilar sonini ko'paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari hajmini taxminan 1/3ga oshirish imkonini berdi. Biroq ishchi kuchini yetishmasligi tobora sezilib bordi. Idora xizmatchilari, uy bekalari, o'qituvchilar ishlab chiqarishga jalb qilindi. 1941-yil

dekabrda harbiy korxonalarining barcha xodimlari safarbar deb e'lon qilindi va mazkur korxonalariga birlashtirib qo'yildi. Mehnat intizomini buzganlar uchun jazo choralari keskin qo'yildi. Korxonalardan o'zboshimchalik bilan ketib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddat bilan qamoqqa hukm qilinardi. Biroq odamlar mamlakat ichkarisida, shu jumladan, O'zbekistonda yuqoridan «Ortiqcha qistovsiz» ozodlik va mustaqillik yo'lida fidokorona mehnat qildilar.

Respublika hukumati 1941-yil sentabr, dekabrda O'zbekistonning umumiy rejalarini belgilab berdi. Qabul qilingan qarorlarda xalq xo'jaligini qayta qurishga doir aniq vazifalar belgilangan bo'lib, ularda sanoat korxonalarini mudofaa mahsulotlari ishlab chiqarishga o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan, ichki resurslarni safarbar qilish sohasidagi choralar taklif qilingan edi.

Kadrlarning keskin sur'atda tanqisligi, sanoat xomashyosi, yoqilg'i, dastgohlar, asboblarning nihoyatda yetishmasligiga qaramasdan, 1941-yil dekabrga kelib, Toshkentdagi 63 ta korxonadan Respublikadagi boshqa 230 ta korxonaga mudofaa mahsulotlari bera boshladi. Ular orasida «Toshqishloq mash», parovoz ta'mirlash zavodlari, Chirchiq elektrokimyokombinati va boshqa korxonalar bor edi. To'qimachilik va tikuvchilik sanoati ham front ehtiyojlariga xizmat qilishga kirishdi. Ittifoqning g'arbiy viloyatlaridan Respublikaga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalarini joylashtirish, montaj qilish va g'oyat qisqa muddatlarda ishga tushirish o'zbekistonliklardan katta kuch-g'ayrat sarf etilishi talab qilardi. Bu vazifani tashkiliy jihatdan ta'minlash ishi bilan Usmon Yusupov boshchiligidagi komissiya shug'ullandi. O'zbekistonga hammasi bo'lib 104 ta zavod va fabrika evakuatsiya qilindi. Ular orasida Leningrad to'qimachilik mashinalari zavodi, «Rosselmash», «Qizil Oqsoy», Sumskiy kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi «Elektrokabel» va «Pod'omnik» zavodlari, Temur yo'llar xalq komissariatining mashinasozlik zavodi, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, «Krasniy put» zavodi, Kiyevdagi «Transsignal» zavodi, Stalingrad kimyokombinati va boshqalar bor edi.

O'zbekistonda urush yillarida 280 ta yangi korxonalar barpo etildi. Respublikaning sanoat potentsiali 1945-yilga kelib 1940-yildagiga nisbatan deyarli ikki baravar ko'paydi, neft qazib olish - baravardan ziyod, metall ishlash tarmoqlari mahsulotlari 4,8 masha-sozlik mahsulotlari 13,4 baravar, ko'mir qazib chiqarish 30 baravardan ko'proq, po'lat eritish 2 baravar, elektr energiya ishlat

chiqarishi 2,42 marta ortgan.

Urush yillari mobaynida respublika dehqonlari davlatga 4 mln.148 ming t.paxta, 82 mln.pud g'alla, 54067 t. pilla, 195 ming t. sholi, 57 ming 444 t. meva, 36 ming tonna quritilgan meva, 195 ming 300 t. go'sht, 22 ming 300 t. jun va boshqa ko'pgina mahsulotlar yetkazib berdilar. Bu O'zbekiston qishloq mehnatkashlarining o'zi emay-ichmay, dushmani tor-mor qilish uchun umumxalq kurashiga qo'shgan munosib hissasi edi.

14.3.Evakuatsiya qilingan aholiga ko'rsatilgan samimiy g'amxo'rlik

Mamlakatning dushman vaqtincha bosib olgan hududlarini va front yaqinidagi tumanlarni tashlab chiqqan dastlabki o'n minglab kishilar respublikaga 1941-yilning yozidayoq kela boshlagan edi. O'zbekiston urush yillarida Rossiyaning bosib olingan rayonlari - Ukraina, Belorusiyadan hammasi bo'lib bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi.

Respublika shaharlarida va qishloqlarida aholi bu yerga kelgan fuqarolarni mehmondo'stlik bilan qarshi oldi. Aholi ularga turar joy berib, o'zi siqilib yashadi, ko'chib kelganlarni to'ydirish uchun oxirgi bo'lak nonini ham bo'lib berdi, ular uchun poyabzal, kiyim-bosh to'pladi. Ko'chirib keltirilganlarga yordam berish maqsadida Farg'ona viloyatidagi «Birinchi may» qishloq xo'jalik arteli mehnatkashlarining tashabbusi bilan shaharlarga don, sabzavot, kartoshka, go'sht mahsulotlari ortilgan karvonlar yetib kela boshladi.

Ko'chirib keltirilganlarni ishga joylashtirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Faqat Toshkent shahrining o'ziga 1941-yil 24-noyabrdan 31-dekabr gacha 37,6 mingdan ortiq kishi, 1941-1942-yillarda qariyb 240 ming kishi joylashtirildi va ish bilan ta'minlandi.

O'zbekiston aholisi ota-onasidan va uyidan ajralgan bolalarni, avniqsa, samimiy g'amho'rlik bilan qabul qildi. «Sen yetim emassan!»-o'zbek shoirining qalb qaridan otilib chiqqan bu samimiy so'zlar butun o'zbek xalqining hayajonli his-tuyg'ularini ifodalay edi. O'zbekistonliklar baxtsiz bolalarni o'z quchog'iga olish, ularning ko'nglini ko'tarish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berish uchun qo'llaridan kelgan, mumkin bo'lgan va hatto mumkin bo'lmagan narsalarni ham qildilar.

Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli yo'sinda

tashkil etish maqsadida respublika hukumatining qarori bilan 1941-yil oktabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt tashkil etildi. O'sha yillarning dekabrda evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirishga rahbarlik qilish uchun respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tashkil etildi. Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda maxsus shtablar kecha-kunduz ishlab turibdi. Faqat 1941-yil 25-noyabrdan 1942-yil oktyabrga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola o'tdi, yetib kelgan bolalar darhol samimiyat va onalarcha mehribonlik bilan qurshab olindi. Ko'chirib keltirilgan bolalar va fronga ketganlarning bolalari har kuni Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon va Namanganda tashkil etilgan oshxonalaridan bepul ovqat olishardi. Bemor va zaiflashib qolgan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatilardi.

Yuzlab oilalar ko'chirib keltirilgan, urush tufayli ota-onalaridan ajralgan bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Ayniqsa, keltirilgan bolalarga jamoatchilikning yordami ko'rsatishidan iborat vatanparvarlik harakati 1942-yil 2-yanvarda Toshkenda shahar xotin-qizlarini ota-onasiz bolalarga onalari o'rniida onalik qilishga chaqirgan edi.

Ko'pgina oilalar ikkita va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o'rtog'i Bahri opa Akromovaning nomlari ko'pchilikka tanishdir. Ular turli millat farzandlaridan 14 bolani o'z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi. Yangiyo'lda 9 ta koxoz jamoasi ko'chirib keltirilgan 169 bolani o'z tarbiyalariga olishdi. Buxorolik Muazzam Jo'rayeva va Ashurxo'jayevalar o'z bag'irlariga 8 nafardan bola oldilar. 1943-yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa, 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi.

Respublikada asta-sekin bolalar uylari, maktab-internatlar, bolalar bog'chalari va yashilari tarmog'i kengaytirildi, ular birinchi navbatda ko'chirib keltirilgan bolalar va frontga ketganlarning bolalarini qabul qildilar. 1945 yilda, O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 268 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchilarning soni 31.300 bolani tashkil etdi, holbuki, urush arafasida respublikada faqat 106 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ularda 12 ming bola tarbiyalanardi.

Davlat tomonidan bolalar muassasalariga ajratilgan mablag'lar yetishmayotganligini hisobga olib, respublikaning ko'pgina mehnat jamoalari ularga qo'llaridan kelganicha yordam berishni o'z

zimmalariga o'tishdi. Korxonalar va tashkilotlarda bolalar uylarining filiallari tashkil etilib, ular to'la- to'kis mehnat jamoalari mablag'i hisobiga ta'min etilardi.

1942-yilning boshlarida respublikaning barcha gazetalarida O'z SSR XKK huzuridagi evakuatsiya qilingan va yetim bolalarni joylashtirish hamda tarbiyalash Komissiyasi davlat bankining shahar boshqarmasida 160676-raqamli joriy hisob ochganligi haqidagi e'lon bosilib chiqdi. Bolalar foydasi uchun bo'ladigan barcha xayriyalar ana shu ko'rsatib o'tilgan hisobga topshirilishi iltimos qilingan edi.

Mazkur da'vat javobsiz qolmadi. 1942-yilning mart oyiga kelib, 160676-raqamli hisobga 2 mln. 74 ming so'm mablag' tushdi. 1943-yilga kelib, bu jamgarma fondi 3,5 mln. so'mga yetdi.

Ishchilar, xizmatchilar, dehqonlar talabalar va maktab o'quvchilarining otaliq yordam ko'rsatish shakllari kengaydi. Masalan, Toshkent viloyati paxta tayyorlash tresti kolxozchilari 1942-yilning bahorida, klub binosini internatga aylantirib, qayta jihozladilar va bu yerda Belorusiyadan kelgan 25 bolani tarbiyaladilar. Bu namunaga shahardagi deyarli 70 ta korxonaga qo'shildi. Ayni vaqtda ko'pgina korxonalar va muassasalarda, yirik qishloq xo'jalik artellarida bolalar bog'chalarini va yashilarni ochildi. 1943-yilda bolalar bog'chalarida tarbiyalanayotgan 53072 boladan 15108 nafari evakuatsiya qilingan bolalar edi.

Deportatsiya qilingan xalqlarni boshqa joylarga tarqatib joylashtirish Janubiy Uralning ulkan hududidan tortib, butun Qozog'iston cho'llari va Oltoy tog'larining odam oyog'i yetmagan tog'oldi qismlari bo'ylab o'tkazildi.

Ko'chirilganlarni o'rnatish uchun tanlangan joylardan biri O'zbekiston edi. SSSR NKVD maxsus joylashtirish bo'limining ishi to'g'risidagi ma'ruzadan ma'lum bo'lishicha, faqat 1944-yil martidan 1945-yil oktabriga qadar mamlakat bo'ylab maxsus ko'chirilganlar soni 2.230.500 kishini tashkil etgan bo'lib, ulardan respublikamizga joylashtirilganlar soni 200 mingdan ortiq kishidan iborat edi. Lekin ularning umumiy soni amalda bundan ko'proq edi. Qrimdan 151.604 qrim tatarlari, Gruziyadan 110 mingga ortiq ingush, 4,5 ming arman, greklar ko'chirib keltirilgan edi. Ko'chirib keltirilganlar orasida boshqa elatlarning vakillari ham oz emas edi.

14.4. O'zbekistonliklarning urush jangohlaridagi jasoratlari.

Eng yangi tarixiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Ikkinchi jahon

urushida O'zbekistondan 1 mln. 433230 kishi qatnashdi. «Bir qaraganda, -deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov,- bu raqam uncha katta tuyulmasligi mumkin». Lekin «1941-yilda O'zbekiston aholisi bor-yo'g'i... 6,5 million kishi ekanini eslasak, respublika xalqi boshiga tushgan sinovning naqadar katta ekani yaqqol ko'rinadi».

Keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Ikkinchi jahon urushi frontlarida O'zbekiston aholisining 22 % jang qilgan. Agar aholisining yarmini ayollar, bolalar va keksalar tashkil etishini hisobga olinadigan bo'lsa, mehnatga yaroqli aholining 40-42% frontda jang qilganligi aniq bo'ladi. Kurashuvchilarning bunday yuqori salmog'i faqat fashizmga qarshi koalitsiyadagi cheklangan miqdordagi ishtirokchi mamlakatlar uchungina xos bo'lgan.

Bosqinchilarga qarshi qo'lga qurol olib jang qilgan o'zbekistonlik jangchilarning umumiy tarkibidan 263005 kishi halok bo'lgan, 132670 kishi bedarak yo'qolgan. 60452 vatandoshimiz nogiron bo'lib qolgan.

SSSR chegaralarini tiklash va mamlakatni to'liq ozod qilish vazifalarini ta'minlashga o'zbekistonlik jangchilar ham salmoqli hissa qo'shdilar. Ularning jangovar jasoratlari sovet-german frontining barcha qismlarida amalga oshirilgan ozod qilish operatsiyalari qahramonona jangnomasining muhim tarkibiy qismi bo'ldi.

Ukraina tuprog'ida mardona jang qilgan qismlarning jangovar safida Turkiston harbiy okrugida tashkil etilgan 13-gvardiyachi otlq Rovno diviziyasi, 213-yangi Ukraina diviziyasi, 563-otliq diviziya alohida o'rnak ko'rsatdi. Mazkur diviziya Korsun-Shevchenko operatsiyasida faol ishtirok etganligi uchun Korsun diviziyasi degan faxrli nomga sazovor bo'ldi.

Belorus xalqini ozod qilish uchun olib borilgan janglarda 14-gvardiyachi otlq diviziya shuhrat qozondi. U bilan bir qatorda, Belorusiya yerlarini fashist manfurularidan tozalashda O'zbekiston hududida tuzilgan 69- va 194 gvardiyachi diviziyalar faol ishtirok etdilar. Nemis qo'shinlarining qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay, mazkur diviziyalarning jangchilari qisqa muddat ichida Belorusiyaning fashist bosqinchilari qo'lida bo'lgan Kovel, Turov, Bobruysk, Baranovichi, Slonim va boshqa shaharlari aholisini ozod qilishga muvaffaq bo'ldilar.

Sobir Rahimov, Mamadali Topivoldiyev, R. Abzalov, O. Rahimov, Halloq Aminov, Do'chqor Turdiyev, Nazar Rajabov kabi o'zbekistonliklar jangovar jasoratlari uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldilar.

O'n minglab o'zbekistonliklar boshqa harbiy tuzilmalar

tarkibida botirlarcha jang qildilar. Masalan, Gomei viloyatidagi Shari daryosini kechib o'tish chog'ida Odil Vohidovning bo'linmasi alohida ajralib turdi. Ikki kun davomida oz miqdordagi jangchilar guruhi fashistlar bilan qattiq olishdi. Ular dushmanning 11 ta ayovsiz hujumini qaytardilar. Jang tamom bo'lganda faqat ikki kishi - Vohidov va uning hamshahari Yo'ldosh Bahromov tirik qolishgan edi. Ular tankka qarshi oxirgi granatalarini belga bog'lab o'z hayotlari evaziga dushmanning ikkita tankini yo'q qildilar.

Boshqa harbiy bo'linmalarda ham o'zbekistonlik qahramonlar soni ortib bordi. Xususan, Belorusiyani ozod qilish uchun olib borilgan janglarda ko'rsatgan mardlik va jasorati uchun serjant Soli Adashev, Ro'zi Azimov, artilleriyachi M.P.Akimov, kapitan P.A.Arefev, ofeytor M.A.Arutyunov, general mayor A.I.Baksov, starshina I.Xo'jayev, kapitan G'ulom Yoqubov va boshqalar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldilar.

O'zbekistonlik jangchilarning Boltiqbo'yi Respublikalarini fashist bosqinlaridan ozod qilish uchun olib borilgan fidokorona jangi ikkinchi jahon urushi tarixiga so'nmas sahifa bo'lib kirdi. Boltiqbo'yi janglarida o'zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramonlari safi anchagina to'ldi. Hukumatning oliy mukofotiga sazovor bo'lgan jangchilar orasida o'qchi O'rinboy Abdullayev, starshina E.I.Ivanin, katta serjant E.A.Voinshin, mayor B.A. Vinenskiy, kapitan A.I.Volkov, starshina Ne'matjon Hakimov, A. Shokirov va boshqalar bor edi.

Qizil Armiyaning g'olibona hujumiga bir qator ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy omillar ham sabab bo'lgan edi. Ular orasida partizanlar harakati muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonlik jangchilar janubi-sharqiy Yevropa xalqlarini ozod qilishda shonli jangovar yo'lni bosib o'tdilar. Ular Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Vengriyani ozod qilishda ishtirok etdilar. O'zbekistonning ko'pgina tuzilmalari o'zlarining shonli yo'lini Berlinda tugalladi.

1945-yil 2-mayda Berlin mag'lub bo'ldi, 9-mayda esa Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lganligi haqidagi hujjatga imzo qo'yildi. Bu Vatan himoyasi, uni fastuzrudan ozod qilish yo'lida olib borilgan og'ir va qonli kurashning yakuni edi.

14.5. Urush yillarida O'zbekistonda fan va madaniyat

Ikkinchi jahon urushi boshlangan dastlabki kunlardan oq O'zbekiston xalqlari ma'naviy madaniyatining boy salohiyati insoniyatning eng yovuz dushmani bo'lgan fashizmni tezroq tor-mor

qilish ishiga safarbar qilindi. O'zbekiston madaniyatining barcha yo'nalishlari uning arboblari va xodimlarining fidoyiligi va vatanparvarligi tufayli juda qisqa muddatlarda urush davri ehtiyojlari va talablari oqimiga yo'naltirildi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini umumiy muvofiqlashtirishni SSSR Fanlar akademiyasining 1940-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Filiali (O'zFAN) amalga oshirdi. Urush boshlanish vaqtiga kelib, Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali tarkibiga geologiya, energetika, kimyo institutlari, botanika va tuproqshunoslik instituti, til, adabiyot va tarix instituti, iqtisodiy tadqiqotlar byurosi, fizika-matematika sektori va boshqa ilmiy bo'linmalar kirardi. 1943-yil noyabrda O'zFAN bazasida respublika Fanlar akademiyasi tashkil topdi. 1944-yilda O'zFA tarkibida 818 nafar ilmiy va ilmiy-texnik xodimlar bor edi. Oliy ta'lim tizimida ham yirik olimlar otryadi ishlardi. Ular pedagoglik faoliyati bilan bir qatorda samarali ijodiy tadqiqotlar bilan ham shug'ullanishardi.

Respublika olimlari faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri iqtisodiyotni urush davri andozasiga solib, qayta qurishda ishtirok etish, mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan mahalliy xomashyoni o'rganish va o'zlashtirish, yangi resurslarni izlab topish va ulardan foydalanish, korxonalar va dehqonchilik xo'jaliklariga amaliy, ilmiy-texnikaviy yordam ko'rsatishdan iborat edi. Masalan, O'rta Osiyo industrial instituti va SAGU (O'rta Osiyo davlat universiteti) xodimlari Angren ko'miridan, kauchukli o'simlik va alinutlardan faollik bilan foydalanish yuzasidan tadqiqot ishlari olib bordilar. Agrar ixtisosdagi institutlarning olimlari hosildorlikni oshirish va yangi qishloq xo'jalik ekinlarini joriy qilish, chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish usullarini ishlab chiqdilar.

Kimyogar olimlar kam uchraydigan materiallarning o'rni bostuvchi va turli chiqindilardan qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarish usullarini oldilar. Chunonchi, akademik O.S.Sodiqov va u boshchilik qilgan guruh taklifi bilan sutli kazein chigit kunjarasidan olinadigan oqsillar bilan, quyish sanoatida ishlatiladigan sulfatli ishqor esa paxta yog'i kunjarasidan olinadigan oqsilli yelim bilan aralashtiriladi, bu esa yiliga 2,5 mln. so'mni tejashi imkonini berdi. Ayni vaqtda, etil spirtini, sirk kislotasini qayta ishlash natijasida ko'mir briketini olishning yangi usullari ishlab chiqildi.

O'zSSR FA ning akademigi S.Yunusov rahbarligida O'zbekiston o'simliklarining alkaloidlik xususiyatini o'rganish yuzasidan katta ishlar olib borildi.

Respublikaning geolog olimlari sanoatni zarur xomashyo bilan ta'minlash uchun foydali qazilmalar qidirib topishni kuchaytirdilar.

Faqat 1943-yilning o'zida O'zbekiston tog'lari va cho'llarida 35 ta geologiya ekspeditsiyasi ish olib bordi.

Respublika botaniklari yovvoyi tarzda o'sadigan kauchukli o'simliklarning boy changalzorlarini topdilar, bedadan va sholini tozalash sanoati chiqindilaridan vitaminlar olish usullarini ishlab chiqdilar, yangi sanoatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradigan o'simlik xomashyosi bo'yicha materiallarni umumlashtirdilar va e'lon qildilar.

Dori-darmon ishlab chiqarish sohasidagi ishlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. SAGUning kimyo fakultetida urush davri meditsinasi uchun zarur bo'lgan narkoz efiri, xorli kalsiy, kafein, streptatsid, sulfidin, niktin kislotasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Toshkent farmatsevtika institutining xodimlari mahalliy xomashyodan 15 ta yangi dori prepatatlarini ishlab chiqarishga topshirdilar.

Metallurgiya va mashinasozlik sohasida katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Olimlar O'zbekistonning metallurgiya bazasini yaratish ustida ish olib bordilar, quyuv ishlab chiqarishini va metallarga ishlov berishning ancha arzon usullarini joriy qildilar. Ular amalga oshirgan ishlanmalar yangi usulda yuqori sifatlilikni ta'minlash imkonini berdi.

T.A.Sarimsoqov, V.I.Romanovskiy, M.Kamolov, N.N. Nazarov va boshqa olimlar rahbarligida amalga oshirilgan tadqiqotlar o'q dorilar, harbiy texnika sifatini oshirish, vatan aviatsiyasini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muhim muammolarni hal qilishga salmoqli hissa qo'shdi. Xususan, o'zbek olimlarining ehtimollik nazariyasi va matematik statistika sohalaridagi ijodiy o'zgarishlari artilleriya otishmalari va bomba tashlash aniqligini, jangovar samolyotlarning yuk ko'tarish imkoniyatini oshirishga, respublikada ishlab chiqarilayotgan harbiy texnikaning sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishga imkon berdi.

O'zbekistonning ijtimoiy-gumanitar fanlari olimlari, tarixchilari, sharqshunolar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, iqtisodchilar, faylasuflar kommunistik mafkura doirasida bo'lsa-da, oldilariga urush davri qo'yg'an vazifalarning mas'uliyatligi va muhimligini tushungan holda ijodiy kuch-g'ayratlarini fashizm mafkurasiga qarshi kurashga, gitlerchilarning bosqinchilik siyosatini fosh qilishga, xalqimizning yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga qaratdilar.

Respublika tarixchilari «O'zbekiston xalqlari tarixi»ning ikki jildlik fundamental asarni yaratishga kirishdilar. Bu asarni yozishda olimlardan Y.G'G'ulomov, T.N. Qori-Niyozov, S.P.Tolstov,

M.F.Voronets, E.Sh.Kajabov, A.Y.Yakubovskiy, V.I.Zohidov, V.A.Shishkin, K.B.Trever va boshqalar qatnashdilar. Shu bilan bir qatorda, arxeolog olimlar Ulug'bek rasadxonasi va Ulug'bekning shahar atrofidagi bog'-saroyi inshootlarida, Afrosiyob va Varaxsha shaharlarida qazish ishlari olib bordilar. Y.G'.G'ulomov va S.P. Tolstov boshchiligida Xorazmda arxeologik-etnografik ekspeditsiya ishlari qayta tiklandi, qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining katta miqdordagi arxeologik yodgorliklari ochildi va o'rganildi.

Sharqshunos olimlar o'zbek xalqining boy madaniy merosini o'rganishga katta e'tibor berdilar. A.Rasulov, V.Zohidjonov, E.Muhammadxo'jaev, A.A.Semenov, D.G.Voronovskiy va boshqalar qadimgi qo'lyozmalarni o'rganish va ilmiy izohlash ishlari bilan samarali shug'ullandilar.

Adabiyotshunos va tilshunoslardan H.T.Zaripov, G'.K.Karimov, H.R.Yoqubov, A.K.Borovkov va boshqalar o'zbek adabiyoti tarixi va hozirgi zamon o'zbek tili grammatikasi sohasida tadqiqotlar olib bordilar, o'zbekcha-ruscha lug'atlar, Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atini tuzish va hokazolar ustida ishladilar.

O'zbek folklorlarini to'plash, tartibga solish va nashr etishga e'tibor kuchaydi. Urush yillarida «Shirin bilan Shakar», «Qunduz bilan Yulduz», «Dalli», «Murodxon», «Malikayi ayyor» va boshqa xalq dostonlari bosib chiqarildi. Ularda insonparvarlik, ozodlik, Vatanga muhabbat hamda dushmanlar va yovuzlarga nisbatan g'azab-nafrat tuyg'ulari tarannum etilgan edi. Adabiyotshunoslari o'zbek mumtoz adabiyotining bir qancha asarlarini (Lutfiy, Bedil, Gulxaniy va boshqalar) nashrga tayyorladilar.

Tayanch tushunchalar

Sovet-german urushi, «Barbarossa rejasi», mudofaa jang'armalari, deportatsiya, Sh.Shomahmudovlar, Fanlar akademiyasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Ikkinchi jahon urushi qaysi hodisadan boshlandi?
2. «Barbarossa» rejasiga qanday g'oya asos bo'lgan edi?
3. Deportatsiya qilingan xalqlar qanday joylashtirildi?
4. O'zbek xalqining yuksak gumanizmiga misollar keltiring.
5. Urush janggohlarida jasorat ko'rsatgan o'zbekistonliklardan kimlarni bilasiz?
6. Urush yillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida qanday ilmiy bo'linmalar bor edi?
7. Qanday sabablarga ko'ra sovet davlati urushning

dastlabki yillarida ustunlikka ega bo'lmadi?

8. Ikkinchi jahon urushida ko'rilgan zarar va urush olib boorish uchun saflangan mablag'lar miqdori qancha edi?

15-mavzu. SOVETLAR IMPERIYASINING TANAZZULGA YUZ TUTISHI VA O'ZBEKISTON (1985- 1991-y.)

REJA

1. Sotsializmni isloh qilishga so'nggi urinish: «Qayta qurish» siyosati.

2. Ijtimoiy-siyosiy hayotning demokratiyalashuvi. Xalq milliy ongining o'sishi. Mustabid tuzum inqirozining muqarrarligi.

Adabiyotlar

6,7,28,33,35.

15.1. Sotsializmni isloh qilishga so'nggi urinish: «Qayta qurish» siyosati

80- yillarning o'rtalariga kelib, SSSRda tanglik holati keskin kuchaydi, u mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Mustabid tuzum sharoitida davlat mulki monopoliyasi va boshqaruvida ma'muriy-taqsimlash tizimi hukmronligi tobora kuchayib bordi, natijada ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, yalpi mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi shiddat bilan pasayib ketdi, ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalaridan, mehnat samaralari va shu kabilardan beqonafalashuvi yanada ortib bordi.

Xalq xo'jaligini tanazzulga olib kelgan chuqur izdan chiqish jarayonlari, xalq ijtimoiy manfaatlarining nazar-pisand qilinmasligi kabi boshqa omillar bilan birgalikda, KPSSning ulkan, lekin kutilayotgan natijalarni bermayotgan iqtisodiy siyosati butun ijtimoiy-siyosiy tizimning oqsashini oldindan belgilab berdi. Chunki bu vaqtga kelib, xalqning bunyodkorlik g'ayrati partiya-davlat tuzilmalarining siyosiy hukmronligi bilan butunlay siqib qo'yilgan edi.

Sarf-harajatlarga to'lib-toshgan sovet iqtisodiyotining jiddiy nuqsonlari, boshqaruv tizimining o'ta markazlashganligi va taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotganligi markaziy siyosiy rahbariyatni bu yo'nalishda muayyan islohotlar o'tkazishga undadi.

80-yillarning o'rtalarida asosiy iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha respublika ittifoqda oxirgi o'rinlardan birini egallari edi. Aholi jon boshiga milliy daromad hosil qilish O'zbekistonda o'rtacha ittifoq darajasiga qaraganda ikki baravar kam edi. O'zbekiston aholisining mamlakatdagi boshqa mintaqalarga nisbatan moddiy va ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlanishi darajasidagi farq jiddiy ravishda ortib kelgan edi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning yangi mustamlakachilik rejasiga ko'ra respublika iqtisodiyoti uchun bir tomonlama, faqat «xomashyo» yo'nalishida bo'lish oldindan belgilab qo'yilgan edi. Natijada respublikada sanoatni xomashyoga birlamchi ishlov berish bilan bog'liq tarmoqlari ko'proq rivoj topdi. Sanoatdagi tayyor mahsulotning salmog'i umumiy mahsulotlarning faqat 25% ni, xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish esa o'rtacha ittifoq darajasining faqat 40% ni tashkil qilardi. Iqtisodiyot tizimidagi va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvidagi xatoliklar O'zbekiston resurs imkoniyatlari va ekologik illatlarining ortishiga, moddiy va moliyaviy ahvoning yomonlashuviga olib keldi. O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishining ko'payishi, asosan paxta tozalash, yoqilg'i sanoati, resurs sohalari, qora va rangli metallurgiya tarmoqlari hisobiga ta'min etildi. Qora va rangli metallurgiya tarmoqlarining ulushi 60-65 % ga yetdi. Holbuki, mashinasozlik va metallga ishlov berish salmog'i ko'pi bilan 2 band yuqori ko'tarilib 16 % dan ko'proqni tashkil etgan edi.

O'zbekistondagi iqtisodiy va ekologik keskinlikni yumshatish, milliy o'zlikni anglash, Markaz tomonidan o'tkazilayotgan tazyiqni bo'shashtirishga bo'lgan urinishlarni, respublikaga eng maqbul va xos bo'lgan yo'llarni belgilashga intilishning har qanday ko'rinishi «mahalliychilik», «millatchilik» deb qaraldi va qattiqqo'llik bilan barham toptirildi (hatto markazlashgan holda ajratiladigan mablag'lar va resurslarni cheklashgacha borib yetildi).

Tub islohotlar o'tkazishda sustkashlik qilish, ichki vaziyatning keskinlashuviga, yomon oqibatlariga olib kelish xavfini tug'dirardi. Bosh berib murakkab vaziyatdan chiqish yo'lini qiyinchilik bilan izlash boshlandi. Nihoyat, 1985-yilning bahorida KPSS MQ ning aprel plenumi sovet jamiyatini tubdan qayta qurish, uning barcha sohalarini chuqur isloh qilish yo'llarini e'lon qildi. «Qayta qurish» sovet jamiyatining obyektiv ehtiyoji, unda yashovchi millatlar va xalqlar manfaatlarini taqozo etgan hayotiy zarurat sifatida ta'riflandi.

Avvalgi tugallanmagan islohotlardan farqli o'laroq, 1985-yildagi jamiyatni har tomonlama yangilashga o'tish zarurligi e'tirof qilindi. Qayta qurushning tarkibiy qismlari sifatida jamiyat hayotini

demokratiyashtirish va tub iqtisodiy islohotlar o'tkazishdir, deb e'lon qilindi.

O'sha yillardagi partiya-hukumat hujjatlarida jamiyatni «turg'unlik» illatlaridan tozalashga, uni «inqilobiy yangilash»ga, oddiy inson ehtiyojlariga diqqat-e'tiborni kuchaytirishga chaqiriqlar yangi kuch bilan yangradi.

Rahbarlikning eskirib qolgan shakllari va usullari, to'g'anoqlik va tenglik holatlarining mavjudligi, jamiyatda oshkora tanqidning, fikrlar xilma-xilligining, hokimiyat tuzilmalarida va iqtisodiyotni boshqarishda demokratiyaning, markaz bilan milliy o'lkalar manfaatlarida oqilona nisbatning yo'qligi, inson omilining yetarli darajada hisobga olinmasligi qoralandi.

Binobarin, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar sohasida fikr erkinligiga, rahbar lavozimlarga saylashning muqobilligiga yo'l qo'yish, mahalliy sovet organlari vakolatlari va mas'uliyatining kengaytirilishi nazarda tutildi. Xususan, mahalliy sovet organlari sovet korxonalarining o'zlariga bo'syunishidan tashqari, ular faoliyatini nazorat qilishlari, joylarda keng iste'mol qilinadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlarini qidirib topishlari, ularning sotilishini nazorat qilishlari lozim edi. Davlat tizimini isloh qilishda ustuvorlik milliy respublikalarga ko'proq mustaqillik berilishiga qaratilmog'i kerak edi. Ittifoqdagi mavjud yakkapartiyaviylikning siyosiy va mafkuraviy hukmronligini hech bo'lmaganda cheklash, ekvivalentli bo'lmagan iqtisodiy ayirboshlashga, qishloq xo'jalik va mineral xomashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashtirishga, respublikalar, ayniqsa, O'zbekiston uchun zararli bo'lgan ana shunday iqtisodiy yo'nalishga barham berilishi zarur edi.

Biroq qayta qurish «konsepsiyasi» avvalboshdanoq noilmiy bo'lib, u mag'lubiyatga mahkum edi. Qayta qurush borasidagi dastlabki tajribalarning ko'rsatishicha, mamlakat siyosiy rahbariyati birinchi kundanoq qayta qurish mafkurasini anglab yetishda nihoyatda soddalashgan nuqtayi nazar bilan yondashdi. Qayta qurish «konsepsiyasi» «qardosh» ittifoqdosh respublikalarning hayotiy manfaatlari va muammolarini chuqur ilmiy tahlil qilishga, ularni bilishga asoslanmagan edi.

«Qayta qurush» tajribasi faqat partiyaning ijtimoiy-siyosiy rahbarligini mustahkamlashni, jamiyatni sotsialistik asosda tashkil etishni yanada takomillashtirishni, uning faqat qismangina, shunchaki, «pardozi berish» tarzida yangilanishini nazarda tutgan edi.

1980-yillarning ikkinchi yarmi mobaynida ro'y bergan «Qayta

qurish» islohotlari turkumi sub'yektiv tarzda, faqat ichki his-hayajonga asoslanib, ilmiy ravishda shunchaki sinab ko'rishlar va xato usullar bilan tashqi tomondan ta'sirchan bo'lishini umid qilib, aniq ilmiy jihatdan savodli ishlab chiqilgan, siyosiy jihatdan asoslab berilgan dastursiz amalga oshirildi.

15.2. Ijtimoiy-siyosiy hayotning demokratiyalashuvi. Xalq milliy ongining o'sishi. Mustabid tuzum inqirozining muqarrarligi

«Gorbachevcha» qayta qurish natijasida mamlakatda yalpi kommunistik senzura zaiflashdi va deyarli yo'q holiga keltirildi. Uzoq vaqtdan buyon kutib kelingan hurfiylik va matbuot erkinligi pullasi boshlandi. «Qayta qurish» ning eng birinchi natijasi «oshkoralik» bo'ldi. Oshkoralik natijasida sovet jamiyatining ahvolini tahlil qilish mamlakat oliy darajasidagi siyosiy rahbariyatning yo'l qo'yilgan hatolariga birinchi bor ochiqchasiga baho berishga qo'l uruldi. Lekin shu bilan birga, «Oshkoralik» O'zbekiston uchun o'zining bir qator salbiy tomonlari bilan ham namoyon bo'ldi.

1983-yilda Markaz tomonidan ataylab o'ylab topilgan uydirma asosida O'zbekistonda paxtani terish va qayta ishlashdagi «o'g'irlik», «qo'shib yozish», moliyaviy buzilishlarni tergov qilish bilan markaziy prokuratura va ichki ishlar organlari maxsus shug'ullandi. Buning natijasida respublikadagi jamoa xo'jaliklari raislari va sovxoz direktorlarining 60% dan ko'prog'i, qishloq xo'jaligi yetakchi mutaxassislarining qariyb 45%, har uch paxtachilik brigadasi boshlig'idan biri vazifasidan olib tashlandi (jami 40 mingga yaqin fuqarolar tergov qilingan edi). Ularning ko'pchiligi tergov izolyatorlarida bo'lishdi, turmular va lagerlarga yuborildi. Agrosanoat xodimlariga nisbatan qilingan bu qatag'onlar O'zbekiston qishloq xo'jaligida kadrlar salohiyatini sezilarli ravishda zaiflashtirdi.

Boshqa respublikalarda ham katta «jinoyatlar» ochib tashlandi. Biroq «paxta ishi» eng shov-shuvli ish sifatida butun ittifoqqa namoyon qilindi. Bir qator Rossiya gazetalarining zo'r berishi tufayli «paxta ishi» «o'zbeklar ishi»ga aylantirildi. «Paxta ishi»ni umumiy qoralashning salbiy ruhi butun o'zbek xalqiga nisbatan tatbiq etildi, bu o'z-o'zidan adolatsizlik edi. O'zbekistonga va o'zbek xalqiga nisbatan qilingan bu adolatsizlik hali ommasini sovetlar rejimiga nisbatan nafratini oshirdi, munosabatini o'zgartirdi.

Respublikada tobora kuchayib borayotgan demokratik jarayonlar mustabid tuzum davrida yillar davomida to'plam qolgan salbiy iktlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ldi. 1989-yil may-iyun

oylarida Farg'ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar ro'y berdiki, u respublika va butun mamlakatda g'oyat darajada katta shov-shuvga sabab bo'ldi hamda respublikada siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga olib keldi. Bu mojaro zaminida mustabid sovet tuzumi yillarida to'planib, pishib yetilgan, ertami-kechmi «portlashi» kutilgan milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muammolar yotganidir.

Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan deportatsiya qilingan bir qator xalqlar qatorida mesxeti turklari ham bo'lib, ular, asosan, aholi zich yashaydigan Farg'ona viloyatiga, bir qismi Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan bo'lib, buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo'shimcha muammolarni yuzaga keltirgan edi. Bu muammolarga Sovet davlati o'z vaqtida e'tibor bermadi. Aksincha, «rivojlangan sotsializm» davriga kelib, SSSR da «Milliy masala butunlay hal qilindi» deb «tantana» qilindi. Biroq 1989-yil 24-mayda Quvasoy shahrida yoshlar o'rtasida bo'lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o'rtasida) to'qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg'ona vodiysida ommaviy tus oldi. Respublikaning siyosiy rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni o'z vaqtida to'g'ri baholay olmadi. Natijada oddiy mojaro Farg'ona, Marg'ilon, Toshloq, Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkentda aholining, ayniqsa, yoshlarning ommaviy chiqishlariga, millatlararo to'qnashuvlarga sabab bo'ldi.

Mudhish voqealardan keyin berilgan rasmiy bayonotlarga ko'ra, respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikdan ommaviy tartibsizliklarni, millatlar o'rtasida nifoq va to'qnashuvlarni keltirib chiqarishga uringan ekstremistik kuchlar turgan. Lekin, shuni alohida ta'kidlash kerakki, urushning azob-uqubatlariga qaramasdan, majburan ko'chirib keltirilgan, och-yalang'och, holdan toygan, xo'rlangan xalqqa nisbatan o'zining insonparvarlik hislatini ko'rsatgan o'zbek xalqi, o'zining tabiiy mehmondo'stligini necha bor butun jahonga namoyish qilgan xalq uchun hech qanday ijtimoiy muhtojliklar millatlararo janjal tug'dirishga bahona bo'lib xizmat qila olmas edi. Bu ataylab uyushtirilgan siyosiy ig'vogarlik edi.

Respublikada keng munozaralarga sabab bo'lgan muammolardan biri o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi bo'ldi. Bu muammo yuzasidan demokratik kuchlar tomonidan boshlangan harakat qudratli tus oldi, unda zivofilar, talabalar va yoshlar faol ishtirok etdilar. Demokratik kuchlar qo'rgan masalani I.A.Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyat o'z

vaqtida anglab yetdi va uni inaf qilishga kirishdi. Natijada «O'zbekiston SSRning davlat tili to'g'risida»gi qonuni 1989-yil oktabrda qabul qilindi. O'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi.

Davlat tili haqidagi qonun qabul qilingandan so'ng milliy o'zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo'lida respublikada yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim siyosiy qadam qo'yildi. 12-chaqiriq Oliy Kengashning I sessiyasi SSSR doirasida 1-bo'lgan siyosiy hujjatni – O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi ta'sis etish to'g'risidagi qarorni qabul qildi. 1990-yil 24-martda Oliy Kengash deputatlari respublika Kompartiyasi MQning birinchi kotibi I.A.Karimovni O'zbekiston SSRning birinchi Prezidenti qilib sayladilar. Shu tariqa O'zbekiston SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib o'zining milliy huquqiy va demokratik davlatiga mustahkam zamin yaratdi.

O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvini joriy qilinishini bir qancha omillar, eng avvalo, SSSR da 1990-yil boshlariga kelib, mustahid davlat siyosiy inqirozining kuchayganligi taqozo etdi. Shuningdek, bu inqiroz iqtisodiyotda va ijtimoiy-siyosiy sohada qilingan va markazning ittifoqchi respublikalar bilan aloqalarini yangilashga qaratilgan islohotlarning barbod bo'lishi bilan ham namoyon bo'ldi. 1990-yil martda Litvaning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, Latviya bilan Estoniyaning SSSR tarkibidan chiqishiga faollik bilan ochiqchasiga tayyorgarlik ko'rayotgani unitar sovet davlatining haqiqiy yemrilishi boshlanganidan dalolat edi.

Tayanch tushunchalar

Qayta qurish, «oshkoralik», «paxta ishi, «millatchilik», prezidentlik boshqaruvi.

16-mavzu. O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI VA UNING JAHONSHUMUL TARIXIY AHAMIYATI

REJA

- 1.O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi.
- 2.Xalqning asrlar davomidagi orzusi-davlat mustaqilligi ro'yobga chiqdi.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 4.I.A.Karimov O'zbekiston mustaqilligining asoschisi va yo'l boshchisi.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi davlat mustaqilligi va mustaqil suveren O'zbekiston Respublikasi davlati tashkil topganligini e'lon qildi. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» Oliy Kengash qarori va «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi hamda 1-sentabr Mustaqillik kuni, milliy bayram deb belgilandi. Bu asosiy hujjatlar O'zbekiston oldida turgan maqsad va vazifalarini ko'rsatib berdi.

16.1. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lida

1989-yil oktabrda davlat til to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi mustaqillik yo'lida muhim bosqich bo'ldi. Qonunni amalga oshirish maqsadida o'zbek tilini tekin o'qitish maxsus kurslari tashkil etildi, o'zbek tilidagi adabiyotlar, darsliklar nashr etilishiga va o'quv yurtlarida o'qitilishiga e'tibor kuchaydi. 1990-yili bahorda markazning qattiq qarshiligiga qaramasdan, Ittifoq Respublikalari orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda Prezidentlik lavozimi ta'sis etildi. Bu o'zbek davlatchiligi va mustaqilligining prinsipial yangi bosqichi bo'ldi. O'zbekiston rahbariyati ba'zi yuqori rahbarlik lavozimlariga tavsiya qilingan shaxslarni Moskvada suhbatdan o'tkazish amaliyotini tugatdi.

L.A. Karimov 1990-yil 24-martda O'zbekiston Oliy Kengashida O'zbekistonning birinchi Prezidenti qilib saylandi. 1990-yil 20-iyunda Mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyaning qabul qilinishi xalqning davlat mustaqilligiga intilishini huquqiy, iqtisodiy va siyosiy mazmun bilan to'ldirdi va g'oyat katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston jamoat tashkilotlari va harakatlari orasida mustaqillik g'oyasi keng qo'llab-quvvatlandi.

16.2. Xalqning asrlar davomidagi orzusi - davlat mustaqilligi ro'yobga chiqdi

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi davlat mustaqilligi va mustaqil suveren O'zbekiston Respublikasi davlati tashkil topganligini e'lon qildi. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» Oliy Kengash qarori va «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi hamda 1-sentabr Mustaqillik kuni, milliy bayram deb belgilandi. Bu asosiy hujjatlar O'zbekiston oldida turgan maqsad va vazifalarini ko'rsatib berdi.

Mustaqillikning e'lon qilinishi Respublika tarixida muhim voqea bo'lib, u nafaqat butun davlat uchun, balki O'zbekistonda yashaydigan har bir aholi uchun katta ahamiyat kasb etdi.

ko'pincha, mustaqillikka qon to'kishlar yo'li bilan erishiladi. Lekin O'zbekiston bunday yo'ldan bormadi. XXI asr arafasida jahon xaritasida yana bir mustaqil, teng huquqli davlat — O'zbekiston paydo bo'ldi. Jahon hamjamiyati uni tezda tan ola boshladi.

Mustaqil demokratik Respublikaning tashkil topishi jahonshumul tarixiy ahmiyatga ega bo'ldi. Xalqning asrlar davomidagi mustaqillik uchun kurashi ro'yoga chiqib, mamlakatda huquqiy, demokratik jamiyat shakllanishiga shart-sharoit yaratildi. O'zbekistonning boy imkoniyatlaridan xalq turmushini yaxshilash uchun foydalanish mumkin bo'ldi.

Mustaqil O'zbekiston bozor munosabalariga o'tishda har xil salbiy holatlar tug'diradigan «falaj» yo'li bilan emas, asta-sekinlik bilan o'tish yo'lini tanladi. Istiqloлга erishgan xalqimiz jahon minbarida o'z manfaatlarini haqida bor ovoz bilan gapirish, xalqaro tashkilotlar ishida faol qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Eng asosiy natijalardan yana biri xalqning tarixiy me'rosini o'rganish, ma'naviy qadriyatlarini tiklash imkoni tug'ildi.

O'zbekistonda mustaqillik sharoitida siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar amalga oshirila boshlandi, birinchi navbatda mustaqil davlatning huquqiy asoslari yaratildi.

1991-yil 18-noyabrda Respublika Oliy Kengashi VIII sessiyasi 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi prezidentligiga saylov va Mustaqillik g'oyasini butun xalqlarning muhokamasidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Saylov komissiyalari tashkil qilinib, ularga O'zbekiston Respublikasi prezidentligiga saylovlar va referendum to'g'risidagi qonunning bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston fuqarolariga o'z hohishlarini erkin bildirish, prezidentlikka nomzodlar uchun teng shart-sharoitlar yaratish vazifalari yuklandi. 29-dekabr kuni muqobilik asosida o'tkazilgan saylovda Islom Abdug'aniyevich Karimov nomzodiga saylov qatnashchilarining 86 foizidan ko'prog'i o'z ovozi berdi.

Markaziy Saylov komissiyasi okrug komissiyalari bayonnomalarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi prezidentligiga saylov haqidagi qonunning 35-moddasiga asosan, I.A. Karimov birinchi O'zbekiston Prezidenti etib saylanganligi to'g'risida qaror qabul qildi. I.A. Karimov 1991-yil 31-dekabrda o'z vazifasini bajarishga kirishdi.

Prezidentlikka saylovda birinchi bu vaqtda «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'llab-quvvatlaysizmi?» savohi bo'yicha referendum ham o'tkazildi. Ovoz berishga ro'yatga olinganlarning 94,1 foizini qatnashganlarning 98,2 foizi mustaqillikni qo'llab-quvvatlashga ovoz berdi.

Mamlakatimizda olib borilavotgan keng miqyosdagi islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Prezident I. Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o'tkazishga qaror qildi. 1995-yil 26-martda o'tkazilgan ushbu referendumda O'zbekiston xalqi mamlakatimiz Prezidenti I. Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirishni yoqlab ovoz berdi.

Respublikamizda 2000-yil 9-yanvar kuni bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida ro'yxatga olingan 12,7 million saylovchidan 12,1 millioni (saylovchilarning 95,1%) ishtirok etdi. Saylovchilarning 91,9 foizi Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Islom Karimov uchun ovoz berdilar. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolovga 4,2 foiz saylovchi ovoz berdi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonunning 35-moddasiga muvofiq Islom Abdug'aniyevich Karimov yana besh yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylandi. Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasida 2002-yil 27-yanvar kuni o'tkazilgan referendum (2002-yil 27-yanvar kuni "Siz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddatini 5 yildan 7 yil qilib o'zgartirishga rozimisiz?" mavzusida umumxalq referendumini o'tkazildi) natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolati muddatini 2007-yilgacha cho'zishga qaror qilindi.

Mustaqil O'zbekiston bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish uchun boy tabiiy resurslar va keng imkoniyatlarga egadir. O'zbekistonda foydali qazilma boyliklarning 2700 dan ortiqroq o'rni aniqlangan. Har yili Respublika hududidan 5 mlrd. dollardan ortiqroq qimmatdagi foydali yer osti boyliklari qazib olinmoqda.

Respublika oltin zahirasi bo'yicha jahonda to'rtinchi, qazib olish bo'yicha jahonda 7-8- o'ringadir. Rangli metallar, fosforitlar, tabiiy gaz, neft, ko'mir va boshqalarining zahira manbalari ham aniqlangan.

O'zbekiston yeri juda ham hosildor bo'lib, bu yerda paxta, don, sabzavot va mevalardan yuqori nosil olish mumkin. Respublika energetikasi bugun 11 mln. kilovatt-quvvatdan ko'proq kuchga ega bo'lgan, 37 issiqlik va gidroelektrostansiyani o'z ichiga oladi. Transport yo'llari bo'yicha katta imkoniyatga ega. Respublikada sanoatning 100 dan ortiq sohasiga oid 2 ming atrofida zavod va fabrikalar ishlab turibdi. Mustaqil O'zbekiston moddiy boyliklar

bilan birga katta ilmiy va ma'naviy imkoniyatlarga ham ega.

Har bir mustaqillikka erishgan davlat o'z ramzlariga ega bo'lishi kerak. 1991-yil 18-noyabrda Respublika Oliy Kengashining VIII sessiyasida O'zbekiston davlat bayrog'i tasdiqlandi. Uning belgilari mamlakatimiz hududidagi qadimda mavjud bo'lgan yirik saltanatlarining tug'laridagi an'analarni davom ettiradi hamda xalqning milliy va madaniy o'ziga xostligini, respublika tabiiy sharoitini aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yildagi X sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risidagi qonun, 1992-yil 10-dekabrda XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining madhiyasi to'g'risidagi qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlarining qabul qilinishi mamlakatimiz mustaqilliligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

16.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, buyuk kelajakning huquqiy kafolatidir. Yangi Konstitutsiyani tayyorlash g'oyasi 1990-yilning mart oyida ilgari surila boshlandi. Ko'p o'tmay, iyun oyida Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida I.A. Karimov boshchiligidagi Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Komissiya mustaqillikning huquqiy asoslarini ishlab chiqish jarayonida xalqaro huquq qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, Butun jahon inson huquqlari Deklaratsiyasiga tayandi. Shu bilan birga, boy tariximizdagi davlat boshqaruvi va adolatlil qonunshunoslik an'analari ham chuqur o'rganildi.

Loyihaning dastlabki nusxasi 199-yil noyabrda tayyorlanib, har tomonlama ko'rib chiqildi va 1992-yilning 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

Tuzatishlar va aniqlashlar loyihaning 60 dan ortiq moddasiga kiritildi. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida Mustaqillik Konstitutsiyasi qabul qilindi. Uning mohiyati asosiy qoidalar bo'limida bayon etilgan. Bu qoidalar: Davlat suvereniteti; xalq hokimiyati; fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish; shaxs va davlat birligini ta'minlash; qonuniylik; hokimiyatni ajratish; mahalliy o'z-o'zini boshqarish; sud tizimi va odil sudlovni tashkil qilish va boshqalardan iborat. Konstitutsiya Preambula, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi insonparvar huquqiy davlat shakllantirishning strategik dasturidir. Uning qabul qilinishi g'oyat katta siyosiy, huquqiy va xalqaro

ahamiyatga ega bo'ldi. Mustaqillik Konstitutsiyasi barcha qonunlarning va boshqa davlat va jamoat tashkilotlari huquqiy hujjatlarining asosi bo'lib xizmat qiladi.

16.4. I.A. Karimov « O'zbekiston mustaqilligini asoschisi va yo'l boshchisi

Jahon sivilizatsiyasida alohida o'rin tutadigan, ko'p asrlik boy tarixga ega O'zbekiston diyorida butun dunyoga nomi ketgan olimlar, davlat arboblari voyaga yetgan. Buyuk zotlarni buyuk xalq, buyuk el yaratadi.

Xalqimizning ko'p yillar davomida olib borgan kurashi natijasida qaror topgan mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish stixiyali (ko'r-ko'rona) ravishda emas, balki ilm-fan yutuqlariga, jahon taraqqiyotining, xususan, buyuk zaminimizda yaratilgan tarixiy tajribalarga asoslangan g'oyalarga amal qilib ro'yobga chiqadi.

O'zbekiston mustaqillik tomon yo'l tutar ekan, birinchi kunlardan boshlab, uning tepasida Islom Abdug'aniyevich Karimov turibdi. Asrlarga teng shu qisqa vaqtda erishilgan yutuqlar: mamlakatda o'rnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, diniy qadriyatlarimizning tiklanishi jamiyatda o'rnatilgan osoyishtalikni, mustaqil O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatda tutgan o'rnining ortib borishini butun xalqimiz, jahonning yirik davlat arboblari Islom Karimov nomi bilan bog'laydi.

Dunyo mamlakatlarida yangi jamiyat qurishning «o'zbek modeli»ga (o'zbek yo'li) uning asoschisi va yo'l boshchisi I. A. Karimovning siyosiy chizmasiga qiziqish ortib bormoqda. 1996-yili Venada (Avstriya) «XX asr xalqlar dohiylari» nomida bosib chiqarilgan kitoblarning bir jildi O'zbekiston Prezidentiga bag'ishlangan. Kitob mualliflaridan biri, Garvard universitetining professori Donald S. Karlayl «...Islom Karimov ... O'rta Osiyo mintaqasidagi eng buyuk davlat arbobidir», deb tan beradi.

SSSRda, chunonchi, O'zbekistonda sotsialistik tizim, kommunistik mafkura har tomonlama inqirozga uchrab, ziddiyatlar bilan to'lib-toshib turgan bir paytda,

I. A. Karimovning, avvalo O'zbekiston Kompartiyasi a'zolariga (iyun, 1989-yil), keyin Prezidentlik lavozimiga (mart, 1990-y.) tayinlanishi bejiz emas edi. Vaqti-soati yetgan, lekin jon saqlash uchun o'zini har tomonga urayotgan, hech narsadan qaytmaydigan, istibdod tizimidan jafokash xalqini, ezilgan el-yurtini

mustaqillikka chiqarish uchun sovet tuzumining ikir-chikirigacha tushunib yetgan katta jur'at egasi, dovyurak Islom Karimovdek rahbar kerak edi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov

Davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti. 1938-yilda Samarqandda tug'ilgan. O'ra Osiyo politexnika instituti va Toshkent xalq xo'jaligi institutini tugatgan. 1960-yildan «Tashselmasb» zavodida avval master yordamchisi, so'ng master, texnolog, 1961-yildan V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor, 1966-yildan O'zbekiston Davlat plan komitetida fan va yangi texnikani joriy etish bo'limining bosh mutaxassisligidan respublika Davlat plan komiteti raisining birinchi o'rinbosarigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1983-yildan O'zbekiston moliya vaziri, 1986-yildan O'zbekiston Ministrlar Soveti raisining o'rinbosari-respublika Davlat plan komitetining raisi. 1986 - yil dekabridan O'zbekiston Kompartiyasi Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi. 1989-yil iyunidan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi. 1990-yil 24- martdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib saylandi. I.A.Karimov 1991-yil 29-dekabrda birinchi bor muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida O'zbekiston respublikasi Prezidenti etib saylandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga muvofiq u ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasi Raisi hamdir. I.A.Karimov O'zbekistonda davlat tuzumini mustahkamlashda Respublikaning ichki va tashqi siyosatida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda jonbozlik ko'rsatmoqda.

1995-yil 26-martda umumxalq ovozi (referendum) bilan I.A.Karimovning Prezidentlik vakolati 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirildi. 2000-yil 9-yanvar kuni O'zbekiston respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Muqobillik va demokratik tamoyillar asosida o'tkazilgan ushbu saylovda saylovchilarning 91,90 foizi Islom Karimov nomzodini qo'llab-quvvatladi va Markaziy saylov komissiyasining qaroriga muvofiq Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi. I.A.Karimovning eng muhim asarlari ingliz, fransuz, ispan, nemis, hind, xitoy, arab kabi o'nab turli xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellarda bir necha bor nashr qilingan.

I.A.Karimov O'zbekiston Qahramoni (1994-y.), «Mustaqillik» (1996-y.), «Amir Temur» (1998-y.) ordenlari sohibi. I.A.Karimov xalqaro munosabatlarni rivojlantirishdagi salmoqli hissasi uchun bir qator xorijiy davlatlarning va nufuzli xalqaro tashkilotlarning orden va medallari bilan mukofotlangan. U O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (1994-y.), nufuzli xalqaro akademiyalarning faxriy a'zosi.

Islom Karimovning har bir asari, ma'ruza va maqolalari bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning nazariy asoslarini, amaliy ishlarining kundalik dasturini tashkil qiladi.

G'arb va Sharqning rivojlangan mamlakatlari ko'p yillik taraqqiyot yo'llarini, o'zbek davlatchiligini ming yillar davomidagi tarixiy tajribasini o'rgangan holda yaratilgan I.A. Karimov asarlarida mustaqil O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy taraqqiyotining muhim yo'nalishlari, butun dunyoda tan olingan bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari to'g'risidagi ta'limot yaratildi. Istiqlolning boshlang'ich bosqichida yorug'likka chiqqan «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» va boshqa bir qancha asarlarida bayon etilgan O'zbekiston mustaqilligining birinchi navbatdagi kechiktirilmas ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy vazifalari keyinchalik «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari», «O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida» va boshqa asarlarida o'z rivojini topdi.

O'zbekistonning yaqin o'tmishda va XX asrning so'nggi o'n yilida o'tgan yo'llari, XXI asrda Respublika istiqlolini mustahkamlashning strategik vazifalarining asosiy yo'nalishlarini to'plagan kitoblari xorijiy mamlakatlarda chop etilgan. I.A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarlarida bayon etib berildi.

Islom Karimov donoligining yana bir ko'rinishi bozor munosabatlariga o'tish, demokratik jamiyat qurish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy ishlarining yuksak ahamiyatini taqqoslab ko'rsatganligidadir.

Parchalangan Ittifoq o'rnida vujudga keigan mustaqil davlatlarning hech birida ilgari surilmagan ma'naviy-ma'rifiy ishlarining vazifalari Prezidentning «Jamiyatimiz mafkurasi, xalqni xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin», «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman» asarlarida, «Istiqlool va ma'naviyat» (hujjatlar to'plami) kitobi va boshqa ko'plab

maqolalarida bayon etilgan bo'lib, bu asarlarida ma'naviyat — kelajagi buyuk O'zbekistonning mustahkam poydevori, milliy mustaqillik mafkurasi, 130 dan ortiq millatlar va elatlardan tashkil topgan O'zbekiston xalqini «O'zbekiston — Vatanim manim» shiori ostida yagona, buyuk maqsad uchun birlashtiradigan bayroq sifatida tutgan o'рни ko'rsatib beriladi.

Ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy ishlarning yangi jamiyat qurishning zaruriy sharti sifatida qo'yilishi o'ziga xos o'zbek modelining ustivor tamoyillaridan biridir.

I.A.Karimov yangi jamiyat qurishda milliy, diniy qadriyatlarimizni tiklash ishlariga, shu maqsadda Vatanimiz tarixini xolisona, yangicha yaratishga e'tiborni kuchaytirmoqda. Prezident istiqloqlning dastlabki kunlarida (1992-yil, yanvar): «Tarixga, me'rosimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgartirilishi lozim. Yangi darsliklardan tortib, oddiy kitoblarga hammasiga haqiqat yozilishi shart», deb aniq vazifa qo'ydi.

Vatan tarixini o'rganish, uning yangi avlodni tarbiyalashdagi tutgan o'рни, ahamiyati masalalari I.A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» (1998-yil, avgust) nomli asarida keng bayon qilib berildi. Yurtboshimiz haqqoniy tarix millatning o'zligini anglashning zaruriy sharti, ma'naviy va mafkuraviy ishlarimizning haqiqiy manbai ekanligini qayta-qayta taqqoslab ko'rsatadi. I.A. Karimov har bir «siyosatchiman, arbobman degan odam, agar vijdoni bo'lsa, o'z xalqining tarixiy o'tmishini bilishi shart», deb vazifani keskin qo'yadi.

O'tmish davrining murakkab vazifalari, qarama-qarshiliklari davlat rahbaridan boshqaruvning har xil usullarini ishlatishini, kerak bo'lsa, qattiqqo'llikni talab qiladi. Prezident I.A. Karimov shunday vaziyatda xalqqa ma'qul usullarni qo'llab ishlamoqda.

1992-yil Moskvaning «Komsomolskaya pravda» gazetasi muxbiri: «Muxoliflaringiz sizni totalitarizm da ayblab, tanqid qilmoqda», desa, unga javoban I.A. Karimov: «Ha, men buni yaxshi bilaman. Muxoliflarim meni diktator qilib ko'rsatishni juda xohlaydilar. Tan olaman; ehtimol mening harakatlarimda avtoritarizm nishonalari bordin. Ammo men buni faqat bir narsa bilan izohlayman: tarixning muayyan davrlarida, haqiqiy davlatchilik qaror topayotgan paytda, ayniqsa, bir tizimdan ikkinchisiga o'tish davrida har holda kuchli hokimiyat zarur. Qon to'kilishiga va qarama-qarshilikka yo'l qo'ymaslik, mintaqada millatlararo va fuqarolarning totuvligi, tinchligi va barqarorligini saqlash uchun shunday bo'lishi zarur. Bu yo'lda men jonimni fido qilishga tayyorman», deb javob bergan edi.

O'zbekiston xalqining istiqbol yillarida erishgan eng katta yutuq i-mamlakatda o'rnatilgan tinchlik, osoyishtalik, tartib-intizomdir. Respublika aholisining mutlaq aksariyati (97,5 foizi) bunday sharoitga bevosita I.A. Karimovning yetakchiligida erishildi, deb hisoblaydi.

Tayanch tushunchalar

Qayta qurish siyosati va uning natijalari. Mustaqillik deklaratsiyasi. Prezident saylovlari. O'zbekiston Konstitutsiyasi. Davlat ramzlari, «O'zbek modeli».

Takrorlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
2. Mustaqil O'zbekiston bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish uchun qanday imkoniyatlarga ega?
3. Mustaqil O'zbekiston uchun Konstitutsiya qabul qilish jarayoni qanday kechdi?
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qanday asosiy qoidalarni o'z ichiga jamlagan?
5. Prezident I.A. Karimov asarlarida qanday ta'limot ilgari suriladi?

17-mavzu. O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI

RFIA

1. Totalitar tuzumdan huquqiy davlatga o'tish
2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi
3. Ko'p partiyaviylik tizimi. Milliy siyosat

Adabiyotlar

4.6.16.17.23.25.28.48.52.

17.1. Totalitar tuzumdan huquqiy davlatga o'tish

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab huquqiy davlatchilik asoslarini yaratish muhim vazifalardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yildan 2001-yilgacha bir palatali parlament sifatida faoliyat yuritib keldi. Oliy Milliy davlatchilik rivojlanishining minglab yillik un'analari chorizm mustamlakasi davrida batamom inkor etilgan edi. Mustaqil O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov tarixiy un'analardan dunyo tajribalariga, o'lkaning milliy tarixiy rivojlanishiga hamda o'lkaning o'ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita vazifa o'raldi: Oliy Majlisni Eski ma'muriy tuzumni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish; parlamentni tuzish masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalari hal qilindi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat qurilishining kafolati O'zbekiston Konstitutsiyasidir. Davlat hokimiyati tashkil etishning muhim demokratik tamoyillari Konstitutsiyada qayd qilingan bo'lib, unda hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlaridan iborat deb ko'rsatilgan. Bu organlar faoliyati erkin, bir-biridan mustaqil bo'lib, ayni vaqtda, bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida demokratik tamoyillarga asoslangan yangi parlamentni shakllantirishning huquqiy asoslari belgilab berildi. Uning 76-moddasida: «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatini amalga oshiradi», - deb belgilab qo'yilgan. 1994-yil dekabr oyida birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga deputatlar saylandi. Mutlaqo yangi parlament-Oliy Majlis vujudga keldi. Respublika parlamenti-Oliy Majlis 1995-1999-yillarda 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 ta qonun 452 ta qaror qabul qildi. Hozirgi kunda 1999-yil dekabrda saylangan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yildan 2004-yilgacha bir palatali parlament sifatida faoliyat yuritib keldi. Oliy Majlisga hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga 250 nafar deputat saylanar edi.

2001-yil 6-7-dekabrda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilinib, parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga kelindi. Oliy Majlisning mazkur sessiyasida 2002-yil 27-yanvar kuni kelgusi chaqiriqda ikki palatali parlamentni tuzish masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi. Referendumning ovoz berish byulleteniga «Siz kelgusi

chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?» degan savol kiritilgan edi.

Referendum 2002-yil 27-yanvar kuni demokratik asosda, ochiq va oshkora, keng jamoatchilik, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida bo'lib o'tadi. Referendumda ovoz beruvchilar ro'yxatga kiritilgan 13 266 602 nafar fuqarolarning 12 113 070 nafari yoki 91,58% ishtirok etdi. Ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning 11 344 242 nafari yoki 93,65% «Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?» degan savolga «Ha!» deb ovoz berganlar. Saylovchilar ikki palatali parlament tuzishni qo'llab-quvvatladilar.

2002-yil 27-yanvardagi referendumdan keyin Oliy Majlis tomonidan 2002-2003- yillarda qabul qilingan bir qator konstitutsiyaviy qonunlar parlamentarizmga doir tarkibiy o'zgarishlarning huquqiy asosi hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasining «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonuni (2002-yil aprel).

2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonuni (2002-yil dekabr).

3. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonuni (2002-yil dekabr).

4. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» Qonuni (2003-yil aprel).

Qonunchilik palatasiga saylovlar 2004-yil 26-dekabrda bo'lib o'tdi. Shu kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar va davlat hokimiyati vakillik organlariga ham saylovlar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar va davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylandi. Senat tarkib topganidan keyin bir oy kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan senatning birinchi majlisi chaqirildi. Har ikkala palataning alohida-alohida chaqirilgan birinchi majlislarida

Oliy Majlisning qonunchilik palatasi va Senat tashkiliy jihatdan to'liq shakillantirildi va faoliyat yurita boshladi. Vaqt nuqtai-nazaridan bu 2005-yil fevral oyining oxirlariga to'g'ri keldi.

Qonunchilik palatasi-O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 120 nafar deputatdan iborat bo'ladi. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarning proprofessional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi. Qonunchilik palatasi butun mamlakat aholisi vakilligini ta'min etadi, ularning manfaatlarini inobatga oladi. Qonunchilik palatasi deputatlari o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyattan tashqari xaq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Oliy Majlisning hududiy vakillik palatasi bo'lib, senat a'zolari (Senatorlar)dan iborat bo'ladi. Senat Respublikaniz mintaqalarining manfaatlarini aks ettiradi va himoya qiladi. Senat mamlakatning yurak urishini bilib turish, mintaqalar bilan bevosita aloqasini amalga oshirish imkonini beradi. Saylov kuni 25 yoshga to'lgan hamda kamida 5 yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi senat a'zosi bo'lishi mumkin. Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar va davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaharidan teng miqdorda - 6 kishidan saylanadi. Senatning 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Davlatni boshqarishning prezidentlik shakli mamlakat boshqaruv tizimini isloh qilishning boshlanishi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat hokimiyatining boshlig'i bo'lib, bir vaqtning o'zida, Vazirlar Mahkamasining Raisi vazifasini ham bajaradi. Prezident fuqarolar erkinligi va huquqlarini himoya qilish. Konstitutsiya va O'zbekiston qonunlariga rioya qilinishini kafolatlaydi. Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat organi bo'lib u ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jabhalardagi vazifalarning bajarilishini qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, mamlakat Prezidenti farmonlarining ijro etilishini ta'minlaydi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi ilgari hokimiyatdan tubdan farq qilib, bu tizim jamiyat hayotida muvofiqlashtiruvchilik

vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasida avval 28 ta ittifoq va 17 ta Respublika vazirliklari va komitetlari ish ko'rgan bo'lsa, endilikda ular o'rniga bozor iqtisodi tizimiga mos keladigan vazirliklar va qo'mitalar tashkil etilgan.

Respublikada hokimlar boshqaruvining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, hokimlikka tajribali va malakali shaxslar Prezident tomonidan tayinlanadi va xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vazifalarini hal etadi. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining asosini mahallalar tashkil etadi. Aholini huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy jamg'armalar tashkil etish, turli xayriya tadbirlari o'tkazishda mahallaning o'rnini benihoya kattadir. Undan tashqari, mahalla yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mehr-oqibatli qilib voyaga yetkazishda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Fuqarolar yig'ini, Oqsoqollar Kengashiga o'tgan saylovlarda mahalliy organlarga ko'pchiligi oliy ma'lumotli, ko'p tajribaga ega kadrlar ishga tortildi. Bular davlat organlari vazifalarini jamoat tashkilotlariga o'tkazish jarayonining faol qatnashchiligidir.

Yangi davlat apparatining shakllanishi va faoliyatini davr talabiga mos keladigan kadrlar siyosatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu nuqtayi-nazardan O'zbekistonda ishni yuqori darajada olib borishga qodir bo'lgan ma'naviy yetuk kadrlarni tayyorlash va tarbiyalashga qaratilgan qator chora-tadbirlar o'tkazilmoqda. Xususan, davlat va jamoat tashkilotlari, huquqiy organlar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlab beradigan bir qancha oliy o'quv yurtlari tashkil etildi.

17.2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi

Fuqarolik jamiyati bu insonning rivojlanishiga imkon yaratadigan, uning huquq va erkinliklarini to'la darajada ta'minlaydigan qonun ustuvor bo'lgan ijtimoiy jamiyatdir. Bunday jamiyat qurish davlat qonunlari va inson huquqlarini poymol etmaslikni, insondan qonunlarga qat'iy rioya qilishni talab etadi. Har bir fuqaroning davlat boshqaruviga keng jalb etilishi, inson huquqlarini himoya qilishda faol qatnashishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

Huquqiy davlatda sud hokimiyati O'zbekiston Respublikasida odil sudlov va tarbiyalash vazifalarini bajarish bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati

tizimiga besh yil muddatga saylanadigan Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, harbiy sudlar tizimi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, viloyat, tuman va shahar sudlari kiradi. Sud hokimiyatining faoliyati to'g'risidagi qonun-qoidalar O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrida qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi qonunda bayon etilgan.

Jamiyat tizimini qayta tashkil etar ekan, Respublika rahbariyati sud hokimiyati doirasida islohotlar o'tkazib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari ularning erkinligi va majburiyatlarini kafolatlovchi huquqiy mexanizmini shakllantirdilar. Bu jarayonda Respublikamizda demokratik jamiyat talablariga mos tushadigan saylov tizimining tashkil etilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Bu o'zgarishlarning barchasi shaxsning davlat va jamiyat bilan munosabatlarini belgilashga qaratilgan. Davlat va shaxs o'rtasidagi munosabat fuqarolikni namoyon etadi va ularning o'zaro huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil (dekabr) sessiyasi sud-huquqiy ishlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida advokatura tizimini kuchaytirish, sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash vazifalarini qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrda, 1995-yil 5-maydagi Qonunlari negizida demokratik saylov tizimi asoslab berilgan. «Saylov tizimi» to'g'risidagi Qonunga asoslanib, 1994-yilning 25-dekabrda vakillik organlariga birinchi marta hududiy bir muddatli saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatga deputatlar saylandi. I.A.Karimov davlat va jamiyat hayotini erkinlashtirish yuzasidan muhim vazifani belgilab: «..hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat» degan g'oyani ilgari surdi. Oliy Majlisning XIV sessiyasi «kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyat sari» degan siyosiy qurilish dasturini belgiladi.

O'zbekiston tarixining mustaqillik yillari avvalgi davrdan farqli o'laroq, aynan istiqloq tulayib yurtimizda inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Konstitutsiyaning 13-moddasida «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi», deb belgilab qo'yildi. Jahonda inson huquqlari sohasida 70 standart qabul

qilingan. Bu hujjatlarda hukumatning o'z fuqarolari oididagi majburiyatlari va ularga nisbatan qilishi shart bo'lmagan ishlar belgilab berilgan. O'zbekiston hozirda bu sandartlardan 15 tasiga qo'shilgan.

1996-yil oktabr oyida «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish to'g'risida» qabul qilingan Farmon ana shu yo'lda qo'yilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Ushbu Farmon inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirchan vositasini barpo etishga, respublika fuqarolarida huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi esa huquqiy demokratik davlatning noyob xususiyatidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan nizomiga ko'ra milliy markaz tahliliy, tavsiyalar beruvchi, muassasalararo muvofiqlashtiruvchi davlat organi bo'lib, inson huquqlari sohasidagi halqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlar, Prezident farmonlari qoidalariga amal qilinishi yuzasidan davlat siyosatini amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, Markaz o'quv ma'rifiy va targ'ibot, tahliliy, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish yo'nalishlari bo'yicha ish olib bormoqda.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar orasida 1997-yil aprelda «Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsmen) to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi alohida ahamiyatga ega. Ushbu qonunda shunday sattrlar bor: «Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxslar, tashkilotlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida faoliyat ko'rsatadi».

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili BMTning Inson huquqlari bo'yicha markazi, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yan.

Shunday qilib, mustaqil O'zbekistonda inson huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun keng imkoniyat yaratildi. Bu O'zbekistonda qurilajak adolatli, demokratik, fuqarolik jamiyatining muhim omilidir.

17.3. Ko'p partiyaviylik tizimi. Milliy siyosat

Partiyalar va harakatlar demokratik jamiyat qurishning zaruriy sharti bo'lib, 90-yillarning oxirlaridan boshlab O'zbekistonda bir qator ijtimoiy harakatlar paydo bo'ldi. «Birlik» xalq harakati, «Erk» demokratik partiyasi, O'zbekiston erkin yoshlar uyushmasi kabi norasmiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatib, jamiyatdagi muhim muammolarni ilgari sursa ham sovet rejimi ularni rasmiy tan olmadi. Faqat mustaqillik sharofati bilan 1991-yil noyabr oyida «Birlik» va «Erk» tashkilotlari O'zbekiston Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olindi. Biroq bu harakat rahbarlarining so'z qarashlari va boshqa sabablar oqibatida, oradan ko'p o'tmay, ularning faoliyati to'xtatildi.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda quyidagi siyosiy partiyalar tashkil topdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991-yil noyabrdan faoliyat ko'rsatib, o'z safida 420 mingdan ziyod a'zoni birlashtirgan.

«Vatan taraqqiyoti» partiyasi 1992-yil may oyida tuzilgan bo'lib, uning saflarida 35 mingdan ortiq a'zo bor. «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi 1995-yil fevralda tashkil topgan bo'lib, 30 mingdan ortiq a'zosi bor.

«O'zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi» 1995-yil iyunida tashkil topgan. Saflarida 6 mingga yaqin a'zosi bor. 1998-yil «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi tashkil topdi. 2000-yilda maqsad va vazifalari mamlakatni har tomonlama rivojlantirishdan iborat bo'lgan «Vatan taraqqiyoti» va «Fidokorlar» yagona partiya birlashdilar. Birlashgan partiyaning nomi «Fidokorlar» deb ataldi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (LDP) 2003-yil 15-noyabrda tuzilgan. LDP mamlakatimizda davlat va jamiyat tizimi rivoji va yangilanishida, Vatan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarning jadal sur'atlar bilan amalga oshirilishida faol ishtirok etadigan yangi siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdi. Shuningdek, Respublikada 1995-yil iyun oyida ta'sis etilgan «Xalq birligi» harakati ham mavjud.

Bu partiya va harakatlarning har biri jamiyat ma'lum qatlamlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy qarashlarini ifodalaydi. Ular parlament shaklidagi partiyalar bo'lib, qonun chiqaruvchi va vakillik organlari saylovlarida ishtirok etadilar va qonun doirasida faoliyat ko'rsatadilar. Shuningdek, bu partiyalar saylangan deputatlari orqali qonun chiqarish jarayonida ishtirok

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalarning maqsad va vazifalari

XDP	«O'zbekiston Milliy tiklanish» demokrati k partiyasi	«Adolat» sotsial-demokrati k partiyasi	Fidokorlar» milliy demokrati k partiyasi	O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi	«Xalq birligi» harakati
Partiya mamlakatda adolatlari jamiyatni qurish, uning yosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash. O'zbekiston xalqlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, fuqarolar to'rovligini ta'minlash har bir mehnatkashning moddiy va ma'naviy turmushini yaxshilash, fuqarolarning teng konstitutsiyaviy haquqlarini himoya qilishni o'z maqsad qilib qo'ygan.	O'zbekiston Milliy tiklanish demokrati k partiyasini bosh maqsadi milliy manfaatlar milliy yakdillikni ta'minlash, huquqiy davlatni barpo etish va O'zbekistonni jahonning yetakchi davlatlari safiga olib kirish uchun xalqni safarbar qilish.	Partiyaning asosiy maqsadi mustaqil O'zbekiston Respublikasi barcha millat va elatlarning umumiy manfaatiga mos keladigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yetuk demokratiya tamoyillariga asoslangan adolatlari, fuqarolik jamiyat qurishda faol ishtirok etish.	Fidokorlar» milliy demokrati k partiyasi Partiyani vujudga kelishi va faoliyat ko'rsatishidan bosh maqsad ko'p ukladli iqtisodiy otga, milliy va tinchlikni qadriyatiga tayangan fuqarolik jamiyatini qurish jarayoniga hamdun xizmat qiladigan demokrati k huquqiy davlatni barpo etish ishiga hissa qo'shishdir.	O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining asosiy vazifasi mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy hamda jamiyatimiz taraqqiyotining boshqa sohalarini erkinlashtirish, davlat va jamiyatni demokratik asosda yangilash, islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, tadbirkorlar va ishbilamonlar manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan dasturni hayotga tatbiq qilishdan iborat.	Harakatning asosiy maqsadi ko'p millatli amallarda xalqlar birligini yanada mustahkamlash. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan barcha fuqarolarning huquq va katolatlarni to'la to'kis amalga oshirish va fuqarolik, vatandorlik tuyg'ularini rivojlantirishdan iborat.

NASHRLARI

«O'zbekiston ovozi», «Golos Uzbekistana» gazetalari va «Muloqot» jurnali	Milliy tiklanish haftalik gazetasi	«Adolat» nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazeta	«Fidokor» nomli ijtimoiy-siyosiy gazeta	«XXI asr» nomli ijtimoiy-siyosiy gazeta	«Birlik» va «Yedinstvo» haftalik gazetalari
--	------------------------------------	---	---	---	---

Mamlakatimizda partiya va harakatlardan tashqari 200 ga yaqin kasaba, tadbirkorlar, yoshlar, faxriylar kabi ijtimoiy uyushmalar ham mavjud. Bular orasida eng ommaviysi kasaba uyushmalari bo'lib, tarkibida 7.5 mln. a'zo bor.

O'zbekiston hayotida yoshlarning o'rnini beqiyosdir. 1991-yil oxirida O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi tuzilgan. 2001-yil 25-apreldan Kamolot o'zini-o'zi boshqaradigan nodavlat notijorat tashkiloti tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 7-yanvar farmoni bilan iqtidorli yoshlarni xorijdagi ilg'or taraqqiy etgan oliygohlarda bilim olishlarini tayyorlash, tashkil etish uchun «Umid» jamg'armasi tuzildi. Hozirgi kunda 2300 jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Prezident I. A. Karimov, «bu tashkilotlar faqat xayriya va muruvvat muassasalariga aylanib qolmasdan, demokratik qadriyatlarini, kishilarning qonuniy haq-huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishlari kerak», degan vazifa qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi 130 dan ortiq millatlar va elatlarni birlashtirgan ko'pmillatli davlat. Bugungi kunda Respublikada yashovchi har bir fuqaro millati, kelib chiqishi, dini va irqidan qat'iy nazar teng huquq va imkoniyatlarga ega. Aynan mana shu tamoyil milliy siyosatimizning asosini tashkil etadi. Respublikadagi barcha millatlarning rivojlanishiga katta e'tibor qaratilib, ularning tili va dinini hurmat qilish, milliy va xalq an'analarini saqlash, erkin va har tomonlama taraqqiyotini ta'minlash maqsadida 80 dan oshiq milliy madaniyat markazlari tashkil etilgan. Bularning faoliyatini 1993-yil yanvarida tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniy markazi boshqarib boradi. Markaz har ikki yilda bir marta «Xalq ijodiyoti» festivalini o'tkazadi.

Respublikamizda millatlararo munosabatlarda barqarorlikka erishilgan. Bu O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishining garovidir. Millat va elatlarning o'zaro hurmatda bo'lishi jamiyat ma'naviy barkamolligining belgisidir. Bu holat davlatdagi milliy barqarorlikdan tashqari, uni yanada mustahkamlanishi uchun zamin yaratadi.

Hozirgi bosqichda jamiyatning demokratlashuvida «o'tirinchu hokimiyat» — matbuotning ahamiyati kattadir. Ommaviy axborot vositalarini demokratiyalashtirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etilgan.

1996-yilning may oyidan boshlab Respublikamizning Amerika Qo'shma Shtatlarida joylashgan jahondagi yirik kompyuter tizimi «Internet» bilan aloqa o'rnatib, undan eng muhim yangiliklarni

qabul qilib olishning yo'lga qo'yilgani O'zbekiston axborot vositalari tarixida ulkan yangilik bo'ldi.

Prezidentimiz ommaviy axborot vositalarining rolini alohida ta'kidlab, «Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari har tomonlama rivoj topishi lozim. Ular maquli ravishda hokimiyatning to'rtinchi tarmog'i bo'lishi darkor» degan edilar. Respublikamizda bir qancha telestudiya, Viloyat, shahar va tumanlarda radiostudiyalar va 4 ta axborot agentligi faoliyat ko'rsatmoqda. 1997-yil 25-aprelda Oliy Majlis

VIII sessiyasida «Axborot olish kafolatlari va huquqlari», «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish» to'g'risidagi qonun qabul qilindi. «Axborot olish erkinliklari va kafolatlari» to'g'risidagi qonuning 2-moddasida har bir fuqaroga axborot olish kafolatlanishi va davlat tomonidan himoya qilinishing alohida ta'kidlanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda jurnalist kadrlarni, ayniqsa, xalqaro jurnalistlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada 1999-yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonda jurnalist kadrlarni tayyorlashni yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakulteti va Jahon tillar universiteti xalqaro jurnalistika fakultetlari ishlarining markazlashtirilishi katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning maqsadlari va ustunlari

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida zimmasiga quyidagi maqsadlar va ustunliklar haqida majburiyat oldi:

— insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini ta'minlash, madaniyatlarning xilma-xilligini hurmat qilish, etnik va diniy negizdagi biron-bir ziddiyatga yo'l qo'ymaslik;

— tinchlik va o'z fuqarolari xavfsizligi manfaatlarini, mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni har qanday boshqa: iqtisodiy, mafkuraviy, siyosiy manfaatlardan yuqori qo'yish;

— odamning yashash muhiti sifatida atrof muhit holatini saqlash va yaxshilashga alohida ahamiyat berish. Mamlakat bundan keyin ham eng mushkul ulkan ekologik muammolaridan biri — qurib borayotgan Orol dengizi muammosini hal etishga katta miqdordagi mablag'lar ajrataveradi;

— fuqarolarning erkin iqtisodiy faoliyati, tadbirkorlik bilan shug'ullanishga, kasb tanlashga va o'z mehnati bilan qatnashishga kafolatli konstitutsion huquqlarni ta'minlash;

— aholi salomatligini saqlash, umumiy o'rta ta'limni

ta'minlash, oliy kasb ma'lumotini oshirishda faol ishtirok etish, jamiyatning ta'limiy va intellektual potensialini oshirish uchun sharoitlar yaratish;

— bozorga o'tish davrida va shundan keyingi davrlarda aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha oldindan ko'riladigan choralar shaklidagi kuchli ijtimoiy siyosatni ta'minlash;

— o'zbek xalqining fuqarolarning ijtimoiy o'z-o'zini boshqarish organlari-mahalla yig'inlarini jalb etish shaklidagi odamlarning bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatishi bo'yicha asriy an'analarni tiklash.

Tayanch tushunchalar

Huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, milliy davlatchilik rivojlanishi, ko'ppartiyaviylik, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy boshqaruv, sud hokimiyati, Milliy siyosat, «To'rtinchi hokimiyat».

Takrorlash uchun savollar

1. Jamiyatni isloh qilish jarayonida belgilangan vazifalar nimalardan iborat edi?

2. O'zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy nomi qanday ataladi?

3. Mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlarining vazifalari nimalardan iborat?

4. Fuqarolik jamiyati haqida qanday tushunchaga egasiz?

5. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida qanday siyosiy partiyalar

tashkil topdi?

6. Jamiyatning demokratiyalashuvida matbuot qanday ahamiyatga ega?

7. Respublika baynalmilal madaniy markaz faoliyatining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

8. "Umid" jamg'armasi qanday maqsadlar asosida tashkil qilingan?

18-mavzu. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY TARAQQIYOTI

REJA

1. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
2. Iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar bozor infratuzilmasining shakllanishi.
3. Qishloq xo'jaligida islohotlar uning vazifalari va yo'nalishlari. Moliya-bank tizimi.

Adabiyotlar

4,19,23,28,34.

18.1. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari

Davlat mustaqilligining qo'liga kiritilishi O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Bizning diyorumizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz hunarmandlar ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyoning to'rt tomoniga chiqarib, savdogarlik qilgan, mol almashgan.

O'zbekistonning hoy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib, o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo'lib qoldi. O'zbekiston tanlagan islohot yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy yo'nalishlari Prezident I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilib, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o'zining hayotiyligini namoyish etmoqda. Bu tamoyillarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- iqtisod siyosatdan ustun turib, mafkuraviy tazyiqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog'i kerak;

- davlat bosh islohotchi o'rnida bo'lib, u islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim;

- bozor munosabatlariga o'tish qonun ustuvorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga

amal qilinishi shart:

- bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o'tkazish;

- ijtimoiy islohotlarning rivojlanib borishi va yo'nalishini belgilab beruvchi tamoyillardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyutsion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish tamoyillari asosida g'oyat mas'uliyatli va murakkab vazifa iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang'ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir. Bozor munosabati bu jihatdan klassik kapitalistik va sotsialistik iqtisodiy tizimdan farq qiladi.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Birinchi bosqichda totalitar tizimdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir-biriga bog'liq ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keldi: ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning g'oyat muhim yo'nalishlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

- o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;

- qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

18.2. Iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar bozor infratuzilmasining shakllanishi

Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun-qoidalar yuridik tashkilotlar va yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan quvvatlanib, tan olindi.

Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha Prezident huzurida maxsus idoralararo kengash tuzildi.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri

mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi. Xususiylashtirilgan mulkdorlarning keng qatlami shakllantirildi va xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi.

Mulkni xususiylashtirish O'zbekistonda o'ziga xos yo'l bilan birinchi bosqichda 1992-1993-yillari amalga oshirildi.

Bu davrda, asosan, maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulotni qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiylashtirib berildi.

Dastlabki davrning o'zida qishloq xo'jaligida 770 kolxoz va davlat xo'jaliklari xususiylashtirildi, jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin va qiyinchiliklar bilan amalga oshirildi. Agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to'siqlari qishloqda islohotlarning borishiga halaqit berardi. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani bo'ldi.

Davlat mulkini xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 21-yanvardagi «iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiylashtirish va manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyat qurish, korxonalar aksiyasini chiqarish, auksion (kim oshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va xususiylashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.

Aloqa, transport, geologiya-qidiruv, yoqilg'i-energetika komplekslari xususiylashtirilmadi. Ayrim sohalarda — kimyo, oltin qazish, paxta tozalash, tog'-kon sanoatida-51% aksiya davlat ixtiyorida qoladigan bo'ldi.

1994-yil oxirigacha 54.000 korxonalar mulk shaklini o'zgartirdi. Xususan, 34% xususiylashtirib, 48% aksiyadorlik, 16% jamoa, 1% ijara xo'jaligiga aylandi.

Natijada Respublikada nodavlat sektorning iqtisodiyotdagi ulushi ortib bordi. Mazkur sektor 1995-yili sanoat mahsulotini 44 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotining 97 foizini ishlab chiqardi.

Barcha kapital mablag'ning 44 foizi ana shu nodaviyat sektoriga to'g'ri keldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish davlat sektorining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib qo'yilgan. O'tgan yillar davomida shu sohaga tegishli huquqiy asos yaratildi, zarur me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, bozor infratuzilmasi tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mamlakatda ikki yo'l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo'li bilan, ikkinchidan, pul mablag'larini omonat kassalari yoki banklarga qo'yish, qimmatbaho qog'ozlarga aylantirish yo'li bilan.

Sobiq SSSRning tarqatib yuborilishi bilan respublikalar va shaharlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar uzildi, oqibatda O'zbekistonning bir qancha sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish kamaydi, iqtisodning ko'pgina muhim sohalarini qayta qurish yoki yangidan qurish kerak bo'ldi. Jahon bozorida raqobatga bardosh bera oladigan va aholining iste'mol talablarini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur edi. «Barqarorlashtirish siyosati, — deydi. Prezident I.A. Karimov, — eng avvalo, bu makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ihsizlikka yo'l qo'ymaslikdir». Bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodning ustuvor, katta istiqbolga ega bo'lgan tarmoqlarini har tomonlama rag'batlantirib, shu orqali butun iqtisodiyot tarkibian qayta tashkil qilindi.

Iqtisodiy o'sish iqtisodiyotning barcha sohalarida ishlab chiqarish hajmi oshgani bilan ifodalandi. Bu ko'rsatkich 1990-yil bilan qiyoslaganda sanoatda 106,5, qishloq xo'jaligida 105,8, qurilishda 102,6, savdoda 112,7, aholiga pullik xizmat ko'rsatish sohasi 121,3 foizini tashkil etdi. Xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish bir yilda 112 foizga ko'paydi. Bunday o'sishga, eng avvalo, iqtisodiyotda o'zlashtirilgan kapital mablag' hajmining oshgani (17 foiz), zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan yangi sanoat obyektlari qurilishi va ishga tushirilgani tufayli erishildi. 2004-yilda yalpi ichki mahsulot 7,7 %ga o'sdi sanoat ishlab chiqarish hajmi 9,4%ni, iste'mol mollari ishlab chiqarish 13,4%ni tashkil qildi. Mahsulot eksporti 30 % ga o'sdi.

Mustaqil davridagi O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari iqtisodiy ahvoli bilan taqqoslasa, faqat O'zbekistondagina 90-yillar boshidagi darajadan oshib, bir tekis rivojlanmoqda. Bu holatni jahonning ko'p yirik

rivojlangan mamlakatlarning davlat rahbarlari, taniqli mutaxassislari tan olmoqda.

1998-yil ayrim rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy krizis, jahon bozorida O'zbekistonning muhim eksport mahsulotlari-paxta tolasi, rangi metallarning narxini tushib ketishi mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy ahvoriga ta'sir qilmay qolmadi. Shunga qaramasdan, O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik davom etdi. Xususan, 1998-yili ichki yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 4,4 foiz, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishi 5,8 foizga ortdi. Iste'mol mollari ishlab chiqarish 7,2 foiz ko'paydi. Avvalgi yillardagi kabi qat'iy moliya-kredit siyosati amalga oshirildi. Natijada inflyatsiya darajasining pasayishiga olib keldi.

Endilikda mamlakatimizning yoqilg'i mustaqilligiga erishish siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Istiqolga erishgan O'zbekiston tarixda ilk bor 1995-yilda neft mustaqilligiga erishdi. Mamlakat endilikda neft mahsulotlariga bo'lgan o'z ichki ehtiyojlarini to'la qondiribgina qolmay, katta salohiyatga ega bo'lgan istiqbolli va ishonchli eksportyor sifatida jahon bozoriga yo'l oldi.

O'zbekistonda neft va gaz kondensatini ishlab chiqarish 1990-yili 2,8 mln.tonnani tashkil qilgan bo'lsa, 1997-yili bu ko'rsatgich 7,9 mln. tonnaga yetdi va chetga neft mahsulotlarini sotish qobiliyatiga ega bo'ldi. Jumladan, 1997-yili 250 ming tonna benzin, 600 ming tonna dizel yoqilg'isi, 450 ming tonna mazut, 100 ming tonna aviatsiya kerosini eksport qilindi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish 1990-yilgi 40,8 mlrd.kubometrda 1998-yil salkam 54 mlrd. kubometrga ko'paydi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash yuzasidan katta yutuqlarga erishildi. Xususan, mustaqillik arafasida shahar aholisining 43 foizi, qishloqlarda esa 17 foiz aholi tabiiy gaz bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1997-yili 64 va 48 foizini tashkil qildi.

Hozirgi kunda respublika energetika tizimi 37 issiqlik gidravlik elektrostansiyalardan iborat bo'lib, ularning umumiy quvvati 11 million kilovattni tashkil etadi. U yiliga 55 milliard kilovatt-soatgacha energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

O'zbekiston energotizimining Markaziy Osiyo Birlashgan energotizimidagi ulushi 40 foizni tashkil etadi. Respublikamiz elektr tarmoqlari orqali elektr energiyasi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonga uzatilmoqda.

O'zbekistonning jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib, mustahkamlanib bormoqda. Endilikda

jahoning 35 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim tuzilganligi va bir qancha jahon banklari bilan shartnomaning imzolanishi. O'zbekistonning xalqaro savdosi va xorijiy investitsiyalardan muhim foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaxshiladi. 2004-yillga kelib, iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 5,2 %ga o'sdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi tarix shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda rivojlangan davlatlarning hech qaysisi xorij mamlakatlarining sarmoyasiz, investitsiyasiz taraqqiy etmagan. O'zbekiston ham o'zining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligi bilan chet davlatlarning investitsiyasini o'ziga tortmoqda. 1999-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 3.592 qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan. Shundan 1917 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ishlab turgan qo'shma korxonalarining asosiy qismi 1400 tasi Toshkent shahrida, 107 tasi Toshkent, 85 tasi Samarqand, 51 tasi Andijon, 49 tasi Farg'ona va Namangan viloyatlarida joylashgan. Shulardan biri O'zbekiston-Germaniya «Kaolin» qo'shma korxonasi 17-aprel 1999-yil ishga tushirildi. Chet el sarmoyalari, ayniqsa neft va tabiiy gaz tarmoqlarida katta o'rin tutadi. Bu sohalarga 1994-yil atigi 10 mln. dollar xorijiy sarmoya jalb qilingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1995-yil-395, 1996-y.-546, 1997-y. - 845, 1998-yili deyarli, 1.145 mln.dollardan oshdi. 2003-yil boshiga kelib, xususiy va kichik korxonalar soni 120 mingdan oshib ketdi. Kichik biznes korxonalar soni 2004-yilda 14%ga ko'paydi.

1998-yilgi jahon iqtisodiy krizisi sharoitida Respublika rahbari qayd etganidek, muhim strategik vazifani hal qilishga muvaffaq bo'lindi. Jahon bozorida oltin, paxta, mis narxining tushib ketishiga qaramasdan mamlakatimizning oltin valyutasi zahirasi o'tgan yilgi darajasida saqlanib qoldi. Bu borada Navoiy, Olinaliq tog'-kon metallurgiya kombinatlari, «Zarafshon-Nyunont» qo'shma korxonasining hal qiluvchi rolini ko'rsatish o'rinlidir.

Endilikda jahondagi eng yirik konlardan hisoblangan Qizilqumning oltin va uran boyliklari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Sobiq SSSRning parchalanib ketishi oqibatida Rossiya korxonalari hamda O'zbekiston uran va oltin qazib olish sanoati o'rtasidagi kooperativ aloqalarning uzilishi natijasida harbiy sanoat kompleksining Navoiy viloyatidagi 50 ming nafar injener va malakali ishchilari qiym ahvolda qoldilar. O'zbekiston Prezidenti, yirik iqtisodchi mutaxassis EA Karimov vaziyatni har tomondan o'ylagan holda Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinatini tiklash va rivojlantirish ishlarini davlat zimmasiga o'tkazdi. Kombinatni qayta qurish maqsadida xorijdan olingan qarzdin tusigan foyda besh yil

davomida korxonaga ixtiyorida qoldirildi. Xorijiy davlatlar korxonalari bilan bitim tuzish, qarz olish, investitsiyalardan foydalanishda kombinatga to'la mustaqillik berildi. Hisob-kitoblari, katta jamoaning mehnati o'z natijalarini berdi. Besh yildan keyin Muruntovdan to'ralab olingan oltinlar davlatni valyuta zahirasi to'ldirdi. Arzon va sifatli uran olish ham yo'lga qo'yildi.

Amerikaning Kolorado shtatidagi «Nyumont» firmasi bilan Muruntovda qo'shma korxonaga qurilishi bilan ishlar yana qizib ketdi. «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasiga firma tomonidan ajratilgan 200 mln. dollar investitsiya yordamida oddiy sharoitdagi yarim asrlik ishlar ikki yilda o'z natijalarini berdi. Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati oltin rudasini qazib olishdan to'zargarlik bezaklarini tayyorlaydigan jahonda to'la siklda ishlaydigan yagona korxonaga aylandi.

Mulohaza uchun fakt

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar

1994-yilda bevosita xorijiy investitsiyalar mamlakat investitsiyalari umumiy hajmining bir foizdan kamrog'ini tashkil etardi. 1995-yilda ularning salmog'i 17 foizga ko'paydi. Eng yirik xorijiy investorlar orasida Angliyaning «BAT industriz end Lonro», Amerikaning «Nyumont Mayning», Janubiy Koreyaning «DEU» va boshqa kompaniyalar bor. Neftni va gazni tozalash, qayta ishlash va avtomobilsozlik investitsiyalar uchun ustun tarmoq hisoblanadi. Investitsiyalarning katta qismi yengil sanoatga ya'ni to'qimachilik, kiyim-kechak va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'llandi.

O'zbekistonning istiqloli mashinasozlik sanoatini, ayniqsa uning muhim tarmog'i-avtomobilsozlikning rivojlanishiga bog'liq. 1992-yilning avgust oyida Janubiy Koreya Respublikasi bilan O'zbekiston o'rtasida tuzilgan bitim asosida «O'zDEU avto» qo'shma korxonasi tashkil etildi va Asaka shahrida yengil avtomashinalar ishlab chiqarishga kirishildi. 1996-yilning mart-iyul oylarida «O'zDEU» avtokorxonasi «TIKO», «NEKSIYA», «DAMAS» yengil avtomashinalarini chiqara boshladi. 1999-yilning 1 iyuniga qadar, uch yil davomida 87 mingdan ko'proq «NEKSIYA», 51 mingdan ko'proq «TIKO», 40 mingdan ko'proq «DAMAS» avtomashinalari ishlab chiqarildi. Shu jumladan, 20 mingdan ortiq avtomobil eksportga jo'natildi. Korxonaga 2004-yili to'la quvvatni o'zlashtirib, har yili turli rusumdagi 200 ming avtomobilni ishlab chiqaradigan bo'ldi. Endilikda «DEU» korxonasi

bilan shartnomaga ko'ra bu mashinalarning yangi modellarini ishlab chiqarish rejalashtirildi.

1993-yilda GFRdagi «Mercedes Bens AG» korporatsiyasi bilan Xorazmda yuk avtomashinasini chiqarish uchun shartnoma tuzildi. 1994-yili «Do'stlik» avtomobil zavodida dastlabki 350 «Mercedes Bens» yuk avtomobili ishlab chiqildi. 1995-yili «O'zavtosanoat» uyushmasi bilan Turkiyaning mashhur «Kochholding» kompaniyasi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida Samarqandning So'g'diyona mavzesida qad ko'targan avtobus zavodi 1999-yil mart oyida o'zining mahsulotini bera boshladi.

Prezidentning 1992-yil 28-yanvar Farmoniga muvofiq «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tuzildi. 1993-yildan boshlab, aviakompaniya zamonaviy A-310, BOING -767, BOING-757, RI-85 samolyotlariga ega bo'ldi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston MDHning barcha yirik shaharlari va jahonning AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Singapur singari yigirmadan ortiq mamlakatlari bilan bevosita havo yo'llari orqali bog'langan.

Iqtisodiyotdagi barqarorlik O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarida, eksport va import tuzilmasida katta sifat o'zgarishiga olib keldi. Eksportda yoqilg'i va sanoat mahsulotlarining ulushi ortib bormoqda.

Respublikamiz yengil sanoatida muhim o'rin egallagan, MDH respublikalari orasida zamonaviy uskunalar bilan jihozlanishi jihatidan yagona hisoblangan "Xiva-Karpet" O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi jahon andozalariga mos gilamlar ishlab chiqarmoqda.

"Xiva-Karpet" O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi faoliyati uchun ta'sischi tomonidan 10505821.05 yevro yoki 3243027708 so'm miqdorida nizom jamg'armasi shakllantirilgan. Bu korxonaga tomonlar 50x50 miqdorida hissa qo'shishgan. (Ta'sischi: O'zbekiston tomonidan: "Xiva gilami" AJ, Germaniya tomonidan: Geko GMBX fartribsgezellshaft" va "Promoteks Industrieanlagen GMBX firmalari) Korxonaning ishlab chiqarish quvvati yiliga 2321 kv.metrni tashkil etadi. 2002-yilning 29-sentabridan o'z faoliyatini boshlagan korxonaga respublikamiz iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo'shmoqda.

18.3. Qishloq xo'jaligida islohotlar uning vazifalari va yo'nalishlari. Moliya-bank tizimi

Iqtisodiy islohotlarning hal qiluvchi to'g'ini sifatida qishloq xo'jaligida tub islohot o'tkazish, uni jadal rivojlantirishga alohida

e'tibor berildi.

Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishda eng ustuvor masala sifatida yerga mulkchilik masalasi hal qilindi. O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan yerlarning kamligini hisobga olib, yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligi huquqiy hujjatlarda qayd etildi. «Yer to'g'risida»gi Qonunda qishloq xo'jaligida iqsodiy munosabatlarni qanday tashkil etish shartlari ko'rsatilib berildi. Qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisod vujudga keldi. 1997- yili shaxsiy tomorqa xo'jaligi 3 mln. gektarni tashkil qildi. Tomorqa xo'jaligining ekin maydoni 1989-yili 257 ming gektar bo'lsa, 1997-yil 599,7 ming gektarga ko'paydi. 1996- yili shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda 640 ming t. go'sht, 2.968 ming t. sut, 1.711 ming t. sabzavot, 321 ming t. meva, 307, 8 ming t. poliz, 338,1 ming t. kartoshka, 729 mln. dona tuxum yetishtirildi. G'allakorlar O'zbekistonning g'alla mustaqilligiga katta hissa qo'shmoqda. Ular 1996-yili davlatga 2 mln. 100 ming tonna g'alla topshirgan bo'lsalar, 1998-yili 4,6 mln. tonna g'alla hosili yetishtirdilar. Bundan 3,5 mln. tonnasi bug'doy edi. G'allakorlarning yutuqlari o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Paxta maydonlarini qisqartirish evaziga don ekinlarining maydoni kengaytirilib, 2,5 mln. gektarga yetkazilib, paxta maydonlari bilan tenglashtirildi. G'allachilikning texnika bazasi mustahkamlandi. 8159 ta «Niva», «Don», «Sibiryak» kombaynlari bilan bir qatorda Amerikaning «Keys» firmasidan keltirilgan 637 kombayn g'alla o'rim-yig'imida qatnashdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I-chaqiriq X sessiyasi (dekabr, 1997-yil) agrar va iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish yuzasidan qator qonunlar qabul qildi. «Yer kodeksi», «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida», «Yer kadastri to'g'risida»gi qonunlar qishloq xo'jaligining huquqiy asoslarini mustahkamladi.

O'zbekiston taraqqiyotidagi o'ziga xos yo'lning asosiy tamoyillaridan biri kafolatlangan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Uning mohiyati jamiyatda kam ta'minlangan, boquvchisi yo'q, ko'p bolali oilalarni, nogironlar va qariyalarni ijtimoiy himoya qilish, jamiyat a'zolarining o'ta boylar va kambag'allarga tabaqalanib ketishining oldini olishga qaratilgan.

Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki yillarida aholi turmush darajasini barqarorlashtirishga qaratilgan zaruriy chora-tadbirlarning dasturi ishlab chiqildi va hayotga tadbir etilmoqda. Bu

tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan 1999-yil davlat budjetini shakllantirishda obyektiv sabablarga ko'ra yuz bergan ayrim qiyinchiliklarga qaramasdan, ma'muriy va boshqaruv organlari tizimida o'tkaziladigan qisqartirishlar hisobiga ijtimoiy sohalariga ajratiladigan mablag'larning kamayishiga yo'l qo'yilmadi.

Kam ta'minlangan aholi qatlamlari nafaqa va moddiy yordandan tashqari turli xil imtiyozlardan keng foydalanadi. Jumladan, jamoat transportida tekin yoki arzon haq to'lab yurish, turar joy va kommunal xizmatlari uchun haq to'lashda doridarmonlar va eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarini belgilangan miqdorda bepul yoki arzon narxda olish va boshqa bir qancha yengilliklar berilgan. Bulardan tashqari mustaqillik yillarida xalq ta'limi o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilariga, tibbiy xodimlarga elektr energiya, gaz va kommunal xizmatlardan foydalanishda qator imtiyozlar berildi.

Bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan aholi daromadining mohiyati yangilanmoqda. Ularning manbalari o'zgarimoqda. Maosh bilan o'changan ish haqidan tashqari tadbirkorlik daromadi, aksiyadorlik dividendi, mulkdan kelgan daromad, tomorqa mahsulotlarini sotishdan olinadigan tushum shakllarida bozor daromadlari paydo bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab bozor munosabatlariga mos pul-kredit tizimi shakllantirildi. 1991-1996-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hukumati Milliy bank va Moliya tizimi yuzasidan bir qancha qarorlar qabul qildi. 1995-yil dekabrda Oliy Majlisning navbatdagi sessiyasining Markaziy bank va banklar to'g'risida Qonunlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Markaziy bankdan tashqari Toshkent shahri va viloyatlarda 30 ta aksiyador-tijorat, shirkat va xususiy banklar faoliyat ko'rsatmoqda (1995).

1994-yilning 1-iyulidan boshlab iqtisodiy mustaqillikning zaruriy sharti tariqasida O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'm muomalaga kiritildi. Milliy valutaning muomalaga kiritilishi iqtisodiyotni barqarorlashtirish, korxonalar va tarmoqlar moliyaviy ahvolini mustahkamlash, aholi va mamlakat iste'mol bozorini muhofaza qilishda katta o'rin tutdi.

Mustaqil O'zbekiston xazinasini to'ldiruvchi, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy manbai soliqdir. Shuning uchun soliq tizimini takomillashtirishga dastlabki kunlardan boshlab katta e'tibor berildi.

Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 12-avgustdagi «O'zbekiston

Respublikasida davlat soliq organlari haqida»gi qarori asosida davlat soliq tizimi shakllana boshladi. Soliq to'lovchilar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda.

Xulosa shuki, iqtisodiy islohotlarning yutuqlari mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlamoqda.

Tayanch tushunchalar

Iqtisodiy taraqqiyot, bozor munosabatlari, asosiy tamoyillar, iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizlari, mulkni xususiyashtirish, ko'p ukladli iqtisod, nodavlat sektor, bozor intratuzilmasi, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, moliyaviy krizis, eksport, import, makroiqtisodiy barqarorlik, moliya-bank tizimi, aksiyadorlik

Takrorlash uchun savollar

1.O'zbekiston jahonning qaysi davlatlari bilan savdo iqtisodiy aloqalari o'rnatgan?

2.O'zbekiston Respublikasiga chet el investitsiyalarining kirib kelishi qay darajada?

3.O'zbekiston Respublikasi mashinasozlik sanoati bugungi kunga kelib qanday yutuqlarni qo'lga kiritdi?

4.O'zbekiston tashqi savdo aloqalarida, eksport va import tuzilmasida qanday sifat o'zgarishlariga erishdi?

5.O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligining huquqiy asoslari mustahkamlangan qanday qoidalarni bilasiz?

6.O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini takomillashtirishga qay darajada e'tibor qaratilmoqda?

19-mavzu.O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY, MADANIY TARAQQIYOTI

Reja

- 1.Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot
- 2.Mustaqillik yillarida fan va madaniyatning rivoji
- 3.Milliy istiqlol mafkurasining shakllanishi
- 4.«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi

Adabiyotlar

1,16,20,21,22,28,90.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamda faoliyat olib borilmoqda.

Respublika Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o'lehab ham, poyoniga yetkazib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olamdir.

Jamiyatimiz hayotida ma'naviy kamolotni tezlashtirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, milliy qadriyatlarni o'rganish mustaqillikni mustahkamlashning asosiy vazifalaridan biridir.

Hayotimizda ma'naviy kamolotni rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan boy madaniy meroslarini o'rganish ham katta o'rin egallaydi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk ota-bobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o'rganish va targ'ib etish uchun keng yo'llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshladi.

Madaniy-ma'rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag'lar ajratildi. O'zbekistondagi barcha davlat teatrlari, madaniyat uylari, san'at oliy o'quv yurtlari, folklor-etnografik guruhlar madaniyat o'choqlariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo'yila boshlandi. MDHdagi davlatlar bilan ijodiy hamkorlik yo'lga qo'yildi, turli xalqaro anjumanlar o'tkazildi.

Badiiy adabiyotda partiyaviylik, sinfiylik nuqtayi nazaridan vondoshishga chek qo'yildi. Bahouddin Naqshband, Feruz, Xo'ja Ahror, Cho'lpon, Fitrat kabi allomalarning nomlari tiklanib, asarlari chop etildi.

1991-yili buyuk alloma, gazal mulkining sultoni Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish katta voqea bo'ldi. Bu tantanaga bag'ishlanib Respublikamizda shoirning asarlari na'hdan chiqarildi. 1994-yil Mirzo Ulug'bek tavallud topgan kunining 600 yilligi keng ko'lamda jahon miqyosida nishonlandi. YUNESKOning Parijdagi qarorgohida yubileyga bag'ishlangan haftalik va unga ko'rgazma ochildi.

Mustaqillik yillarida buyuk sohibqiron Amir Temurning 600 yilbo'i keng nishonlandi. YUNESKO tomonidan 1996-yil «Amir Temur yili» deb e'lon qilindi. Shu yili YUNESKOning Parijdagi

qarorgohida «Temuriylar davri, fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» mavzuida anjuman va unga bag'ishlangan ko'rgazma ochildi.

Mamlakatimizda «Temuriylar tarixi davlat muzeyi». Amir Temur nomi berilgan bog'lar, ko'chalar barpo etildi.

Respublikamizda bizgacha yetib kelgan boy meroslarni o'rganish, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda va ularga nisbatan xalqimizning chuqur hurmat va ehtiromi ko'rsatilmoqda. So'nggi yillarda tashkil etilgan «Oltin meros» jamg'armasi, Abdulla Qodiriy nomidagi «Meros» nashriyotlari keng miqyosda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib bormoqda.

Islom olamining allomalari Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bohovuddin Naqshbandiyning 675 yilligi keng ko'lamda nishonlandi. Ularning boy asarlari nashrdan chiqarildi.

Barcha viloyatlar va shaharlarda har yili Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy'larga bag'ishlanib kechalar o'tkazildi. Jaloliddin Manguberdining 800 yillik tavalludiga, «Alpomish» dostoni yaratilishining 1000 yilligiga bag'ishlangan turli kechalar, bahslar tashkil etildi.

Ma'naviy hayotni takomillashtirish borasida 1994-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ma'naviy qadriyatlarni o'rganish va uni takomillashtirish borasida «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tuzish haqida farmon e'lon qilindi. Markaz tomonidan Imom al-Buxoriyning yubileyiga bag'ishlab, Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan «Al-jome, as-sahiyh» (Ishonarli to'plan), «Al-adab al-mufrad» (Adab durdonalari) o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashrdan chiqarildi.

1998-yili Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Yubileylar munosabati bilan allomalar hayotiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar va badiiy ko'rgazmalar ochildi.

Bularning barchasi O'zbekistonda chinakam milliy qadriyatlarni tiklash uchun yuritilayotgan katta ishlardan dalolat beradi.

Ayniqsa, al-Buxoriy xalqaro jamg'armasining ochilishi katta voqea bo'ldi. Respublikamiz Prezidenti Imom al-Buxoriyning, Ahmad al-Farg'oniyning mo'tabar nomlarini tiklash xalqimiz, qolaversa, butun dunyo musulmonlariga qaratilgan shaxsiy tashabbusi bilan ul zoti shariflar sha'niga ulug'vor yodgorliklar va jamg'armalar tuzishga imkon yaratildi.

buyuk olimlarning hayati va ilmiy faoliyati to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomusga O'zbekiston Respublikasi FAning akademigi P. Q. Habibullayev kiritilgan. O'zbek olimi bu sharafiga o'zining qattiq va yumshoq jismlar issiqlik fizikasining katta muammolarini, energetikaning fizikaviy-texnikaviy muammolarini ishlab chiqqani uchun muyassar bo'lgan.

Mustaqillik yillarida (1996) FAning 40qa yaqin ilmiy markazi va tadqiqot laboratoriyalarida 48 akademik, 96 muxbir a'zo faol mehnat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi FA institutlari olimlari chet el ilmiy tadqiqot muassasalari olimlari bilan hamkorlikda ilmiy aloqalarni kengaytirib bormoqdalar. Natijada 1992- yil dekabr oyida texnika fanlari doktori F.F. Umarov, Q.E. Siolkovskiy nomidagi Kosmonavtika Xalqaro akademiyasining a'zosi bo'ldi. U mazkur Xalqaro akademiyaning a'zosi bo'lgan birinchi o'zbek olimidir. Shuningdek, xalqaro arxitektura akademiyasining Moskva bo'limiga o'zbekistonlik M.S. Bulatov, S.M. Sutyagin, I. I. Notkinlar, 1993-yilda Iordaniya Islom Fanlar akademiyasi a'zolariga M.S. Salohiddinov, YUNESKO Inforwatsiya Xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zolariga 1994- yil oktabr oyida Xudoyor Olloyorov, 1995- yil fevral oyida Azamat Shamsiyev Nyu-York FAning faxriy a'zolariga, ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zolariga Z.S. Salimov, A.A. Azamxo'jayev, 1997-yil oktabrida U. Tojixonov va 3. Zaripovlar tabiat va jamiyat fanlari Xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zolariga, akademik E. Yusupov esa Turkiya Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolariga saylandilar. Bular O'zbekiston fanining xalqaro miqyosda tan olinishining yaqqol misolidir. Yurtboshimiz I.A. Karimov aytganlaridek, XXI asrda qurolli, qo'shini kuchli bo'lgan davlatgina emas, balki turli sohalar bo'yicha kuchli mutaxassislari bo'lgan davlatgina qudratli davlat hisoblanadi. Zero, har bir xalq fan sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan mashhur farzandlari bilan ham buyukdir.

Mustaqillik yillarida madaniyat sohasida ham tubdan o'zgarishlar ro'y berdi. Bu, avvalo, teatr san'ati, milliy musiqa, me'morchilik, adabiyot sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Madaniyat mutaxassislarining ijodiy faoliyati, ularning moddiy va texnikaviy uskunalari, zamonaviy binolar bilan ta'minlanishi davlat rahbari Islom Karimovning bevosita g'amxo'rligida bo'ldi. 2001-yilning davlat budjetidan madaniyat va san'at muassasalarini rivojlantirish uchun 12 milliard 703 million so'm ajratilishi ikrimizning dalilidir. Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikada yangi teatr jamoalari tashkil etildi. 1991-yilda Farg'onada, 1993-

yilda Xivada davlat qo'g'irchoq teatri ish boshladi. 1994-yilda Qashqadaryo va Namangan viloyati teatri qoshida qo'g'irchoq guruhlari ochildi. 1993-yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlagan «Turkiston» saroyi nafaqat me'morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhlari va atoqli artistlarning chiqishlari bo'ladigan dargohga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov «Turkiston» saroyi ochilishi marosimida nutq so'zlab, «Ushbu saroyda xalqimizning, shuningdek, jahon xalqlarining, Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy anjumanlarini, san'at bayramlarini o'tkazishni niyat qilganmiz. Bu koshona, inshoollo, millatlar, el-elatlarning do'stlik, birodarlik qal'asiga aylandi», — degan edi.

1998-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Bu farmonga muvofiq O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'alarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol qatnashishini ta'minlash maqsadida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

O'zbekistonda musiqa va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs san'atini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutildi.

1998-yili mamlakatimizda birinchi marta simfonik musiqa festivali o'tkazildi.

Bugun milliy-an'anaviy qo'shiqchiligimiz bilan milliy estrada san'ati ham tobora rivojlanmoqda. O'lmas Saidjonov, Munojot Yo'lchiyeva, Nasiba Sattorova, Maryam Sattorova, Ismoil va Isroil Vahobovlar bilan bir qatorda Yulduz Usmonova, Farruh Zokirov va ularning yuzlab kasbdoshlari o'zbek qo'shiqchilik san'atini dunyoga olib chiqmoqdalar. Shavkat Mirzayev, Baxtiyor Aliyev, Abduhoshim Ismoilov, Anor Nazar, Dilorom Omonullayevalar yaratgan musiqaviy asarlar ayni ana shu ikki yo'nalishning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

An'anaviy «Sharq taronalari» festivali besh qit'a san'at ahlining diqqatini o'ziga tortdi. Dunyoda tinchlik va ezgulikni, barqarorlik va o'zaro bir-birini tushunishni qo'shiq orqali, san'at orqali amalga oshirish mumkinligini ko'rsatdi.

Milliy raqs san'ati an'alarini avaylab-asrash, ularni rivojlantirish, mamlakatimiz turli hududlarining o'ziga xos raqs

maktablari namunalari to'plash, shu asosda boy o'zbek raqs san'atini targ'ib etish maqsadida «Olim meros» xalqaro jamg'armasi qoshida O'zbekiston xalq artisti Qizlarxon Do'stmuhammedova rahbarligida «Munojot» milliy munotoz raqs ansambli tashkil etildi. O'sha fursatda bu ansambli san'at ixlosmandlarining e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Kino san'ati ustalari ham mustabidlik va mustaqillik davrlarining mohiyatini badiiyat vositasi bilan ochib berish yo'lida tinmay izlanib, xalqimizga o'zlarining yangi-yangi asarlarini taqdim etmoqdalar. O'zbek kinosi qariyb 85 yillik tarixga ega bo'lsa-da, chin ma'nodagi milliy o'zbek kinosi faqat mustaqillik yillaridagina shakllana boshladi. So'nggi yillarda yaratilgan «O'tkan kunlar», «Otamdan qolgan dalalar», «Shaytanat», «Yozning yolg'iz yodgori», «Kichkina tabib», «Voiz» kabi badiiy filmlar tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

Mustaqillik solnomasini yaratish hujjatli kino arboblari oldida turgan eng muhim vazifalardan ekavligi, tabiiy. Buni chuqur anglagan kinochilarimiz bir qator hujjatli filmlarni yaratdilar. Ular orasida, ayniqsa, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» asari asosida ishlangan ko'p qismli hujjatli film nafaqat xalqimiz, balki xorijlik tomoshabinlar tomonidan ham yuqori baholandi. Angliya, Germaniya, Belgiya, Daniya kabi bir qator chet mamlakatlarda bu filmning taqdimoti bo'lib o'tganligi fikrimizning isbotidir.

Mustaqillik o'zbek badiiy adabiyoti rivojida, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi bosqichni boshlab berdi. Asarlari zararli, o'zlari millatchi deb nohaq baholangan Cho'lpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvarqori singari millatparvar yozuvchi, ma'rifatparvarlar ijodi xolisona o'rganila boshlandi. Ularning asarlari chop etildi, sahna yuzini ko'rdi.

Jadidchilik harakatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o'rni ro'yi ro'st ko'rsatish boshlandi. Bir vaqtlar diniy va saroy adabiyoti vakili deb nohaq qoralangan Ahmad Yassaviy, Boqirg'oniy, G'azzoliy, Xoja Ahror, Baxouddin Naqshband, Husayn Boyqaro, Feruz singari buyuk shoir va nutafakkirlar hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari halqqa qaytarildi.

A. Navoiyning yuksak insoniy g'oyalari diniy manbalar asosida yorituvchi «Munojot», «Arba'in», «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg'ambarlar va hokimlar haqida») kabi asarlar nashrdan chiqdi. Mustaqillik sharofati bos mo'tabar Qur'on va hadislar chop etildi. Iste'dodli olim Hamidulla Karomatovning «Qur'on va o'zbek adabiyoti» nomli kitobi nashr etildi. Aytish mumkinki bunday asarlarning xalqimiz qo'lga yetib borishi

butunlay yangi, sog'lom, sof milliy g'oyalarimizning, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Mazkur tadqiqot va unga o'xshagan boshqa asarlar milliy istiqlol mafkurasining tantanasini ko'rsatadi.

Atoqli olim B. B. Ahmedovning «Amir Temur», T. Malikning «Shaytanat» romanlari, E. Vohidov, O. Matjon, O. Xojiyeva, X. Sultonov, A. Suyun, Y. Eshbek, X. Do'stmuhammad, Sh. Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari tufayli o'zbek milliy istiqlol adabiyoti shakllandi.

Sharq va Fapb me'morchiligi uyg'unlashgan binolar yurtimiz poytaxti va viloyat markazlarida qad ko'tarib, shaharlarimiz husniga husn qo'shmoqda. Milliy bank, mehmonxona binolari, bozorlar qurilishi, ko'priklar va yo'llar, sport saroylari hamda madaniyat va istirohat bog'larining bunyod etilishi buning yorqin misolidir. Haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, tasviriy san'at, raqs, kino san'atlarida ham an'anaviy va zamonaviy usullar uyg'unlashib yetuk asarlar yaratildi va yaratilmoqda.

Xullas, mustaqillik yillarida fan va madaniyat sohasida hukumatimiz rahbarligida va homiyligida qisqa muddat davomida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi.

19.3. Milliy istiqlol mafkurasining shakllanishi

Sotsialistik tizimning halok bo'lishi, sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi avvalambor, o'sha tuzumning nazariy, g'oyaviy asoslarining tanglikka uchraganining oqibati bo'ldi. Sotsialistik, kommunistik mafkura ko'p yillar davomida kishilarimiz ongini chalg'itib keldi-yu, oxir-oqibatida uning inson manfaatiga batamom zid ekanligi oshkora bo'ldi va hayot uni inkor etdi.

Mamlakatimiz Prezidenti yosh avlodni tarbiyalash, maktab, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu masalalar I. A. Karimovning asarlarida chuqur yoritilgan:

1. Yuksak malakali pedagoglar tayyorlash zarur. «Har birimiz o'qituvchilik kasbini, pedagogning og'ir mehnatini o'ta muhim va olijanob ish sifatida qadrlashimiz zarur». — deydi I.A. Karimov. Ayniqsa, qishloq o'qituvchilari yordamga muhtoj.

2. Yangi dasturlar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar tayyorlash to'g'risida...

3. Maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash vazifalari. Har bir mahalla, ayrim ishbilarmonlar tashabbus bilan maktab binolarini quryapti, buni butun Respublikaga tarqatish kerak.

Jamiyatimizda siyosiy mustaqillikka erishib iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda, kishilar ongida mustaqillik g'oyasi, milliy istiqlol mafkurasi mustahkam o'rin olishi zarur. Buning uchun, ya'ni fikrlash, e'tiqod o'zgarimasdan bozor munosabatlariga o'tish davrida siyosiy-iqtisodiy barqarorlik mustahkam bo'lishi qiyin vazifa. I.A. Karimov milliy mustaqillik mafkurasiga ta'rif berib, milliy mustaqillik mafkurasining «... asl ma'nosi eskicha aqidalardan holi bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat», deydi. Mustaqillik g'oyasi, mafkurasining xalqimizga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsadlar uchun butun kuchlarimizni uyg'unlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib, Prezident I.A. Karimov mustaqillikning dastlabki davrida, 1993-yil 6-may O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II chaqiriq, XII sessiyasida «Oldimizda turgan eng muhim masala - bu milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir», degan edi. Kishilarimizni qaysi toifa va guruhdan bo'lishidan qat'iy nazar ma'naviy inqirozdan chiqaradigan yagona milliy g'oya atrofida birlashtiradigan birdan bir qudratli kuch ana shu milliy mustaqillik mafkurasidir.

Yagona maqsad, yagona g'oya bo'lmasa, jamiyat inqirozga uchraydi. Buni biz yaqin va olis o'tmishdagi tariximizdan bilamiz. Milliy mafkura kelajak maqsadni ifodalaydigan, xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog'laydigan, ana shu yuksak maqsad yo'lida yuzdan ortiq millatlar va elatlarni, barcha kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazifasini bajaradi.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish yo'lidagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy ishlarimizdagi barqarorlik mafkuraviy tahdidlarning oldini olishni muhim vazifa qilib qo'yadi.

Milliy istiqlol mafkurasining ahamiyatini ko'rsatib, yurtboshimiz I.A. Karimov: «...xalqimizning an'analari, adabiyatiga, diniy, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirish lozim», degan edi.

Milliy mustaqillik mafkurasining eng muhim vazifalaridan biri mustaqilligimizning tayanchi va kelajagi yosh avlodni insoniy, milliy g'urur, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. Mustaqillik g'oyalari mafkurasiga e'tiborsizlik og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

1999-yil 16-fevral «qonli seshanba» kuni, 2005-yil 13-maydagi Andijon voqea-ri milliy mustaqillik g'oyasini, mafkurasini

yoshlarimiz diliga yetkazish zarurligini, buning uchun g'oyaviy, mafkuraviy ishlarimizni kuchaytirish lozimligini ko'rsatdi.

19.4. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va kadrlar tayyorlash milhy dasturi

Istiqlol yo'lida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma'naviy, madaniy omillarga e'tibor berish bilan birga, fan, maorif, ta'lim-tarbiya ishlariga ham e'tibor kuchaytirildi.

«Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa, biz ko'zlagan oliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi», — deydi I.A. Karimov.

Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda, O'zbekiston hukumati tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnika bazasini, zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekistonning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Shu maqsadda 1997-yil 29-iyulda Respublikamizda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Ta'limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- ta'lim tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarining ustuvorligi;
- e'tiqodi, dinidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyatlari yaratilganligi;
- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan xoliligini.

1993-yil Respublikamiz Prezidenti tomonidan «O'zbekistonda o'quvchi yoshlarni rag'batlantirish chorolari to'g'risi»dagi farmoniga binoan talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilandi. Ular uchun hatto rivojlangan davlatlardagi universitetlarda ta'lim olish, ulardagi ilmiy markazlarda ishlash, malakalarini oshirish uchun sharoitlar yaratib berildi.

O'zbekiston mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab eng muhim masalalardan biri eski tafakkur, e'tiqodidan qutulgan istiqbol uchun, o'z ona yurti uchun xizmat qiladigan kadrlar tayyorlash masalasi turdi. Eski tuzumni asta-sekin tag-tomiri bilan tugatib, batamom yangi, jahonning ilg'or taraqqiy etgan

mamlakatlari yo'lidan boradigan haqiqiy demokratik jamiyat qurish endilikda yangicha fikrlaydigan quyidan tortib yuqori toifadagi kadrlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyatda rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida Prezident qoshida «Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi», «Jahon iqtisodiyoti diplomatiyasi universiteti», ayrim vazirliklar qoshida akademiyalarni tashkil etilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Respublika va viloyatlarning rahbar xodimlari bilan uchrashuvlarida hokimiyatlar, huquq organlarining ayrim xodimlari tomonidan tartib-intizomning, qonunchilikning buzilayotgani to'g'risida har gal kuyib-pishib gapiradi va urug'-aymoqchilik, mahalliychilik, nopoklik kabi o'tmish qoldiqlaridan toza, el-yurti va xalqiga halol xizmat qiladigan yosh kadrlarni tayyorlash, ularga yo'l ochib berish zarurligini qayta-qayta takrorlab ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqilligining kelajagi yuqori malakali, ma'rifatli, el-yurtiga sadoqatli mutaxassislarni tayyorlashga bevosita bog'liq. I.A. Karimov muxbirlarning: «Sizning siyosatingizda ta'lim-tarbiya masalasiga katta e'tibor berilishining sabablari nimada?» deb so'ragan savoliga, o'ngni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib yangi jamiyat qurib bo'lmaydi, ong, g'oya, tafakkur ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'liq, bir-birini to'ldiradi deb javob berdi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bir qancha muhim natijalarga olib keladi:

jamiyat qiyofasini o'zgartirib, yangi muhitni vujudga keltiradi;

yosh yigit-qizlarimiz jamiyatda o'z o'rnini topadi;

mustaqil fikrlovchi, erkin shaxsning shakllanishiga sharoit yaratiladi;

jamiyat yuqori darajadagi taraqqiyotga erishib o'tish davriga mos bo'lgan kuchli davlat funksiyalarini kuchli fuqarolar jamiyati zinunasiga o'tkazish uchun ijtimoiy-siyosiy vaziyatni vujudga keltiradi.

1997-yil 29-avgustda Respublika Oliy Majlisining IX sessiyasida I.A. Karimovning «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ruzasi asosida «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Istiqlol yillarida maktabgacha tarbiya muassasalarida, boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirilib, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari tizimida litseylar, kollejlarni

biznes maktablari ochildi. 8 ta institut asosida universitetlar tashkil qilindi. Prezidentimiz mazkur o'quv yurtlarining istiqboli haqida to'xtalib, jumladan, shunday degan edi: "2005-yilga qadar biz respublikamizda 1611 ta kasb-hunar kolleji va 181 ta akademik litseydan iborat bo'lgan o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlarining zamonaviy tarmoqlarini bunyod etishimiz kerak. Bu to'qqizinchi sinflarni bitiruvchilarni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maktablariga to'la qamrab olishni ta'minlaydi."

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarga e'tibor kuchayib, ularning xorijiy mamlakatlardagi yetakchi o'quv yurtlarida ilm-fan cho'qqilarini egallashini tashkil qilish uchun «Ulug'bek» (1993-yil), «Kamolot» (1996-yil), «Umid» (1997-yil) jang armalari tashkil etildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tamoyillari aniq belgilab ko'rsatildi:

- uzluksizlik: ta'lim-fan-ishlab chiqarish;
- mutaxassislariga talab istiqbolini o'rganish;
- o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash;
- o'quvchi yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloqli, ma'naviyatli va vijdonli etib tarbiyalash;
- korxonalarda maktab-institutlar bazasini mustahkamlashdan foydalanish;
- chet el sarmoyalaridan foydalanish. «Ta'lim to'g'risi»dagi yangi qonunga ko'ra uzluksiz ta'lim bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi zarur:

1. Maktabgacha — oila va bog'cha tarbiyasi.
2. Boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflar.
3. Umumiy ta'lim majburiy bo'lib, 5-9-sinflarda umumiy bilim usoslari, dunyoqarash shakllanadi.
4. Majburiy-ixtiyoriy tUSDagi o'rta maxsus bilim va kasb-hunar o'quv yurtlari: 3 yilga mo'ljallangan akademik litseylar, maxsus kasb-hunar kollejlari.
5. Oliy ta'lim: bakalavr-4 yil, magistratura-2 yil o'qish muddati, keyinchalik ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun aspirantura — 3 yil, doktorantura — 2 yil muddatga belgilangan.

Ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

- I. 1997-2001- yillar. O'tish davri.
- II. 2000-2005- yillar-Islohotni keng miqyosda amalga oshirish davri.
- III. 2005 yildan keyin kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish davri.

Ishtiqlolning dastlabki kunlaridan o'q xalq ta'limi tizimini jadal isloh qilishga kirishildi. Bir qator o'quv yurtlarining maqomi, dasturlari va ta'lim ushblari butunlay o'zgartirildi. Eng zamonaviy, shu paytgacha bo'lmagan eng zarur ixtisosliklar bo'yicha alohida universitet va institutlar, jumladan, Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog'konchilik instituti kabi o'nlab yangi o'quv muassasalari tashkil etildi.

Ayni paytda, xalq ta'limi tizimini ham tubdan isloh qilish boshlandi. Ilg'or mamlakatlarning tajribalari asosida va chet davlatlar bilan hamkorlikda ko'plab litsey va gimnaziyalar ochildi. Majoziy qilib aytganda, O'zbekistonda litseydan tortib akademiya gacha bo'lgan zamonaviy, yangi ta'lim tizimi vujudga keltirildi. Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagi «2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 321-sonli qarori qabul qilindi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 15-iyuldagi 335-sonli qaroriga asosan o'qituvchilarning stavka ishi haqi jamg'armalari oshirildi. Hukumatimiz tomonidan ta'lim fidoyilariga berilayotgan e'tibor o'z samarasini ko'rsatishi, shubhasizdir.

O'tgan qisqa 3-yillik davr ichida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishdagi natijalar ko'zga ko'rinarli darajadadir.

Davlatimizdagi ustuvor vazifa aholi sog'ligini saqlash borasidagi tadbirlardir. Shu maqsad uchun 1999-2000-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi ishlab chiqildi. Sog'lom avlod masalasi asosiy maqsadga aylandi. Yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash, onalik va bolalikni himoya qilish muhim vazifa bo'lib qoldi.

Mamlakatda «Sog'lom avlod» dasturi ishlab chiqildi. Jismoniy sog'lomlik, barkamol insonni tarbiyalash, odob-axloq masalalari bilan birga olib boriladi. Respublikamizdan chiqqan ko'plab sportchilarimiz Osiyo va jahon chempionatlarida ishtirok etib kelmoqdalar va g'oliblikni qo'lga kiritmoqdalar. Ular uchun bir qancha stadionlar, sport maydonlari, futbol, voleybol, basketbol maydonchalar, sport komplekslari qurilib, qayta tiklanib, foydalanish uchun topshirildi.

Respublikada birinchi bo'lib «Sog'lom avlod uchun» ordeni ta'sis etildi. Davlatimiz oldingi qo'sqan ulug' maqsadlaridan biri barkamol insonni tarbiyalashdir. Shu maqsadni ko'zlab

Ayni paytda, xalq ta'limi tizimini ham tubdan isloh qilish boshlandi. Ilg'or mamlakatlarning tajribalari asosida va chet davlatlar bilan hamkorlikda ko'plab litsey va gimnaziyalar ochildi.

respublikamizda 1998-yil «Oila yili», 1999-yil «Ayollar yili», 2000-yil «Sogʻlom avlod uchun yili», 2001-yil «Onalar va bolalar yili», 2002-yil "Qariyalarni qadrlash" yili. 2003-yil «Obod mahalla yili», 2004-yil "Mehr va muruvvat" yili. 2005 yil «Sihat-salomatlik yili» 2006-yil «Xomiyalar va shifokorlar yili» deb eʼlon qilindi.

Respublikamizda har bir yil qanday nomlangan boʻlsa, shu yil uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilib, keng koʻlamdagi ishlar amalga oshirildi. Masalan, onalik va bolalikni himoya qilish borasida bir qancha tadbirlar oʻtkazildi. Yangi imkoniyatlarga ega boʻlgan shifoxonalar qurilib, zamonaviy texnologiya bilan taʼminlandi. Bepul davolash yoʻliga qoʻyilib, Respublika viloyatlarida dam olish va sogʻlomlashtirish maskanlari bunyod etildi.

Umuman, Oʻzbekiston oʻzining qisqa vaqtidagi mustaqillik yillari davomida iqtisodiy-ijtimoiy boradagi yutuqlari bilan bir qatorda, maʼnaviy, madaniy ishlarga ham eʼtiborni kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida oʻz nufuzi va obroʻsini yuqori koʻtarmoqda.

Tayanch tushunchalar

Maʼnaviy meros, madaniy taraqqiyot, «Oltin meros» jamgʻarmasi, «Maʼnaviyat va maʼrifat» markazi, Milliy qadriyatlarining tiklanishi, Milliy istiqlol mafkurasi, milliy gʻoya, taʼlim-tarbiya tizimi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.«Maʼnaviyat va maʼrifat» jamoatchilik markazi qanday maqsadlarni koʻzlab tutildi?
- 2.Mustaqil Oʻzbekiston Respublikasida diniy qadriyatlarga qanday eʼtibor bilan qaralmoqda?
- 3.Oʻzbekiston olimlari jahon ilm-fani va madaniyatiga qoʻshib kelayotgan hissalaridan misollar keltiring.
- 4.Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston Respublikasida madaniyat sohasida qanday oʻzgarishlar yuz berdi?
- 5.Taʼlimni isloh qilish qanday tamoyillar asosida olib boriladi?
- 6.Taʼlim-tarbiya sohasidagi islohotlarni amalga oshirish qanday natijalarga olib keladi?
- 7.Uzluksiz taʼlim qaysi bosqichlarda amalga oshiriladi?

markaziy o'rin tutgan O'zbekistonning ushbu mintaqada kuchlanishlari va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlari bor.

20-mavzu. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash; jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifalar deb belgilandi. Chunki ittifoq davrida O'zbekiston to'g'ridan to'g'ri aloqa bilan olmaydigan mamlakat bo'lib tashqi siyosat yuritish tajribasiga hamda bu sohadaagi kadrlarga ega emas edi.

Adabiyotlar

Karimov I. Prezident I. Karimovning O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li» kitobi. — Mustaqil tashqi siyosatni nazariy va

20.1 Tinchliksevar tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi, uning muhim tamoyillari

Davlatimiz tashqi siyosatining ma'no-mazmuni va maqsadi bitta - u ham bo'lsa, O'zbekiston manfaatini va yana bir bor O'zbekiston manfaatidir.

I. Karimov

XX asrning oxirgi o'n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o'zgarishlar davri bo'lib kirdi, chunki yer yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o'zgarib, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan SSSR va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Lekin endilikda sovuq urushlar munosabatlarini tug'diradigan kuchlarning yangi o'choqlari vujudga kelmoqda. SSSRning parchalanishi va sotsialistik sistema halokati natijasida dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi.

Mustaqil O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yishi va o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay geografik-strategik imkoniyatlarga ega. O'rta Osiyoda geografik-siyosiy jihatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekistonning ushbu mintaqada kuchlar nislati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlari bor.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash; jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifalar deb belgilandi. Chunki ittifoq davrida O'zbekiston to'g'ridan to'g'ri aloqa bilan olmaydigan mamlakat bo'lib tashqi siyosat yuritish tajribasiga hamda bu sohadaagi kadrlarga ega emas edi.

Prezident I. Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li» kitobi. — Mustaqil tashqi siyosatni nazariy va

amaliy jihatdan asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosatining qoidalari qonunlashtirildi. Bu qoidalar «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi hujjatlarda o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48- (1993) va 50-yubiley (1995) sessiyalaridagi nutqlarida mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining bosh yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar, hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;

- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

- nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;

- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;

- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;

- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;

- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;

- davlatlararo aloqalarda teng huquqlik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Tashqi siyosatdagi ochiq-oydinlik, teng huquqlilik, demokratik prinsiplarga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash, Respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish bilan birga, O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi mavqecini ham oshirib bormoqda.

20.2. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning

jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 180 dan ortiq davlat tan oldi, ularning 100 dan ortig'i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda O'zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish yo'lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot va boshqa moliyaviy- iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlik qilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar-Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon Intellektual mulk tashkiloti, BMTning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ularning vakolatxonalari Respublikamizda ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi, Qo'shilmalik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. I. A. Karimov 1999-yili aprelda Shimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturining a'zosi sifatida NATO ning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi.

O'zbekiston O'rta Osiyo davlatlari bilan Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va Trans Osiyo temir yo'lini qurilishida faol ishtirok etmoqda. Bu O'zbekiston uchun dengiz yo'llariga, xalqaro transport tarmog'iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta ahamiyat berilmocda. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O'zbekiston quyidagi tamoyillarga amal qiladi.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish.

2. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta'minlagan xuquqiy ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar

yaratish, tashkilotlar va muassasalar tuzish.

3. Ilg'or texnologiyaning kirib kelishiga, xo'jalik tarkibini zamonaviylashishiga ko'maklashadigan xorijiy sarmoyalarga nisbatan «ochiq eshiklar» siyosatini o'tkazish.

4. Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan o'ta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi va «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi, «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Bu huquqiy hujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Tashqi savdo uchun imtiyozlar berildi. Tovarlarini import va eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi.

O'zaro sarmoyalarni himoya qilish maqsadida jahonning ko'pgina mamlakatlari, jumladan, Germaniya, Turkiya, AQSH, Fransiya va boshqa mamlakatlar bilan shartnomalar imzolandi.

Institutsional o'zgarishlar sohasida siyosiy va moliyaviy xatarni himoya qiluvchi «O'zbekinvest», Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki «ALC,inc» Amerika moliyaviy guruhi bilan birgalikda Londonda Siyosiy xatarning shtab kvartirasi va Toshkentda moliyaviy xatarning oldini olish shtab kvartirasi bilan o'zaro sug'urta kompaniyasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida investitsiyalarga ko'maklashish muassasalari chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Lizing kompaniyasi tashkil etildi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan siyosati Respublikaga xorijiy sarmoyalarning to'xtovsiz kirib kelishini ta'minlamoqda. O'zbekiston hukumati Kanada, XXR, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, Shveysariya banklari va firmalari bilan yirik kredit bitimlari tuzdi va ular amalga oshmoqda. Faqat 1994-yilda respublikaga 640 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kreditlari berish to'g'risida xalqaro moliya muassasalari va xorijiy sarmoyadorlar bilan tuzilgan bitimlar asosida Amerikaning «Nyumont-Mayning» kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib oladigan «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi qurilib ishga tushirildi. Toshkentda xalqaro savdo-ko'rgazma kompleksi, Xorazmda qand-shakar zavodi qurildi.

jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 180 dan ortiq davlat tan oldi, ularning 100 dan ortig'i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda O'zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish yo'lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot va boshqa moliyaviy- iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlik qilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar-Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon Intelktual mulk tashkiloti, BMTning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ularning vakolatxonalari Respublikamizda ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi, Qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. I. A. Karimov 1999-yili aprelda Shimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturining a'zosi sifatida NATO ning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi.

O'zbekiston O'rta Osiyo davlatlari bilan Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va Trans Osiyo temir yo'lini qurilishida faol ishtirok etmoqda. Bu O'zbekiston uchun dengiz yo'llariga, xalqaro transport tarmog'iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O'zbekiston quyidagi tamoyillarga amal qiladi.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish.

2. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta'minladigan xuquqiy ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar

yaratish, tashkilotlar va muassasalar tuzish.

3. Ilg'or texnologiyaning kirib kelishiga, xo'jalik tarkibini zamonaviylashishiga ko'maklashadigan xorijiy sarmoyalarga nisbatan «ochiq eshiklar» siyosatini o'tkazish.

4. Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan o'ta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi va «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi, «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Bu huquqiy hujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Tashqi savdo uchun imtiyozlar berildi. Tovarlarini import va eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi.

O'zaro sarmoyalarni himoya qilish maqsadida jahonning ko'pgina mamlakatlari, jumladan, Germaniya, Turkiya, AQSH, Fransiya va boshqa mamlakatlar bilan shartnomalar imzolandi.

Institutsional o'zgarishlar sohasida siyosiy va moliyaviy xatarni himoya qituvchi «O'zbekinvest», Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki «ALC,inc» Amerika moliyaviy guruhi bilan birgalikda Londonda Siyosiy xatarning shtab kvartirasi va Toshkentda moliyaviy xatarning oldini olish shtab kvartirasi bilan o'zaro sug'urta kompaniyasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida investitsiyalarga ko'maklashish muassasalari chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Lizing kompaniyasi tashkil etildi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan siyosati Respublikaga xorijiy sarmoyalarning to'xtovsiz kirib kelishini ta'minlamoqda. O'zbekiston hukumati Kanada, XRR, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, Shveysariya banklari va firmalari bilan yirik kredit bitimlari tuzdi va ular amalga oshmoqda. Faqat 1994-yilda respublikaga 640 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kreditlari berish to'g'risida xalqaro moliya muassasalari va xorijiy sarmoyadorlar bilan tuzilgan bitimlar asosida Amerikaning «Nyumont-Mayning» kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib oladigan «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi qurilib ishga tushirildi. Toshkentda xalqaro savdo-ko'rgazma kompleks, Xorazmda qand-shakar zavodi qurildi.

Janubiy Koreya sarmoyadorlari bilan «O`zDEU avto», «O`zDEU elektroniks» hissadorlik birlashmalari keng faoliyat ko`rsatmoqda. Germaniya va Janubiy Koreya bilan hamkorlikda telefon tarmoqlari yangilandi. Shuningdek, xorijiy sarmoyalar natijasida O`zbekistonda "SamKuchavto" Ko`kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi va boshqalar qurildi. Bugungi kunda O`zbekistonning barcha rivoj topgan xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari kengayib bormoqda.

20.3. O`zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi

O`zbekiston hamdo`stlik g`oyasini qo`llab, uning ta`sis etuvchilaridan biri bo`lib, ular bilan iqtisodiy integratsiya hamda savdo aloqalarini mustahkamlash borasida faol ish olib bormoqda. O`zbekiston davlatlararo bank va boshqa hamdo`stlik iqtisodiy tuzilmalarining shakllanishida faol ishtirok qilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Hamdo`stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo`lga qo`yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda.

O`zbekiston Respublikasi hamdo`stlik doirasida ikki tomonlama tashqi siyosiy, savdo, iqtisodiy va boshqa shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova, MDHning boshqa mamlakatlari bilan shartnoma imzolab, o`zaro manfaatli hamdo`stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi..

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V. Putinning 1999-yil dekabr va 2000-yil may oyidagi O`zbekistonga qilgan tashriflari va Respublikamiz Prezidenti I.Karimovning 2005-yil va undan oldingi yillarda Rossiyaga qilgan tashriflari Rossiya va O`zbekistonning o`zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarini mustahkamlashda, ikki davlatning diniy ekstremizmi va xalqaro terrorizmga qarshi kurashida alohida o`rin tutadi.

Hamdo`stlikka a`zo bo`lgan davlatlarga milliy mudofaani kafolatlashga, ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari va aloqa vositalari, yangi texnologiyaga erishish, xorijiy davlatlardan mahsulot tashish, zarur homashyo va tayyor mahsulotlarni keltirish hamda o`z mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish ekologiya sohasida tadbirlarni birgalikda o`tkazish tabiiy ofatlar oqibatini tugatish uchun imkoniyatlar yaratildi.

MDH davlatlari orasidagi munosabatlar tizimi va yo`nalishining tubdan o`zgarishi da bu davlatlarning ko`pchiligida savdo to`lov sohasida manfaatdorlikka ega. Shu bilan birga shu

alohida ta'kidlab aytish zarurki, sobiq Ittifoqni qayta qurishga urinish, ma'muriy buyruqbozlik boshqaruv tuzumiga qaytish O'zbekiston uchun umuman to'g'ri kelmaydigan harakatdir.

O'rta Osiyo Respublikalari rahbarlari A. Akayev, N. Nazarboyev, I. Rahmonov 2000-yil 20-21-aprel kunlari Toshkentdagi Prezidentning Do'irmon qarorgohida bo'lib o'tgan uchrashuvda LA Karimovning xalqaro terrorizmga qarshi kurash Xalqaro markazi tuzish haqidagi tashabbusini qo'llab-quvvatladilar. To'rt davlat rahbarlari mintaqada xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm va boshqa tahdidlarga qarshi birgalikda harakat olib borish haqidagi hujjatni imzoladilar.

Uchrashuvda Qozog'iston va O'zbekiston prezidentlari chegaralar masalasida ikkala davlat orasida erkin harakatlanish to'g'risida, yo'lovchi va yuk tashish transportlarni kengaytirish to'g'risida kelishib olishdi.

O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar-Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, qardoshlarcha do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Qardosh xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi va boshqa ko'pgina tomonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda ham bu davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari, ekologik muammolari o'zaro aloqalarni kuchaytirishni talab qiladi. Shularni hisobga olib, 1994-yil 10-yanvarda O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budjet, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta'minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu shartnomaga Qirg'iziston, keyinchalik Tojikistonning ham kirishi O'rta Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi. Kelishuvda qatnashgan mamlakatlar vakillarining davlatlararo ijroiya qo'mitasi Almati shahrida joylashgan bo'lib, Toshkent shahrida hududiy Markaziy bank faoliyat ko'rsatmoqda.

1995-yil 15-dekabrda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalari davlatlararo Kengashining navbatdagi majlisi bo'ldi. Prezidentlar 2000-yilgacha bo'lgan iqtisodiy integratsiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan loyihalar dasturlarini hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokama etdilar. Integratsiya dasturi yuzasidan 53 ta loyiha ishlab chiqildi. O'rta

borish haqidagi hujjatni imzoladilar.

Osiyo davlatlari rahbarlarining Qizil O'lda (1993), rikus (1994), Toshhovuz (1995) shaharlarida bo'lib o'tgan uchrashuvlarida Orol dengizi munamosiga bag'ishlangan chora-tadbirlar ko'rdi.

2000-yilning 14-15-iyun kunlari Prezident I.A. Karimov Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatining davlatlararo kengashida qatnashish uchun Dushanbe shahrida bo'ldi.

Yig'ilishda so'zga chiqqan I. A. Karimov hududagi Respublikalar iqtisodiyotining sezilarli darajada o'sganini ko'rsatdi:

O'zbekistonda bu o'sish 4,4 foizni, Qozog'istonda 1,7 foizni, Qirg'izistonda 3,6 foizni, Tojikistonda 3,7 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston Prezidenti bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo'yicha strategik markaz tashkil qilishni taklif etdi. Markaz iqtisodiy modullarni solishtirish, vujudga kelgan muammolarni hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish bilan shug'ullanishi zarur.

Kengashda mintaqaning suv resurslaridan samarali foydalanishi, Sarez ko'lining toshish xavfini oldini olishda Tojikistonga yordam berishga e'tibor qaratildi.

Uchrashuvda I.A.Karimov xalqaro terrorizm xavfi keskinligini qayd etdi. O'zbekiston Prezidenti yig'ilish qatnashchilarini hamda BMT qiyofasidagi butun xalqaro hamjamiyatni tahdid solayotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirishga chaqirdi. Bu masalaga keyingi uchrashuvlarda ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida «Bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo'lib qolmoqda. XXI asr vabosi bo'lgan ushbu illatga qarshi jahon hamjamiyatining murosasiz kurashini O'zbekiston qo'llab quvvatlaydi», degan edi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamdo'stligi ing tuzilishi ularning boshqa davlatlardan uzoqlashishini ko'rsatmaydi, balki murakkab o'tish davrida mintaqa mamlakatlarining o'zaro yordam va hamkorligini chuqurlashtirishga qaratilganidir.

daylatlardan uzoqlashishni ko'rsatmaydi, balki murakkab o'tish davrida mintaqa mamlakatlarining o'zaro yordam va hamkorligini chuqurlashtirishga qaratilganidir.

Tinchlik va barqarorligimizning muhim omili

O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiya iqtisodiy ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma mintaqada tinchlik

energetika inamidagi sarmoyaviy hamkorligi ayniqsa diqqatga sazovordir. 2005 yilda Rossiya bizdan 8,115 milliard kub metr miqdorida gaz sotib oldi. «O'zbekneftgaz» milliy xolding va barqarorlikning kafolati» bo'lib xizmat qilmoqda. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2005 yil noyabr oyida Rossiyaga rasmiy tashrifi chog'ida ikki davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Rossiya federatsiyasi bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish haqidagi Rossiya Federal qonuniga imzo chekdi. Ushbu qonun Rossiya Federatsiyasining Davlat Dumasi va Federatsiya Kengashi tomonidan tasdiqlangan. Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi bilan mamlakatimiz tarixida hamkorlikning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yildi. O'zbekiston va Rossiya aloqalari suveren davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga berilishi mumkin bo'lgan eng yuqori maqomga erishdi. Shartnomada xavfsizlik, harbiy va harbiy texnikaviy hamkorlik, qurolli kuchlarni zamonaviylashtirish va isloh qilish masalalari qo'yilgan. Shuningdek, telekommunikatsiya, energetika, sug'urta, bank moliya sohalarini rivojlantirish, xalqaro transport infratuzilmalaridan o'zaro manfaatli asoslarda foydalanish ham nazarda tutilgan.

2005 yil yakunlari Rossiya O'zbekistonning savdo sohalaridagi asosiy sherigiga aylanganini ko'rsatdi. Mamlakatimiz ana shu davrda dunyoning 100 dan ortiq davlatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini amalga oshirgan bo'lishiga qaramay, jami tovar aylanmasining 21,7% Rossiya hissasiga to'g'ri keldi. 2005 yilda yurtimizdan ushbu mamlakatga eksport hajmi 41,6% ko'paydi va 1026,5 mln dollarga yetdi. Rossiyadan import hajmi esa 12,7% ga oshdi va 1034 mln dollarni tashkil etdi.

O'zbekiston tabiiy gaz qazib olish bo'yicha MDHda 3-o'rinda, dunyo miqyosida esa gaz qazib oluvchi 10 ta yirik mamlakat safida turibdi. Shu ma'noda, mamlakatimizning Rossiya bilan yoqilg'i-energetika majmuidagi sarmoyaviy hamkorligi ayniqsa diqqatga sazovordir. 2005 yilda Rossiya bizdan 8,115 milliard kub metr miqdorida gaz sotib oldi. «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi bilan «Lukoil» va «Gazprom» ochiq aksionerlik jamiyatlari o'rtasida imzolangan hujjatlar yurtimiz neft gaz sanoatiga 2,5 milliard AQSH dollari hajmida sarmoya kiritilishini ko'zda tutadi.

Ta'lim, kadrlar tayyorlash sohasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik ham mavjud bo'lib, bugungi kunda Rossiyaning iqtisodiyot, servis, tibbiyot, boshqaruv, lingvistik, pedagogika, qishloq xo'jaligi, informatika va yangi sanoat texnologiyalari sohalarida mutaxassislar tayyorlaydigan o'nlab oliy o'quv yurtlari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Toshkentda G. Plexanov nomidagi akademiya filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, 2006 yil sentabr oyidan M.

Leonosov nomidagi mosva davlat universitetining Toshkent filiali bilan yuqori malakali mutavassilar tayyorlashga kirishadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 2006 yil 12 may kuni amaliy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida bo'ldi. Uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish masalalari, tomonlarni qiziqtirgan xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik muammolar yuzasidan fikr almashildi.

Xulosa. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davida xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish borasida bir necha o'n yillarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shmichilik, o'zaro foydali, hamkorlikka qaratilgan, siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rini egalladi, uning mavqei yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

Tayanch tushunchalar

Tinchliksevar tashqi siyosat, geografik-strategik imkoniyat, xorijiy investorlar, tashqi siyosatning asosiy tamoyillari, «ochiq eshiklar» siyosati, bankrotlik, jahon hamjamiyati, tadbirkorlar palatasi, Lizing kompaniyasi, hamdo'stlik mamlakatlari, Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati.

Takrorlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining qoidalari qaysi hujjatlarda o'z ifodasini topgan?

2. Mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatda qanday tamoyillarga amal qiladi?

3. O'zbekiston Respublikasi qanday halqaro tashkilotlarga a'zo?

4. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O'zbekiston qanday tamoyillarga amal qiladi?

5. Mustaqil O'zbekiston Respublikasiga qaysi davlatlarning investorlari o'z sarmoyalarni qo'ymoqdalar?

6. Mustaqil davlatlar hamdo'stligini tuzish bilan unga a'zo bo'lgan davlatlar o'zlari uchun qanday imkoniyat eshiklarini ochdilar?

7. Markaziy Osiyo davlatlari hamdo'stligi faoliyati qanday maqsadlarga qaratilgan?

8. Bugungi kunda O'zbekiston va Rossiya aloqalari qay darajada?

MUNDARIJA

1-mavzu. O'zbekiston tarixi fani predmeti, nazariy-uslubiy asoslari va uni o'rganishning ahamiyati...	8
2-mavzu. O'rta Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri...	13
3-mavzu. O'zbek xalqining etnik shakllanishi...	21
4-mavzu. O'zbek xalqi davlatchiligining tarixiy asoslari va dastlabki bosqichlari...	29
5-mavzu. Buyuk ipak yo'li. Shakllanishi, rivojlanishi, tarmoqlari va ahamiyati...	44
6-mavzu. O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish (renessans) davri, ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi (IX-XII, XIV-XV asrlar)...	50
7-mavzu. Amir Temur davlati va uning huquqiy-g'oyaviy asoslari...	65
8-mavzu. Turkistonning xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari...	76
9-mavzu. Chor Rossiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati...	83
10-mavzu. Chorizm istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi. Jadidchilik...	93
11-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Istiqlolchilik harakati...	106
12-mavzu. Mustabid sovet tuzumining O'zbekistondagi qatag'onlik siyosati...	116
13-mavzu. Sovetlar davrida O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy qaramligi hamda uning oqibatlari...	127
14-mavzu. Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan galabaga qo'shgan hissasi...	144
15-mavzu. Sovetlar imperiyasining tanazzulga yuz tutishi va O'zbekiston (1985-1991 y.)...	159
16-mavzu. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va uning jahonshumul tarixiy ahamiyati...	164
17-mavzu. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi...	173
18-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti...	185
19-mavzu. O'zbekistonning ma'naviy, madaniy taraqqiyoti...	195
20-mavzu. O'zbekiston va jahon hamjamiyati...	210

Y. RAXMANOVA, R.ABDRIMOV

O`ZBEKISTON TARIXI (MA'RUZA MATNLARI)

Texnik muharrir: *K. Nazarov*

Kompyuter muhandisi: *G. Jumanazarov*

Bosishga ruxsat etildi: 5.09.2006 й.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$

Adadi: 50 Buyurtma № **63**

Bosma tabog`i: 13,7

Times garniturası

Bahosi shartnoma asosida.

UrDU bosmaxonasi rizografida chop etildi

Manzil: Urganch shahri, H.Olimjon ko`chasi,

14-uy, tel.: 22-4-27-58.

20074 cen

